

ZAF. TAXIROV

BOSQICHLARI

NASHR JARAYONI
ASOSIY
BOSQICHLARI

"Tafakkur Bo'stoni"
Toshkent - 2015

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Z.T. TAXIROV

**NASHR JARAYONI
ASOSIY BOSQICHLARI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan 5A220104 - "Noshirlik ishi va muharrirlik" ixtisosligi
magistrantlari uchun darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan*

"TAFAKKUR BO'STONI"
Toshkent - 2015

UO‘K: 655.3(075)

76.17

T28

Taxirov Z.

Nashr jarayoni asosiy bosqichlari [Matn] : darslik / Z.T. Taxirov – Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2015. -272 b.

KBK-76.17ya73

Ushbu darslik SA220104 – “Noshirlik ishi va muharrirlik” ixtisosligi bo‘yicha magistrantlarga mo‘ljallangan. Darslikdan 1-bosqich magistrantlariga “Nashr jarayoni asosiy bosqichlari” fanidan ma’ruzalar o‘qish, amaliy mashg’ulotlar olib borishda foydalaniladi. Darslikda hozirgi nashriyot-matbaa ijodiy uylarida kitob nashri jarayonidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladigan ishlar va ulardagi muharrir ishtiroti, shuningdek badiiy ijod bilan tanishadilar.

Darslik magistrantlar, soha izlanuvchilari uchun va ilmiy tadqiqot ishlarida ham foydadan hoti emas. Shuningdek, darslikdan nashriyotlar, ommaviy axborot vositalarining tahririylarida qo‘lyozma matni ustida ishlovchi muharrirlar va amaliyotchi jurnalistlar ham foydalanishlari mumkin. Bundan tashqari universitetlar va pedagogika institutlari filologiya fakultetlari bakalavriant va magistrantlariga ham mo‘ljallangan.

Taqrizchilar: Qudrat Irnazarov – tarix fanlari doktori

Azim Babaniyazov – filologiya fanlari nomzodi,

Mas’ul muharrirlar:

Mahliyo Mirsoatova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Ravshan Omonov – O‘zMU Adabiy tahrir ilmiy maktabi

rahbarining o‘rinbosari, magistratura
rahbari

ISBN - 978-9943-4546-2-0

© “Tafakkur Bo‘stoni”, 2015

© Z.T. Taxirov, 2015

© Um - Ziyo nashriyot uyi

KIRISH

Nashr jarayoni deganda, bugungi kunda, kitobshunoslik sohosidagi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan, qonuniy ketma-ketlikka egn bosma nashrn ni tayyorlash va chop etish ishlari tushunindi. Tor ma'noda tayyor qo'lyozmaning nusxasini ko'paytirish unglushiladi. Har holda matn bosish dastgohi ixtiro qilingunga qador kitobat ishi shunday bo'lgan. Noshirlik ishida texnika va texnologiyaning rivoji mazkur jarayonni muayyan bosqichlardan tashkil topishiga olib keldi. O'tmish tajribasini umumlashtirgan holda bugungi kun noshirlik ishi nashr jarayonini aniq belgilab, mushriyotlarning adabiy asar chiqarishini tashkillashtirishdagi faol ishtiroki alohida ta'kidlanadi. Bundan tashqari bosma nashrlar chiqarishdagi muharrirning o'rni va ahamiyati yuksak baholanadi. Nashr jarayonining boshlanishi mavzuli reja tuzish bo'lsa, kitobni turqatish va kitobga jamiyatning baho berishi yakunlovchi bosqich hisoblanadi.

Nashr jarayonini umuman (xususan, bitta asarni chiqarish ham) to'rt bosqichga, shartli ravishda, ajratish mumkin.

Birinchi bosqichda – tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi, ya'ni muallif qo'lyozmani topshirgunga qadar mavzuli reja tuziladi. Bu bosqichda muharrir albatta mavzuli rejani tuzish va tasdiqlashda faol ishtirok etadi. U mavzu yuzasidan muallif bilan suhbatlashadi, muhokama yuritadi, bo'lajak kitob rejasi ustida ishlaydi. Muallif

taklifiga ko‘ra asar qismlari bilan tanishib chiqadi, ayrim muammolarni xal etish va kamchiliklarni to‘g‘rilashda muallifga ko‘maklashadi.

Ikkinchi bosqich – tahrir bosqichi muallif qo‘lyozmani nashriyotga taqdim etishdan, to uni ishlab chiqarishga topshirishgacha bo‘lgan ishlarni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda kitob taqdirini belgilovchi qarorlar qabul qilinadi: qo‘lyozmani nashrga tavsiya etish yoki rad etish masalasi hal etiladi. Qo‘lyozmani ichki va tashqi taqrizlash, shuningdek qo‘lyozmani nashrga tayyorlash amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich – ishlab chiqarish bosqichida, asosan kitob yaratish ishlari – bosmahonada amalga oshiriladigan texnikaviy ishlar bajariladi. Lekin bu ishlar muharrirning qat’iy kuzatuvi va nazorati ostida bo‘ladi. Zero muharrir sifatli mahsulot chiqish uchun nashriyotning eng mas’ul xodimidir.

To‘rtinchi bosqich – yakuniy bosqich, kitobni tarqatish va targ‘ib qilishdan iborat bo‘ladi.

Nashr jarayoni asosiy bosqichlarini noshirlik ishi va tahrir ixtisosligi bo‘yicha birinchi bosqich magistrantlariga o‘qitishdan maqsad, ularda nashr jarayoni haqida chuqur tushuncha hosil qilish, uning asosiy bosqichlaridagi muharrirning o‘rni va ahamiyati bilan tanishtirish va shu yo‘l bilan noshirlik ishi bo‘yicha malaka hosil qilishdir.

Muallif ijod laboratoriyasini o‘rganishning ahamiyati shundaki, bunda muayyan ijodchining ijodiy mahorati, qaysidir asari yoki asarlarining tili va uslubi yoritilibgina qolmaydi, balki ijodchining ijodchilik sohasidagi o‘rni ham ayon bo‘ladi. Bundan tashqari

muayyan adib yashab, ijod etgan davr, uning tashvishlari, muammlari, kemtikliklari, jamiyatning madaniy-ma'rifiy saviyasi, ijtimoiy ong darjasи, badiiyati, publitsistikasining nazariy masalalari – tarixiy syujet va manzara, estetik ramz, ijobiy, salbiy qohramon, ziddiyat, tasvir ranglari, badiiy, publitsistik tasvir usuli, vositalari ham ayon bo'ladi.

XXI asr boshlanishi bilan o'zbek ijodiyoti tarixinining XX asrdan keyingi yana bir yangi to'lqinli davri boshlandi deyish mumkin. Shu jihatdan biz badiiy ijodiyotda ham, publisistikada ham yangi tarixiy davrga qadam qo'ydik, XX asr birinchi yarmi o'rtalaridagi ijodiy harakat adabiy san'at va publisistikaning tur hamda janrlarini ko'p tomonlama yangilab, boyitib bergen bo'lsa, XX asr oxiri va XXI asr ilk yillarida mustaqillik tufayli ijod yangi bosqichga ko'tarildi, yangidan yangi ijod qirralari jilo taratishiga kuchli bir turki bo'ldi.

Tabiiyki, ijodiyot sohasida yangi avlodning paydo bo'lishi bilan yaqin yoki uzoq o'tmishdagi ijodiyot va / yoki ijodkor (yoki ijodkorlar)dan tarixan uzilish yuz beradi, vaqt o'tishi bilan bu uzilish tabora chuqurlasha boradi. Bu shubhasiz tabiiy jarayon.

Agar XX asr 27-37-yillarida badiiy ijodiyot va publisistik ijod sohasida Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Oybek va boshqalar, ta'bir joiz bo'lsa, buyuk uyg'onishni boshlab beruvchilar hisoblansa, XXI asr ijodiyotining ham o'z darg'alari bo'lishi shubhasiz. Yangi avlod vakillari ham yo'q yerdan paydo bo'lmaydi, o'z-o'zidan ijod cho'qqisini zabit etolmaydi. XX asr o'zbek adabiyoti, publisistikasi yorqin namoyondalarining ijod laboratoriysi bilan tanishib, an'analarini davom ettiribgina yangi-yungi yuksalishlarga erishishlari mumkin.

Shu ma'noda yaqin o'tmishda o'zining badiiy ijodi, publisistik asarlari bilan yangi ijodiyot ufqularini ochgan adiblar Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom va boshqa ijodkorlarning elga manzur asarlarini o'rghanish asosida, ular ijod laboratoriyasidan bahramand bo'lish foydadan holi bo'lmaydi, bu ayniqsa, bo'lajak jurnalistlar uchun muhimdir.

I QISM

NOSHIRLIK ISHI

1-BOB.

NASHRIYOTLAR VA NOSHIRLIK MUASSASALARI, NASHR TURLARI

- *Nashriyotlarning mustaqillikkacha bo‘lgan tuzilishi.*
- *Nashriyotlar ixtisoslashuvi.*
- *Birlashgan nashriyot.*
- *Nashriyotlar ichki tuzilishi.*
- *Qayta shakllanish.*
- *Yangi nom, yangicha faoliyat.*
- *Bozor iqtisodiyoti va noshirlik.*
- *Nashr jarayonida ishtirok etuvchilar.*
- *Nashr jarayonining barcha bosqichida muharrir ishtiroki.*
- *Nashr mahsulotlarining tuzilish tarxi.*
- *Noshirlik va kitobshunoslik.*

O‘zbekiston mustaqillikka erishgunga – 1991-yilga qadar nashriyotlar alohida yuridik shaxs hisoblangan. Bosmaxonalar ham mustaqil ishxona bo‘lgan. Bosmaxonalar barcha tur nashr mahsulotlarini ishlab chiqarsalar, nashriyotlar muayyan tur adabiyotlar chiqarishga ixtisoslashgan edi. Shunga ko‘ra nashriyotlar ular chiqaradigan mahsulotlariga ko‘ra farqlangan. Adabiyot turlari bo‘yicha keng ko‘lamli va ixtisoslashgan. Tasarrufidaligiga ko‘ra esa davlat, tashkilot (muassasa) va xususiyga ajraladi. Ilgari

(1991-yilgacha) “O‘zbekiston” nashriyotida bir necha tur – siyosiy, ommaviy-siyosiy, ilmiy-ommabop, iqtisodiy, falsafiy, tarixiy va xarbiy mavzulardagi, ma’lumotnomma adabiyotlar, shuningdek, kalendar, plakatlar chiqarilgan. “Ensiklopediya” nashriyoti faqat ensiklopedik (umumiyligi, sohaviy ensiklopediyalar, ensiklopedik lug‘atlar), “Fan” nashriyoti ilmiy adabiyotlar, “O‘qituvchi” nashriyoti o‘rtta maktab, o‘rtta maxsus va oliy ta’lim muassasalari uchun faqat o‘quv adabiyotlari chiqarar edi. Boshqa nashriyotlar ham to‘liq ixtisoslashgan bo‘lib, muayyan tur adabiyotlar chiqargan. Albatta, yuqoridagi tur tasnifimiz nisbatan shartli. Bundan tashqari qat’iy buyurtma asosida nashriyotlarda ixtisoslashuvi doirasiga kirmaydigan nashr mahsulotlari ham chiqarilgan. Adabiy asarlar chop etuvchi nashriyotlar bilan bir qatorda gazeta va jurnallar chop etadigan Birlashgan nashriyot ham faoliyat yuritgan. O‘zbekistonda nashr etiladigan barcha markaziy gazeta va jurnallarni chiqarish shu nashriyotning monopoliyasida edi.

Nashriyotlar asosan quyidagi tarkibiy qismlarga ega bo‘lgan:

- *kitob tahriri* bo‘limlari.
- *qo‘lyozmani ko‘chirib bosish* bo‘limi (*mashinkada yozuvchilar* bo‘limi).
- *grafika, rassomlar, badiiy tahrir* bo‘limi.
- *fotolaboratoriya*.
- *musahhihlar* bo‘limi.
- *kutubxona*.
- *ishlab chiqarish* bo‘limi.
- *reja-ia‘isod* bo‘limi.
- *buxgalteriya*.
- *kadrlar* bo‘limi.

– *yuridik xizmat*.

– *ma'muriy –xo'jalik bo'limi va boshqalar*¹.

Bugunga kelib nashriyotlarning tarkibiy bo'lim, bo'limmalari alohida olingen har bir muassasaning ish hajmi, nashrlar tavsifi, turi va boshqa ko'rsatkichlarga ko'ra belgilanadi. Nashriyot bo'yusunadigan tashkilot tomonidan tasdiqlanadi.

Bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tilgandan so'ng O'zbekistondagi barcha davlat tasarufigagi nashriyotlar, bosmaxonalar qayta tashkil-lashtirildi. Endilikda nashriyot, bosmaxonalar birlashib, aytish mumkunki, yirik ishlab chiqarish birlashmasi – nashriyot-matbaa ijodiy uylari yuzaga keldi. Ular yagona axborot-matbaa agentligi tasarrufiga o'tkazildi. Albatta, bunday yirik nashriyotlar o'ziga xos murakkab tuzilishga ega. Masalan, "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyiga umumiy rahbarlikni bosh direktor amalga oshiradi. Uning tarkibida bir nechta direktor o'rinnbosarlari, bo'lim boshliqlari va hokazo ma'muriy-boshqaruv xodimlari faoliyat ko'rsatadi.

Ixtisoslashuvidan qat'iy nazar ularda boshqa tur adabiyotlar ham chop etilmoqda. Xususan, ensiklopedik asarlar chiqarishga ixtisoslashgan nashriyot o'quv adabiyotlari, hatto badiiy asarlarni ham nashrdan chiqartmoqda. Nashriyot-matbaa ijodiy uylari tarkibida tijorat (kitob savdosi), reklama, marketing bo'limlari ham mavjud. Ba'zi nashriyotlarda ayrim mustaqil bo'limlar vazifasini maxsus xodim bajarmoqda. Kitob nashri bilan shug'ullanuvchi nashriyotlarda tahrir bilan shug'ullanuvchi bo'limlar asosiy tarkibiy

¹*'Bugungi kunda faoliyat olib borayotgan nashriyot-matbaa ijodiy uylari-dagi asosiy lavozimlar ro'yxati ilovada berildi.*

qism hisoblanadi. Bunday bo‘limlar adabiyot turlariga ko‘ra tashkil topgan bo‘ladi. Ba’zi shunday nashriyotlarda, masalan O‘zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyida ikkita bo‘lim faoliyat yuritadi. Biri ijtimoiy-gumanitar adabiyotlar, ikkinchisi tabiiy – texnikaviy adabiyotlar tahririga ixtisoslashgan. Albatta bunday paytda tuzilish, shakllanishlar davr talabi asosida yuz bermoqda. Buni bozor iqtisodiyoti taqozo etadi. Endilikda nashriyotlar mavzuli reja tuzishda bozor talabidan kelib chiqishi va shunga yarasha taklifni shakllantirishi kerak bo‘ladi.

Mamlakatimizda ilmiy-axboriy faoliyatni tashkil etishga alohida etibor qaratilmoqda. Ko‘pgina ilmiy-axboriy markazlar faoliyatini asosiy qismini noshirlik ishi tashkil etadi. **Ular** ko‘lami ancha keng. Ilmiy-axboriy sohadagi noshirlik ishi ikki xil xususiyatga ega. Birinchidan, barcha tahririyat – nashriyot bo‘limlari o‘z noshirlik faoliyatini tarkibiy qismi hisoblangan tashkilot topshirig‘iga asosan olib boradi. Ikkinchidan, ular faoliyatida tahririyat va bosmaxona ishlarini birlashtirgan holda o‘z imkoniyatlari asosida olib boradi. Biroq ular qo‘lyozmani tahririy jihatdan bosishga tayyorlashda noshirlik borasidagi an’anaviy tajribaga tayanadi.

Lavozimiga ko‘ra qanday atalishidan qat’iy nazar qo‘lyozmani nashrga tayyorlovchi xodim- muharrir nashriyotlarda bajariladigan ishni amalga oshirishi lozim.

Kitob nashri bilan shug‘ullanuvchi nashriyotlar tarkibiy qismlari ichida muayyan tur adabiyotga ixtisoslashgan bo‘g‘in asosiy tarmoq hisoblanadi. Masalan, badiiy adabiyotlar, ijtimoiy-gumanitar adabiyotlar, o‘quv adabiyotlari, ensiklopedik asarlar va boshqalar. Bugungi kunda turli muassasa va tashkilotlar tarkibida

tashkil etilgan axborot markazlari, reklama, nashriyot bo'limlari, tahrir bo'linni va boshqalarda ham bevosita matn ustida ishlash amalga oshiriladi. Albatta, bunday bo'lim yoki bo'linmalarda bevosita tahrir bilan shug'ullanuvchi xodimning bo'lishi tabiiy. Ularning vazifasi qo'lyozmani tahrirdan chiqarish hisoblanadi. Hamon shunday ekan, bular ishining asosini noshirlik ishi bo'yicha to'plangan ko'p yillik tajriba tashkil etadi. Lavozim jadvalida matn tahriri bilan shug'ullanuvchi xodim qanday atalishidan qat'iy nazar u nashriyotlardi muharrir vazifasini tugal ado etishi talab etiladi. Garchi biz yuqorida sanab o'tgan bo'lim va bo'linmalarda tahrir bilan shug'ullanish mavjud bo'lsa-da, bunga alohida-alohida to'xtalib o'tmaymiz. Biz kitob nashri bilan shug'ullanuvchi nashriyotlar faoliyatidagi asosiy jarayonlarga to'xtalib o'tamiz. Zero, mazkur jarayonlar to'lig'icha muayyan muassasa, tashkilot tasarrufidagi matn ustida ish olib boruvchi bo'lim va bo'linmalarning faoliyatiga ham to'la taalluqlidir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, noshirlik ishida muharrirlik kasbi yetakchi kasb hisoblanadi. U har qanday qo'lyozmaning muallifiga birinchi yordamchidir. Matnning birinchi o'quvchisi, uning tanqidchisidir.

Muharrir e'lon qilinishi kerak bo'lgan har qanday nashrning boshlanishidan to tugagunicha yo'naltiruvchi hisoblanib, uning taqdirini ko'p jihatdan hal etuvchi hamdir. O'z faoliyati mobaynida u adabiy til me'yorlari va uslublariga qat'iy amal qilishi, jamiyat nuqtai nazaridan kelib chiqishi shart. Mudom nashrning yuqori sifati uchun kurashish, har bir kitob, risola mazmun mundarijasiga ko'ra, kimlarga mo'ljallanganligiga ko'ra o'z ahamiyatiga to'liq

ega bo‘lishi uchun kurashish muharrirning muqaddas burchidir. Muharrir nashriyotning asosiy xodimi. Kitob chiqarish bilan bog‘liq, ya’ni muayyan asarning dunyo yuzini ko‘rishi bilan bog‘liq burcha jarayonlarda uning ishtiroki albatta zarurdir. Mohiyatan qiziqarli, mazmundor va kam uchraydigan muharrirlik faoliyati hamisha jamiyatda yuz berayotgan (alohida bir jamiyatdagina emas, balki butun dunyoda yuz berayotgan) siyosiy hodisalardan hamisha xabardor bo‘lish, fan, texnika va madaniyat sohasidagi yangiliklarni bilib borishi, o‘zida hayotiy hodisalarni idroklash, tablil qilish va umumlashtirish kabi jihatlarni tarbiyalashi lozim.

Kitobshunoslikdagi tarifga ko‘ra tahririyat-nashriyot ishlovidan o‘tgan, belgilangan tartibda nashr bildirgichiga ega, jamlangan ma'lumotni o‘quvchiga yetkazishga mo‘ljallangan poligrafik jihat-dan mustaqil o‘z shakliga ega bosma asarga nashr deyiladi.

Hozirgi zamон nashrlari favqulorra rang-barang, mazmun va shakliga ko‘ra turli-tuman. Ularning barchasini sanab chiqishning iloji ham, hojati ham yo‘q. Biz eng asosiy belgilariga tayangan holda 4 jihatga asosan farqlaymiz:

- *Tuzilganiga ko‘ra;*
- *Belgilar tabiatiga ko‘ra;*
- *Davriyligi va tuzilishiga ko‘ra;*
- *Qanday maqsadga mo‘ljallanganligi va ma'lumotlar tavsifiga ko‘ra.*

Nashr mahsulotlarining tuzilish tarxiga ko‘ra kitob, jurnal va varaqqa (plakatlar, bukletlar, gazeta va boshqalar) nashrlariga ajratish mumkin.

Belgilar tizimining o‘ziga xosligidan matniy, notali, xarita, tasvir va boshqalarga ko‘ra farqlanadi.

Davriyligiga ko‘ra nashr mahsulotlari turli tuman (davriy bo‘lmagan, davriy-davomiy nashrlar) va tuzilishiga ko‘ra bir marta nashr etiladigan, to‘plam, asarlar to‘plami, turkum va boshqalar.

Qanday maqsadga mo‘ljallanganligi va ma’lumotlar tavsiyi bo‘yicha muhim nashr turi bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi: rasmiy, ilmiy, ilmiy-ommabop, ommaviy-siyosiy, o‘quv, ishlab chiqarish, ma’lumotnoma, reklama, axboriy, adabiy-badiiy nashrlar.

Yuqoridagilardan tashqari yana nashrlarni kimgarga mo‘ljallanganligiga ko‘ra farqlash mumkin (bolalar uchun, o‘smirlar uchun va ko‘zi ojizlar uchun).

Nashrlarni tizimlashtirish kitobshunoslardan jiddiy tadqiqot ishlari olib borishni talab etadi. Zero, nashrlarning muhim belgilarini aniqlash o‘ta murakkab, ko‘p ilm va mexnat talab etadi. Noshirlik ishidagi tegishli terminlarni belgilash ham mashaqqatli ishdir. Masalan, nashr, kitob nashri, kitob, monografiya, ommaviy-siyosiy yoki ilmiy –ommabop nashr kabi so‘z va so‘z birikmalarining ma’no ifodasini aniq chegaralash qiyin kechmoqda. Kitobshunoslikning bu qismini rivojlantirish ishiga bizda hali-hanuz jiddiy kirishilganicha yo‘q.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. 1991- yilgacha O‘zbekistondagi nashriyotlarning tuzilishi qanday edi?
2. Nashriyotlar ixtisoslashuvi ijobiyligi holmi yoki salbiy?
3. Mamlakatimizdagи ilmiy-axboriy faoliyat haqida nima bilasiz?
4. Noshirlik ishida qanday islohotlar olib borildi va borilmoqda?
5. Bugungi kunda faoliyat olib borayotgan qaysi nashriyotlarni bilasiz?
6. Nashr jarayonining asosiy bosqichlari haqida nima bilasiz?
7. Hozirgi zamон nashr turlari qanday farqlanadi?
8. Davriy va davriy bo‘limgan nashrlarning farqi nimada?

2-BOB

NASHR JARAYONIGA TAYYORGARLIK BOSQICHI

1-§. Mavzular bo'yicha reja

- *Mavzuli reja tuzish.*
- *Mavzuli reja nashr jarayonining mas'uliyatli bosqichi.*
- *Yordamchi mavzuli rejalar.*
- *Istiqlabotli reja.*

Har qanday ishlab chiqarish va madaniyat muassasasi singari kitob nashr etish ishi, ya'ni noshirlik ishi ham muayyan reja asosida boradi.

Mavzuli reja nashriyotlar ishini, umuman, uning butun faoliyatini belgilashning asosi hisoblanadi. Shunga ko'ra mavzuli rejalashtirish hamisha puxtalikni talab etadi. Mavzuli rejani shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin. Joriy yil uchun tuzilgan va istiqbolli. Har ikkisi ham nashrlar ro'yxatidan iborat bo'ladi, ular ma'lum vaqt mobaynida chiqariladi, rejada nashrning qisqacha tavsifi (annotasiya) bo'ladi, chiqarilish muddati ko'rsatiladi.

Mavzuli reja tuzish nashr jarayonining ilk va mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi, bu o'ziga xos jarayon bo'lib, ta'bir joiz bo'lsa, hozirgi zamон nuqtai nazaridan uni biznes rejaga tenglashtirish mumkin. Zero u nashriyotlar ishining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. U kitob chiqarishda amalga oshiriladigan barcha ishlar aniq va takomillashtirilgan bo'lishining garovidir. Bundan tashqari, u asossiz takrorliklar va bir xildalikning oldini oladi, moddiy-texnika va moliyaviy imkoniyatlardan, eng zamonaviy texnologiyalardan tejamli foydalanishning imkonini beradi.

Mavzuli rejani tuzish yaxshi yo'lga qo'yilgan taqdirdagina (ya'ni pishiq-puxta tuzilgan biznes reja asosida) ham davlat, ham jamiyat, ham keng auditoriya uchun dolzarb bo'lgan nashrlarni chiqarishga erishish mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda biz yuqorida qayd etganimizdan tashqari yana yordamchi mavzuli rejalar ham mavjud, ya'ni istiqbolli, joriy reja-dan tashqari tahririy-tayyorgarlik ishlari rejasi va adabiyotdarning chiqarilish (har bir nazarda ko'zda tutilgan muddat – uch oyda, birinchi yarim yilda, ikkinchi yarim yilda va h.) rejasi.

Istiqbolli reja asosan yaqin kelajak – 3 yoki 5 yilga mo'ljallab tuziladi. Lekin ba'zi nashrlar borki, masalan, ko'p jildli izohli lug'atlar, universal ensiklopedik nashrlar, ancha uzoq – 10-15 yil va undan ortiq davrlarga mo'ljallangan bo'ladi.

Istiqbol rejasidagi nashrlar ko'p jildli hisoblanadi, tarlangan asarlar, ilmiy ishlar, shuningdek turkum nashrlar shular jumlasidandir.

Bunday nashrlar ko'p mehnat talab nashrlar bo'lib, mualliflar, tarjimonlar, muharrirlar va boshqalarning uzoq muddatli xizmatlarini talab etadi.

Nashriyot kelgusida amalga oshirishi kerak bo'lgan istiqbol rejasি asosida joriy yil, uch oyga, yarim yilga mo'ljallangan tahririy-tashkiliy ishlар rejasi tuziladi. Unda nashrlar nomi ko'rsatiladi, ularning chiqarilish muddati belgilab qo'yiladi. Mazkur rejaga ko'ra nashriyotlar joriy hamda undan keyingi yillarda kitoblar chiqarilishini ta'minlaydi. Nihoyat adabiyotlar chiqarish rejasi tuziladi, u bir yil davomida chiqariladigan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida nashriyot mavzuli rejasi talab va tukliflar, shuningdek, mualliflar buyurmasi asosida tuziladi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Mavzuli reja nima va u qanday tuziladi ?
2. Mavzuli rejadan tashqari yana qanday rejalar bor ?
3. Yordamchi mavzuli reja nima uchun kerak?
4. Istiqbolli reja nima uchun tuziladi?

2-§ Mavzuli reja tuzishda muharrirning ishtiroki.

- *Mavzuli reja tuzishda ishtirok etuvchilar.*
- *Mavzuning dolzarbligi.*
- *Ijtimoiy zarurat va mavzuli reja.*
- *Nashrlarda maqsadga muvofiqlik.*
- *O'quv adabiyotlari nashri.*
- *Nashrning chiqish muddatini belgilash.*
- *Nashriyotning ilmiy-ijodiy muassasalar bilan hamkorligi.*
- *Mavzuli reja tuzishda muharrir mas'uliyati*

Tabiiyki, mavzuli reja tuzish murakkab ijodiy jarayondir. Mazkur jarayonda muharrir muhim o'rinni egallaydi. Mavzuli reja tuzishdek mas'uliyatli vazifani uddalash uchun muharrir rejaga kiritishga mavzularni tanlay bilishi, mualliflar orasidan belgilangan mavzuni chuqur yoritib bera oladigan, ilmiy salohiyati, ijodiy qobiliyatini yuksak bo'lganlarini tanlab olishi, rejaning bajarilishi ustidan nazorat qilishi va nashriyot oldiga qo'yilgan vazifa bajarilishining uddasidan chiqishi lozim.

Avvalo, shuni aytish joizki, kitob qanday muvaffaqiyat qozonishi tanlangan mavzuning qanchalik dolzarbligiga bog‘liq. Tom ma’nda mutaxassisona bajarilgan ish ham, agar dołzarblik kasb etmagan, jamiyat hayotidan uzoq, ijtimoiy qimmati past bo‘lsa, e’tiborsiz qolishi, talabgorsiz asar bo‘lib qolishi ehtimoldan yiroq emas. Keng ma’noda oladigan bo‘lsak, faqat adabiy asar mavzusigina emas, balki vaqtli matbuot – gazeta, jurnallar, radioeshitirishlar, teleko‘rsatuvlarning mavzulari ham puxta tanlanishi kerak. Aks holda ular auditoriya talabgorligidan mahrum bo‘ladi. Shunga ko‘ra har bir mavzu, u e’lon qilish uchun mo‘ljallangan ekan, puxta tanlanishi, xalqimiz iborasi bilan aytganda, etti o‘lchab bir kesilishi lozim. Mavzu haqiqatan ham xoh pragmatik, xoh istiqbolli bo‘lsin, jamiyat uchun muhimmi yoki yo‘qmi ekanligini har bir muharrir reja tuzishda bosh mezon qilib olishi kerak.

Mavzuning dolzarbliji asarning ma’naviy-ma’rifiy, siyosiy, ilmiy, iqtisodiy, madaniy hamda tarbiyaviy ahamiyatiga ko‘ra belgilanadi. Dolzarblikni bunday belgilash hali to‘laqonli ta’rif deb bo‘lmaydi. Garchi yuqoridagi ta’rif va tavsiflar uyg‘unligi, izoh talab qilmasa-da, bari bir nisbiy hisoblanadi. Madaniyat va xalq xo‘jaligi sohasining ko‘lami masalani har doim ham to‘liq qamrab ololmaslik mumkinligini eslatib turadi. Shuning uchun muammoni madaniy, xalq xo‘jaligi yoki ilmiy ahamiyatga ko‘ra ko‘lami bir qarashda tuyulganidek aniq-tiniq bo‘lavermaydi.

“Dolzarblik tushunchasi”ning o‘zi, ma’lumki, ancha mifrakkab. To‘g‘ri, dolzarblik tushunchasi ko‘p hollarda “zamonaviy” degan tushunchaga to‘g‘ri keladi yohud yaqinlashadi. Masalan, tariximiz, buyuk ajdodlarimiz xususidagi mavzular bugungi kunda biz uchun,

shubhuisiz, dolzarbdir. Lekin shu bilan birga buyuk tariximiz bilan cheksiz faxrlanganimiz holda buyuk kelajakni ham barpo qilish kuni dolzarb emas.

Xo'sh, aytingchi, mustaqillikka erishish arafasidagi, mustaqilligimiz e'lon qilingandan keyingi ilk yillar haqida bugun qancha va nimalarni bilamiz. Hali bilmaganlarimiz qancha, ularni bilish dolzarb emasmi?!

Yosh avlodning tarbiyasi, ta'lif yo'lida davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, yuksak ma'naviyat yengilmas kuch ekanligini jamiyatimizning har bir a'zosi ongiga singdirish uchun bo'lgan, bo'layotgan harakatlar-chi, dolzarb emasmi?

Buyuk ajodolarimiz Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Temur-
larning faoliyatini ilmiy tadqiq etish bilan masala hal bo'lmaydi.
Bugungi yoshlарimizни о'shalarga munosib yurtparvar bo'lib yeti-
shishlari uchun barcha ishlarni amalga oshirish bugungi kunning
ustuvor vazifalaridan hisoblanmaydimi?

Bugungi kun fanida, ta'lifnida, xususan, zamonaviy jurnalistikamizda ularni yanada takomillashtirish, rivojlantirish kuchli za-
rurat emasmi?

Biz ayrim mavzulargagina to'xtaldik. Shuni alohida ta'kidlash o'rinniki, boshqa sohalarga **nazar** tashlansa, muharrir, albatta,
ahamiyat borasida yuqoridagilardan qolishmaydigan dolzarb
mavzularga duch kelishi tayin. Ular ham juda o'ziga xos va
murakkabdir.

Kuchli huquqiy davlatdan, kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tishni
yanada rivojlantirish borasida davlatimiz olib borayotgan siyosat
dolzarblikni belgilashda bosh mezon hisoblanadi.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov Respublika Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrdagi qo'shma yig'ilishida jamiyatni yanada rivojlantirish xususida ilgari surgan konsepsiya bugungi kunda xalqimiz oldida turgan eng dolzarb masalalarni qamrab olgan. Mazkur konsepsiya jamiyatimizni har tomonlarna rivojlantirishning, ta'bir joiz bo'lsa, keng va yorqin yo'lidir.

Ilmiy kitoblar mavzusining dolzarbligini belgilovchi mezon unda bayon etilgan nazariy fikrlarni zudlik bilan amaliyatga tadbiq etish hisoblanadi.

Nashr etiladigan kitobning maqsadga muvofiqligi – alohida masala hisoblanadi. Muayyan nashrning maqsadga muvofiqligi muammosini to'g'ri hal etish bir qator masalalarni hal etish bilan bog'liqdir. Avvalo shunday nashr o'z nashriyotida yoki boshqa nashriyotda so'nggi ikki-uch yil ichida nashr etilgan yoki etilmaganligi aniqlanadi. Ikkinchidan, bozordagi talab o'r ganiladi. Uchinchidan, mazkur mavzu bo'yicha kitob nashr etish joizni yoki broshyura chiqarish ma'qul ekanligi ko'rib chiqiladi. To'rtinchidan, shunga yaqin mavzuda adabiyot e'lon qilingan, qilinmaganligi aniqlanadi. Mazkur masalaning yana bir muhim tomoni bo'lib, mazkur mavzu bo'yicha alohida nashr-kitob yoki broshyura chiqarish kerakmi yoki yo'qligini hal etish hisoblanadi. Ko'pincha amaliy faoliyatda – ilmiy adabiyotlar nashr etish sohasida shunday hol kuzatiladi – mavzu ilmiy qimmatga ega va yashashga haqli, lekin kitob chiqarish maqsadga muvofiq emas. Axir kitob olimning mehnatini qayd etish va targ'ib qilishning yagona vositasi emas-ku? Tadqiqot xususida ilmiy jurnalda berilgan xabar yetarli bo'lishi

mumkin. Faqat ilmiy ish alohida qimmatga ega va jamiyat ehtiyoji uchun mos kelsagina kitob bo‘lish uchun to‘la asosli hisoblanadi. Shundagina kitob xaridorgir bo‘ladi, iqtisodiy jihatdan ham o‘zini oqlaydi.

Muharrirning o‘z ishining bilimdoni – yetuk mutaxasisligi, mu shunday mavzuni va mavzuga mos shaklni topa bilishda ayon bo‘ladi. O‘quv adabiyotlarni nashr etish ham alohida mas’uliyatni talab etadi. Har qanday o‘quv adabiyoti, u yangi yaratilgan bo‘ladimi, qayta nashr bo‘ladimi, albatta, o‘quv dasturiga mos bo‘lishi lozim. O‘quv dasturi esa bugungi kun axborot globallashuvi, axborot ayirboshlash zudligi hisobga olinadigan bo‘lsa, ko‘pi bilan uch yilda tugal yoki qisman yangilanishi, to‘ldirilishi zamon talabiga uylangan. O‘quv adabiyotlarini tahrir qilishga ixtisoslashgan muharrir ta’lim sohasidagi mazkur jarayonni muntazam kuzatib borishi va yangilanishlardan xabardor bo‘lishi darkor. Aks holda mehnati samarasiz ketadi, bunda faqat iqtisodiy jihatdan emas, balki, eng asosiysi, ta’lim sohasi yaxshigina ma’naviy zarar ko‘radi.

Nihoyat, muayyan mavzu bo‘yicha kitob nashr etish mumkinligi masalasiga to‘xtalamiz. Ko‘pincha, amaliyotda shunday ham bo‘ladiki, shoshrma-shosharlik bilan mavzu rejaga kiritiladi, belgilangan muddat ichida kitob chiqadimi, yo‘qmi ekanligi o‘ylab ham ko‘rilmaydi: ishga kirishib, qo‘lyozmani muallif o‘z vaqtida nashriyotga topshira oladimi; mo‘ljallangan nashrni chiqarish uchun nashriyot moliyaviy va moddiy-texnikaviy imkoniyatga egami; kitob foyda keltiradimi; taklif bilan talab mos keladimi; bu va boshqa shu kabi savollarni, albatta, oldindan oqilona hal etish, har qanday ishni amalga oshirishda ko‘ndalang turadigan

tavakkalchilik (risk)ni eng kam darajaga keltirish uchun muharrir bozor iqtisodiyotini yaxshi biladigan – marketolog sifatida yuqoridagi savollarga javob topa bilishi kerak.

Nashr o‘z vaqtida chiqishini ta’minlash uchun muharrir kitob ustida ishlovchi barcha bo‘linmalar fikrini bilishi, so‘ng nashrning chiqish muddatini belgilashi maqsadga muvofiqdir.

Mavzuni rejaga kiritishda, shu mavzu bo‘yicha muallifni to‘g‘ri tanlay bilish nashr muvaffaqiyatining garovidir.

Muallifga, uning bilimiga, tajribasiga, ijodiy imkoniyatiga ko‘p narsa bog‘liqdir. Nashriyot ishni o‘z vaqtida olishi, qo‘lyozma asar oldiga qo‘yiladigan barcha talablarga to‘liq javob bera oladimi, o‘z o‘quvchisini qanoatlantiradimi va hokazolar barchasi, avvalo, muharrirning malakasiga bog‘liq bo‘lib, kitobning taqdirini uning xulosasi hal etadi. Muharrirning fikri nashriyotning fikri hisoblanadi. Uning fikriga ko‘ra asar ishlab chiqarishga qabul qilinishi yoki rad etilishi yoxud qayta ishlash uchun muallifga qaytarilishi mumkin.

Shuni ta’kidlash o‘rinlik, mavzuli rejalashtirish, faqat mavzuni belgilash emas, balki, mavzuni kim (muallif) qiyomiga yetkizib, ochib berishi xususidagi masalani qoniqarli hal etish hamdir. Shundagina talab darajasidagi kitob yoki broshyura dunyo yuzini ko‘radi. Bunda muvaffaqiyat bir qator vaziyatlarga bog‘liqdir. Avvalo, nashriyot ilmiy tadqiqot va ijodiy muassasalar bilan o‘z hamkorligini qanday yo‘lga qo‘yganligiga, qolaversa, hammualliflik qiluvchi mualliflar jamoasi bilan munosabatiga (ayniqsa ensiklopedik hamda davriy nashrlarda) bog‘liq. Barcha nashriyotlar, tahririylarning muhim vazifasi bo‘lib, mualliflar davrasini tobora kengaytirish, yangi, yuksak saviyali mualliflarni

topni bilish va ishga jalb etish, hatto, tarbiyalab yetishtirish hisoblanadi. Noshirlik ishidagi muvaffaqiyatni mualliflarning ijodiy imkoniyatlarini o'rganish bo'yicha muntazam olib boriladigan ishlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Muallif sifatida kimni tanlash kerak degan masalani hal etishdagi sobitlik, talabchanlik, har qanday sub'yekтивликни istisno etish ishning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Ko'p yillik tajribadan shu narsa ayonki, agar muallifga nisbatan talabchan bo'linmasa, u o'z bilganini qilishga yo'l qo'yilsa, xom-xatala ishiga parvosizlik bilan qaralsa eng malakali muharrirni ham muvaffaqiyatsizlik kutadi.

Muharrirning vazifalaridan biri bo'lib, yuqorida qayd etilgani-dek, mavzuli rejaning bajarilishi hisoblanadi. Bu eng muhim va oddiy bo'lмаган topshiriqdir. Ishning murakkabligini hozirgi bozor iqtisodiyoti munosabatlarining o'ziga xos qonuniyatlari, ya'ni ob'yektiv sabablar, shuningdek, sub'yekтив omillar bilan izohlash mumkin. Lekin bir narsa aniq-ravshan, u ham bo'lsa ma'lum reja (ta'bir joiz bo'lsa, biznes reja) bajarilishi shart.

So'nggi yillarda matbaa bilan ijodiy ish bir butun ishlab chiqarish ob'yektiga aylantirildi. Nashriyotlar muayyan sohaga ixtisoslashuvi tugatildi, endilikda ular ko'p sohaviy (universal) nashriyot-matbaa ijodiy uylariga aylantirildi. Buning natijasida muharrir, endilikda nashr barcha jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Mavzuli reja bajarilishi uchun noshirlikdagi barcha ishlab chiqarish va ijodiy jarayonni muharrir aniq tasavvur eta oladigan bo'lishi endi davr taqozosidir.

Demak, mavzularga ko'ra rejorashtirish – muharrirning mas'uliyatli vazifasidir. Rejaga kiritish uchun mavzu izlash, topish va

saralash, muallif tanlash, reja muhokamasining turli bosqichlarida ishtirok etish hamda rejaning bajarilishini nazorat qilish muharrir ishtirokining mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Mavzuli rejalashtirish noshirlik faoliyatining o'zagini tashkil etadi. Muharrir buni yaxshi tushunishi kerak.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Mavzuli reja tuzishda kimlar qatnashadi?
2. Mavzuning dolzarbliji nimalarda ko'rinadi?
3. Nashrning maqsadga muvofiqligi qanday belgilanadi?
4. Mavzuli reja amalga oshishi asosan nashriyotning qaysi xodimiga bog'liq va u qanday mutaxassis bo'lishi kerak?

3-§ Nashriyot va muallif munosabati.

- *Muallif tanlash.*
- *Nashriyot – muallif shartnomasi.*
- *Nashr turi va janrini belgilash.*
- *Nashr muhokamasida ishtirok etuvchilar.*
- *Qayta nashrlar, ularni chop etish.*
- *Noshirlik va mualliflik huquqi.*

Nashriyotning muallif bilan dastlabki ishlari deganda qo'lyozmani nashrga qabul qilish va tayyorlash jarayonidagi hamkorlik tushuniladi. Rejada ko'zda tutilgan mavzu va mavzu yo'naliishiga asoslanib nashriyot dolzarb (yaxshi) asar yaratishga qobil mualliflarni taklif etadi. Nashriyot tushgan taklif va qo'lyozmalar (mualliflar tashabbusi bilan nashriyotga kelganlar) ni e'tiborga oladi, shuningdek, zarur, qayta nashr masalalarini ham unutmeydi.

Nashriyot muallif bilan shartnomaga tuzgunga qadar u bilan suhbatlashadi, asar yaratish rejasi bilan tanishadi, zarurat taqozo etsa, asarning bir qismi yoki bobini taqdim etishni so'raydi va u bilan tanishib chiqadi.

Muallif bilan dastlabki qilinishi kerak bo'lgan ishlari sirasiga, nashr turi va janrini aniq belgilash, asarni o'quvchilar (foydalanuvchilar) doirasini, bozor talabini aniqlash, o'rganish ham kiradi. Eng muhim nashr shu tur yoki mavzui yaqin turdag'i nashrlardan nimasi bilan farqlanadi, adabiyot olamiga nima yangilik beradi, shularni uniqlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Dastlabki ishlari mualliflar jamoasi – ilmiy tadqiqot va boshqa muhokama bilan ham olib boriladi, vaholanki, shular nashriyot g'ifti (medniyot orqali) va o'z nomidan asarlarini chiqaradilar.

Albatta, bu ishlari bir qurashdu mayda-chuyda, arzimasdek tuyulsurdu, lekin nashr jurnayonida o'ziga xos muhim jihat hisoblanadi. Zero, nashriyotga topshiriladigan qo'lyozmalar qanday tolablarga javob berishligi xususida "mijoz" larga ma'lumotlar yetkaziladi.

Qo'lyozmani nashrga tayyorlash borasidagi dastlabki ishlarni tahririyat (bo'lim) mudiri yoki muhartir olib borishi yoki nazorat qilishi maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, asarni nashr rejasiga kiritishda yoki uni tahririyligi jihatdan tayyorlash uchun muharririga biriktiriladi, ana shundan boshlab u nashrga yetakchilik qiladi.

Nashr rejasining, yo'nalishining, ayrim qismi va boblarining muhokamasida tahrir hay'ati, sho'basi, jamoatchi muhartir, ilmiy muassasa, tashkilot, maxsus mutaxassislar ishtirot etishlari mumkin. Muallif talabnomasini dastlabki ko'rib chiqish muddati

uzog‘i bilan bir-bir yarim oyni tashkil etadi. Shu muddat ichida nashriyot mualliflarga qo‘lyozmani qabul qilish haqidagi taklifni qabul qilishi yoki qabul qilmasligi, o‘rganib chiqishligi yoxud rad etishligini ma’lum qiladi.

Mumtoz adabiyotlar va tarjima adabiyotlarni chiqarishdagi dastlabki ishlar ham o‘ziga xos xususiyatga ega.

Mumtoz asarlarni qayta nashr etish, chet tilidan asar tarjima qilish haqidagi masalani ko‘rib chiqish va uni mavzuli rejaga kiritish masalasini nashriyot mazkur asarlarni o‘rganib chiqgach, kamida ikkita taqriz olgach (taqriz ilmiy tashkilot, uyushma yoki mutaxassisdan olinadi) yoki uyg‘unlashtiruvchi markaz (kengash) tavsiyasiga asosan hal etadi.

Nashriyot shartnomasi muallifning nashriyot bilan kelishuv shakli hisoblanadi, unda tomonlarning huquqiy munosabatlari belgilab qo‘yiladi. Umuman, maqsadlar umumiyligi, tabiiyki, munosabatlar tavsifini, uning huquqiy tomonlarinigina emas, balki nashr jarayonlarining barcha bosqichlaridagi ijodiy hamkorlikni ko‘zda tutadi.

Nashriyot va muallifning huquqlari, majburiyatları, noshirlik va mualliflik huquqlariga zid holatlar qonunchilik hujjatlarida aniq chegaralab qo‘yiladi.

Nashriyotning muallif bilan dastlabki ishlari nashriyot-tahririyat ishi tavsifiga ega bo‘lsa-da, muhim ahamiyatga molik. Chunki u muharrirning kelgusida muallif bilan ijodiy hamkorligining garovi hisoblanadi, demak, to‘laqonli asar dunyoga kelishiga sabab bo‘ladi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Nashriyot o‘z faoliyati muvaffaqiyatini ta’minlash uchun kimlar va qanday tashkilot, muassasalar bilan hamkorlik o‘rnatishi lozim?
2. Nashriyotlar universallashuvi haqida nima bilasiz?
3. Nashriyot va muallif o‘rtasida shartnoma tuzilgunga qadar nimalar amalga oshirilishi kerak?
4. Qo‘lyozmani nashriyotga topshirish qanday shartlar bilan bog‘liq?

4. Muharrirning asar tarxi (rejası) ustida ishlashi.

- *Ayar tarxi ustida ishlash.*
- *Reja turlari.*
- *Asar tarxini baholash.*
- *Muharrir xulosasi.*
- *Enslklopedik asar tarxi.*
- *Darslik, o‘quv qo‘llanmalar tarxi.*

Nashriyotga muallif yoki mualliflar jamoasi tomonidan taqdim etiladigan hujjatni tarh deb atash mumkin. Unda mavzu ko‘rsatiladi, yaratilajak asar mundarijasi beriladi. Asar tarxini taqdim etish muallif bilan shartnoma tuzishning majburiy shartlaridan hisoblanadi. Mazkur hujjat ustida ishlash esa muharrirning nashr jarayonining tayyorgarlik bosqichidagi muhim vazifalaridan biridir.

Tahririyat amaliyotida asar tarxining ikki turi uchraydi: birinchiisi ijodiy talabnomalar, ikkinchisi – ayni tarhning o‘zi. Ijodiy talabnomalar – muallifning muayyan mavzu bo‘yicha kitob chiqarish

haqidagi nashriyotga taklifi. Bu muallif tashabbusiga ko'ra yuzaga keladi. Shunga ko'ra mazkur hujjatning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Mazkur hujjatda avvalo, o'ziga taalluqli ayrim ma'lumotlarni keltiradi: qaerda ishlaydi, ixtisosligi, adabiy, ilmiy qiziqishlari, avval qanday asarlar e'lon qilganligi, nima uchun mazkur asarni e'lon qilish, uningcha, zarur. Yuqorida aytilganlar ijodiy talabnomaning birinchi qismini tashkil etadi. Talabnomaning ikkinchi qismida esa asarda to'xtalib o'tiladigan, o'z yechimini topadigan va aks ettiriladigan asosiy masalalar birma-bir ko'rsatib o'tiladi.

Tarhning aynan o'zi esa (uni ba'zan istiqbolli reja, ba'zan shunchaki reja deyish mumkin) muallif tomonidan nashriyotning shakllariga ko'ra yoki kitob (broshyura)ning qabul qilingan ijodiy talabnomasi bo'lajak asar mazmun mundarijasи haqida atroflicha to'liq ma'lumot bera oladigan taqdirda tuziladi. Albatta, bu hujjat nashriyot talabi (taklifi)ga ko'ra tuziladi, zero nashriyot muallifning bilim saviyasi, dunyoqarashi, izlanishlari xususida ob'yektiv ma'lumotga ega bo'ladi. Shunisi ayonki, muallifning o'zi haqida yoki tanlagan mavzusida asar yaratishi maqsadga muvosifligini isbotlashi, nashriyot uchun muhim emas. Undan boshqa narsa – kitobning mavzuini va belgilangan maqsadini aniq ifoda etishligi, mufassal tuzilgan reja, tasvirlar beriladimi, agar beriladigan bo'lsa, ilmiy ma'lumotnoma apparatining tavsifini belgilash talab etiladi.

Asar rejasi tarhning asosiy qismini tashkil etadi. Lekin rejalar turlicha bo'ladi. Masalan, oddiy reja – bunda mavzuni ochib berishning asosiy yo'naliishlari, muhim jihatlari aytib o'tiladi.

Mufassal reja – bu reja uchun barcha asosiy masalalar bayonidan tashqari, juz'iy masalalar tafsiloti ham xosdir. Nihoyat, tezislari bilan mufassal rejada esa asosiy qoidalar sharti bo'ladi, bu – asar mazmuni, asosiy g'oyasini ancha to'liq tasavvur etish imkonini beradi. Tarh uchun so'nggi xususiyat eng maqbul hisoblanadi.

Xo'sh, muharrirning nashriyotda asar tarhi ustida ishlashi qanday natijaga olib keladi? Asosan, asarni baholashga. Bu shubhasiz, muhim va jiddiy e'tiborni talab etadi. Agar muharrir jiddiy tuzatishlar, qayta ishlashni talab etadigan tarhni ma'qullab qo'ysa, muallifni to'g'ri mo'ljaldan chalg'itgan bo'ladi, agar u tarh ma'qullangan, shuning uchun asarning asosi hisoblanadi desa haq bo'ladi.

Aur tarhini baholashda, birinchi galda uning mazmuniga e'tibor beriladi. Muallif o'z ijodiy niyatini amalga oshirishda bayonning qanday shaklini tanligan bo'lmasin tarh-hujjat asar g'oyaviy yo'milishl, toydalumiladigini metodologik usullar, mavzuni ochib berishlik qanday boshlanishi, materiallarni to'laqonli qamrab olishlik ko'luni haqidu yaqqol tasavvur berishi kerak. Ishning tuzilishi (turkibiy qismlari), asos (faktik) materiallar qay tartibda bayon etilishi, ulardan asosiy va ikkinchi darajali, o'rinali (muvaqqiyatli) farqlanganligi haqida mulohaza bildirilganligi ham ahamiyatga ega.

Tarh mazmuni bilan tanishish (mazkur hujjat garchi ancha qisqa tuzilgan bo'lsa-da) muallifning ijodiy (adabiy) salohiyatini ma'lum darajada baholash imkonini beradi. Agar zarurat paydo bo'lsa, nashriyot asar tarhini, mutaxassisiga taqriz uchun berishi mumkin. Keyinchalik ana shu mutaxassisni qo'lyozma bilan

tanishishi maqsadga muvofiqdir. Bunday amaliyot, albatta, o'zini oqlaydi, chunki nashriyot vakolatli, ishning mohiyatini anglagan holda ishga kirishish jarayonidayoq muallifga to'g'ri yo'nalishni tavsiya eta oladi. Agar mavzu ancha murakkab bo'lsa, asar tarhi tahririyat jamoasi tomonidan mutaxassis maslahatchilar ishtirokida muhokama qilinishi mumkin.

Tahririyot – nashriyot amaliyotida, tajribadan ma'lumki, muharrirlar asar tarhini tahlil qilishda, mufassal bo'limgan rejaga ko'proq duch keladilar. Odatda, u qism, boblar, ya'ni asar ruknları (sarlavhalar)ning ro'yxatidan iborat bo'ladi. Afsuski, har doim ham ruknlar (sarlavhalar) o'zi taalluqli qism mazmuni bilan mantiqan uyg'un bo'lavermaydi. Bunday hujjat, tabiiyki, muallifga qaytarilishi kerak. Muallif bunday vaziyatda o'z bo'lajak asarida yoritiladigan asosiy masalalarni tezislar tarzida taqdim etishi kerak bo'ladi. Agar muallif asar tarhini qayta ishlab topshirganida ham nashriyot talablarini qondira olmasa, unda u mazkur mavzu bo'yicha asar yozish uchun tayyor emasligini ko'rsatadi. Natijada asarni rejaga kiritish keyinga suriladi, shunda ham qoniqarli ma'lumot olinmasa rad etiladi.

Agar aksincha bo'lsa, ya'ni reja haddan tashqari kengaytirib yuborilgan, unda ikkinchi, uchinchi darajali faktlarga keng o'rinn berilgan bo'lishi ham ijobiyligi hol emas. Muallif bunda asosiy faktlarni to'liq ko'rsatmagan bo'ladi. Bunday vaziyatda muallifni ogohlantirish, xatoga yo'l qo'yilishini oldini olish muharrirning muhim vazifasi hisoblanadi. Ayrim asar tarhlarida qismlararo hajmiy mutanosibsizlik uchraydi. Muallif ba'zi masalaga ko'proq ahamiyat beradi va uni mufassal yoritishga harakat qiladi. Bunda

nashrning ayrim tomonlariga sub'yektiv yondashish kuzatiladi. Bunday hollarda muharrir muallifga har bir qism hajmini aniq belgilab olishni maslahat berishi kerak. Bundan tashqari undan boblarning birinchi yozilganini ko'rib chiqish uchun topshirishni iltimos qilish lozim.

Axri turhining tahlili va unga berilgan baho muharrir xulosasida o'z aksini topadi. Yuqoridagilardan muddao bir yoki bir necha muallif tomonidan yangi, o'ziga xos asar yaratilishidir.

Nashr mukaveoti, aytish kerakki, turli-tuman: darslik, o'quv qo'llumna, monografiya (burcha sohaga oid), ma'lumotnoma, ensiklopediya va bog'otlar, badiiy asorlar va hokazo. Ularning barchasi o'ziga xon xususiyatga ega. Bu nashrlarning barchasi, tabiiyki, o'z xususiyati bilan bosqichalaridan ijrolib turadigan tarh asosida yaratiladi. Aytaylik, enciklopedik mehnalar turli vazifusini so'zlik bajaradi.

Enciklopedik nashrdagi har bir termin (maqola sarlavhasi) haqida so'zlikda quyidagi mu'lumotlar bo'lishi kerak: maqolaning aniq nashrlykini; qisqacha imnotitsiyu (bundu, odatda, san sohasi, adabiy janr, turkiy dovr va h.); maqola nimu huqidaligi termindan aniq anglashilib turgo, imnotitsiyu berilmaydi; maqola hajmi belgilarda; bibliografiya berilishi yoki berilmayishi; maqolingu tasvir ilova qilinadimi yo'qmi; chizmalar, xomtaloi, suratlari, karta-chizmalar. Agar sarlavha quruq o'zi bo'lsa, qayndi maqolning havola qilinishi ko'rsatiladi.

So'zlikdu nashrning g'oyaviy yo'naliishi, fanlar tasnifi haqidagi mu'lumot, ma'lumotnomaning tuzilishi o'z aksini topadi. So'zlik tuzish ko'p mehnat va kunni talab etadi. Shunga ko'ra uni tuzishga hamishgi mas'uliyat bilan yondashish talab etiladi. Nashrning maqsad va vazifasini albatta hisobga olish zarur.

So'zlikka terminni tanlash uni tuzuvchilardan, muharrirdan yuksak malaka va tajriba talab etadi. Shundagina terminlar o'z o'mini topadi. Bu masalalarni hal etish tahrir hay'atidan ham yuksak mas'uliyat talab etadi. Mana shuning uchun ham so'zlikni tuzishda muhartirlar, mualliflar, muassasalar, ilmiy-tadqiqot institutlari, tashkilotlar ishtirok etadi. So'zlik mutaxassislar tomonidan taqrizlanadi, bundan tashqari, jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi.

Darsliklar tarhi o'ziga xos xususiyati bilan boshqalardan ajralib turadi. Bunday nashrlar rejasi bo'lib o'quv dasturi hisoblanadi. Darslik tarxida yana uning umumiy hajmi va ayrim qismlar har birining hajmi alohida ko'rsatiladi. Nashr qismlarining hajmi darslar, shu qismni tashkil etgan mavzuni o'rganishga ajratilgan soat miqdoriga asosan belgilanadi. Bulardan tashqari, agar, zarurat bo'lsa, tarxda, odatda, kitobda, qaysi qismlar majburiy (asosiy), qaysi qismlar ixtiyoriy (fakultativ)ligi qayd etiladi. To'plamlar (xrestomatiyalar), tazkira (antologiya)larning tarxi alohida talablar asosida tuziladi. Shunday nashrlarni tuzuvchilar materialni tanlash, ularni kitobda joylashtirishning tamoyilini tushuntirishadi. Shuningdek, to'plamlardagi har bir maqola (materialning) hajmini ko'rsatishlari shart.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Mumtoz va tarjima asarlar nashri qanday kechadi ?
2. Nashriyot va mualliflik xuquqi to'g'risida nima bilasiz ?
3. Asar tarhi nima ?
4. Asar tarhining tahlili nima uchun kerak, u bilan kim shug'ullanadi ?

5-§. Muallifning qo‘lyozma ustida ishlashi.

- *Asar qo‘lyozmasi ustida ishlash.*
- *Muharrirning muallifga ko‘magi.*
- *Muallifga yordamlashish shakllari.*
- *Asar qo‘lyozmasining kitobxonlar bilan muhokamasi.*
- *Muharrir chop etilajak asar muvaffaqiyatini ta‘minlovchi.*

Amit tuxi tasdiqdan o‘tgach va shartnoma imzolangach nashr jarayonining yana bir bosqichi, ya’ni muallifning qo‘lyozma ustida ishlash bosqichi boshlanadi.

To‘g‘ri, bu bosqichda qo‘lyozma ustida muallifning o‘zi ishlaydi, muharrirga taalluqli joyi yo‘q-ku, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Shuning uchun bu bosqichni nashr jarayoni tarkibiga kiritish uchun asos bormi, yo‘qmi ?

Bunga javob aniq. Ma’lumki, nashriyot-matbaa ijodiy uylari muallif bilan bosmaxona o‘rtasidagi pochta idorasi emas. Qo‘lyozmani oladi-yu, ishlab chiqarishga o‘tkazadi. Garchi bugungi kunda nushriyot bilan bosmaxona yagona ishlab chiqarishga (ham ijodiy, ham jismoniy) aylantirilgan bo‘lsa-da, nashriyot ijodiy faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tarkib muhim mafkuraviy, ijodiy vazifani bajaradi hamda barcha adabiy jarayonga ta’sir etadi.

Jamiyatning turli-tuman mavzudagi adabiyotlarga bo‘lgan chtiyojini o‘rganib, o‘z mualliflarining mohirona, zamona talablariga mos holda muloyimlik bilan yo‘naltirib turadi, ularga ham maslahatlar berib, ham amaliy ish bilan ko‘maklashib turadi. Muharrir shunday mutaxassischi, u qaysidir darajada muallifga ustozlik qiladi, yordamlashadi. Bu ishlarni u ayni kitob yaratishning muallifining qo‘lyozma ustida ishlash bosqichida amalga oshiradi.

Muharrirning asosiy vazifasi muallifga, ayniqsa, yosh ijodchilarga yordamlashishdan iboratdir. Mualliflik borasida oq-qorani tanigan, tajribali ijodchilar ham muharrir ko‘magidan o‘zini chetga ololmaydi, zero ular har qancha bilimdon bo‘lmasisinlar, boshqa sohaning malakali – mutaxassisidir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, muharrirning muallifga ko‘magi zinhor biror bob yoki biror qismini yozib berishdan iborat emas. Bunday ko‘mak “muallif uchun” foydadan ko‘ra ko‘proq zarar keltirishi tayin. Muharrirning muallifga ko‘magi maslahat tarzida do‘stona bo‘lishi lozim, chunki u adabiy asar yaratish, noshirlik texnikasi va texnologiyasini har qanday muallifdan ko‘ra yaxshi biladi. Muharrirning muallif bilan hamkorligining keng tarqalgan shakli suhbatdir. Suhbat chog‘ida ishning ayrim murakkab jihatlari, manbalar, asarning kompozitsion tuzilishi, qismalarning mantiqiy uyg‘unligi, sarlavhalar va matnning mazmunan tadrijiyligi, asar qismalarining mazmunan yaxlitligi, asarning tili va uslubi, xullas, amaliy muhim masalalar, muallifga qiyinchilik tug‘diruvchi noshirlik bilan bog‘liq muammolar hal etiladi. Muharrir muallifga nashrlardan, arxivdan, manbalardan, kutubxonalardan foydalanish yo‘llarini ko‘rsatadi.

Ba’zan suhbat jarayonida muharrir muallifning mo‘ljallangan ishini bajara olmayotganini, u ham asar yaratish uchun tayyor emasligini payqab qolishi mumkin. Ba’zan muallifning o‘zi men bu asarni (maqolani) nashriyot talabi darajasida tayyorlay olmayman, deb ochiq-oydin tan olishi mumkin.

Shaxsiy ish tajribamdan shu narsa ma’lumki, O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyotida ilmiy tahririyat mudiri

vazifasida ishlagan kezlarim universal ensiklopediyaning yangi nuslari birinchi jildini tayyorlash vaqtida bir qator mualliflarga ular ixtisosligi bo'yicha so'zlikdagi maqolalar tarqatildi. Shunda bir muallif "Afrosiyob" maqolasini men yozib berayin deb taklif etadi va o'zida ayrim, Afrosiyob (go'yo tarixiy shaxs emish) haqida bir qancha ma'lumotlarga ega ekanligini ta'kidlaydi. Men tahririyat mudiri sifatida mazkur maqola ensiklopedik tavsifda bo'lishi, unga so'zlikda ujratilgan belgi miqdori haqida ma'lum qilib, quyidagi mu'lumotlar berilishi maqsadga muvofiqligini bildirdim. Shartlar quyidagiicha edi:

1. Afrosiyob turkly shaxsmi?
2. Avestadagi Afrosiyob kim?
3. "Shohmoni"dagli Afrosiyob kim?
4. Tumurqanddagi qadimly munzilgoh, Toshkentdagli Mingo'rik nomi uchun Afrosiyob deb ham istagan, etimologiyasi qanday?
5. Turkly yozmni yodgorliklarda nima uchun Afrosiyob nomi uchunydi?
6. Alisher Navoiyning Afrosiyobga munosabati qanday?

Oradan bir haftalar o'tgach maqolani tayyorlashni o'z zimmasiga olgan muallif tahririyatga kelib, yuqoridagi barcha shartlar bo'yicha maqolani tayyorlay olmasligini bildirdi.

Maqolani kimga tayyorlatish uchun muallif izlay boshladim va oxiri bir to'xtamga keldim. Xullas, mo'ljalimizdagi, ya'ni deyarli talab darajasidagi materialga ega bo'ldik. Fikrimizning isboti uchun maqola matnini to'liq keltiramiz.

Afrosiyob-mifologik obraz. I. Avestoda Frangxrasyan deb atalgan. Avestoda A. shohlik ilohiy martabasi farn (xvarno) ni qo'lga kiritish uchun mifologik Varokasha dengizi tubiga tushishga ahd qiladi va bunda Anaxitadan yordam so'raydi. Lekin u bu iltimosni rad etadi. Frangxrasyan ust-boshini yechib dengiz tubiga 3 marta sho'ng'iydi, ammo harakati zoye ketadi. Avestoda u samarasiz harakat qilayotgan assonaviy obraz sisfatida namoyon bo'ladi. Bu mavzu "Avesto"dan "Shohnoma"ga ham o'tgan. Lekin Avestoning Eron podshohlari bilan jangga kirishuvi – ya'ni Eron bilan Turonning mifologik raqobati g'oyasi Avestoda yo'q. A.ning Eron shohlarining dushmani qilib ko'rsatish g'oyasi yozma adabiyotga birinchi bo'lib Firdavsiy "Shohnoma"si orqali kirgan. U Faridun (Traztaona)ning Tur ismli o'g'lidan tarqalgan shajaraga mansub. Otasining ismi-Tajang. Bu talqinda Firdavsiy zamoni uchun muhim bo'lgan turk davlatchiligi va eroniy davlatlar o'rtaida tarixiy yuzma-yuz turish – horbiy-siyosiy muholiflik o'z aksini topgan. Shu bilan A.ning ilohiy oliy baxt, hokimiyat ramzi-farn ilinjidagi mifologik shaxs qiyofasi tarixiylik kasb etgan. Mifologik tassavvurdan

o'sib chiqqan adabiy an'nana, ya'ni Avesto Turon podshohi degan tushuncha tusayli xalq orasida Samarqandning qadimiy qo'rg'oni, Toshkentdagi Mingo'rik xarobalari, Buhorodagi Romitan qo'rg'oni kabi yodgorliklarni uning nomi bilan bog'lash hanuzgacha saqlangan.

2. *Turkiy yozma yodgorliklarda A. epik qahramon To'nga alp Er (Yusuf Xos Hojib), Alp Er To'nga (Mahmud Koshg'ariyda) bilan bir shaxs qilib ko'rsatilgan. Bu qiyoslanish har ikki obrazni Turon bilan bog'liqligi tusayli yuzaga kelgan. Ba'zi olimlar (A. Abdurahmonov) A.ni tarixiy shaxs deb hisoblaydilar. Aslida A. va Alp Er To'nga miflari orasida katta tarixiy madaniy tafovut va anoxronizm mavjud. A. ibtidoiy tafakkurning mifologik hosilasi. Alp Er To'nga esa Turk davlatchiligi davrlarining umumlashmasi sifatida o'r ganilishi lozim.*

3. *Turkiy xalqlar bobokaloni, turkiylar podshosi, bahodir, Juhongir Qoraxoniyalar va Saljuqiylar o'z shajalarini A.dan boshlaganlar. Turli yozma manbalarda A haqidagi ma'lumot turlicha. Masalan, "Buxoro tarixi" (Narshaxiyda A. 2000 yil yashagan afsungar, kuyovi Siyovushning qotili, Romitan qal'asi bunyodkori va nihoyat, Siyovush qasosi uchun o'g'li Kayxusrav tomonidan o'ldirilgan deb ko'rsatiladi. (O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 1-jild, 517-518-b).*

Yuqoridagi misoldan ko'rindiki, muharrir, ilmiy tahririyat imadir to'g'ri qarorga kelgan.

Muallifga u asar ustida ish boshlagan ilk davrdayoq yordanishining boshqa shakli ham bor. Ayrim hollarda asarning ayrim

qismlarini shu kitob mo‘ljallangan o‘quvchilari auditoriyasida muhokamasini o‘tkazish foydadan holi bo‘lmaydi.

Aytaylik, bolalar uchun mo‘ljallangan asar kompozitsiyasi, bayon usuli, tili va uslubini to‘g‘ri tanlash uchun kitob mavzusi bo‘yicha uni o‘quvchilar bilan qo‘lyozma muhokamasini o‘tkazish tufayli muallif auditoriyani his etishga erishadi.

Muharrirning nashr jarayonining bu bosqichidagi ishslash shakli rejalashtirilgan nashr turiga, muallifning individual jihatlariga bog‘liq. Muharrir muallifdagi, ayniqsa, yozishishini endi boshlagan mualliflar bilan muloqotda bu jihatlarni albatta e’tiborga olishi lozim. Muharrir mazkur ish jarayonida muallifga yotig‘i bilan materialni tanlash, tajribali adiblar va jurnalistlar ijod laboratoriyasi bilan tanishish, noshirlik faoliyatiga oid ma’lumotnomalar bilan tanishib chiqish haqida maslahatlar berishi mumkin. Zero, u tavsiya etgan nashrlarda, odatda, muallifning huquq va majburiyatları, qo‘lyozmaning rasmiylashtirilishi bo‘yicha talablar, yozuvda harflardan foydalanish yo‘riqlari haqida ma’lumotlar bo‘lishi kerak. Muharrir uchun esdaliklardan foydalanishni tavsiya etishi ham mualliflarga ortiqchalik qilmaydi. Xullas, muallifni qo‘lyozmani nashriyotga topshirish uchun qanday tayyorlashning barcha shartlaridan, ya’ni qo‘lyozma qanday shaklda, ko‘rinishda taqdim etilishidan tortib, to jadvallar qanday tuzilishi, tavsiflar, chizmalar, portretlar qanday tayyorlanishi, joylashtirilishi, iqtiboslar izohi, havolalar va adabiyotlar ro‘yxati, bibliografik ko‘rsatgichlar qanday berilishi va boshqalardan xabardor qilishi kerak. Bu ishlar go‘yo ikkinchi, uchinchi darajadagidek tuyulsa-da, lekin jiddiy ahamiyatga molikdir.

Muharrirning yana bir muhim vazifasi muallif hali ishlashda davom etayotgan qismlar, boblar bilan tanishishdir. Yuqorida aytilganlarni amalga oshirish go'yo muharrirlik vazifalaridan emas-dek, bundan tashqari bularga muharrirning vaqt etmaydigandek tuyulsa-da, ammo muharrir vaqt topishi kerak, vaholanki, uning "zoye ketgan" bu vaqt keyinchalik ikki-uch barobar samara bilan qaytishi mumkin. Shunday qilib muallifning nashr jarayonining to'lniqouli a'zosi bo'lishi uchun imkon beruvchi muallif bilan muharrir minnosabati shakli yuzaga keladi. Bo'lajak kitobning inividuaqliyi esu ko'p jihatdan shunga bog'liqdir.

Tukorlash va muhokama uchun savollar

1. Durdil va ensiklopedik asur tarhi xususida nima bilasiz?
2. To'plum, antologiyalar turhini ta'riflang, boshqa asarlardan qanday farqqa ega?
3. Muharrir va muallif hamkorligi qanday shaklda bo'ladi?
4. Asarning birinchi o'quvchisi kim?

NASHR JARAYONINING TAHRIR BOSQICHI

1-§. Muallifdan qo‘lyozmani qabul qilish.

- *Muallif qo‘lyozmasiga qo‘yiladigan talablar.*
- *Qo‘lyozmani qabul qilish vaqtida asosiy e’tibor nimalarga qaratilishi zarur.*
- *Kitob apparati va unga qo‘yiladigan talablar.*
- *So‘z boshi va annotatsiya.*
- *Kirish maqola va so‘ng so‘z.*
- *Annotatsiya va unga o‘xshash unsurlar.*
- *Sharx va uning turlari.*
- *Qo‘lyozmani qabul qilishda ko‘rsatkichlarni tekshirish.*
- *Nashr bildirgichlar va ularga qo‘yiladigan talablar.*
- *Kitob apparatini tuzishda muharrir ishtiroki.*

Tahrir davri nashr jarayonining markaziy bosqichi hisoblanadi. Muallifdan qo‘lyozmani qabul qilish tahrir davrining boshlanishi bo‘lsa, qo‘lyozmani ishlab chiqarishga topshirish yakunidir. Nashriyotga kelgan qo‘lyozma bu bosqichda har tomonlama baholanadi, so‘ng loyiq deb ma’qullangach bosishga tayyorlanadi. Agar biz oldingi bobda ko‘rganimizdek, u bosqichda muharrirning faoliyatida tashkillashtirish, ko‘proq pedagoglik ustuvorlik qilgan bo‘lsa, mazkur bosqichda ishning ijodiy tomoni asosiylik kasb etadi. Lekin, shunda ham bu bosqichda tashkiliy, tahririy-texnik masalalar kam emas. Qo‘lyozmani qabul qilish shulardan biri hisoblanadi.

Qo‘lyozmani qabul qilish degani uni muallifdan qo‘lyozma solingan jildni olish-u, jovonga qo‘yish emas. Qo‘lyozmani avvalo, tahririyat mudiri, bosh mutaxassis (katta muharrir) qabul qilib oladi. Ba’zi hollarda esa ular topshirig‘iga ko‘ra yetakchi mutaxassis (muharrir) qabul qilishi mumkin.

Qo‘lyozmani qabul qilish bir qator vazifani bajarishni taqozo etadi. Avvalo, qo‘lyozmaning tayyorlanganlik sifatini baholash kerak. Qo‘lyozmaning matniy qismi, albatta harf terish texnikasi (bugungi kunda asosan kompyuterda) qog‘ozning bir tomoniga yozilgan bo‘lishi lozim. Qog‘oz bichimi – A4, ya’ni 210ga 297 mm. Har bir satr uzunligi 60-63 zarbga teng bo‘lishi, bir betda ular soni 30 dan oshmasligi shart, xat boshilar aniq qoldirilishi kerak.

Matuning to‘rt tomonidagi ochiq joy – chapda – 2,5-3sm, o‘ngda – 1-1,5sm, yuqorida – 2,5sm, quyida – 2sm belgilanadi. Nashriyotga qo‘ldu yozilgun qo‘lyozma yoki matn tavsiya etilishi mumkin, agar harflar maxsus yozuvni talab etsa, yoki qo‘lyozma lug‘at bo‘lib, alibosi mavjud bo‘lmasa. Qo‘lyozmadagi matematika, kimyoga oid formulalar, tenglamalar, tilshunoslik matnlari (transkripsiylar) va notalar ham qo‘lda yozilishi mumkin.

Qo‘lyozmaning bosh varag‘i (tituli)dan to so‘nggi varag‘igacha sidirg‘a raqamlanishi lozim. Har bir betda bitta raqam qo‘yiladi, qo‘sishimchalar (21a, 21b) bo‘lmaydi. Umumiy betlar soni bosh varaqda, yuqori o‘ng burchakda (260 b) ko‘rsatiladi.

Agar qayta nashr bo‘lsa, unda oldingi kitobning har bir betini alohida, alohida varaqqa elimlab topshiriladi. Qo‘sishimchalar albat-ta terilgan va tegishli o‘ringa ilova qilinib, varaqqa elimlangan bo‘ladi. Muallif qo‘lyozmani ikki nusxada – biri elektron talqinda, ik-kinchisi uning qog‘ozdagi matniy talqinida taqdim etiladi.

Yana bir muhim talab – qo‘lyozmaning kam-ko‘stsiz to‘liq bo‘lishi, ya’ni unga ilova qilingan shartnomadagi, shuningdek, unga qo‘shib topshiriladigan tarxdagi talablar to‘liq bajarilgan bo‘lishi kerak. Bosh varaq, annotatsiya, sarlavhalar (mundarija), tasvirlar imzosi. Muallif maxsus belgilar yordamida tasvirlar, chizmalar, jadvallar va portretlar o‘mini aniq belgilab qo‘yadi. Tasvirlarni raqamlaydi, zarur tushunchalar beradi. Tasvirlarga ayniqsa katta e’tibor berish talab etiladi. Ular nihoyatda sifatli va nusxa ko‘chirish uchun yaroqli, rangli yoki rangsiz bo‘lishidan qat’iy nazar aniq, tiniq bo‘lishi lozim.

Qo‘lyozmani qabul qilish jarayonida tahrir bosqichiga tayyor-garlik ko‘rish, qo‘lyozmani tahrir qilishga kirishishdan oldin, asosiy matnni to‘ldiruvchi materiallar kitob apparati to‘la-to‘kis ekanligiga alohida e’tibor qaratiladi. Chunki u o‘quvchiga kitobda berilgan ma’lumotlarni oson va tushunarli tasavvur etish imkonini beradi. Quyidagilar kitob apparatinini tashkil etadi: so‘z boshi, so‘ng so‘z; asar annotatsiyasi; eslatma, sharhlari; kitob ichidagi kitobga ilova etilgan bibliografiya; ko‘rsatkichlar; ilova; sarlavhalar (mundarija); nashr ma’lumotlari.

Adabiy asarning tavsifiga ko‘ra kitob apparati ham o‘zgarishga uchraydi. Ommabop, keng ommaga mo‘ljallangan nashrlarda apparat unsurlari kam bo‘ladi, akademik nashrlarda esa eng ko‘p miqdorda uchraydi. Shu o‘rinda, aytish joizki, noshirlik amaliyotida va maxsus adabiyotlarda kitob apparati atamasi o‘rnida ilmiy-ma’lumotnoma apparat, ma’lumotnoma-ilova apparat, ma’lumotnom-apparat kabi iboralar uchraydi. Hozirgi vaqtda bular qatorida ilmiy apparat iborasi ham qo‘llana boshladi. Xul-

las, qanday atalmasin, asar turiga ko‘ra qanday o‘zgarishlarga uchramasin kitoblarning har birida qanday ko‘rinishda bo‘lmisin, albatta mavjud bo‘ladi. Kitob eng oddiy apparati faqat nashr ma’lumotlaridangina iborat bo‘ladi.

Kitob apparati barcha asarlar (nashrlar) uchun zarur hisoblanadi. U o‘quvchiga dastlabki tushuntirishlarni beradi (so‘z boshi), matn bayoni davomida uni tushuntira boradi (eslatmalar, sharhlar), o‘quvchini manbalar va muammojar tadqiqi ichiga olib kiradi. Bularidan tashqarii kitob apparati asarning tahliliy mundarijasini ochib beradi (ko‘rsatkichlar) va nashrning axboriylik ko‘lamini yanada oshiradi. Kitob apparati noshirlik madaniyatining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Ilmiy adabiyotlarda kitob apparatining iusurlaridan ho‘linish bibliografiya va ko‘rsatkichlarning muhim ohumiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi. Zero, samarali tayyorlangan va sisatli tahrirdan o‘tgan apparat olimlar, muhandislar, shifokoru va bilimning boshqa har qaysi sohasi mutaxassisining mehnat samarasini oshirishga xizmat qiladi. Kitob apparati xususida so‘z borganda ikki jihatni farqlash lozim bo‘ladi. Biri, uni tayyorlash, ikkinchisi tahrir qilish.

Qo‘lyozmani qabul qilishda kitob apparatining u yoki bu unsurini tayyorlash usuliga ham yo‘l-yo‘lakay to‘xtalishga to‘g‘ri keladi.

So‘z boshi bilan **annotatsiya** har biri matnga o‘ziga xos kirish hisoblanadi. Bundan tashqari asosiy material bayonining boshlovi bo‘ladi. So‘ng so‘z garchi kitob oxirida joylashsa-da, ko‘p jihatdan so‘z boshi bilan umumiy jihatlarga ega bo‘ladi. Tartibga ko‘ra avval so‘z boshiga to‘xtalamiz. U kitobga turli nomlarda – «Muallifdan», «Muharrirdan», «Tahririyatdan», «Nashriyotdan»,

«Tarjimondan» tarzida joylashtirilishi mumkin. Bularidan tashqarii yana boshqa tarzda – «So‘z boshi o‘rnida», «Kitob va uning muallifi haqida» va hokazo atalishi ham uchraydi. Yuqoridagi atalishlardan ko‘rinadiki, so‘z boshi faqat muallif tomonidangina emas, balki boshqa shaxslar tomonidan ham yoziladi. Lekin matn muallifi bo‘lmish boshqa shaxslar kitobning yaratilishiga qaysidir darajada aloqador bo‘ladi va kitobning mazmuni va shakliga ta’sir o‘tkazadi. Masalan, «Nashriyotdan» deb nomlangan so‘z boshi asarni nashrdan chiqarish zarurati bilan bog‘liq bo‘lib, muallif yoki hayot emas yoxud o‘zi yozib berishning iloji bo‘lmaydi. Shunday holatda nashriyot o‘z nomidan so‘z boshi berishga majbur bo‘ladi. «Muharrirdan» qaydnomasi ko‘pincha materiallarning saralanishi va joylashtirilganligi haqida tushuncha beradi. Tarjimon esa o‘quvchini tarjimaning maqsadi, tamoyillari va b. bilan tanishtiradi. Har qanday bo‘lganda ham so‘z boshi hamisha shunday masalalar muayyan doirasini yoritishi kerak bo‘ladi. So‘z boshining asosiy vazifasini umumiy tarzda quyidagicha tasavvur etish mumkin: ishning asosiy vazifasi; uning o‘ziga xos jihatlari hamda asosiy qism (bob)lari materialning joylashtirilishi, bayon etilish tavsifi; foydalanilgan manbalar haqidagi ma’lumot; kimlarga mo‘ljallanganligi va h. Agar asar (kitob) mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan bo‘lsa, so‘z boshi o‘quvchiga asarning qaysi qismi kim tomonidan yozilganligi haqida ma’lumot beradi.

Asar so‘z boshisi, mabodo, muharrir tomonidan yozilmagan bo‘lsa, albatta, tahrirdan chiqariladi, lekin bu ish faqat qo‘lyozma ustida ishlash jarayonining so‘ngida bajariladi. Bunda, asosan, ikki vazifa bajarilishi ko‘zda tutiladi: so‘z boshining asosiy material va

kitob apparatining boshqa unsurlari bilan bog‘liqligini tushuntirish; agar unga mustaqil matn sifatida qaralsa, ayrim hisobga olinmay qolgan (so‘z boshida uchraydigan) kamchiliklarni tuzatish.

Birinchi vazifani bajarishda qo‘lyozma mazmuni bilan so‘z boshi tezislari qiyoslanadi, ifoda shakli aniqlanadi. Bular asar mohiyati va uning o‘ziga xos jihatlarini aks ettirishi lozim. Yana bir muhim tomoni borki, u ham bo‘lsa, so‘z boshi kirish bilan (agar u bo‘lsa) qanday nisbatda ekanligidir.

Noshirlik faoliyati amaliyotidan ma’lumki, ko‘pincha kirish (qo‘lyozmaning tarkibiy qismi) bilan so‘z boshi (kitob apparatining unsuri)ning deyarli farqi bo‘lmaydi.

Shunga ko‘ra «Kirish» deb nomlangan matnda oddiy so‘z boshini, unga xos bo‘lgan barcha jihatlar – kitobni tayyorlashda ko‘maklashganlarga minnatdorchilik, o‘z fikr-mulohazalarini nashriyotga yuborishlari to‘g‘risidagi o‘quvchilarga murojaatni uchratish mumkin.

Ba’zan «So‘z boshi» deb nomlangan matnda «Kirish» ma’lumotlari va aksincha, «Kirish»da «So‘z boshi» ma’lumotlari qorishib ketadi. Tahrir jarayonida chuqur mulohazaviy tahlil amaliyoti bajarilishi va «So‘z boshi» bilan «Kirish» bir-biridan ajratilishi kerak. Shunda har ikkisi o‘z o‘mini topgan bo‘ladi.

Shunisi muhimki, so‘z boshi tarkibidagi kitob apparatining boshqa unsurlarida uchraydigan ma’lumotlarni aniqlash uchun qiyoslash, bir-birini takrorlaydigan ma’lumotlarni bartaraf etish mumkin.

Kitobning old varag‘idagi annotatsiyaga alohida e’tibor berish lozim bo‘ladi. Uni tuzishda so‘z boshi yoki so‘ng so‘zdan foydalilaniladi, shunga ko‘ra so‘z boshi bilan annotatsiyaning bir-biriga

o‘xshash (ko‘pincha so‘zma-so‘z qaytarilishi) tez-tez uchraydi. So‘z boshi, misoli kalit, kitobni ochuvchi hisoblanadi. U o‘quvchini kitob bilan tanishtiradi, shuning uchun u qiziqtiruvchi bo‘lishi, o‘quvchini kitobdan hafsalasinisovutuvchi bo‘lmasligi kerak.

Kirish maqola o‘ziga xos so‘z boshi hisoblanadi va u ayrim asarlar yoki asarlar to‘plami (yozuvchilar, olimlar, jamoat arboblari), ilmiy asarlar uchun albatta bo‘lishi talab etiladigan apparat unsuri sanaladi. Asar tavsifiga ko‘ra kirish maqolalar turlicha bo‘ladi. Mumtoz adabiyot vakillarining to‘plamlarida nashr, matniy tamoyillar haqidagi ma’lumotlarga ega, shuningdek, yozuvchi (shoir) haqida, uning ijodi g‘oyaviy, badiiy qimmatini ko‘rsatuvchi, biografiyasiga oid materiallarni o‘z ichiga olgan maqolalarni berish qabul qilingan.

Yuqorida qayd etilgan ikki maqolaning birinchisida, odatda, nashr kimgarga mo‘ljallanganligi, materiallar qanchalik to‘liq to‘planganligi, asosiy matnlar manbaini tanlash tamoyili, nashrda materiallarni joylashtirish tartibi (agar ko‘p jildli bo‘lsa, jildlararo joylashtirilishi) qandayligi va boshqalar ko‘rsatiladi.

Xorijiy mualliflar asarlari nashrida, ular dunyoqarashi, ijodi, mentaliteti, mafkurasi aks etadi. Bular har doim ham boshqa xalqlarga to‘g‘ri kelavermaydi. Kirish maqola o‘quvchida to‘g‘ri tasavvur hosil qilishga ko‘maklashishi kerak bo‘ladi.

Agar asar yirik olimga tegishli bo‘lsa, kirish-ocherk nashrda ko‘rib o‘tilgan masalalar doirasini belgilaydi, muallifning yirik tadqiqotlari, asarning ham nazariy, ham amaliy qimmati haqida ma’lumotlar beradi.

Yuqorida bayon etilganlardan ma’lum bo‘ladiki, kirish-maqola

yuqori malakali mutaxassis tomonidan tayyorlanadigan asl nusxa asar hisoblanadi. U muhim ilmiy, uslubiy, g'oyaviy va siyosiy ahamiyatga ega bo'ladi. **Mazkur tur materiallarni tahrir qilishning mohiyati ham shunda.**

So'ng so'z o'z mazmun, vazifasi bo'yicha kirish-maqolaga o'xshab ketadi. Lekin u o'quvchiga tanish bo'lgan kitob mazmunini yanada chuqurroq anglash uchun yordam beradi. Bunday apparat bugungi kunda jahon noshirlik amaliyotida ko'proq tarjima asarlarda uchraydi, ayniqsa, badiiy asarlar tarjimalarida so'ng so'zning maqbul tomoni shundaki, u o'quvchi kitobni mustaqil o'qib chiq-qach o'zi tushunishga harakat qilayotganida qo'l keladi. Chunki, so'ng so'z odatda tegishli yirik mutaxassis (lar) tomonidan yoziladi. Aytish mumkinki, so'ng so'z ham so'z boshi singari vazifani bajarsa-da, lekin unda so'z boshidagiga nisbatan uncha zarur bo'lмаган ма'lumotlar beriladi.

Annotatsiya, odatda, kitobning bosh varag'i (titul)ning keyingi betida joylashtiriladi. Unda asar haqida qisqagina ma'lumot beriladi. O'quvchi uchun u kitob haqidagi birinchi ma'lumot, shuningdek, unda asarning muallifi, ko'tarilgan muammolar, kimlarga mo'ljallanganligi haqida ma'lumot beriladi. Kitob savdosi bilan shug'ullanuvchilar uchun reklama materiali, targ'ib qilishda asoslaniladigan manba. Kutubxona xodimlari va axborot xizmati uchun annotatsiya – ilmiy-axboriy xizmat ko'rsatishning muhim vositasi hisoblanadi.

Annotatsiyani tayyorlash va tahrir qilishda muharrir nashrning xususiyatini hisobga olishi lozim. Badiiy asar yoki ilmiy nashrlarda annotatsiyada, albatta, muallif haqida qisqagina ma'lumot berish

o'rinnidir. Ilmiy-ommabop adabiyotlarda esa e'tiborga ko'proq loyiq bo'lgan qismlarni qayd etish foydadan holi bo'lmaydi. Takror nashrdan chiqayotgan adabiyotlarning annotatsiyasida keyingi nashrning oldingisidan farqli tomonlarini ko'rsatish lozim bo'ladi.

Kitob annotatsiyasiga o'xshab ketadigan apparat unsurlaridan **rezyume** va **sinopsisni** aytib o'tish joizdir. "Rezyume" fransuzcha so'z bo'lib, qisqacha bayon degani. Unda maqola, ma'ruza mazmuni ni tashkil etuvchi asosiy qoidalari, qisqacha xulosalar bayon etiladi.

Hozirgi talabga ko'ra O'zbekistonda nashr etilayotgan ilmiy asarlar, ilmiy jurnallar (to'plamlar)da rezyume o'zbek hamda chet (ingliz) tilida berilmoqda.

"**Sinopsis**" yunoncha bo'lib, **sharh** ma'no ifodasini beradi. Unda maqolaning mazmuni va xulosalar qisqa holda beriladi, yangiliklar qayd etiladi. O'z mazmuniga ko'ra u annotatsiya bilan referat oralig'ida turadi. Rezyume va sinopsislar odatda, asar, maqola oxiriga joylashtiriladi.

Kitob apparatlarining muhim unsurlaridan **sharhlar** va **eslatmalar** ham nashrlar uchun zarur hisoblanadi. Chunki, ularda o'quvchi uchun ancha muhim ma'lumotlar beriladi. Kitob apparatining ancha murakkab unsurlari hisoblanadi. Tom ma'noda olib qaraladigan bo'lsa, har ikkalasi bir-biriga o'xshaydi, lekin no-shirlikda ularning ayrim jihatlari farqlanadi. Asarlar to'plamida yoki ayrim ilmiy asarlar, memuarlar, hujjatli nashrlarda turli xil tushuntirishlar beriladi, bular asarni to'g'ri tushunish uchun zarurdir. **Eslatmalarda** kitobdagi ayrim o'rirlarga tushuntirishlar beriladi yoki aniqlashtiriladi. Agar sharhlar kitob oxirida berilsa,

eslatma tushuntirish, aniqlashtirish lozim bo'lgan tushuncha yoki so'z joylashgan sahifadagi izohda beriladi.

Badiiy adabiyot nashrlarida, hozirgi kunda, sharhning to'rt turi uchraydi. Bular – matnshunoslik, tarixiy-adabiy, aniqlashtiruvchi va izohli lug'at tarzidagi sharhlar.

Matnshunoslik sharhlarida matnni nashrga tayyorlash to'g'risidagi ma'lumotlar beriladi. Uning vazifasi – umumiylar tarzda nashrnin tayyorlash jarayonidagi matnshunoslik ishlari, uning usullari, tamoyillari, qabul qilingan qarorlarni hujjatlashtirishdan iborat. Akademik va ilmiy nashrlarda asar matni tarixi haqida kitobxonga tugal ma'lumot berilishi talab etiladi, shunga ko'ra u haddan ziyod murakkab bo'lib, alohida qismni tashkil etadi. Ommaviy nashrlarda matnshunoslik sharhlari, odatda, ancha qisqa, asarni saralash haqidagi kerakli ma'lumotlarnigina o'z ichiga oladi, shuningdek, birinchi nashr manzili va vaqtini ko'rsatiladi.

Tarixiy-adabiy sharhlar asar mazmunini, g'oyasini ochib beradi, qisqa va lo'nda tarzda aniq, iloji boricha to'liq ravishda asarning yaratilish tarixi hamda ijodiy-biografiyasini xususida ma'lumot beradi. U, odatda, ikki qismdan iborat bo'ladi: birinchisida asarning yaratilish tarixi haqida so'z borsa, ikkinchi qismida muallifning hozirgi o'quvchi uchun tushunilishi, qiyin bo'lgan mulohaza va sifrlari oydinlashtiriladi, ochib beriladi. Bunday sharhlar ilmiy-ommabop asarlardagina emas, balki ilmiy nashrlarda ham bo'ladi.

Aniqlashtiruvchi sharh tarixiy nomlar, asos (faktik) materiallar hodisalarga (asarda keltirilgan) tushuntirishlar beradi, qo'shimcha aniqliklar kiritadi, asar mundarijasining barcha unsurlarini tushunarli qiladi. Bu sharh hamisha matnga asoslanadi, uni izohlaydi.

Ilmiy-ommabop, ommabop asarlarda **lug‘at sharhlar** muhim ahamiyat kasb etadi. So‘z va so‘z birikmalarining izohini berish uning vazifasi hisoblanadi. Uni tuzishda o‘quvchilar uchun unchalik tanish, tushunarli bo‘lmagan so‘z va so‘z birikmalari tanlanadi, bular – arxaik so‘zlar, hali tilga to‘liq o‘zlashib ulgurmagan yangi so‘zlar (neologizmlar) yoki chet so‘zlar, shevalarga xos so‘zlardir.

Sharhlar, eslatmalar ustida ishslash jarayonida muharrir kitob o‘quvchilarning saviyasini – bilim doirasini aniqlab olishi lozim. Shunda u nimalar tushuntirishni talab qiladi, nimalar bunga muhtoj emasligi ayon bo‘ladi. Shunday ham bo‘ladiki, muallif ayrim narsalar sharhiga haddan ziyod kirishib ketadi, ayrim narsalarni esa sharhlashni yoki unutadi, yoki e’tiborga olmaydi. Har ikki holatda ham muharrir bu kamchiliklarni bartaraf etishi kerak bo‘ladi.

Eslatmalarni tahrir qilishda faqat ta’rif va tushuntirishlarga gina emas, balki u taalluqli bo‘lgan matnga ham e’tiborni qaratish kerak. Agar kitobning turli qismlari boshqa-boshqa mutaxassislar tomonidan sharhlansa, muharrir ularning eslatmalarini taqqoslashi lozim bo‘ladi, shunda turlicha talqin, ziddiyatlarning oldi olingan bo‘ladi.

Tabiiyki, sharhlar va eslatmalarda ko‘plab asos materiallar uchraydi, ular turli tavsifda bo‘ladi. Shunga ko‘ra ularni nashrga tayyorlashda asos materiallarni tekshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Muharrir turli talqinlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun, avvalo, qaysi manbara asoslanishini belgilab oladi va butun ish davomida yagona, tanlangan tamoyilga amal qiladi.

Sharhlar va eslatmalarning tahririda ularni mantiqan yaxlitlik, mazmunan uyg‘unlikka erishish maqsadida kitob **apparatining**

boshqa unsurlari bilan qiyoslash nazarda tutiladi. Bu tarixiy-adabiy tushuntirishlar barchasiga, umumiy yo‘nalish beradi, shuningdek qaytariq va ziddiyatlarning oldini oladi. Xususan, kirish maqola bilan tarixiy-adabiy sharhdagi ma’lumotlar hajmini aniq belgilab olish, ayniqsa, zarurdir.

Izohli lug‘atlar (lug‘at sharhlar) (ko‘p jihatdan eslatmalar), yuqorida qayd etilganidek so‘zlar va iboralarni izohlashi – tushuntirishi talab etiladi, ayniqsa, badiiy asarlarda. Hozirgi adabiy til lug‘utida bo‘lmagan, shevalar, lahjalarga xos so‘z va iboralar badiiy ijoddan tez-tez uchrab turadi. Albatta, ularni adabiy tilga shunchaki tarjimasi kifoya qilmaydi, balki izohini, agar chet so‘z bo‘lsa, etimologik izohini ham berish lozim. Masalan:

Mentalitet (lot- aqliylik) – muayyan ijtimoiy umumiylilikka taalluqli kishilar aqlly ko‘nikmalari, ijtimoiy-ruhiy qoidalari, tasavvurlari va odatlarning majmui. Olamni idrok etishning ijtimoiy-madaniy va etnik jihatlari mentalitetni shakllantiradi va unda shesheffanadi. Dunyoning turli chekkalarida istiqomat qiluvchi kishilar uchun tutticha mentalitet xosdir. Uni fikrlash, his etish va ishlantshtiring chuqur manbal sifatida tushunish mumkin. Bu onglik va ongsiz, mantiqiy va emotsiyal mentalitet asosida yotadi, ijtimoiy ongning sirli qatlamlariga yo‘l ochadi, kundalik, muayyan hayot yo‘llari bilan jips bog‘liqdir. Tilda, an‘analarda, odatlarda munoyon bo‘ladi va ijtimoiy ongning individual ongdan yuqori jihatlari hisoblanadi, ko‘pincha muayyan individ tomonidan idrok etilmaydi va tahsil qilinmaydi, lekin uning irodasidan holi tarzda yulq-avtorida va iboralarida o‘z aksini topadi.

Millatlar mentalitetlарining turli-tumanligi cheksiz darajada. Bular o'z etnik mansubliklarini idrok etishga yordam beradi va ijtimoiy hamda axloqiy tajribaning milliy shakllarining avloddan-avlodga o'tishida vosita vazifasini o'taydi. Jamoaviy mentalitet hech qanday tayyorgarliksiz shakllanadi, lekin muayyan ijtimoiy guruhga taalluqlilik, bilim darajasi, kasb, yosh, jinsga bog'liqligini aytish joizdir. Bundan tashqari mentalitet qaysidir darajada yashayotgan mamlakat, siyosiy hayot, etnik va madaniy an'analar, qarindosh-urug', tanish-bilish va yaqinlarga bog'liq bo'ladi. Davr mentaliteti uning xo'jalik faoliyati mohiyatini tushunish imkonini beradi, mehnatga va mulkka, bolalikka, oilaga, sevgiga, ayolga va o'limga munosabatlarning o'ziga xosligini ifoda etadi.

Mentalitet tarixi o'z e'tiborini kishilarning tasavvurlariga, konstantalarga qaratadi. Bular ular ongiga til, ijtimoiy munosabat, din, madaniyat tomonidan singdiriladi. Mentalitetning alohidalanganligi shunchalik kuchlik, unda faqat jamoaviy olamni his etish bilan mos masjuraviy aqidalargina mavjud bo'ladi. Mentalitet tushunchasidan Yevropa tarixidagi o'rta asr uyg'onishiga tadbiqan 1929 yilda M.Blok va L.Fevr foydalangan.

Zaharlar tasnifi – patofiziologik ta'sirga asoslangan organizmda ular kiritilganida yuz bergan o'zgarishlar natijasida yuzaga chiqish mehanizmiga bog'liq tarzda zaharlar (kam dozalarda organizmga chetdan kiritilganda muayyan sharoitlarda sog'liqning ishdan chiqishi yoki o'limga olib keluvchi moddalar) taqsimoti. Quyidagi turlari mavjud: 1) Kuchli zaharlar, bular tekkan joyiga darhol ta'sir etadi, terigatushishi bilanoq seziladi. Uqichishtiruvchi,

kuydiruvchi va hokazo bo'lishi mumkin. Kuchli kislotalar va ishqorlar, o'simliklarga hos gazlar va ba'zi moddalar. 2) Toksik sumarasi ular so'rilgandan keyin namoyon bo'ladigan zaharlar. Bular guruhi ko'p va quyidagilarga ajraladi: a) yemiruvchi zaharlar, bular ichki a'zolarda sezilarli morfologik o'zgarishlarni yuzaga keltiradi (simob, margimush, fosfor va b.); b) Qonni zaharlovchilar, qonda biokimyoviy o'zgarishlarga olib keluvchi (uglerod oksidi, bertolet tuzi va hokazo); s) funksional zaharlar, bular tana yoki to'qimalarda dag'al morfologik buzilishlarsiz funksional o'zgarishlarga olib keladi.

Gigiyenik patokimyoviy va boshqa belgilar bo'yicha tasniflanadigan zaharlar ham mavjud.

Zaharlar tabiiy va sun'iy bo'ladi. Tabiiylariga o'simliklar zaharlari kiradi, ularda kuchli ta'sir etuvchi alkaloidlar mavjud, jonivor zaharlari (ilonlar, arilar va h.); og'ir metallar birikmasi (simob, margimush va b.), bakterial toksinlar (botulizm). Hozirgi vaqtida ishlab chiqarish sanoati sohasida tayyorlanadigan moddalardan zaharlanish keng targaldi. Bular turli dorilar, maishiy kimyo vositalari, sanoatda va qishloq xo'jaligidagi qo'llanadigan zaharli ximikatlar. Zaharli moddalar va ular tusayli yuzaga keladigan zaharlanishlar haqidagi fan toksikologiya deb ataladi.

Sharhlar, eslatmalarni tahrir qilishda mazkur apparatlar uchun qo'llangan havolalar tizimini aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir. Matn ortidagi tushuntirishlar ilmiy nashrlar uchun maqbul sanaladi. Chunki sharh bularda hajman boshqalarga nisbatan katta bo'ladi. O'quv adabiyotlarida, tayyorgarligi yuqori bo'limgan

o‘quvchilarga mo‘ljallangan asarlarda satr osti izohlari qulaydir. Bunday adabiyotlarda kitob oxirida qo‘sishimcha materiallar, tarixiy-adabiy tushuntirishlar va h. beriladi. Satr osti izohlarda chet tildagi ifodalar va boshqa ma’lumotlar keltiriladi. Bulardan tashqari havolalarning raqamlanishi (tartib raqami)ni ham tekshirish muhim. Ba’zi adabiyotlarda asardagi barcha izohlar sidirg‘a raqamlanadi – kitobning boshidan oxirigacha tartiblanadi, ba’zi asarlarda muayyan qismda sidirg‘a beriladi, boshqa qismda yana birdan boshlanadi, yana boshqa bir tur asarlarda izohlar har bir sahifada mustaqil bo‘ladi, ya’ni birdan boshlanib, nechta bo‘lsa, shunga mos raqam bilan tugaydi, yangi sahifadagi izohlar yana birdan boshlanadi.

Ko‘rsatkichlar ham kitob apparatining muhim unsuri sanaladi. Ayrim manbalarda ular yordamchi ko‘rsatkichlar deb ham ataladi. Ular o‘ziga xos yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lib, asardagi materialarni tashkillashtirishda aniqlanmagan ma’lumotlarni topishga imkon beradi. Ko‘rsatkich ma’lumot uchun, bir nechta manbani qiyoslash uchun, o‘quv-takrorlash, biror ifodani aniqlash uchun zarurdir. Ko‘rsatkichlar kitob tahliliy mazmunini o‘zida ifoda etgan holda nashrning ilmiy va axboriy qimmatini oshiradi. Ko‘rsatkichlar, ayniqsa, qomusiy (ensiklopedik) asarlarda faqat maqolalarning sarlavhasi bo‘yicha emas, balki maqola ichida qayd etilgan, eslatilgan har qanday terminni ham izlab topish imkonini beradi. Shunday qilib ko‘rsatkichlar universal ma’lumotnomasi sifatida ensiklopedik asar imkoniyatlarini asosiy matndagi maqoladan ko‘ra (ko‘rsatkichlar, ruknlar qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha marta) oshiradi.

Materiallarning guruhlanish usuliga ko‘ra ko‘rsatkichlarni quyidagi asosiy turlarga ajratish mumkin: **alifbo tartibidagi**, **tizi-**

mli va aralash. Alifbo tartibidagi ko'rsatkichlarda ruknlar va ost ruknlar alifboga asosan belgilanadi. Tizimli ko'rsatkichda mantiqiy tavsiflanadi. Tizimli ko'rsatkich kam uchraydi, ommabop, tavsivynomma singari nashrlarga xos. Bunday asarlar keng ommaga mo'l-jallangan bo'lib, eng ommalashgani yilnomma ko'rsatkichlardir, bular tarixga oid ishlarga xosdir. Aralash (birlashgan) ko'rsatkichlar bir necha tur ko'rsatkichlar qo'shiluvidan iborat. Bular hajmi uncha katta, mazmunan murakkab bo'lmagan kitoblarda uchraydi.

Ko'rsatkichlar rukn tuzilishi bo'yicha **oddiy, yoyiq** (tahliliy) va **annotatsiyalangan** ko'rsatkichlarga ajraladi.

Oddiy ko'rsatkichda ismdan, nomdan so'ng kitob betlari ko'r-satiladi. Masalan: Toxirov Z.T. Pragmatik sema.-17=b.

Mazkur oddiy ko'rsatkichning yana bir jihatni ayrim ismlar va fanlarga havolalarining ko'pligi hisoblanadi. Bunday ko'rsatkichlar bir nechta ost ko'rsatkichlarga ega bo'ladi. Ular yoyiq yoki tahliliy (**analitik**) deb ataladi, ruknni aniqlashtirishga, matnga qilingan havolalarini tabaqalashtiradi va shunday qilib, kitob apparatining mazkur unsuridan foydalanishni osonlashtiradi. Masalan:

Astronomiya 47-53; 2, 120-131; 3, 240-250 va b.

Sharq astronomiyasi 49, 90, 121, 134 va b.

G'arb astronomiyasi 60, 82, 119, 128 va b.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, asosiy sarlavha (rukн) qo'shimcha tushuntirishlar (ost rukn)ga ega. O'quvchi astranomiyaga qiziqsa, o'nlab havolalarini ko'rib chiqishi shart emas, tegishli qismlarga imurojaat etishi kifoya.

Annotatsiyalangan ko'rsatkichlar ismlar, narsa, voqeа va hodisalarga tushuntirish beradi. Masalan:

Abdurazzoq Samarqandiy (1413-1482) – mashhur tarixchi, sayyoh, olim. Tafsir, hadis, fiqh ilmlari hamda tarix, til va adabiyot, geografiya va astranomiya bo'yicha chuqur ma'lumot olgan. Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Ozarbayjonda mavjud bo'lgan siyosiy ahvolga va qisman temuriylar davlati poytaxtlari – Samarqand, Xirot shaharlaridagi madaniy qurilishlar, Mirzo Ulugbekning ilmiy, siyosiy faoliyatiga oid ma'lumotlar keltirilgan "Matlai sa'dayn va majmai bahrays" asari mavjud.

Zamaxshariy, Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad (1075-1144) – xorazmlik tilshunos, tafsir va hadis olimi, adib. Arab tili va adabiyoti, islam tarixini yaxshi bilgan, xattotlik san'atini puxta egallagan. Hadis, fiqh, tafsir, aruz, adabiyot, til, geografiyaga oid 50 dan ortiq asar muallifi. "Al mufassal" (Gramatikaga oid mufassal kitob), "Al un-muzaj" (Namuna), shuningdek "Muqaddimot ul-adab" (Adab ilmiga muqaddima), "An-nasouh us-sig'ar val-ba volig' ul-kibor" (Kichiklarga nasihatlar va ulug'lar yetukligi), "Devon ul-Zamaxshariy" va b.

Ko'rsatkichlarni tuzish noshirlilik ishida, odatda, nashriyotlarda tahririyatga yuklatiladi va ular bilan maxsus tayyorgarlikka ega hamda muayyan malakaga ega bo'lganlar shug'ullanadi. Ba'zan bu vazifani muallif bajaradi. Tahrir qilish muharrir zimmasiga yuklatiladi. Lekin ko'rsatkichlarni tahrir qilish uchun muharrir kitob apparatining bu unsuriga qo'yiladigan talablarni, ko'rsatkich tuzish qoidalarini yaxshi bilishi talab etiladi.

Ko'rsatkich tuzish mas'uliyatli ish bo'lib, uni tuzishda aniq tartibga rioya etish lozim. Avvalo, u sahifalangan sahifalar bo'yicha,

korrekturaga barcha tegishli tuzatishlar kiritilgandan so'ng kirisiladi. Aslida bu ish oldinroq boshlanadi: so'zlik tuziladi, ismlar va atamalar tanlanadi, annotatsiya tayyorlanadi. Lekin, asosiy ish bari bir sahifalash amalga oshirilgandan so'ng boshlanadi. Chunki ruknlar, havolalar qaysi betdaligi aniq bo'lmay turib ko'rsatkichni tuzib bo'lmaydi. Ko'rsatkichlarni tayyorlashda quyidagi usuldan foydalanish mumkin: sahifalardagi ism va terminlar terib olinadi, yaxshisi ularni alohida-alohida varaqchalarga yozib olgan ma'qul. Keyingi bajariladigan ish – ularni alifboga solish bo'ladi.

Ismlar ko'rsatkichida matnda uchraydigan barcha familiya, ism, tahalluslar kiritiladi. Lekin, bunda ham har bir holatda muallif qaysi ismni aniq keltiradi, u bilan bog'liq ma'lumotlarni – otasining ismi, tahallusi, tug'ilgan va vafot etgan yil, oy, kunni, qo'shaloq familiya (G'arbda), taxalluslar (Sharqda), chet elliqlarning ismi, familiyasi va h. ni aniqlash lozim bo'ladi.

Ko'rsatkichlarni tahrir qilish bir qator vazifalarni bajarishni ko'zda tutadi: ko'rsatkichning turi va xilini baholash; so'z tanlash tamoyiliga amal qilinganlikni tekshirish; ost ko'rsatkichlardagi so'zlarning guruhanishini aniqlash; havola qilingan betlar to'g'ri ko'rsatilganini tekshirish; har bir nom ostida joylashgan betlar ketma-ketligini tekshirish.

Ko'rsatkichni baholash deganda nima nazarda tutiladi? Muhammar uni boshlashda bosh tamoyilga asoslanadi. U ham bo'lsa, har bir ilmiy asar, oliv yoki o'rta maxsus ta'lim muassasasi uchun darslik, yozuvchining har bir tanlangan asari, olimning, davlat, jamoat arbobining asari, umuman har bir kitob, agar uning hajmi 15 muallif taboqdan yuqori bo'lsa (badiiy asar, bolalar kitoblari bundan mustasno), u yoki bu ko'rsatkichga ega bo'lishi kerak.

Lekin asarning turiga ko‘ra ko‘rsatkich ham turlicha, o‘zi taalluqli bo‘lgan asarga mosi beriladi. Masalan, ijtimoiy, gumanitar asarlarda ismlar va narsalar ko‘rsatkichi bo‘lishi maqsadga muvofiq; tabiiy-ilmiy asarlarda ko‘p jihatli narsalar ko‘rsatkichi berilishi lozim; asarlar to‘plamida asarlar ko‘rsatkichi; darsliklarda bir xil – yagona ko‘rsatkichlar berilishi kerak.

Ko‘rsatkichlarning hajmi qancha bo‘lishi, hozirgi zamon kitobshunosligida asar tahliliy mazmunini bera oladigan, lekin ko‘p joy egallamasligi, o‘rtacha hajmdagi ko‘rsatkich nashr hajmining 2-3% ni tashkil etishi, ayrim hollardagina 5%ga borishi mumkinligi qayd etilgan. Endi, ko‘rsatkichda nimalar beriladi? Asar to‘liq bag‘ishlangan ismlar, narsalar ko‘rsatkichga kiritilmaydi. Shuningdek, ko‘rsatkichni tasodifiy ismlar, nomlar (kitobda uchragan) to‘ldirib ham yuborilmaydi. Har bir ism, nom ortida aniq ma’lumot beruvchi matn parchasi bo‘lishi kerak.

Ruknlar joylashuvidanagi alifbo tartibini aniqlash muharrirning vazifasi hisoblanadi. Alifbo tartibidagi ko‘rsatkichlar turlicha bo‘ladi: harfma-harf yoki so‘z ketidan so‘z tarzida.

Ko‘rsatkich havola qilingan sahifa aniq belgilangan taqdirda to‘laqonli hisoblanadi. Shuning uchun har bir havolaning matndagi muayyan joyga mos kelishligini tekshirish muhartirdan chidam talab etadi, bu ish nihoyatda diqqat-e’tibor bilan bajarilishi lozim. Bu ish bilan shug‘ullangan vaqtida muharrir shunchaki, havola ism yoki narsaga mosligini emas, balki kontekstga amalda muvofiq ekanligini ham tekshiradi.

Noshirlik amaliyotida ba’zan havola tekshirilganda rukn ham aniqlashtiriladi, ba’zan esa u tushirib qoldiriladi. Muharrir ko‘rsatkich yordamida kitob matniga tuzatish kiritgan hollar ham bo‘lgan.

Xullas, ko'rsatkichlarni tahrir qilish jarayoni muharrirdan yuskak mas'uliyat talab etadi. Ko'rsatkichlarni to'g'rilash, qisqartirish, qo'shishdan tashqarii, ular hajmini ixchamlashtirish ham kerak bo'ladi. Bunga turli izohlar (havolalar)ni birlashtirib, izohlar tizimidan (qarang., yana qarang., o'sha joyda, o'sha asar) foydalananib erishish mumkin.

Chop etilgan asarning nashr bildirgichlari deganda nashrni tavsiflovchi, uning bezatilishi bibliografiya va h. ga bag'ishlangan ko'rsatkichlar majmui tushuniladi. Kitob apparatining boshqa, ayrim hollarda umuman berilmaydigan unsurlaridan farqli o'laroq, nashr bildirgichlari hech bir istisnosiz har bir nashrda bo'lishi lozim. Nashrning turi, maqsadi, kimlarga mo'ljallanganligiga bog'liq holda Davlat standartida belgilangan tartib va tavsifda bo'ladi.

Barcha kitoblarda quyidagi nashr bildirgichlar bo'ladi: nashrda qatnashgan barcha shaxslar haqidagi ma'lumot (muallif, tuzuvchi, tarjimon, muharrir, musahhih, rassom va b.); nashr sarlavhasi (nomi); sarlavha ostidagi nomlar; jild tartib raqami; turkum raqami; davriy, davomiy nashr raqami; chiqarilishi (chop etilganlik) ma'lumotlari; sarlavha usti ma'lumotlari; kutubxona shifri; nashr ma'lumoti; mualliflik huquqi himoyasining belgisi; tasniflash raqami (indeksi); nashriyot annotatsiyasi; referat va b.

Kitob va broshyuralarda nashr bildirgichlar asosan bosh (titul) varaqda yoki uning orqa tomonida joylashtiriladi, ba'zan muqovada ham beriladi.

Kitob apparati haqida jurnalistika ta'limi magistrantlariga umumiyl tushunchaga ega bo'lishlariga muvofiq keladigan darajada ma'lumotlar jamlandi. Ularning har biri, alohida va birgalikda muhim vazifani bajaradi, nashr sifatini oshiradi.

Kitob apparatining unsurlari turli shaxslar tomonidan tayyorlanadi, shunga ko'ra muharrir, hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, bu ishda yetakchi vazifasini o'taydi. U kitob shaklini, unsurlarini tayyorlashda faol qatnashadi. Kitob apparatini tuzish bo'yicha muharrir faoliyatining xususiyatlari, aytish joizki, tuzuvchi faoliyati bilan ko'p jihatdan o'xshashib ketadi.

Yana bir muhim talab qo'lyozmaning hajmi shartnoma shartlariga muvofiqmi yo'qmi ekanligini tekshirishdir. Bir qarashda jiddiy muammo emasdek tuyulgan bu ish oson ko'chmaydi. Eng tajribali muallifning ham har bir sahifaga matnni me'yori bilan joylashtirishga erishishi mumkin bo'lavermaydi. Qo'lyozmada to'liq bo'limgan sahifalar ko'pgina uchrab turadi yoki, aksincha, zichlashib ketgan (satrlar soni oshib ketgan yoki bir satrdagi belgilar soni me'yoridan ko'payib ketgan) bo'ladi. Ayniqsa, tasvir, chizma, portret, xarita, jadval va boshqa qo'shimcha materiallar joylashtirilgan betlar hajmini hisoblashning o'ziga xos murakkabliklari bor. Bunday vaqtida hisoblashning muallif taboq hajmini aniqlashdan boshlagan ma'qul. Agar qo'lyozma hajmi avval belgilanganidan oshib ketgan bo'lsa, ortgan hajm ilmiy yoki g'oyaviy, ijodiy zarurat tufayli qo'shilgan bo'lmasa nashriyot qo'lyozmani muallifga qaytaradi.

Agar hajm avvaldan ko'zda tutilmagan, ammo, qo'lyozmani tayyorlash jarayonida aniqlangan ilmiy-ijodiy, g'oyaviy zarurat tusayli bo'lsa, unda qo'shimcha hajm uchun belgilangan tartibda alohida ruxsat olish talab etiladi.

Yuqorida aytilganlardan ayon bo'ladiki, avvalo, qo'lyozmani muallifdan qabul qilish – jiddiy vazifa va shunga ko'ra bu ish bilan

muharrir, katta muhartir (bosh, yetakchi mutaxassis), tahririyat mudiri shug‘ullanishi sababsiz emas. Qolaversa, qo‘lyozmani qabul qilish, bu – shunchaki uni muallifning nashriyotga topshirishi emas, balki uning tarkibiy qismlarining joylashtirilishi, shakl, mazmun va mundarijasining uyg‘unligi baholanadi. Albatta, bunday baholash muayyan vaqt talab qiladi (bunga ketadigan vaqt nashriyot nizomida belgilangan bo‘ladi), u ikki tomonlama shartnomada ham ko‘rsatilgan bo‘ladi. Qo‘lyozmaning tarkibiy tuzilishi va rasmiylashtirilganini tekshirish uchun belgilangan muddat ichida nashriyot qo‘lyozmani muallifga qaytarmasa, u qabul qilingan hisoblanadi.

Takrorlash va mulohaza uchun savollar

1. Qo‘lyozmani muallifdan qabul qilib olish deganda nimani tu-shunasiz ?
2. Qo‘lyozma qanday shartlar asosida tayyorlanadi ?
3. Qo‘lyozma hajmi qanday belgilanadi va unga qanday talablar qo‘yiladi?
4. Qo‘lyozmaning tarkibiy qismlari nimalardan iborat bo‘ladi ?

2-§. Qo‘lyozmani baholash.

- *Qo‘lyozmani baholash – mas’uliyatli bosqich.*
- *Muharrir qo‘lyozmani baholovchi mas’ul xodim.*
- *Muharrir muallifning birinchi o‘quvchisi va uning yordamchisi.*
- *Matnning ta’rifi, mazmun va shakli.*
- *Matn yaxlitligi*
- *Matn uyg‘unligi*

- *Matn unsurlari aro bog‘liqlik.*
- *Axboriy matnlarda matn uyg‘unligi.*
- *Yozma nutq tuzilishi.*
- *So‘z ma’nosiga urg‘u berishning grafik usuli.*
- *Sarlavha va matn uyg‘unligi.*
- *Nutq egasiniki bo‘lishi kerak.*
- *Asarning axboriyligi.*
- *Qo‘lyozmani baholash muddati.*
- *Qo‘lyozmani baholashda tahlilning o‘rni va ahamiyati.*
- *Asarni baholashda uslubiy tajriba usuli.*
- *Asarni baholashda o‘qish usullari.*
- *Baholash uchun o‘qishda ayrim tuzatishlarni amalga oshirish.*
- *Taqrizlar – qo‘lyozmani baholash asosi.*

Qo‘lyozmani baholashni maxsus taddiqotlarda ko‘pincha nashrni chiqarish bo‘yicha barcha ishlarning eng asosiy jarayoni deb, hisoblanadi. Ilmiy kitobshunoslik, nashr ishi amaliyotini umumlashtirib, aytish mumkinki, nashr jarayonining hal qiluvchi bosqichi, cho‘qqisi muallif taqdim etgan qo‘lyozmani baholash desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Qo‘lyozmani baholashda yo‘l qo‘yilgan xatolik tahrir ishida ancha-muncha kamchiliklarni keltirib chiqaradi. Agar muharrir muallifni qo‘lyozmada ayrim o‘zgartirish, qayta ishlash va to‘ldirishlarni bajarishligi haqida o‘z vaqtida ogohlantirmasa, unda uning o‘zi “xom” qo‘lyozmani “pishitish” uchun keragidan ancha ko‘p kuch sarflashiga to‘g‘ri keladi, lekin shunda ham yaxshi kitob chiqishiga erisha olmaydi.

Biron bir asarning muallifi avvalo, o‘z asarining shakli xususida o‘ylaydi. Demak, adabiy asar shakli ustida ishlash matn hali qog‘ozga tushishidan ancha oldin boshlanadi. Yaratilajak asar xususidagi o‘ylar shakllanishi hayotiy faktlarni idroklash jarayonidayoq asar janrining, bayonining o‘ziga xos jihatlari paydo bo‘la boshlaydi.

Mana, matn ham tayyor. Muallifning fikri muayyan shaklga solingan, til vositalarida ifodasini topgan va yozuv belgilarida qayd etilgan. **Muallif** uchun matn adabiy asar yaratish yakuniy bosqichining materiali bo‘lib hisoblanadi. Muharrirning faoliyatini muallifning matni ustida noshirlik ishlarini bajarishining asosiy bosqichi bo‘lish bilan birga, muharrir adabiy faoliyatining asosiy qismi hisoblanadi. Lekin shunga qaramay ba’zi-ba’zida, muhartir o‘zi, umuman, kerakmikan? – degan ovozlar eshitilib qoladi. Bunday fikr egalari, aftidan, **bu** ortiqcha kuch va mablag‘ sarfi, keraksiz chiqim, deb o‘ylasalar kerak.

Ba’zilar bu savolga, muharrir kerak emas, deb javob qiladilar. Ularning fikricha, go‘yo ko‘pchilik mualliflar muharririga orqa qilib, xom-xatala asarlarini ham nashr uchun topshiraverar emishlar. Muharrirning bo‘lishi mualliflarning o‘z asari ustida qunt bilan ishlamasligiga olib kelar emish. Ular muharrirga suyanib qolar, asarini **chiqarilishinigina** o‘ylaydigan bo‘lib qolar emish.

Noshirlik sohasida ko‘p yillar faoliyat ko‘rsatib kelgan va kelayotganlar esa butunlay boshqacha fikrda bo‘ladi.

O‘z tajribalariga tayanib, bunday mutaxassis xodimlar, ayniqsa, malakali muharrirlar, yo‘q, tayyorgarligi mukammal bo‘l~~Imagan~~ maxsus adabiy yoki ixtisosiy yordamga muxtoj shaxslarning muallif bo‘ladigan davri allaqachon o‘tib ketdi, deb qat’iy ta’kidlaydilar.

Ammo mantiqan mulohaza yuritsak, kimdir muallif asarining sifatiga baho berishi, qo'lyozma nashr uchun yaroqlimi yo'qmi aniqlashi kerak-ku! Agar shunday bo'lmasa, kim har jihatdan – til va uslub, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy jihatdan maqbul bo'lmagan qo'lyozmalar dunyo yuzini ko'rmasligiga kafolat beradi? Bu o'rinda biz muharrirni nazoratchi (uenzor)ga tenglashtirmoqchi emasmiz. Faqat muharrir mas'uliyatini ta'kid etmoqchimiz, xolos.

Ma'lumki, muallif matni bo'yicha muharrirlik ishlarini amalga oshirish adabiy faoliyatning asosiy bosqichidir.

"Muharrirni muallifning yordamchisi sifatida ko'rish" ayrim tadqiqotchilarining ishlarida ko'rinish qoladi. Lekin muharrir muallifning yordamchisi deyish, bizningcha juda ham to'g'ri emas. Bunda gap so'z ma'no ifodasida emas, balki faoliyat to'g'risida boradi. Agar muharrir yordamchi vazifasini bajaruvchi bo'lsa, uning faoliyati qo'lyozmani nashrga topshirgan kundan to'xtagan bo'lur edi. Vaholanki, muharrirlik vazifasiga keng ta'rif (ayniqsa vaqtli matbuotda) berilayotgan bugungi kunda ham muallif asarining matnini tahlil qilish, baholash hamda tuzatish uning asosiy majburiyati bo'lib qolmoqda. Bu majburiyatni uddalash uchun muharrir matn haqidagi bilimlarini matn nazariyasini, matn tahlili va tahririning ilmiy asoslarini puxta o'zlashtirgan bo'lishi talab etiladi.

Avvalo shuni aytish joizki, matn so'zi ham o'ziga yarasha ko'p ma'noli. Filologik ta'lilda uning ma'nosini uch xil izohlanadi. Birinchi izoh ancha umumiy: matn nutq jarayonining ongli suratda tashkil etilgan natijasi, muayyan mazmunni ifoda etish uchun

muayyan shaklga kiritilgan fikr. Ikkinchisi ta’rifda matn lingvistika ob’yekti, ko’p hollarda jumla doirasida cheklangan. Uchinchisi esa, qisqa hamda lo’nda: matn-nutqiy asar.

Muharrirlik nuqtai nazaridan matn deganda hamma adabiy asar doirasi bilan cheklangan ma’no ifodasi tushunilgan. Bu matn aniq va tugallangan hisoblanadi. Tahrir nazariyasi hali hanuz matn tushunchasini ochiq-oydin, aniq ta’rifini bergenicha yo‘q. Matn termini tor ma’noda qo’llaniladi, unga “muallif qo’lyozmasi” yoki “asl nusxa matni” ma’no ifodasi beriladi. Tahrir jarayonining o‘ziga xos jihatlariga asoslanib, muharrirlik ishlovi amalga oshiriladigan, nashr etish uchun muallif tomonidan tasdiqlangan har qanday kitob yoki maqola qo’lyozmasini matn deb ataganlar. Shuningdek, muharrir ishlashi lozim bo‘lgan tayyor qo’lyozmaning bir qismi hatto bir ibora yohud bir abzas ham matn deyilgan. Bunday tariflar matn atalmish hodisani to‘liq ifodasi bo‘la olmagan va bo‘lishlikka da’vo ham qilmaydi. Shunga ko‘ra ilmiy yondoshuv uchun asos bo‘la olmaydi.

Tahrir matn nazariyasi ilgari suradigan vazifalarni hal etishdan bevosita manfaatdordir. Nazariy jihatdan hal etilishi lozim bo‘lgan eng muhim vazifalar, aytish mumkinki, quyidagilardir: matnning yaratilish, idrok etish va tushunish jarayonida mazmuniy tomonini tadqiq etish, matniy aloqa birligi sifatida matnni ko‘zdan kechirish; matnning axboriyligi masalalarini o‘rganish, matn o‘zida tashiydigan ma’lumot (axborot)ni tizimlashtirish va tizimdan chiqarish.

Nazariy jihatdan matnning asosiy tavsifi ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, muharrir uchun quyidagi matn jihatlari birinchi darajali ahamiyatga egadir: yaxlitlik, bog‘liqlik, muayyan belgilarda qayd etilganlik, axboriylik. Albatta, bu jihatlar muharrir uchun faqat nazariy jihatdan emas, balki amalda ham muhimdir.

Har bir asar, u xoh adabiy bo'lsin, xoh publitsistik bo'lsin yaxlit – bir butunlikda bo'lishi lozim. Yaxlitlik matnni boshdan to oxirigacha, go'yo bog'lab turuvchi ip bo'lib hisoblanadi. Shakldan boshlab mazmuniga tomon o'tib, mazkur ipni aniqlash muharrirning birinchi va asosiy vazifasi hisoblanadi. Muharrir matn yaxlitligini baholashda ikki narsaga asosiy e'tiborini qaratishi lozim. Birinchisi, matnni uzviy bog'liq bir butun deb, tahlil qilish, ikkinchisi, uni tashkil etuvchi unsurlar to'laqonliligi va aniqligini belgilash. Matnning yaxlitligiga fikrlar uyg'unligi hamda matn tuzilishining aniqligiga ko'ra yetishish mumkin. Bulardan tashqari materialni obrazli to'laligicha idrok etish, fikr mantiqiy rivojlanishining tushunararliligi, shuningdek, matnning uslubiy bir butunligi ham uning yaxlitligini ta'minlaydi. Matn tarkibiy qismlarini tahlil qilish, muharrirdan avvalo, tahlil ob'ektini bilish uchun chuqur va har tomonlama bilimga adabiy til, adabiy til uslubiyatidan yuksak iqtidorga ega bo'lish talab etiladi.

Tahririy tuzatish jarayonida matn yaxlitligi bir nutqiy qismidan ikkinchisiga o'tishida mazmuniy jihatdan ayniylik saqlanishini talab etadi. Matnni boshidan to oxirigacha diqqat bilan o'qib chiqmasdan, darhol tuzatishga kirishib ketish salbiy oqibatlarga olib kelishi tahrir amaliyoti tomonidan allaqachon isbotlangan. Shunga ko'ra matnni tuzatishga kirishishdan oldin uning kamchiliklarini to'lig'icha belgilash, mazmunini aniqlash lozim. Xabarni bir marta o'qiyasiz. Agar uni yozilishiga ko'ra bitta o'qiganda tushunmasangiz va uni qayta o'qishga to'g'ri kelsa, demak u muvafaqqiyatsiz chiqqan.

Adabiy asar qo'lyozmasini baholash uchun uni to'liq o'qib chiqishning hojati yo'q. Quyidagi asar qo'lyozmasiga e'tibor beraylik:

Ilk noshirlilikning paydo bo‘lishi va shakllanishi “Avesto”- birinchi kitob – ilohiy ne’mat

Biz yashab turgan zaminda yaratilgan dastlabki kitoblar qadim-qadim zamonalarga – qabilachilik davriga borib taqaladi.

Ta’rrixiy va arxeologik ma’lumotlarga ko’ra, “Avesto”ni eng qadimgi yozma manbalardan biri sifatida tilga olish mumkun. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda qadimiy O’rta Osiyo hududida yaratilgan. Kiyik terisiga yozilgan mazkur asar ajdodlarimiz aql-idrokinining buyuk ifodasıdır. Manbalar uning dastlabki qismlari yozilishi eramizdan avvalgi ikkinchi ming yilliklarga borib taqalishidan dalolat beradi. Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning e tirof e tishicha, “Avesto” matni dastavval miloddan oldingi VI asrda yozilgan Iskandar Zulqarnayn bu yurtni bosib olib, talon-taroj qilgach, “Avesto” yo’q qilib yuborilgan, bosqinchilar yurtiga olib ketilgan. III asrlar va undan keyingi davrlarda yurtimiz hududlarida “Avesto” matnini qayta tiklashga harakat qilingan. Usigir terisiga tilla survi bilan yozilgan “Avesto”ning dastlabki qismlari Xorazmda yozilgani xaqidagi ma’lumotlar ham bor.

Ta’kidlash kerakki, “Avesto”ning dastlabki qismlarida o’sha davrda O’rta Osiyoda mavjud bo’lgan davlatlar, bu davlatlarning Eron bilan Afg'onistoniga qo’shni hududlari haqida qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. Unda mazkur hududda yashovchi xalqlarning turmush tarzi, og’izdan-og’izga ko’chib yuruvchi epik dostonlar, tog’ va vodiylar, daryo va ko’llar, keng yaylovlari va zilol suvlar haqida ma’lumotlar jamlangan. Shuningdek, yerli aholining o’t-roqlashuvi, dehqonchilik qilish, imorat qurish haqida ham fikrmulohazalar bildiriladi.

"Avesto" dagi fargardlarda: "Yerdan ekin(don) o'sib chiqishi bilanoq, devlar titray boshlaydi, ekin o'rib olinganda ular (devlar) ingray boshlaydi, xirmon ko'targanda devlar gochadi, hamir qorilganda devlar halok bo'ladi", kabi satrlarga tez-tez duch kelish mumkin.

"Avesto" da dunyoning yaratilishi, insonning xalq bo'lib jips-lashuvi, ezgulik uchun yovuz kuchlar bilan kurashish, erkinlik, ijodkorlik va bunyodkorlik yo'lidagi orzulari o'z ifodasini topgan.

"Avesto" nafaqat odamzot, balki bir hovuch tuproq, bir qultum suv, bir nafaslik havo ham muqaddasligi haqidagi kitob. U—yerning, daryolar-u, bog'lar, tog'lar-u buloqlar, ko'lu sahrolar, otu tuyalar uyuri, molu itlar, o'simligu giyoqlar, shahar va manzilgohlarni bunyod etish tarixiga oid asar.

Dunyoda biror-bir diniy ta'limot, yo biror-bir alloma zaminni va unda ungvuchi bug'doy, uning hosilasi – nonni "Avesto" chalik ko'klarga ko'tarmagan.

"Zardusht iloh Ahura Mazdadan so'radi:

- Ey, Ahura Mazda!"

Zaminni hammadan ham baxtiyor qiluvchi zot kim?

Ahura Mazda javob berdi:

- Ey, Zardusht!

Kimki g'alla eksa, u Haqiqatni ekadi..."

Zardusht ta'limoti, "Avesto" da olg'a surilgan ezgu niyat, ezgu kalom va ezgu amal hamon insoniyatni ezgulikka chorlab, odamlarni ruhan poklab, ma'naviyat chamani sari yetaklamoqda.

Tarixdan ma'lumki, Aleksandr Maqdo'niy O'rta Osiyoga yurish qilgan davrda bu yerda yuksak sivilizatsiya mavjud edi...

Xaqiqatda, "Avesto"ga qarshi xujum Aleksandr Maqdo'niy davridayoq boshlangan edi. Abu Rayhon Beruniyning e'tirof etishicha: "Podshoh Doro ibn Doro xazinasida (Abistonning) o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri Abistonning beshdan uchi yo'qolib ketdi. Abisto o'ttiz "nask" edi, majusiylar qo'lida o'n ikki nask chamasi qoldi. Biz Qur'on bo'laklarini haftiyak deganimizdek, nask Abisto bo'laklaridan har bir bo'lakning nomidir" ..

Yuqoridagi parchada keltirilgan asar qo'lyozmasini baholash uchun uni to'liq o'qib chiqishga hojat yo'q. Avvalo, sarlavhaning mazmunini mulohaza qilaylik. «Avesto» birinchi kitobmi? «Avesto» ilohiy ne'matmi? Bu savollarning javobi qisqa: «Avesto» dan avval ham kitob yaratilgan. «Avesto» nozil bo'limgan, inson tomonidan yaratilgan. Muallif «Avesto» birinchi kitob deb sarlavha qo'yadi-yu, lekin quyiroqda "...eng qadimgi yozma manbalardan biri sifatida tilga olish mumkin", - deydi.

Matn boshida «Avesto» kiyik terisiga yozilgani ta'kilanadi, quyiroqda esa "Podshoh Doro ibn Doro xazinasida (Abistonning) o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan..." -deb xabar beriladi.

Bir o'rinda "Iskandar Zulqarnayn bu yurtni bosib olib...deyilsa, biroz quyida Aleksandr Maqdo'niy O'rta Osiyoga yurish qilgan..." jumlasida bir shaxs ikki xil nomda ataladi.

Matnda bir-biriga zid fikrlar uchraydi. Masalan: "«Avesto» yo'q qilib yuborilgan; bosqinchilar yurtiga olib ketilgan".

Quydag'i jumla esa na til, na uslub va na gramatika me'yorlariga mos emas. "Biz Qur'on bo'laklarini haftiyak deganimizdek, nask Abisto bo'laklaridan har bir bo'lakning nomidir".

Bizningcha izohga xojat yo'q!

Faqat matn umumiyligi tavsifidan so'ng va ana shu tavsifga ko'ra sharhda til va uslubga xos kamchiliklar tahlili beriladi, grammatic xatolar aniqlanadi. Bunday tartibda tahlil qilish matnga muharrirlik nuqtaiy nazaridan yondoshishning o'ziga xos jihatini aks ettiradi.

Aslida matnni bunday tahlil etishlik uni baholash tarkibiga kiradi.

Matnni uyg'unligi yaxlitlik garovidir. Matnga bag'ishlangan ilmiy asarlarda u to'qimaga o'hshatiladi, ayrim adabiyotlarda esa matn – muallifning o'z so'zi, deb tariflanadi, yana bir boshqa manbada yozilgan yoki bosilgan, maqola, ichidagi chizma, tasvir, izoh eslatma va boshqalar bundan istisno, deb ko'rsaktiladi. Matnni tushunish uchun bir-biridan ajratilgan iboralarning ma'nosini aniqlash kifoya qilmaydi. Chunki har bir keyingi ibora, avvalgisining ma'nosini ham o'z ichiga olgan bo'ladi. Shuning uchun har qanday to'qima matoning birligina ipini uzish bilan unga putur yetkazgandek matn to'qimasiga ham ehtiyyotsiz bir harakat bilan zarar etkazish mumkinligini muharrir doimo yodida tutishi lozim.

Matnni baholashda, unga juda arzimagan darajada bo'lsin kiritilgan o'zgartishga ham chuqur e'tiborni qaratish lozim. Chunki, bunday o'zgartishda ham talqin, ham ichki bog'liqliklar (shakl va mazmun uyg'unligi) e'tiborga olingan, har bir jumladagi fikr aniqlangan bo'ladi.

Muloqat (komunikatsiya) tizimidan tashqarida matn uzuq-yuluq bo'ladi. Uning mazmunida ta'bir joiz bo'lsa, turli xajmda mazmuniy

“o‘pqon”lar uchraydi. O‘quvchi matnni idrok etish jarayonida bunday “o‘pqon”larni to‘ldirib borishi kerak bo‘ladi. Demak, matnni to‘g‘ri va to‘liq tushunish uchun kerakli bo‘lgan bilimlarga ega bo‘lishi yoxud oldingi bayon navbatdagi mazmuniy “o‘pqon”ni to‘ldirishga ko‘maklashishi lozim bo‘ladi. Agar mazkur shartlar bajarilmasa, muallif bilan o‘quvchi o‘rtasida tushunmovchilik yuzaga keladi, tushuncha hosil bo‘lmaydi. Qo‘lyozmani baholash jarayonida bu jihatni e’tiborda tutish qanchali muhumligi shundoq ham tushunarli.

Tajribadan ma’lumki, matnning bir-biridan ancha narida joylashgan unsurlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni xotiraning lahzada o‘zgarishini hisobga olsak, ya’ni bir mulohaza xotirada qisqa muddat saqlanishi, o‘rnini boshqa mulohaza olishi tufayli ular biri ikkichisiga o‘mini bo‘shatishi tabiiy hol. Shunga ko‘ra bir-biridan narida joylashgan unsurlarning bir xil emasligi yoki mantiqan zid emasligini “tutib” qolish muharrirdan chuqur malaka, ko‘nikma va tajriba talab etadi. Matn qismlari (parchalari) o‘rtasidagi mavjud bog‘liklik muharrir xotirasida birdek saqlanishi lozim. Aks holda qo‘lyozma qoniqarli baholanmagan bo‘ladi.

Matn tahlili yoki tahriri paytida **biror** so‘z qo‘srimcha aniqlashtirishga muhtoj bo‘lsa, darhol shunday aniqlik kiritish kerak va mazkur so‘z boshqa – ikki xil ma’noda ifoda berishi mumkinligi haqida ogohlantirish maqsadga muvofiqdir.

Matn unsurlariaro bog‘liqlik (jipslik)ni ta’minlovchi vositalar turli, faqat nisbatan kam hollarda grammatik vositalar shunday vazifani bajaradi.

Rasmiy hujjatlar, ilmiy asarlar matnlarida birinchi o‘rinda mantiqiy uyg‘unlik (bog‘liqlik) turadi va bu aniq seziladi. Badiiy,

shuningdek publisistik (ayniqsa badiiy-publitsistik asarlarda matn unsurlariaro bog'liqlikni obrazlar tizimi ta'minldaydi, ko'pincha bu fikran bog'lanadi.

Gazeta sahifasidagi qisqacha xabarda bosh tamoyil kam so'zdan foydalanib, ko'p ma'lumot etkazish hisoblanadi. Har bir jumlaga mustaqil xabar etkazuvchi sifatida qarash mumkin. Jumlalararo bog'liqlik esa joylashish tartibiga ko'ra, mantiqiy ketma-ketlik asosida yuzaga chiqadi.

Axboriy materiallarda matn unsurlari o'rtaqidagi bog'liqlikning tamoyillaridan biri takrordir. Bu ham o'quvchiga mazmunni nazardan qochirmasligiga imkon beradi. Bunday takrorlar uslubiy ortiqchalikning namoyon bo'lishi deb hisoblanmaydi, agar yetakchi, asosiy ma'noni ifoda etuvchi so'z takror kelsa. Bunday so'zlarning takrorlanishini qaytariq yoki xato sanab, uni sinonimi bilan almashtirish fikrning aniqligi, aniq ifoda yo'qolishiga, terminning ma'nosiga putur etkazishga sabab bo'ladi. Masalan, gazetadagi bir xabarda

"... Italiyadan keltirilgan rotatsion qolip mashinasi..."

o'rnatilgani aytildi. Keyingi jumlada esa "*rotatsion qolip mashina*" go'yo sinonimi "*dastgoh*" bilan almashtiriladi. Birinchi gapdagi termin ayni bir narsa ma'no ifodasini bersa, ikkinchi o'rindagi sinonimi umumiy tushunchani ifoda etadi, nima ekanligi ham noma'lumdir. Shuning uchun bu parchada takror tamoyili o'rinali hisoblanadi.

Mazmuniy uzilishni bartaraf etishda aytish mumkinki, muallif bilan muharrir ijodiy hamkorligi yuzaga keladi. Bu ayniqla adabiy

asarni anglash jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Biror asarni yaratganda barchasini muhayyo etish hammasini ikir-chikirigacha bayon qilish o‘quvchi uchun zerikarlidir. Agar biror chizgi yoki birin-ketin chizgilar, qandaydir nozik ishora, nimagadir qilingan sha’ma, shubha yo‘qki, o‘quvchi uni tushunadi yoki o‘zi o‘ylab topadi. Shuning uchun muallif xayolat ummonini butkul o‘zi qamrab olmasligi, o‘quvchiga ham bu ummonda erkin suzishi uchun, kengliklar qoldirishi kerak.

Baholash vaqtida matnni boshqacha – noto‘g‘ri talqin etilishining oldini olish uchun intilib, uni haddan tashqari siqib suvini chiqarish – quritib yuborish ham uni o‘quvchi uchun qiziqarsiz qilib qo‘yishi mumkin. Biroq, muharrir uchun boshqa yana bir xavf mavjud. U ham bo‘lsa, matnda o‘quvchi to‘ldira olmaydigan darajada mazmuniy uzilish qoldirishdir.

Gazetada bosilgan materialdan olingan quyidagi parchani diqqat bilan o‘qib chiqamiz:

“Ma‘lumki, nashriyot raqamlari xalqaro standarti ISBNni boshqarish uchun ISBN xalqaro agentligining har bir mamlakatda mustaqil faoliyat olib boradigan Milliy agentligi tuzildi. Mamlakatimizda bu vazifani bajarish O‘zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasi zimmasiga topshirildi. Uning qoshida shu munosabat bilan “ISBN va ISSNning milliy agentligi” bo‘limi tashkil etildi.

Keyingi chorak asr mobaynida dunyo bo‘ylab nashr etilayotgan kitoblarning soni ortdi. Bu esa, o‘z navbatida, har bir kitobni muayyan tartibda aniqlashga mo‘ljallangan raqamlash tizimining yaratilishiga asos bo‘ldi. Kitoblarni xalqaro standart raqamlash tizimi - ISBN bundan 47 yil muqaddam ta’sis etilgan. ISBNda hozirda

160dan ziyod davlat qatnashmoqda. Bu tizimga Berlin shahridagi ISBNning xalqaro agentligi rahbarlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro ISBN tashkilotiga a'zo bo'ldi. O'zbekiston matbuot va axborot agentligi, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasi tomonidan tashkil etilib, 2006 yilning sentabr oyida Toshkentda o'tkazilgan xalqaro anjumanda bu haqda ma'lum qilindi... ”.

Aytish mumkinki, ko'pincha bunday kamchilik matn qisqaligiga erishishga intilish tufayli yuz beradi. To'g'ri, qisqa xajmda ko'p mazmun yuklash gazetalar uchun xos. Lekin, bunday muvafaqiyatsizlikni hech bir sabab bilan oqlab bo'lmasligini muharrir qo'lyozmani baholashda hamisha yodda tutishi kerak.

Matnni yozuvda qayd etish (aks ettirish) yozma nutqning muhim sifatlaridan hisoblanadi, unga og'zaki nutqqa nisbatan muayyan afzallik baxsh etadi. Nutqning mazkur ikki shakli – og'zaki ham yozma – tinglovchi, o'quvchining matn mazmunini tushunishligini osonlashtiruvchi turli vositalari mavjud.

Shuni ta'kidlash joizki, hech kim hech qachon aytganidek yoza olmaydi va hech qachon yozganidek aytta olmaydi. Og'zaki nutqni tinglab, mazmunini ilg'ash makon va zamonda chegaralangan. Nutq mavjud vaqtagina tinglovchi uchun u mavjud bo'ladi. Aytilgan fikrga qaytish uchun, u albatta qaytarilishi (takrorlanishi) lozim. Yozma nutq (matnni) biz bir chetga qo'yib qo'yishimiz, mulohaza yuritishimiz va unga yana qaytishimiz mumkin.

Yozma nutqning tuzilishi ancha murakkab. Unda turli belgilardan iborat unsurlar bo‘ladi, masalan, raqamlar, chizmalar, tenglamalar, rasmlar va boshqalar. Yozma nutq atalganidan mustaqil va tahliliy fikrlash talab etiladi. Yozma nutqda materialni jadval shaklida berish imkonи mavjud. Yozma va bosma harflar matnда faqat grammatik shakl vazifasini bajarmaydi, balki, so‘z ma’nosidagi emotsional bo‘yoqni ham ifoda topdiradi. Zero har bir so‘zning genetik hamda ko‘chma ma’nosi jumla tarkibida ayonlashadi.

Xat boshi (abzas) dagi satr surilgan joy matn arxitektonikasining grafik ko‘rinishigina emas, ko‘p hollarda yozilganning alohida ma’no ifodasi mavjudligini ham anglatadi. Publisistlar xat boshining bu xususiyatidan keng foydalanib, matnning grafik shakliga e’tiborni jalb etadilar. Masalan:

*Siz bu ulug‘vor imoratni kim qurdirganini bilishni istaysizmi?
Bu tabarruk ism:*

Sohibqiron Amir Temur Tarag‘ay Bahodir.

Matnni yaratishning grafik usullari bilan muallif izohi va yoki sharhini mutanosiblash fikrga urg‘u berishning ta’sirchan usuli hisoblanadi.

Fikrga yoki biror so‘z ma’nosiga urg‘u berishning ta’sirchan vositalaridan biri grafik usul bilan muallif izohini uyg‘unlashtirishi hisoblanadi. Masalan,

“Ayni mahalda shunisi ham muhimki, u (muholifat – izoh bizniki A.N.) tashkiliy jihatdan rasmiy lashgan, tegishli yuridik maqomga

ega bo'lishi, Konstitutsiya va qonun me'yorlarini hurmat qilishi, o'z harakatlari bilan shakllanadigan davlat va ijtimoiy tuzumning qat'iy, barqaror holati uchun mas'ul bo'lishi, davlat qurilishining muqobil loyihalariga ega bo'lishi lozim"

O'zbek tili imlosi tomonidan qabul qilingan tinish belgilari ham nozik ma'no ifodasini beradi. Bular, ayniqsa, davlat ahamiyatiga molik qonunchilik hujjatlarining matnida yaqqol namoyon bo'ladi. Qo'lyozmani baholash bosqichida yuqorida qayd etilganlar albatia inobatga olinishi lozim.

Matnning qo'lda yozilgan, mashinkada yozilgan (o'tmishda mashinkalar mavjud edi), kompyuterda bosilgan va boshqa turli poligrafiya usulida terilgan, display ekranida qayd etilgan (matnning namoyon bo'lishi).... Muharrir yuqoridagi usullar har birining imkoniyatlari va o'ziga xos jihatlari bilan yaxshi tanish bo'lishi kerak.

Bosma matn qo'lyozmaga xos individual xislatlardan holi bo'ladi va qayd etilgan matn yuqori darajada aniqlik va tashkilashtirilganlik xususiyatiga ega bo'ladi. Har bir nashr matni shu nashr turiga muvofiq, shuningdek gazeta matni ham o'ziga xos qulaylik tug'dirish maqsadida shakllantiriladi. Harf hajmi (kegli) ni, satr uzunligi, satrlararo oraliq (interval)ni tanlash va boshqalar maqbul shaklga bo'lganligiga e'tibor beriladi.

Matnni qayd etishning turli usullarini qo'llab, shuningdek uning grafikasini belgilab, muharrir har bir son (gazeta, jurnal) ning auditoriya uchun muvofiqligini va janriy tuzilishini aniqlaydi, gazeta sahifasi ichki shakllari unsurlarining o'zaro bog'liqligi (aloqadorligi)ni baholaydi. Buning barchasi kerakli materialni oson

topish imkonini beradi.

O‘ziga xos grafik yechimni izlashda shuni yodda tutish lozimki, tashqi ko‘rinish jozibasi orqasidan quvish, yaxshi natija beravermaydi. O‘quvchi e’tiborini jalb etish uchun sun’iy ravishda “so‘z o‘yinlari” qilish, odatda har doim ham e’lon qilinadigan material mazmuniga uyg‘un kela bermaydi. Bu shubhasiz qo‘lyozmaning kamchiligi hisoblanadi.

2010-yil 14-yanvardagi “Hayot” gazetasining 15-betidagi material sarlavhasiga e’tibor beraylik. Sarlavha:

Sovuq kunlarda sovuq mijozlilarga tavsiya

Mazkur sarlavhani qanday tushunish kerak?

- 1) *Tavsiya sovuq kunlarda sovuq mijozlilarga beriladi;*
- 2) *Sovuq kunlarda tavsiya sovuq mijozlarga beriladi;*
- 3) *Sovuq mijozlilarga tavsiya sovuq kunlarda beriladi;*
- 4) *Sovuq mijozlilarga sovuq kunlarda tavsiya beriladi.*

Har qanday shaklga solmang asosiy maqsad aniqlanmaydi. Maqsad esa, *sovug kunlarda mijizi sovuqlarga tavsiya*. Sovuq mijozli birikmasining ma’no ifodasi esa mijoz (klient)ning sovuq ekanligini anglatadi.

Sarlavha yuqorida aytganimizdek “so‘z o‘yini” dan, nazm usulidan foydalanib jarangdor, jozibador bo‘lishiga erishish maqsadida tuzilgan. Lekin mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yilgan. Sarlavha bilan matn mantiqiy uyg‘unligiga putur yetgan. Quyidagi parchaga e’tibor bering.

Qishdagи nonning yoznikidan ko‘ra mag‘zi to‘q bo‘lishi kerak.

Go'sht ham shunga ko'ra tanlanadi. Sabzavot va ko'katlardan karam, lavlagi, petrushka, gulkaram, semizo't, sachratqi iste'mol qilish naf keltiradi. Qishda ovqatni issiq holda (issig'i chidab bo'lmas darajaga etmasligi kerak) iste'mol qilish lozim.

Sarlavhadan sovuq kunlar haqida so'z borishi ma'lum bo'ladi, keltirilgan parchada ham faqat qish so'zi uchraydi. Ammo iste'mol etiladigan sabzavot va ko'katlar orasida semizo't, sachratqi uchraydi. Vaholanki, bu o'tlarni qishda hatto issiq xonalardan ham topib bo'lmaydi!

Keltirilgan parchaning birinchi jumlasida fikr mutanosibsizligi mavjud. Bu jumlada *qishdagi non mag'zi to'q bo'lishi kerakligi* ta'kidlanmoqchi. Ana shu ta'kid qiyoslov orqali yuzaga chiqarilmoqchi, ya'ni yoznikiga qiyoslanmoqda. Ammo mazkur holda hamon qiyoslanmoqchi ekan va bu qiyos mantiqan to'g'ri bo'lishi uchun qiyoslanadigan sub'ekt va qiyos bo'layotgan ob'ekt mantiqan mutanosib bo'lishi talab etiladi.

Demak, *qishdagi* va *yozdag'i*; shunda har ikki so'z bir xil-payt ma'no ifodasini beradi, mantiqan uyg'unlik ta'minlanadi. Yuqoridagi parcha esa birinchisi payt ma'no ifodasini bersa, ikkinchisi tegishlilik ma'no ifodasini beradi. Tahrir mantiqiga ko'ra mazkur konstruksiya *qishdagi nonning yozdag'i nondan...* tarzida yoki *qish nonining yoz nomidan ...* tarzida bo'lishi lozim.

Ma'lumki, bir jumladan ikkinchi jumлага o'tishda fikr tadrijiylikka ega bo'lishi, ya'ni mantiqan biri ikkinchisini to'ldira borishi yoki avvalgi fikrni yanada mustahkamlashi yohud tasdiqlashi tahrir ilmida isbotlangan qoida.

Lekin biz yuqoridagi misolda birinchi va ikkinchi jumlada

fikr ziddigini ko'ramiz. Birinchi jumlada "... nonning mag'zi to'q bo'lishi bildirilmoqda. Ikkinci jumlada "Go'sht ham shunga ko'ra tanlanishi" fikri berilmoxda. Go'yo ham bog'lovchisi ikki jumlanı bir-biri bilan fikriy uyg'unligini ta'minlaydigandek. Lekin go'sht nimaga ko'ra tanlanidi, degan savol tug'iladi. Har ikki jumladagi sikrlar uyg'unligi talabi bo'yicha shunga ko'ra birikmasi mantiqiga asosan ham nonga ko'ra, ham nonning mahziga ko'ra tanlanishi lozim bo'ladi. Lekin tahrir mantiqiga, mantiqiy fikrlash qoidasiga to'g'ri kelmaydi. Har ikki jumladan anglanayotgan fikr bir-biriga mantiqan uyg'un emas, garchi, ham bog'lovchisi tufayli ma'nan uyg'undek tuyulsa-da.

Endi uchinchi jumlaga kelsak, u o'zidan oldingi ikki jumladan mutlaqo mustaqil, matn umumiylazmuniya ko'ra ayrim fikri ifoda etadi. Demak u xat boshi (abzas) dan yozilishi lozim.

Matn bilan to'liq tanishilsa, unda mijozni sovuq kishilarga saqat qish oylarida emas, balki boshqa fasllarda ham amal qilishi lozim bo'lgan maslahatlar yo'q emas. Demak, sarlavha mantiqan to'g'ri tanlanmagan. Matndagi fikri mustahkamlash, shuningdek ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilishi lozim bo'lgan tasvir ham matn mazmuniga mos emas.

Surat mijozni sovuq kishinikimi? Uni qanday bilish mumkin? Burniga ro'molcha tutib turishdimi?

Aslida surat tumov odamniki. Mijozi issiq ham tumov bo'lishi mumkin-ku! Bunda surat bilan matn mantiqan mutanosib emasligi yaqqol seziladi. Ana shunday tahlilgina qo'lyozmani to'laqonli baholash imkonini beradi.

Muharrir xamon qo'lyozmani baholar ekan matnni mustahkam-lovchi usullardan yaxshi xabardor bo'lishi, bunday vositalar aniq,

mantiqan matn mazmuniga mos bo‘lishi lozim.

Yozma nutq nutqiy faoliyatning eng aniq va ochiq-oydin turi. Xaito aynan yozib olingan og‘zaki nutq ham matn hisoblanmaydi. **Matn** – ongli ravishda tuzilgan nutq ijodchiligining natijasi, nutqiy asar.

Suhbatdoshning nutqini ifoda etuvchi matnni tuzish muallif adabiy faoliyatining alohida turidir. Agar matnda so‘zlashuv nutqiga oid unsurlar qoladigan bo‘lsa, ular albatta, materialning dalil-langanligini, ishonarliligin va o‘quvchiga hissiy ta’sirni saqlashga xizmat qilishi kerak. Bunga faqat umumiyligi mulohazaga ko‘ra va shunda ham matnga qunt bilan ishlov berilgan bo‘lsagina erishish mumkin. Quyidagi ikki parchaga e’tibor beraylik:

— Siz meni qanday tanigan bo‘lsangiz-bo‘lingiz, men o‘shandog‘ kishining o‘g‘li! — dedi bek. — Men bilan otam siz bilan qushbegiga bir necha turli bo‘lib tanilsakda, o‘z vijdonimiz oldida bir turligina-durmiz! Shuning uchun siz tilagan tarafingizga hukm qilingizda, buyrug‘ingizni beraveringiz!

Ushbu parcha “O‘tgan kunlar” asaridagi faqat bitta personajga, ya’ni Otabekka tegishli, boshqa biron-bir personaj nutqida uchramaydi. Qo‘lyozmani baholashda, albatta, so‘zlovchi nutqiga xos unsurlarga alohida e’tibor berish kerak, garchi ular adabiy til talaffuziga to‘g‘ri kelmasa-da! Chunki ayni shu unsurlar obraziliylikni ta’minlaydi. Qo‘lyozmani baholovchi uni xis etishi lozim.

Amaliy faoliyatida yozib olingan og‘zaki nutqni, masalan, intervyyuni e’lon qilish uchun matbuotga berishda, matnga ishlov

berishga to‘g‘ri keladi. Bunday paytda yozma nutqning og‘zaki nutqdan farqli jihatlarini bilish zarurdir. Xususan, shunday nashrlarning mualliflari bir-biridan farq qiluvchi tavsiyalar berishdan, o‘rinli o‘rinsiz nutqga ilmoqli so‘roqlarni kiritishdan, ritorikaga ruju qilishdan saqlanishi kerak bo‘ladi.

Ayni mana shu og‘zaki nutqda yangi so‘zlar, g‘ayriodatiy grammatik shakllar uchraydi, muharrir bulardan foydalanish qay darajada maqbul yoki maqbul emasligini aniqlash lozim. Eng qiyini matnga adabiy ishlov berishda suxbatdoshning talaffuzi (intonasiyasiga ishlov berishdir. So‘zma-so‘z yozib olish ham uning ifodasini aniq bera olmaydi. Intervyu olinadigan vaziyatni yuzaga keltirish usulini topish muhum ahamiyatga molikdir. Suxbatdoshning kayfiyatini tushunishi, uning shaxsiy xislatlarini payqash, nutq maromini aniq bera olish va h. nihoyatda muhim sanaladi.

Jurnalistika asari uchun *axboriylik* eng muhum hislat hisoblanadi. Ma’lumotlarni e’lon qilish deb tushuniladigan, umumetirof etilgan izohidan tashqari “xabar” terminining jurnalistikada bu ma’lumotlarning yangi bo‘lishi lozimligi ham tushuniladi.

Ma’lumki, ommaviy axborot vositalarining nashrlari keng auditoriyaga mo‘ljallangan, muhimligiga ko‘ra turli darajada. mavzuga ko‘ra rang-barang xabarlardan iborat bo‘ladi.

Bular, albatta, siyosiy, iqtisodiy, madaniyat, ijtimoiy turmush sohasidagi dolzarb hodisa va muammolar haqida bo‘ladi hamda umum diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etadi. Bunday xabarlar bilan bir qatorda “hayot badiiyati” haqida ma’lumotlar – xabarlar ham bor bo‘lib, ular kutilmagan vaziyat, xatti-harakat, kelishmovchiliklar va h.dan iborat. Aksar hollarda turli shov-shuvlarga ham sabab

bo‘ladi.

“Jurnalistika asari matnining axboriyligini belgilash o‘quvchi-larning bilim darajasi haqidagi va vaqt olishini hisobga ola bilish omili bilan belgidanadi.

Matn qismlari xabarning o‘z pragmatik mohiyatiga ko‘ra turli mazmunga ega bo‘lishi mumkin. Ommaviy axborot vositalarining ko‘pgina nashrlari uchun yuz bergen, yuz berayotgan hamda yuz beruvchi hodisa va jarayonlar haqidagi xabar tarzidagi matn qismlari birinchi o‘rinda turadi. Bulardagi xabarlar matnni hayot bilan bog‘laydi. Albatta, matnning mazkur qismlari verbal (so‘zlar yordamida) ifodalanadi, til birikmalari o‘z genetik ma’nosiga ko‘ra asosli-mantiqiy mazmunda qo‘llaniladi.

Matn muallifining nuqtai nazari ifoda topgan ma’lumotni aniqlash, hodisalararo bog‘liqlikni idroklash, ular mohiyati va sababini belgilash, muallifning narsa, voqeа, hodisani baholash usuli hamda mazmuniy bog‘liqlik tahlil etilishini talab qiladi. Bunday ma’lumot butun matndan olinadi. Ochiq berilmaydigan, mulohaza yuritib ilg‘ab olinadigan ma’lumotlarni payqay olish ancha murakkab. Bunday usulda ma’lumot berish badiiy adabiyotlar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday ma’lumotlar verbal ifoda topmaydi ular fakt (dalil)lar haqidagi xabarlarda mavjud bo‘ladi va qo‘sishimcha, ko‘pincha, ilg‘ab olish qiyin ma’nolarni beradi. Ommaviy axborot vositalarining nashrlarida bunday ma’lumot berishdan foydalanish kamdan kam kuzatiladi.

Ma’lumotlarga boylik va yangilikning mavjudligi darajasiga ko‘ra xabarlar quyidagi sifatlarga ega:

-*asosiy*;

- *aniqlashiruvchi*;

- *qo'shimcha*;

- *takroriy* hamda Yevropa jurnalistikasi tilida *nul* deb ataluvchi.

Albatta matnni baholashdan oldin xabarlarning ushbu jihatlarini farqlab, ajrata bilish lozim.

Asosiy xabar, bu – eng nodir hisoblanadi. U yangilik xabardir.

Aniqlashtiruvchi xabar esa asosiy ma'lumotni yetkazuvchi matnning qismlari bilan bog'liq bo'ladi. U yangi ma'lumot yetkazmaydi, balki xabar qilinganni aniqlashtiradi, xolos. Masalan, ular vaqt va makon (joy)ni ko'rsatuvchi, tafsilot beruvchi bo'lib, yangilikni aniq-ravshan bo'lishiga ko'maklashadi, yangilikning ishonchligini alohida ta'kidlaydi va to'g'rilagini isbotlaydi.

Aniqlashtiruvchidan farqli o'laroq **qo'shimcha xabar** asosiy ma'lumotni beruvchi matn qismlari bilan bevosita bog'liq bo'l-maydi. Uni matnga kiritishda ayrim muammolar yuzaga kelishi mumkin, masalan, fikr izchilligiga putr yetishi, ma'noviy uzilish hosil bo'lishi mumkin, natijada matnning bog'liqligi buziladi.

Takroriy xabarda yangilik bo'lmaydi, u avvalo xabar qilinganning qaytarig'i bo'ladi, xolos. Hamon xabar ma'lum ekan takroriy xabar ortiqcha hisoblanadi. U faqat ritorik maqsadda bo'lishi, ya'ni uslubga xizmat qilishi mumkin.

Nul xabar deganda nutqning bir parchasi tushuniladi, u har qanday semantik (ma'noviy) ma'lumotdan holi bo'ladi (izohlar, "mag'zi puch so'zlar", betaraf sas). Bunday xabar mantiqsiz nutq parchasi sifatida, faqat yaxshi matn tuzishda "qo'shimcha qurilish unsuri" sifatida ishtirok etadi, xolos. Ko'p hollarda muallif nutqiy mahorati darajasi pastligidan dalolat beradi.

Asosiy ma'lumot etkazuvchi nutq qismlari bilan boshqa tur ma'lumot etkazivchi qismlar nisbati matnning axboriylik darajasi

(koeffisienti)ni belgilaydi.

Shuning uchun yuqoridagilarga alohida e'tibor qaratish zarur. Jurnalistikaga oid ilmiy amaliy adabiyotlarda bu ko'rsatkich, ya'ni matnning ma'lumotga to'yinganlik darajasi – 0,4 – 0,6 bo'lsa, bu eng samarali hisoblanadi, deb ko'rsatilgan. Agar ko'rsatkich yuqoridagi me'yordan oshib ketsa, uni idroklash murakkablashadi. Agar ko'rsatkich **undan** past bo'lsa, matn o'quvchida qiziqish uy-g'otmasligi mumkin. Bular barchasi baholash bosqichida aniqlanadi.

Quyidagi gazeta materialini ko'rib chiqaylik.

Insonning asab-ruxiy tizimidagi har qanday o'zgarishlar butun vujudga aks-sado berishi tabiiy Inson aattiq havaionlanganda birinchi bo'lib yurak ikkinchi bo'lib oshqozon va uchinchi bo'lib ichaklar ta'sirlanar ekan.

Bundan ko'rinish turibdiki stresslarda oshqozon ya ichaklar tizimi birinchilar safida ziyon-zahmat chekar ekan.

Oshqozonga ko'rsatilgan bu ta'sir, ya'ni stresslar. oshqozonning shilliq qavatida joylashib, xlorid kislota ishlab chiqaradigan bezlar faoliyatining kuchavib ketishi bilan ifodalanadi.

Oshqozon ichida uzoq muddat kuchli kislotali muhit bo'lishi uning shilliq qavatining oshirila borishiga sabab bo'ladi.

Xlorid kislotaning kuchavishi dastavjal oshqozon shilliq qayatini yallig'lantiradi, keyinchalik turli shaklli ya o'lchamli yaralarning pavdo bo'lishiqa sabab bo'ladi.

Asosiy ma'lumot, yuqoridagi parchada, yangilikning mohiyatini

ko'rsatadi (tagiga ikkita chiziq tortilgan nutq bo'lagi). Ma'lumotni aniqlashtiruvchi yangilik, mutloq emas, u barcha uchun birdek dolzarb emas (tagiga bitta chiziq tortilgan nutq bo'lagi).

Qo'shimcha ma'lumot kiritish (to'lqinli chiziq tortilgan nutq bo'lagi) hamisha ham o'rini bo'lavermaydi. Qo'shimcha ma'lumot yangi ma'lumot uchun asos bo'lishi mumkin, lekin matnda bunday bo'lgan emas. O'quvchi bu ma'lumotning mohiyati haqida tahmin qilishi mumkin.

Takror ma'lumot qandaydir uslubiy vazifani o'taydi (tagiga uzuq-uzuq chiziq tortilgan nutq bo'lagi) va u yangi ma'lumot bermaydi, aytilganning xulosasi bo'lishi mumkin.

Nul matn (tagiga uchta chiziq tortilgan nutq bo'lagi)ning matn mazmuniga hech qanday aloqasi yo'q. Matnni shakllantirishga xizmat qiladi.

Asar qo'lyozmasini to'g'ri va har tomonlama baholash tahrir ishini to'g'ri rejalashtirish imkonini beradi. Natijada nashriyot tez va soz kitob chiqarishga muvaffaq bo'ladi. Aks holda tahrirdan keyingi jarayonlar ham cho'zilib ketadi, qiyinlashadi, nashr muddati o'z vaqtidan ikki-uch baravar kechikadi.

Bugungi kunda nashriyot-matbaa ijodiy uylarining har biri o'z nizomiga ko'ra qo'lyozmani baholash uchun muayyan muddatlarni belgilagan. Bozor iqtisodiyoti va raqobat mavjud bo'lgan sharoitda aniq muddatni qat'iy belgilab qo'yish ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan maqbul bo'ladi. Moddiy jihatdan juda maqbul ekanligi kitob qancha tez chiqsa va sotilsa, pul aylanishi jadallahashi, sof foyda ko'payishi bilan izohlash mumkin.

Ma'naviy jihatdan maqbul deganda, axborot globallashuvi,

shuningdek, axborot almashinuvi jadallahsgan asrimizda ma'lumotlarning yangilanish muddati tobora qisqarmoqda, shunga ko'ra asarning ma'naviy eskirishi nazarda tutilmoqda.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda, na'muna tarzida quyidagi muddatlarni tavsiya etish mumkin: avvalo shuni aytish joizki, nashriyotga qabul qilingan har bir qo'lyozma taqdirini hal etuvchi baholash jarayonini belgilangan muddatda o'tkazish shart.

Shartnoma asosida nashr etiladigan qo'lyozmalarni baholash muddati 30 kun deb belgilanadi. Bu muddat qo'lyozma nashriyotga topshirilgani qayd etilgan kundan boshlab hisoblanadi. Agar qo'lyozma hajmi shartnomada belgilanganidan ortib ketgan bo'lsa, u ham hisobga olinadi, har bir muallif taboq uchun 4 kun qo'shimcha muddat tayinlanadi.

Shartnomalarsiz kelgan qo'lyozmalarni baholash uchun quyidagi tartibda muddat belgilanishi mumkin: hajmi 10 muallif taboqgacha bo'lganlari uchun 3 oygacha, bundan ortiq har bir muallif taboq uchun ko'pi bilan bir hafta.

Qo'yozmani baholashda, u murakkab va mas'uliyatli jarayon bo'lganligi uchun bir qator mutaxassislar ishtirok etishi mumkin. Lekin bunda bari bir muharrir katta ahamiyatga molik hisoblanadi. Xulosada (qo'lyozmaga baho berilgan hujjatni shunday atash qabul qilingan) asosli fikrlarga tayanib muharrir quyidagi qarorlardan birini taklif qilishi mumkin:

1. Qo'yozmani nashr etish mumkin.
2. Qo'yozmani qayta ishlash uchun muallifga qaytarish kerak.
3. Qo'yozmani nashr etish maqsadga muvofiq emas.

Asar matni (qo‘lyozmasini) tuzatishga kirishishdan oldin muharrir matn bilan tanishadi va sinchiklab o‘qib chiqadi. Matnni filologik nuqtai nazardan an’anaviy tahlil qilish va tahrir amaliyoti xususida bir oz to‘xtalib o‘tamiz, zero, matnni **tuzatish** bo‘yicha bularsiz aytilmoqchi bo‘lgan fikr to‘liq bo‘lmaydi.

«Til yordamida murakkab ma’lumotlarni inson tomonidan qayta ishlash jaroyonini o‘rganib psixolog (ruhshunos) lar erishgan natijalar tahrir amaliyotidagi mavjud matn tahlili usullarini tushunishga yordam beradi»².

Tahlil jarayonida asosiy e’tibor matn talqin (variant) larini qiyoslashga, qaratiladi. Qiyoslash jarayonida esa tabiiyki, tuzatishlar kiritiladi, natijada matnning ikki talqini yuzaga keladi: birinchisi, muvaffaqiyatsiz chiqqani; ikkinchisi, tuzatilgani. Axborot texnologiyalari boshlangan bugungi kunda matnni qiyoslashda yangi imkoniyatlar yuzaga keldi. Bunga muharrirning mehnati zamonaviy texnika vositalari bilan ta’minlanganligi sabab bo‘ldi. Muharrir matn talqinlarini qiyoslash uchun, ularni bir vaqtda display ekraniga chaqirish imkoniga ega. Bunday qiyoslash ancha qulay. Chunki ikki qiyoslanuvchi talqin muharrir ko‘z o‘ngida yaqqol namoyon bo‘ladi.

G‘arb tahrir nazariyasida muharrirning tahrir oldi matnni baholashda, tahlilida **tajribaviy usul** alohida o‘rin tutadi.

Biror so‘z yoki biror iboraning ma’nosini haqida fikr bildirishda bir qator turli iboralarni keltirish mumkin. Tilshunoslik tajribasi so‘z biri ikinchisini almashtirib yoki o‘mini yohud ifodasini o‘zgartirib erkin

² Qurang: Nakaryakova K.M. Lingvistika i redaktirovanie. Iz istorii analiza teksta / Kniga: Issledovaniya i materiali. Moskva, 1988. - 55-68-b

birikmaga kirishishida ma'noviy farqlanishini kuzatishdan iboratdir.

Mazkur usul natijasiga ko'ra til «salbiy materiali» degan tushuncha paydo bo'ldi. Muvaffaqiyatsiz fikr ifodasiga nisbatan «bunday deyilmaydi» degan baho beriladi. Salbiy material deganda tushunish mumkin bo'limgan yoki tezda tushunib bo'lmaydigan, yoki tushunish qiyin bo'lgan material nazarda tutiladi.

Bunday material bilan ko'zda tutilgan maqsadga erishish mumkin bo'lmaydi. Demak, muharrir uchun tilshunoslik tajribasi til salbiy materialini aniqlashda qo'l keladi.

Uslubiy tajriba usuli ham mavjud bo'lib, mazkur usulga ko'ra matndagi uslubiy talqinlar sun'iy ravishda topiladi. Agar tilshunoslik tajribasi til me'yorlarini izlashga, til materialini tashkillashtirish qonuniyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lsa, uslubiy tajribani o'tkazish adabiy asar matnniga tizim sifatida qarashning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.

O'zgartirilishi lozim bo'lgan unsurning ahamiyatini belgilash va baholash tajribaning maqsadi hisoblanadi.

Uslubiy tajribada asosiy e'tibor til ijobiy materialiga qaratiladi. Bunda so'zning o'mini o'zgartirish, yoki uni olib tashlash, yoki bir qator sinonimlari bilan almashtirish nazarda tutiladi. Chunki, lingvistik tajribada grammatik sinonimlar, ya'ni grammatik ma'nosи bir-biriga yaqin so'zlar, iboralar va so'z birikmalari o'r ganiladi va qiyoslanadi. Natijada, oddiy nazar bilan ilg'ab bo'lmaydigan ma'nolar orasidagi nozik farq aniqlanadi.

Tilshunoslik tajribasi va uslubiy tajriba qo'lyozmani baholash uchun samarali usuldir. Ular mulohazalar talqinlarini tuzishda, til salbiy materialini aniqlashda, matnni tahlil qilishda uning vazifasini belgilashda va muharrir tuzatishlari usuli (metodikasi) ni asoslashda

ilmiy tadqiqotlarning natijalariga tayanish, asoslanish kerak bo‘ladi.

Matn, ma’lumki, o‘quvchilarning toifasi, qiziqish doirasi, maqsadi va h.ga ko‘ra turlicha o‘qiladi. Shular orasida biz jurnalist (noshir) lar uchun eng muhim matnni muharrirona o‘qishdir. Bugunga kelib matnni tahlil qilish usuliga ko‘ra o‘qishning uch turi mavjud: tanishish uchun o‘qish, chuqurlashtirilgan o‘qish va sidirg‘a o‘qish. Matnni birinchi ikki usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tanishish uchun birinchi o‘qishda asosiy e’tibor asarning mazmuniga qaratiladi. Bunday o‘qishda muharrir asarning g‘oyasi, mavzui, muallifning bayon usulini aniqlaydi, ya’ni matnga yaxlit ob’ekt tarzida qarab, baho beradi.

Tanishish o‘quvi – tez o‘qish ham deyiladi. Bunday tez o‘qish malakasini egallahsga muntazam suratda Mashq qilish tufayli erishish mumkin. Agar muharrir bunga erishsa, uning o‘qish sur’ati odatiy o‘qish sur’atidan uch – to‘rt barobar oshishi mumkin. Tez o‘qish bo‘yicha bir oz vaqt qilingan hamma qatori mashq tufayli muharrir bir daqiqada 300-400 hatto bundan ortiqroq so‘z o‘qishga muvaffaq bo‘ladi. Albatta, bunda **harfma** – harf yoki bo‘g‘inlab o‘qilmaydi. Satrlarga ko‘z yogurtirib, so‘zlar, so‘z birikmalari, satrlar, hatto, abzaslar matnning bir unsuri sifatida o‘qiladi. To‘g‘ri, bunday o‘qishga, ya’ni tez o‘qish malakasiga erishish ko‘pam oson kechmaydi. Buning uchun, avvalo, o‘qish odatidan qutilish talab etiladi. Jurnalistika fakultetining bakalavriant va magistrantlari tez o‘qish mashqini maxsus ishlab chiqilgan tizim asosida o‘qituvchining nazorati ostida bajarilishlari maqsadga muvofiqdir. Albatta, bunday mashg‘ulotga rahbarlik qiluvchi o‘qituvchining o‘zi, avvalo, muharrirlik ko‘nikma va malakasini yuqori darajada

egallangan bo'lishi lozim.

Chuqurlashtirilgan ikkinchi o'qishda muharrirning e'tibori har bir so'zning, matndagi har bir belgining mag'zini chaqishga qaratiladi. O'qilayotganning mazmunini tushunish uning tashqi shaklini aniq idroklashdan boshlanib, ma'nosini nazorat etish usulini qo'llash bilan yakunlanadi. Tafakkur jarayonining tadrijiy-ligi matnni o'qish harakatiga ko'ra belgilanadi. O'qishda harakat jumla iboradan yaxlit matnga o'tish jaroyonidan iborat bo'ladi. O'qishdagi bunday harakatda diqqatni jamlash ishni o'qish bilan bir vaqtida muharrirlik mulohazalarini ham qayd etib borishga imkon beradi. Matnni chuqurlashtirilgan o'qishda, uning qismlariga alohida e'tibor berish va har bir qismni o'qish bir qatorda bir yo'la mulohazalarni ham shakllantirib borish foydadan holi bo'lmaydi.

Sidirg'a o'qishga muharrir baholash bo'yicha matn ishlarining yakunlovchi bosqichida kirishadi. Bu o'qish aslida matnni so'nggi nazardan o'tkazish – nazorat o'qishi hisoblanadi. Mazkur o'qishda matn to'lig'icha – boshdan to oxirigacha yoki muayyan qism tanlab, sidirg'a o'qiladi va u muayyan maqsadni ko'zlab amalga oshiriladi. Masalan, ismlar, familiyalar, geografik nomlar bir xil yozilganligini tekshirish raqamlardagi ma'lumotlar, sanalar to'g'riligiga ishonch hosil qilish uchun sidirg'a o'qish usulidan foydalaniladi.

Ensiklopedik nashrlarda, ayniqsa, bunday o'qishning ahamiyati katta. Ensiklopedik matnlar har qanday boshqa adabiyotlarning matnlaridan o'zining qisqa va lo'ndaligi bilan ajralib turadi. Unda raqamli ma'lumotlar – sanalar, masofalar, havolalar, tenglamalar, qisqartmalar, ismlar, geografik nomlar, bir maqoladan boshqasiga havolalar, tinish belgilar, terminlar va b. ko'plab uchraydi. Bularning barchasi aniqlik, bir xillik va muvofiqlikni talab etadi.

Bunga, asosan, sidirg'a o'qishda muvaffaq bo'linadi.

Ensiklopedik asarlar matnni baholash jarayonida muharrir aniqlikka erishish uchun sidirg'a o'qishni matn ayrim unsurlari bo'yicha alohida-alohida o'qishni bajarishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, birinchi galda ismlarni, keyin havolalarni, so'ng qisqartmalarni va shu tartibda to'liq matnni ko'zdan o'tkazadi.

Matnni chuqurlashtirilgan tarzda o'qish muharrirdan alohida diqqat va e'tiborni talab etadi. Zero, bunday o'qish muharriarning matnni tahlil qilishida asosiy bosqich sanaladi. Ikkinci o'qish deganda birinchi o'qilgan matnga qaytish tushuniladi, matn qismlari bir-biriga muqoyasalanadi. Ikkinci o'qish bir satrdan boshqasiga o'tish jarayonida o'qilganlarni yo'l-yo'lakay sharhlash imkonini beradi. Muharrir uchun shoshilmay o'qishda o'z kuzatganlarining qay darajada to'laqonlilik darajasini aniqlash muhimdir. Muharriarning chuqurlashtirilgan o'qishidan maqsad matn yetkazuvchi har bir unsur, tafsilotni umumiy nuqtai nazaridan baholash hisoblanadi.

Noshirlar orasida muharrirlik iqtidori xususidagi so'zlar eshitilib qoladi. Shunda asosiy urg'u matnni yaxlit tasavvur etish, his etish, muharrirlikdagi kasbiy sergaklik tilga olinadi. Bunday fikrlar to'g'ri, albatta. Haqiqatan ham muharrir matnni yaxlit «ko'ra» olishi lozim, biroq, bu xislat tug'ma ham emas, birovdan ko'chirib oladigan ham emas.

Muharrirona o'qish – o'ta diqqat bilan o'qishdir, hech bir tafsilot uning nazaridan chetda qolmasligi lozim.

Muharrir matn bilan tanishar ekan u haqiqiy bilimdon sifatida namoyon bo'lishi kerak. Tafsilotlarga chuqur va keng qamrovli nazar tashlay olganlargina ishining haqiqiy ustasi sifatida

muharrirlikni kasb qilib olgan «hunarmand»lardan farq qiladi. O‘z ishining haqiqiy bilimdonigina arzimasdek tuyulgan g‘ayriodatiy narsada ham katta ma’no ko‘radi, zero uni chuqur tushunadi va umumiyya munosabatini his etadi.

Matn bilan tanishar ekan, muharrir uni ham birinchi o‘quvchisi, ham bilimdon vazifasini bajaradi. Muharrir o‘qishi ko‘p jihatdan ilmiy ishni o‘qishga o‘xshab ketadi. Har ikkala o‘qishda ham tushunarsiz bo‘lgan hech narsa qolmasligi lozim. Bunda tushunarsiz hech narsa qolmasligidan tashqari, matndagi murakkab o‘rinnarni chuqur mulohaza qilib ko‘rish, mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanishish shart. Lekin shuni unutmaslik kerak: bunday vaziyatda to‘la aynanlikka erishish oson emas.

Muharrir hamma narsani bilishi kerak. Biroq, hech kim, hech qachon muhartirdan har qanday mavzu bo‘yicha, darhol o‘z mulohazasini bildirishni talab etmaydi. Muallifdan ustun mutaxassis bo‘lish muharrir uchun shart emas, u shunday bo‘la olmaydi va bu talab ham etilmaydi. Lekin u muallif asari mazmun va mundarijasini baholashning umumiy metodologiyasini egallagan bo‘lishi, asar mohiyati (predmeti) ni tasavvur etishi, asosiy adabiy manbalardan xabardor bo‘lishi va ulardan foydalana olishi shart.

Muharrir uchun **hamma narsani bilish** deganda shuni tushunish kerakki, u matn ustida ishlaganda birorta tushunarsiz narsa qoldirmasligi lozim: birorta ham ibora, birorta ham so‘z. Bundan tashqari ma’no ifodasi unga aniq bo‘limgan so‘z ham, mazmuni g‘aliz jumla ham uning e’tiboridan chetda qolmasligi lozim. Amaliyotdan ma’lumki, ayrim «g‘o‘r» muharrirlar ma’no ifodasi o‘zları uchun unchalik aniq bo‘limgan terminlar (umuman so‘zlar)ni «ha kerakli

o‘quvchi o‘zi tushunib olsa bo‘ldi», deb o‘tkazib yuboradilar. Agar muharrir nimanidir bilmadimi, bu holni hech bir kechirib bo‘lmaydi. Bilmadingmi yoki shubha qildingmi, albatta, tekshir va buni eng samarali usulini izla hamda bajar.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, muharrirlik o‘qishida asosiysi matnni baholash. Muharrir har bir so‘zni «tortib» ko‘rishi, o‘rinli qo‘llanganliginigina emas, balki muallifning muvaffaqiyatsiz foydalanganini, hatto buning sababini ham aniqlashi lozim.

Tajribali muharrir o‘qigan matnni, undagi har bir fikmi shunchaki ma‘lumot sifatida emas, balki o‘ziga xos voqelik tarzida qabul qiladi, uning mazmuniga chuqur va tadrijiy suratda kirib boradi, uning barcha unsurlarini xayolan muayyan hayotiy timsollarda tasavvur etadi. Ana shunday mutaxassisona o‘qishni o‘rganish mumkinmi? Albatta, mumkin.

Baholash jarayoni muharrir uchun faqat muallif qo‘lyozmasini shunchaki ko‘zdan kechirish emas, balki ta’bir joiz bo‘lsa, muharrirning ixtisoslashuvi ham yuz beradigan jarayondir.

Nashriyotlar ixtisoslashuvi yo‘qolib borayotgan bugungi kunda muharrirlar turli sohaga oid adabiy asarlarni tahrir qilishlariga to‘g‘ri keladi. Mana shuning uchun ham muharrir bu jarayonda turli adabiyotning, masalan, ilmiy, iqtisodiy, ilmiy-ommabop, siyosiy, ommaviy-siyosiy, darslik, o‘quv qo‘llanma, ensiklopedik tavsifdagi va boshqa tur adabiyotlar qo‘lyozmalarini tahrir qilishiga to‘g‘ri keladi. Demak, muharrir uchun tahrir jarayoni turli sohadagi, uslub va tavsifdagi asarlar har birining tahriri uchun ixtisoslashuv jarayoni hisoblanadi.

O‘z diqqatim ustidan hukmronligim qanchali yuqori bo‘lsa, o‘z

maqsadimga erishishim shunchali muvaffaqiyatli bo‘ladi, bu gap bejiz aytilmagan. Muharrirlik uquvi diqqatni bir joyga to‘plashni va unga ongli tarzda xukmron bo‘lishni talab etadi. Xotiraning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish baholash jarayonini boshqarishga imkon beradi. Lekin, shu bilan birga har bir muharrir oldida turli muammolar paydo bo‘ladi. Shulardan ayrimlarini ko‘rsatib o‘tamiz: matnni o‘qishga kirishish jarayoni, adabiy asar doirasi, matn miqyosida materialning taqsimlanishi, bular barchasini eslab qolish lozim.

Bundan tashqari o‘quvchiga ta’sir etuvchi bayonning turli usullarini ham doimo yodda tutish kerak.

Matnni chuqur va diqqat bilan o‘qish mobaynida muharrir uni aniq boholashga muvaffaq bo‘ladi. Agar matn har jihatdan – tili va uslubi, shakli, g‘oyasi va boshqa ko‘rsatkichlari bo‘yicha e’lon qilish uchun maqbul bo‘lsa, muharrir qo‘lyozma ustida ishlashni boshlaydi va tuzatishlar kiritadi An’anaviy tahrir usuli ayni shuni taqozo etadi. Bunda asar turidan qat’iy nazar (ayniqsa, badiiy asar tahriri tajribasiga ko‘ra) bunga amal qilinadi. Lekin ilmiy – texnikaviy adabiyotlarni nashrga tayyorlashda maslahat beriladigan tadrijiy baholash usuli muharrir tanishuv o‘qishidan so‘ng, tezda material bo‘yicha o‘z xulosasini tayyorlashi lozimligini ta’kid etadi. Tuzatishlarni esa diqqat bilan chuqur o‘qishdan so‘ng matnni bosishga berishdan oldin butun matn boshdan oyoq yana ko‘zdan o‘tkaziladi.

Tahrir nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha adabiyotlarda matnni tahrir qilish - tuzatish jarayoni bilan bog‘liq muharrir tahliliga alohida e’tibor qaratiladi. Bu asar o‘quvchisiga qaysidir darajada

qanday xizmat qiladi degan nuqtai nazardan qaralsa, qo‘lyozmani tahlil etish - baholash tahrir mohiyatini ochib beradi. Zero, matnni tahlil qilishni bilmagan, baholashni bilmaydi, baholashni bilmagan tahrir qilishni ham bilmaydi.

Matnni baholash g‘oyasi adabiy asar yaratishning tabiiy tavsifiga ham, ruhiy qonuniyatlariga ham zid emas. Mohirona amalga oshirilgan (bajarilgan) tuzatishlar matnning yaxlitligi va mazmuniy uyg‘unligiga putur etkazmaydi. Aksincha, uning tuzilishidagi ayrim nuqsonlarni istisno etadi, muallif fikrini, g‘oyasini oydinlashtiradi.

Baholash jarayoni andozaviylikni mutlaqo rad etadi. Baholashning har qanday matnga nisbatan bir xilda qo‘llash mumkin bo‘lgan qolipi yo‘q. Muhammadir baholash usulini o‘zi tanlash huquqiga ega, lekin bu usul to‘g‘ri, asoslangan bo‘lishi lozim, shuningdek uni to‘g‘ri qo‘llay bilish kerak.

Baholanayotgan qo‘lyozmalarni o‘zgartirishlarning miqdori ishning sifat ko‘rsatkichi hisoblanmaydi. Ayrim muharrirlar (adabiy xodimlar) hanuz uchrab turadi, ular muallif matnnini qayta yozib chiqishni o‘z burchi hisoblaydi va bu bilan, hatto, g‘ururlanib ham qo‘yadi, chunki ular o‘z ishlari foyda keltirishiga qattiq ishonadilar, mehnatim zoe ketmaydi, deb hisoblaydilar.

Bunday sidqidildan qilingan mehnat tufayli matn ancha «silliq» tortar, lekin ko‘p narsa yo‘qotishi mumkin.

Matnni baholashning ham o‘z qonuniyatları bor.

Baholash jarayonida tuzatishning to‘rt turi qo‘llanadi: **o‘qib tuzatish; qisqartirib tuzatish; ishlov berib tuzatish; o‘zgartirib tuzatish.**

Musahhihlik va muharrirlik o‘qishidan maqsad boshqa – boshqa. Musahhih chop etishda tayyorlangan matnni o‘qish jaroyonida uning tahrirdan chiqqan, muallif bilan kelishilgan va tasdiqlangan matniga to‘la mos ekanligiga erishadi.

Matnni imloviy, tinish belgilari bilan boqliq xatolardan xoli qiladi. Ensiklopedik asar matnidagi qisqarmalar va havolalarni bir xildaligi va aniqligini ta‘minlaydi. Izohlar matndagi ko‘rsatkichlarga mosligi va hokazolarning to‘g‘riligini tekshiradi, shuningdek ba’zi zarur tuzatishlarni amalga oshiradi.

Muharrirning qo‘lyozmani baholash jarayonida o‘qib tuzatishidan maqsadi – matnni sidirg‘a o‘qish. Bu tur o‘qishni amalga oshirganda matnning mazmuni, **tuzilishi** (kompozitsiyasi) dagi hamda uslubiy xatolarni aniqlaydi. o‘qish jarayonida muharrir geografik nomlar, shaxs ism, familiyalari, tahalluslari bir xil berilishi, iqtiboslar, raqamlar, sanalar aniq bo‘lishiga e’tiborni qaratadi, uzunlik, miqdor o‘lchamlarini taqqoslash mumkinligini tekshiradi.

Sarlavhalarning matn bilan uyg‘unligi, mosligini, tasvirlar osti yozuvlarining rasm, chizmaga mosligini tekshirish ham uning vazifasiga kiradi.

Bunday o‘qish tahririyatning malakali va tajribali mutaxassisiga topshiriladi. Bunday o‘qishda matndagi kamchiliklar aniqlanadi, ko‘rsatiladi. Ammo, tabiiyki, aniq ko‘rinib turgan xatoliklar, harfiy, imloviy xatolar, bundan istisno. Shuning uchun bunday o‘quvchining malakasi juda yuqori bo‘lgan taqdirda ham mazkur jaryonda etakchi muharrir ishtirok etadi va muommolarni hal etadi.

Matnda **qisqartirib tuzatishlarni** amalga oshirishdan maqsad, avvalo, matn xajmini kichraytirish va shu yo‘l bilan uni maqbul

o'Ichamga keltirish, qolaversa ortiqchaliklardan holi qilish. Qisqartirib tuzatishining o'qib tuzatishdan farqi shundaki, bunda matnga bevosita qo'l uriladi. Shunga ko'ra muharrir matnning mazmuniy va sintaktik o'ziga xosligini hisobga olishi lozim.

Qo'lyozmani baholash jarayonida matnni qisqartirib ketish, ya'ni qisqartirib tuzatishda matnda amalga oshiriladigan o'zgartirishlarni ikki turga ajratish mumkin. Birinchisi, matnning **muayyan qismlarini** qisqartirish, ikkinchisini, shartli atash mumkin, matn ichki **qisqartirilishi**.

Birinchi tur qisqartirishda **muayyan ma'noviy bo'g'inni** tashkil etuvchi qism qisqartiriladi. Albatta, bu parcha, odatda, muayyan tuzilishga va sintaktik qurilishga ega bo'ladi. Baholash jarayonida bir qolipdagi misollar, bitta mazmuniy qatordagi asos (fakt) lar, qo'shimcha tafsilotlarni qisqartirish qiyinchilik tug'dirmaydi. Agar qisqartiriluvchi qismlar to'g'ri aniqlangan, muallif bayon usuliga zid bo'lmasa, mazmunga putur etkazmasa matn qisqartirilishidan so'ng ko'p mehnat talab qilmaydi, faqat qismlararo bog'lanishni ta'minlash uchun bir oz ishlash kerak bo'ladi, **xolos**. Bu ham faqat matn qismlarining uyg'unligiga hizmat qiladi. Matnni qisqartirish ekan muharrir, doimo, qisqartirilgan parcha va faktlar keyingi bayonda bilvosita qayd etilmasligiga alohida e'tibor berishi kerak bo'ladi.

Matn mazmuniy bo'g'lnlari o'rtasidagi bog'liqlik shart bo'lsa, unda yirik qismlar qisqartirilishi mumkin bo'lmaydi. Bunday hollarda matn ichki qisqartirilishi amalga oshiriladi. Mazkur qisqartirilishda muharrir matnga ancha chuqurroq kirib boradi, ya'ni matnga ko'proq dahldor bo'ladi.

Asarning adabiy sifatini baholashga aloqador qisqartirishlarga **ishlov berib tuzatish** tarzida qarash lozim. Bunday tuzatishdan maqsad matnning yakuniy (to‘liq baholangan) talqinini tayyorlashdir. Bunday tuzatish jaroyonida muharrir tahlili va qo‘lyozmani baholash natijalari to‘liq hisobga olinadi. Ishlov berib tuzatishda **matn** adabiy jihatdan silliqlanadi, uning shakli mu-kammallashtiriladi, muallif g‘oyasi aniqlanadi, fikri oydinlash-tiriladi. Bu jarayonda matnga kiritilgan o‘zgartirilishlar tavsifiga ko‘ra turlicha: qisqartirish, ayrim parchalar qiyomiga etkaziladi (qo‘sishimcha qilinadi), so‘zlar almashtiriladi, nutq sintaktik tuzilishi o‘zgartiriladi, asar tuzilishi takomiliga etkaziladi. Lekin bunda muallif bayonining o‘ziga xosligi, uning uslubi o‘zgartirilmaydi.

Tuzatishning to‘rtinchi turi - o‘zgartirib tuzatishda muallif taq-dim etgan materialni baholash asosida matnning yangi talqini yaratiladi. Muallif etkazgan faktlarga qat’iy amal qilgan holda muharrir muallif fikrini adabiy shaklga soladi. O‘zgartirib tuzatishda asar bir janrdan boshqa janrga o‘tkaziladi, matnning mo‘ljallangan maqsadi o‘zgarganda unga ishlov beradi, yangicha talqinini yaratadi. Bu jarayonda muharrir va muallif hamkorlikda ishlaydi, o‘ziga xos ijodiy hamkorlik yuzaga keladi.

Albatta, baholash jarayonidagi tuzatishlarni yuqoridagi tarzda turlarga ajratish shartli – aynan shu xilda bo‘lishi kerak degani emas. Matni tuzatishni ayni bir tur bilan cheklash bir oz g‘ayritabiyy (sidirg‘a o‘qib tuzatish bundan mustasno).

Matnni baholash jarayoni alohida jaroyon, muharrirning kasbiy mahorati – mutaxassis ekanligi tuzatishning turli usullaridan mohirona foydalana olishda namoyon bo‘ladi.

Tajribali muharrirlar matnni baholab, tuzatish kiritishda soʻf muharrirlik vazifasini bajarishdan tashqarii nashri chop etishga tayyorlashda ishtirok etuvchi boshqa mutaxassislarning ayrim «oʻtkazib» yuborgan kamchiliklarini ham tuzatib ketadilar. Masa-lan, musahhih, texnik muharrir, grafikachi mutaxassis, hatto badiiy muharrir – dizaynerlarning. Bulardan koʻrinadiki, muharrirning baholash jarayonidagi masʼuliyati juda yuqori, uning zimmasidagi inasʼuliyatni boshqa nashr ishtirokchilarning masʼuliyati bilan tenglashtirib boʻlmaydi. Muharrir hamma narsani bilishi kerak, deb yuqorida qayd etilgani sababsiz emas. Chunki qoʻlyozmani baholash shuni taqozo etadi. Baholash natijasida muharrir quyidagi hulosalarga keladi:

- *Qoʻlyozmani chop etish uchun yaroqli deb tan olish;*
- *Nashriyot qayd etgan xato va kamchiliklarni toʻgʻrilash, bartaraf etish uchun qoʻlyozmani muallifga qaytarish;*
- *Qoʻlyozmani taqrizdan oʻtkazish uchun mutaxassislarga berish;*
- *Qoʻlyozmani chop etishga yaroqsiz deb topish va shartnomani bekor qilish*
- *Qoʻlyozma nashriyotga shartnomasiz taqdim etilgan boʻlsa quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:*
- *Qoʻlyozmani mavzuli rejaga kiritishga tavsiya etish;*
- *Ishni taqrizdan oʻtkazishga yuborish yoki muhokamaga qoʻyish;*
- *Qoʻlyozmani rad etish*

Barcha hollarda ham qoʻlyozma bahosi va muharrir xulosasi

bilan tahririyat mudiri (yoki nashriyotning vakolatli lavozimdori) tanishib chiqadi va tasdiqlaydi.

Ko‘rinadiki, qo‘lyozmani baholashda asosiy mas’uliyat muharrir zimmasiga tushar ekan, lekin qo‘lyozmaning taqdirini hal etishda nashriyotning boshqa mas’ul xodimlari ham ishtirok etadi.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmani taqrizdan o‘tkazish ishga to‘g‘ri baho berishda, ya’ni baholashda muhim ahamiyatga egadir. Bundan asosiy maqsad g‘oyaviy, ilmiy va adabiy qimmatiga ko‘ra arzigulik asarni nashr etishga qat’iy talablar bo‘yicha saralab olishdir. Taqrizlash nashriyotga qo‘lyozmani har tomonlama chuqur baholash uchun ko‘maklashishi, uni takomillashtirishning samaraли yo‘lini ko‘rsatib berishi lozim.

Yuqorida aytilganlardan ma’lum bo‘ladiki, qo‘lyozmani taqrizlashda, aytish mumkinki, uning muhokamasida turli kishilar ishtirok etadi, bundan maqsad uni jiddiy tahlil qilish va baholashdir. Lekin muharrir xulosasi hammadan muhim. Uning xulosasi muhimligini biz yuqorida aytib o‘tdik, u amalda nashriyot taqrizining o‘ziga xos shakli hisoblanadi.

Nashriyot tashqi taqrizchi sifatida malakali mutaxassislar, yirik olimlarni (turli soha vakillarini), badiiy asarlar bo‘yicha yozuvchi, shoir, publisistlar, tanqidchi va adabiyotshunoslarni taklif etadi. Kimlar taqrizchi bo‘lishini muharrir va tegishli vakolatli xodimlar belgilaydi. Har bir qo‘lyozma uchun tashqi taqriz uchtadan kam bo‘imasligi, adabiy-badiiy asarga esa ikkita bo‘lishi kerak.

Qo‘lyozmani taqrizga berishda muharrir, agar iloji bo‘lsa, taqrizchi bilan suhbatlashishi, uning oldiga vazifani aniq qo‘yishi kerak.

Tashqi taqrizchini taklif qilish nashriyotni, ya’ni muharrirni qo‘lyozmaga baho berish zaruratidan ozod qilmaydi. Tashqi taqriz qo‘lyozmaga baho berish uchun qo‘sishimcha fikr, xolos. Muharrir taqrizchining fikriga qo‘shilishi, qisman qo‘shilishi yoki u bilan umuman hisoblashmasligi mumkin. Muharrir qo‘lyozma xususida albatta o‘z fikriga ega bo‘lishi shart. U o‘z nuqtai nazari bilan taqrizchilar nuqtai nazarini qiyoslab, chuqur tahlil asosida qo‘lyozmaning afzallik jihatlari-yu, kamchiliklari hususida yaqqol tasavvurga ega bo‘lishi talab etiladi.

Muharrir qo‘lyozmani faqat uning g‘oyaviy-nazariy darajasini oshirishi, ilmiy asoslanganligini tasdiqlash uchungina emas, balki noshirlik ishi sohasini yanada takomillashtirishga qaratilgan hukumat chora-tadbirlari, qarorlari faol bajarilishini ham ko‘zlab baholashi kerak. Muayyan asar qimmati haqida ob’ektiv tasavvur hosil bo‘lishi uchun g‘oyaviy baholash aniqligini, chuqur ijtimoiy tahlilni nozik did, iqtidor sohiblarini asrab-avaylash, samarali ijodiy izlanishlarni qadrlash bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Qo‘lyozma bo‘yicha qabul qilingan qarorni nashriyot muallifga shartnomadagi qo‘lyozmani tasdiqlash muddatidan kechiktirmay etkazishi kerak. Qarorga nashriyot olgan tashqi taqriz ham ilova qilinishi mumkin (agar nashriyot uni to‘liq ma’qullagan bo‘lsa) yoki taqrizchining qo‘lyozma xususidagi fikrlari bayon etilgan xat jo‘natiladi. Ba’zi mulohazalarga ko‘ra taqrizchi kimligini muallifga bildirmasligini iltimos qilsa, unda taqriz va xalda taqrizchining ismi ko‘rsatilmaydi.

Hozirgi noshirlik amaliyotida nomsiz taqrizlash uchramaydi.

Deylik, muallif nashriyot (muharrir) xulosasi (taqrizini) oldi,

nashriyot tomonidan qo‘lyozma baholandi. Bundan buyonga muallif va nashriyot munosabati qanday bo‘ladi? Muallif nashriyotning qo‘lyozma xususidagi fikr-mulohazalarini to‘liq qabul qilishi, qisman qabul qilishi yoki o‘z dalil-mulohazalarini bildirib rad etishi mumkin.

Muallif, agar o‘z qarashlari, g‘oyasi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tizimga, davlat manfaatlariga, jamiyatda qabul qilingan ma’naviy, axloqiy me’yorlarga, milliy mafkura, mentalitetga davlat hamda bosma nashr sirlarining muhofazasiga zid bo‘lmasa, himoya qilish huquqiga egadir. Tahririyat (muharrir) muallif e’tirozlarini diqqat bilan o‘rganib chiqadi, shaxsan suhbatlashadi. Bundan maqsad – har ikki tomonni qanoatlantiradigan echimni topish, ham muallif, ham nashriyot manfaatlariga putur etkazmaslik.

Nashriyot ayrim hollarda asarni muallif fikriga qo‘silmagan bo‘lsa-da, lekin uning qat’iy talabiga ko‘ra nashr etishi ham mumkin. Lekin bunda nashriyot munozarali o‘rinlar xususidagi munosabati nashriyotning kirish yoki so‘ng so‘zida o‘z aksini topadi yoxud nashriyot (tahririyat) muallif fikrlari bo‘yicha hech qanday mas’uliyatni o‘z zimmasiga olmaydi, tushuntirish berib o‘tadi.

Mabodo muallif nashriyotning qo‘lyozma kamchiliklari xususidagi fikriga qo‘silsa va o‘z asarini qayta ishlash istagini bildirsa bunda nashriyot muallifni qo‘lyozma ustida ishlashi uchun yangi muxlat belgilaydi.

Qo‘lyoznani qayta ishlangan talqinini olgach muharrir uni yuqorida bayon etilgan tartibda baholaydi.

Qo‘lyozmaga noshirlik bahosini berish tom ma’nodagi ijodiy ish

hisoblanadi. Muharrir garchi asar ijodchisi singari soha mutaxassisi bo‘lmasa-da, lekin u asarning g‘oyasi, ilmiyligi, adabiy-badiiy qurilishi xususida aniq tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Bundan tashqari u qo‘lyozmaga ham noshirlik, ham asarning o‘quvchilari nuqtai nazaridan baho bera olishi uchun g‘oyaviy, siyosiy jihatdan etuk bo‘lishi talab etiladi.

Takrorlash va mulohaza uchun savollar

1. Qo‘lyozmani kim va qanday baholaydi ?
2. Muharrir qo‘lyozmani baholash jarayonida qanday takliflarni beradi ?
3. Nashriyot taqrizi nima va u nega kerak ?
4. Muallif qanday huquqlarga ega ?
5. Qo‘lyozmaga noshirlik bahosini beruvchiga qanday talablar qo‘yiladi ?

3-§. Nashr etish uchun qabul qilingan qo‘lyozma tahriri.

- *Muharrirning qo‘lyozma hususidagi nuqtai nazari.*
- *Matnga tuzatish va o‘zgartirishlarni kiritish.*
- *Qo‘lyozmani o‘qish turlari va ularning ahamiyati.*
- *Qo‘lyozmani tahrir qilishda muharrir va qo‘lyozma muallifining hamkorligi.*
- *Tuzatish mahorati.*
- *Matndagi xato va kamchiliklarni muallifning o‘ziga tuzattirishning ahamiyati.*
- *Muharrir odobi, obektivligi.*
- *Qo‘lyozmaga qo‘yiladigan ijtimoiy-siyosiy talablar.*

- *Tahrir jarayonida muharrirning holis, samimiyl bo‘lishi - asar muvaffaqiyatining garovidir.*

Tahrirgacha bo‘lgan barcha jarayonlardan o‘tgan va nashr etishga qaror qilingan qo‘lyozma tahriri muharrir zimmasidagi eng mas’uliyatli ijodiy vazifa hisoblanadi. Bu ishning ko‘lami, hajmi, tavsifi, albatta, birdek emas, mazkur jihatlar adabiyotning turi, nashrning va qo‘lyozmaning sifatiga bog‘liq. Noshirlik tajriba-sidan shu narsa ayonki, hech qachon muallifdan qabul qilib olingan qo‘lyozma ko‘rib chiqilib baholangach, darhol nashriyot ishlab chiqarish bo‘limiga o‘tkazilgan emas.

Qo‘lyozmani nashrga tayyorlash vaqtida barcha tuzatishlar muallif tomonidan amalga oshirilishi kerak, deb hisoblovchilar fikriga qo‘shilish qiyin. Bunga harakat qilish kerak, albatta, lekin, bunday qilinganda ko‘ngildagi natijaga har doim ham erishi-la-vermaydi, qolaversa, bunday amaliyot uchun ko‘p vaqt sarf bo‘ladi. Muharrirda esa buncha vaqtning bo‘lishi orzu doirasida, xolos.

Tahririyl tayyorgarlikni talab etmaydigan qo‘lyozma bo‘lishi mumkin emas.

Hatto, qayta nashrlar ham qaysidir darajada tahrir talab bo‘ladi.

Qo‘lyozmani nashrga tayyorlashda chuqur va har tomonlama muharrirlik tahlilini talab etadi. Matnga tuzatishlarni, boshqa xujjalalar (jadvallar, tasvirlar, chizmalar va boshqalar)ni kiritish, qo‘lyozmani to‘liq yoki qisman (vaziyatga ko‘ra) qayta yozish, qayta yozilgan matnni tahrirdan chiqqan nusxaga solishtirib o‘qish, jadvallar, tasvirlarni muallif nusxasi – asl nusxa bilan solishtirib ko‘rish, qo‘lyozmani o‘qib chiqish uchun texnik muhartir ko‘rigidan o‘tkazib tayyorlash, ikkinchi (elektron yoki matniy) nusxani tayyorlash, bularni tekshiruvdan o‘tkazish, sarlavhalarni joy-joyiga qo‘yilganligini,

izohlar, iqtiboslar manbai to'g'ri berilganligini aniqlash qo'lyozma ustida olib boriladigan tahririyat ishlari hisoblanadi.

Muharrir asarni, avvalo, mafkuraviy, siyosiy, ilmiy, adabiy nuqtai nazardan ko'rib chiqadi. Qo'lyozmada ochiq nashrda ketishi mumkin bo'lmagan ma'lumotlar uchraydimi, yo'qmi tekshiradi, muallif qo'lyozmani nashrga tayyorlash qoidalariga to'liq amal qilgan yoki qilmaganligini aniqlaydi.

Muharrirning muallif bilan ijodiy hamkorlikda ishlashi jaronida bir qator vazifalar bajariladi, xususan, asarning g'oyaviy, ilmiy, adabiy qimmati oshiriladi, tahririy-qoidaviy bajarilgan ishlarda o'tib ketgan kamchiliklar, yo'l qo'yilgan xatolar tuzatiladi. Qo'lyozma ustida faqat nashriyotning lavozimdor muharriri emas, balki tashqi mutaxassislar – mas'ul, ilmiy muharrirlar ham ishlaydi. Ayrim hollarda, agar asar turi taqozo etsa, qo'lyozma nashrga yirik mutaxassisning umumiyligi tahriri ostida tayyorlanadi va kitobning (bosh) titul, varog'ida falonchi umumiyligi tahriri ostida degan qayd beriladi. Garchi qo'lyozmani nashrga tayyorlashda turli tashqi mutaxassislar (ular miqdori, unvoni, darajasi, mavqeidan qat'iy nazar) ishtiroki, bajarilgan ishlari muhimligiga qaramay, bari bir nashriyotning lavozimdor muharririning o'rnnini bosa olmaydi, chunki faqat nashriyot muharririgina asarni nashrga tayyorlashning butun jarayonini nazorat qiladi, ishtirokchilar faoliyatini uyg'unlashtiradi va butun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

Qo'lyozma ustida ishlash jarayonida yana bir narsaga qat'iy amal qilish talab etiladi, u ham bo'lsa matnga tuzatish va o'zgartirishlarni kiritish hisoblanadi. Bularning barchasi muallif, ilmiy va mas'ul muharrir bilan kelishib amalga oshirilishi shart.

Tuzatishlar qilish ishlari yakun topgandan so'ng muharrir matni yana bir karra ko'zdan kechiradi. Bunda u asosiy e'tiborni tuzatishlar matnda to'g'ri bajarilganligiga qaratadi. Tajribadan shu narsa ma'lumki, tuzatishni amalga oshirishda (ayniqsa, bugungi kunda kompyuterlarda) bir joy tuzatilsa, boshqa joyda xatolik paydo bo'lishi ham mumkin. Shunisi achinarliki, u payqamay qolinishi mumkin va kitob nashrdan chiqqandan so'ng manaman deb ko'rinish qoladi.

Solishtirib o'qish, ya'ni qayta ko'chirilgan nusxani tahrirdan chiqqan nusxa bilan qiyoslab o'qish, bu ham mas'uliyatli jarayon. To'g'ri, yaqin o'tmishda muharrirning o'zi bu ish bilan shug'ullanmas edi, buning uchun maxsus ijodiy xodimlar – musahhih (korrektor), kichik ijodiy muharrir bo'lib, asosan ular shug'ullanishgan va ularning lavozim majburiyati hisoblangan. Ammo, ma'lum darajadagi nazorat bari bir muharrir zimmasida bo'lган va zaruriy hol hisoblangan. Solishtirib o'qilgan nusxani muharrir albatta o'qib chiqishi kerak. Chunki uning o'zi tuzatishlari, qo'shimchalari ko'p bo'lган o'rinnarni tekshirib ko'rishi uning majburiyatlaridan hisoblanadi. Yuqorida qayd etilganlarning barchasi tugagach, qo'lyozma so'nggi bor sidirg'a o'qishga beriladi hamda nashr jarayonining ishlab chiqarish bosqichi boshlanadi.

Matn tahriri usullarining turli jihatlarini belgilab beruvchi muhim masalalardan biri muallifning qo'lyozmasiga muharrir qay darajada aralashuvidir. Bunday aralashuv chegarasi bo'lib, muharrirning matnni tuzatishiga yo'l qo'yilgan me'yor hisoblanadi. Muharrir qo'lyozmani tahlil va tahrir qilish jaroyonida analga oshirilgan barcha tuzatish va o'zgartirishlardan muallifni xabardor

qilishi lozim. Qo‘lyozmaning mazmuni shakli xususidagi barcha muharrirlik ishi an'anaga ko‘ra muallif bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Tahrir nazariyasi va amaliyoti mazkur hamkorlikning samarali bo‘lishligi qo‘lyozmani nashrga tayyorlash muvafiqiyatining garovi ekanligini allaqachon isbot etgan. XXI asr muharriri shubhasiz o‘tgan asr muharriridan har jihatdan farq qiladi. Lekin ularning umumiy bir jihatni borki, bu makon va zamonda o‘zgarmasdir. U ham bo‘lsa, muharrirning iqtidori va muallif bilan hamkorlik. Garchi XXI asrda qo‘lyozmani tahlil va tahrir qilishda ko‘pgina ishlar kompyuter texnikasi va texnologiyasi zimmasiga yuklatilgan bo‘lsa-da, lekin bu jaroyondagi ijodiy ish va muallif bilan hamkorlikda muharrirning o‘mini bosa olmaydi. Masalan, asarni ijodiy idroklash va boyitish, muallif usuli va g‘oyasini saqlash.

Turli mavzudagi adabiy asarlar matnini, shu jumladan, savodliligi yetarlicha bo‘lmagan jurnalistika asarlarini nashrga tayyorlashda muallifning fikrlash tarzi, g‘oyasi, uslubi, materialning o‘ziga xosliklari saqlanishi zarur, aks holda asar o‘z individualligini yo‘qotadi, demak **muallifning o‘zi asardan o‘chib ketadi**.

Yuqoridagi mulohazalarga ko‘ra, muharrir (nashriyot, tahririyat muharriri) muallif qo‘lyozmasiga ziyraklik bilan qarashi lozim. Muharrirning muallif asariga aralashuv chegarasi ko‘p jihatdan shunga bog‘liqdir. Qo‘lyozma ustida ishlash jaroyonida unga faqat zarur uslubiy tuzatishlarni kiritish, matnning ortiqchaligi aniq bo‘lgan qismlarini qisqartirish, unga kerakli qo‘shimchalar, kiritmalarni qo‘sish kerak.

Tuzatishni, ta‘bir joiz bo‘lsa, zargarlik ishiga qiyoslash mumkin. Zero, bu ish nihoyatda mohirona – zargarona bajarilishi lozim.

Buning uchun yuksak mahorat, malaka, mas'uliyat, aniqlik va ozorsizlik talab etiladi.

Yuqorida aytganlarimiz barchasi umumiy fikrlar bo'lib, aslida muharrirning qo'lyozmani nashrga tayyorlashdagi bevosita aralashuvi, shuningdek, aralashuv shakli turlicha. Bunday paytda ko'p narsa muayyan vaziyatga, shu jumladan asarning turiga bog'liq.

Muharrir, ayniqsa, badiiy asar qo'lyozmasiga ehtiyotkorlik bilan yondoshmog'i kerak. Garchi ma'naviy-semantic va ushubiy tuzilishi bo'yicha murakkabligiga ko'ra oddiy xatoliklarga yo'l qo'yishlik ehtimoli mavjud bo'lsa-da. Afsuski, d'rtiqcha ehtiyotkorlik tufayli ko'pgina badiiy asarlarda ular ommaviy nashrda chiqib bo'lganida xatoliklar uchrab turadi.

Xato va kamchiliklarning ayrimlari keltirilayotgan dalil, ma'lumotlarga aloqador bo'lib, mavjud vaziyat, holat, turmushga xos jihat belgi, tasvirlanayotgan yoki tilga olingan davr noto'g'ri yoki aniq emasligi bilan tavsiflanadi.

Aytish mumkinki, bunday holatlar ko'pam kuzatilmaydi, shuning uchun muharrirlarning bunday tuzatishlarni qilishlari qoida tarzida emas, balki istisno tariqasida deyish mumkin. Lekin shunday bo'lsa-da, bu hol muharrir uchun hushyorlikka da'vatdir.

«Tahrir qilinmagan asar adabiyot tarixida deyarli uchramaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki har qanday badiiy asar, u xoh me'muar bo'lsin, xoh doston, hoh roman uzoq o'ylash, og'ir mehgat natijasidir»³.

Xullas, har qanday asar ozmi ko'pmi darajada tahrir talab bo'ladi. Tahrir mualliftomonidan amalga oshiriladimi muharrir tomonidanimi,

³ Hayitmetov A. Navoiy dahosi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1970.-152-b.

albatta asarning yanada sifatlari bo'lishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi badiiy asarga taalluqli fikrlar ma'lum darajada ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-ommabop nashrlar uchun ham taalluqlidir. Muharrirlar mualliflardan aniq bilim, chuqur g'oyalarmi berishdan tashqari, bularni yorqin, ta'sirchan (emosional) shaklda bayon etishlarini talab etishga haqlidirlar. Qo'lyozmalarda uchraydigan bunday xato va kamchiliklarni, matnni muharrir tahlili jaroyonida muallifning o'ziga tuzattirishi eng maqbul ish hisoblanadi.

Ishlab chiqarish va texnikaga oid, ayniqsa tadbirkorlik sohasidagi zamonaviy ilg'or tajribaga bag'ishlangan kitoblar alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Chunki nashriyotlar materialni, ta'bir joiz bo'lsa, birinchi qo'ldan olishdan manfaatdor. Muharrir esa ishlab chiqaruvchi – adabiy malakaga ega bo'lмаган shaxs qo'lyozmasiga duch keladi. Qo'lyozmaning bayon usuli, shakli hamisha ham talab darajasida bo'lavermaydi. Shunga ko'ra matnni muharrir tomonidan adabiy jihatdan ishlash va tuzatish qo'lyozmani nashrga tayyorlashning eng samarali usuli hisoblanadi. Ilmiy – ahboriy nashrlarda tuzatishlar qilishda muharrir faoliyatining ko'lami ancha kengdir.

Bunda muharrirdan boshqa hech kim ilmiy – ahboriy amaliyot talablari bilan yaxshi tanish bo'lмаганligi uchun qo'lyozmaga samarali shakl bera olmaydi.

Xo'sh, muharrirlik aralashuvining umuman chenarasi yo'q, deb tan olish kerakmi? Lekin, bunday o'ylash to'g'ri emas. Qo'l-yozmaga muharrirlik aralashuvining chegarasi bor. Buni har bir alohida holatda aniq belgilash lozim.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, nashr jaroyonini qo'lyozmadan holi tarzda tasavvur etib bo'lmaydi. Matnni qayta ishlab, muharrir

doim ham muallifning matnidan yaxshi bo‘lgan talqinni yarata bermaydi. Muallif qo‘lyozma ustida uzoq, xatto, yillab ishlaydi. U material to‘playdi, mulohaza qiladi, saralaydi va muayyan qarorga keladi, umumlashtiradi. O‘ta malakali muharrir uchun ham qo‘lyozmani boshqatdan yozish va bunda qimmatli fikr yoki kuzatishlarning qaysidir qismi tushib qolmasligiga hech kim kafolot bera olmaydi.

Agar muharrir shunday yo‘lni tutsa, ya’ni qo‘lyozmani boshqatdan yozib chiqishga kirishsa, muallif matnidan **uzilib** qoladi va buning oqibati jiddiy noxushliklarni yuzaga keltiradi. Istasa, istamasa asar boshqacha mazmun va shakl oladi, muharrir tobora muallif o‘rnini egallay boshlaydi.

Bunday hol yuz bermasligi uchun muharrir odobi (etikasi) talablariga rioya etish lozim.

Qo‘lyozmani nashrga muvaffaqiyatlari tayyorlash, xususan, matnga tuzatishlarni kiritish muharrirlik tahlili bo‘yicha tavsiyalarga binoan mazkur ish muallifning faol ishtirokiga ko‘ra amalga oshiriladi. Muallif qandaydir muammoni yoritish bo‘yicha qo‘shimchalar qilishi, aniqlik kiritishi anglashilmovchilikni tu-shuntirishi va boshqa muharrir ishida yuz bergen noaniqliklarni aniqlashtirishi mumkin. Xullas, qo‘lyozmaga kiritiladigan barcha tuzatishlar muallif bilan kelishib olinishi kerak.

Muallif – muharrir tizimi, bir qarashda ko‘ringandek oddiy emas. O‘ziga yarasha, tabiiy, ziddiyatga ega.

Garchi har ikkisi – ham muharrir, ham muallif yaxshi asar chiqarishdan manfaatdor bo‘lsalarda, ayrim umumiylardan yoki xususiy jihatlarda kelisha olmasliklari mumkin.

Eng tajribali muallif ham materialga berilib ketishi, yetarlicha ilmiy ob'ektivlikda chetlab ketishi mumkin. Muallif uchun o'z asarining har bir mayda- chuydasi, unsuri juda qadrli hisoblanadi, shunga ko'ra u muharrirning biror unsur, qismidan voz kechish bo'yicha taklifini qiyinchilik bilan qabul qiladi yohud rad etadi.

Muharrir, tabiiyki, ob'ektiv bo'lishga intiladi, aslida ham shunday bo'lishi lozim, u nashrdan chiqqan asar uchun o'quvchilar, umuman, jamiyat oldida mas'uldir. Ana shu sababli u o'z talablari ko'lamenti muallif imkon doirasiga muvofiqlashtirolmasisligi mumkin. Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, muharrir bilan muallif munosabati muayyan qo'lyozmani adabiy asar sifatida baholash umumiy mezonlarini taklif etishda shakllanadi.

Ba'zan muallif va muharrir tomonidan mezonlar birdek qabul qilinsa-da, ammo mazkur mezonlarni muayyan asarga tadbiqi talqinida kelishmovchilik chiqishi mumkin: biri uchun to'g'ri, ikkinchisi uchun noto'g'ri tuyuladi.

Tahrir bosqichida, boshqa hollardagidan ko'ra, muallif va muharrirdagi o'ziga xoslik (individuallik) yaqqolroq namoyon bo'ladi. Agar biri ortiqcha qiziqqon (hissiyotga berilgan) bo'lsa, o'rtadagi munosabat murakkablashadi (keskinlashadi).

Yuqorida aytilganlar, bizningcha, muharrir va muallif munosabalarining butun murakkabligini tasavvur etish uchun yetarlidir. Demak, muharrirning muallif bilan hamkorlik qilishidagi o'ziga xos tartib- qoidalarni ya'ni muharrir odobi me'yorlarini belgilash zarurati dolzarblik kasb etadi. Albatta, bu qoidalalar huquqiy davlatdan fuqorolik jamiyatiga o'tish tamoyillari, milliy mafkura va milliy qadriyatlar va mentalitet asosida yaratiladi.

Muharrir qo'lyozma mustaqil O'zbekiston, uning xalqi manfaat-

lariga, asar milliy istiqlol, yuksak milliy ma'naviyat, davlat va uning harbiy, iqtisodiy sirini matbuotda, nashrlarda saqlash tamoyillari, shuningdek til va uslub me'yorlariga to'liq javob bera oladigan bo'lishini talab etishga haqligini emas, balki majbur hamdir. Lekin, buni qanday amalga oshirish kerak? Buyruqni so'zsiz bajarish – itoat etish tarzidami? Muassasaviy tartibga ko'ra shunday lekin, ikkinchi ko'rinish ham mavjud-asosli, do'stona tavsiya ko'rinishida. Muharrirlik ishining mohiyatiga ikkinchi ko'rinish ko'proq mos keladi. Muharrir bilan muallif o'rtasidagi munosabat boshliq bilan unga bo'ysunuchi o'rtasidagi munosabatga o'xshamasligi lozim. Muharrir hech qachon muallifga ma'muriy tazyiq o'tkazmasligi kerak. Uning eng ishonchli vositasi ishontirish. Agar bundan oqilona foydalansa, yaxshi natijaga erishishi shak-shubhasiz.

Endi, aksi ham bo'lishi mumkin. Ishontirishlar muallifga ta'sir etmaydi, u qaysarlik bilan o'z fikrida turib oladi. Bunda muharrir uchun yangi vaziyat yuzaga keladi. Birinchisida, agar muharrir o'z fikri to'g'riligiga qat'iy ishonsa, bahsni yuqori bosqichga chiqaradi bo'lim boshlig'i, bosh muharrirni munozarani hal etishga chaqiradi. Mabodo, o'z nuqtai nazariga ishonchi unchali mustahkam bo'lmasa, da'volarini yana bir karra chuqur o'ylab ko'rishi, ehtimol ularni o'zgartirishi mumkin.

Muallif muharrirning fikriga qo'shilmasdan o'z so'zida qat'iy bo'lsa, bu ikki nuqtai nazarga ko'ra baholanishi mumkin: birinchisi, muharrir o'z maqsadini etkaza olmagan, ikkinchisi, muharrirning fikri kamchiliklardan xoli-nuqsonsiz emas. Har ikki holda ham qayta ko'rib chiqish va chuqur mulohaza talab etiladi.

Muharrirning sobitliligi ham oydinlikni talab etuvchi masala hisoblanadi. Muharrirning sobitligi, asosan, milliy mafkurani iz-

chillik bilan hayotga tadbiq etishda, yurt manfaatlariga sodiqlik, huquqiy kuchli davlatdan fuqarolik jamiyatiga o'tish g'oyasiga og'ishmay amal qilishda namoyon bo'ladi. Uning g'oyaviy e'tiqodi, milliy g'ururi, yuksak ma'suliyatni xis etishligi ishdagi har bir jumlada aks etishligi lozim.

Lekin, shu bilan birga sobitlikni qaysarlikdan farqlay bilish kerak. Sobitlik har qanday ikir-chikir nuqsonlarga yopishib olish, injiqliklar, har ehtimolga qarshi muxofaza va bo'lar-bo'lmas shubhalardan holi bo'lishi zarur. Ortiqcha ehtiyyotkorlik, shubha bilan qarashlik, bular muharrir bilan muallif hamkorligiga putur etkazadi, muallifda o'z hamkori – muharririga nisbatan ishonchszilik uyg'otadi, oxir-oqibat qo'lyozmani nashrga tayyorlash ishiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Muharrirming o'z tanqidiy fikrlarini qay tarzda bayon etishligi, muomala yo'sini, muharrirlik – noshirlik odobi muallif – muharrir hamkorligida sezilarli ahamiyat kasb etadi. Muharrirlik odobi tanqid odobi bilan ancha umumiy jihatlarga ega.

«Adabiy asarlar xususidagi fikrlar tanqidchi zimmasiga muayyan ma'naviy mas'uliyat yuklaydi, achchiqqina tegadigan, xalollik, dalillanganlikni talab etadi. Har qanday chandib olish, me'yordan oshirib yuborish, asossiz qiyoslash, iqtidorini o'z bilganicha olish, bir yoqlama (o'z g'oyasi, nuqtai nazari, saviyasi doirasida) yonda-shish, yorliq osish, quruq so'zdan iborat da'vo – adabiy asar tub mohiyatiga mutlaqo munosib emas»⁴.

Lekin, oldida to'la yakunlangan, o'quvchi hukmiga havola qilingan asar turgan tanqidchidan farqli o'laroq muharrir kitobning yaratilishi jaroyonida bevosita ishtirok etadi, bu jaroyonga faol ta'sir ko'rsatadi.

⁴ Kratkaya literaturnaya ensiklopediya, -Moskva, 1987, 4-j. – 257-b.

Shunga ko‘ra bu ishda o‘ta nozik did, xushmuomalalik va tiyraklik talab etiladi. **Samimiylilik** keskinlikdan, piching va dashnomidan holi bo‘lishi lozim. **Xolislik** (to‘g‘rilik) albatta zarur, biroq, muallif sha’ni kamsitilmasligi, uning, umuman ijodiy imkoniyatiga shubha solmasligi kerak.

Muharrir muallifga nisbatan xayrixohlik, hurmat muhitini yuzaga kelishida albatta ishtirok etishi, tabiiy. Busiz noshirlik odobini tasavvur etish mushkul. Muallifga samimiyat nashriyotlarning tahririyatdan boshqa bo‘linmalari, xatto, hisobxona tomonidan ham ko‘rsatilishi lozim.

Qo‘lyozma muallifi qaysidir sabablar bilan muharrirga yoqmagan taqdirda ham, u o‘z tuyg‘ularini mutlaqo oshkor etmisligi kerak, oshkor etishga haqi ham yo‘q. Muharrir odobiga qo‘yiladigan yana bir talab, u kayfiyatga berilmasligi shart, hatto muallifni ko‘rganda unda qandaydir asabiyliz uyg‘onsa ham.

Muallif bilan muloqotga kirishish uchun muharrir o‘z sohasining yetuk mutaxassisini bo‘lishi, muallif bilan qo‘lyozmani muhokama qilishda o‘z bilim saviyasi keng ekanligi bilan ajralib turishi, agar o‘z tavsiyalari noto‘g‘ri bo‘lsa, ulardan voz kecha biladigan ioda sohibi bo‘lishi kerak.

Takrorlash va mulohaza uchun savollar

1. Tahrirga tayyorgarlik qanday boradi?
2. Muharrir va muallif hamkorlikda qanday vazifalarini bajara-dilar?
3. Matnga tuzatishlar kiritish qanday hal etiladi?
4. Solishtirib o‘qishdan maqsad nima?

4-BOB
NASHR JARAYONINING ISHLAB
CHIQARISH BOSQICHI

Nashr jarayonining ishlab chiqarish bosqichi so‘nggi bora o‘qib chiqilgan qo‘lyozmani ishlab chiqarish bo‘limiga topshirish bilan boshlanadi, kitob dunyo yuzini qo‘rishi bilan yakunlanadi. Bu bosqichda tahririyl-texnik va chop etish bilan bog‘liq ishlar amalga oshiriladi va barchasi muharrir nazorati hamda ish jarayonida bajariladi. Bunda ikki masalaga e’tibor qaratish lozim: birinchisi, nashriyot nusxasini tayyorlash; ikkinchisi muharrirning korrektura nusxalarini o‘qishda, tekshirishdagi ishtiropi.

Shu bilan birga muharrirning ishlab chiqarish bo‘limi xodimlari bilan o‘zaro munosabati ham ko‘rib chiqiladi.

1-§. Nashriyotning asl nusxasini tayyorlash.

- *Muharrirning ishlab chiqarish bo‘limi xodimlari bilan hamkorligi.*
- *Qo‘lyozma ustida bajarilgan barcha ishlarni tekshirib chiqish.*
- *Qo‘lyozmani bir sidra o‘qishda uchraydigan asosiy kamchiliklar.*
- *Takroriy sidirg‘a o‘qish.*
- *Nashriyot asl nusxasi – yuridik hujjat.*

Matbaa texnika vositalarida bosish uchun bosmaxonaga topshirishga to‘liq tayyorlangan qo‘lyozma noshirlik amaliyotida

asl nusxa deb ataladi. Nashriyot asl nusxasi muhim xujjat bo‘lib, korrektura nusxalarini tekshirish uchun asosiy manba hisoblanadi. Asl nusxani tayyorlash o‘ta mas’uliyatli ish. Asl nusxalar yozuv (grafika) jihatidan turlicha bo‘ladi. Shulardan eng asosiysi, yozuv texnikasida bajarilganidir.

Avvalgi boblarda asl nusxani tayyorlashning ba’zi jihatlari aytib o‘tilgan. Matnga tuzatish kiritish (ma’noviy, uslubiy), qo‘lyozmani yozuv texnikasida ko‘chirish, bosilgan matnni qoralama nusxa bilan solishtirib o‘qish shular jumlasidandir.

Nashr jarayonidagi ishlab chiqarish bosqichi bilan bog‘liq muhim vazifalardan bo‘lib, qo‘lyozma ustida bajarilgan barcha ijobiy va texnik ishlar me’yorida ekanligini tekshirish uchun bir sidra o‘qish, matnni bosish va qo‘lyozmani sahifalash hisoblanadi. Keyingi ishlarni badiiy va texnik muharrirlar bajaradi, bu jarayon xususida maxsus to‘xtalib o‘tmaymiz.

Bir sidra o‘qish qo‘lyozma ustida ishlashning davomi va bu ishlarni yakunlovchi hisoblanadi. Darslikning “Muallifdan qo‘lyozmani qabul qilish” qismida asosiy qoidalar bayon etilgan bo‘lib, u qismda aytilganlarga ba’zi narsalarni qo‘sish kerak, xolos.

Matnning barcha unsurlarini tayyorlash va matn ichiga – joy-joyiga kiritish texnika vositalarida amalga oshirilmoqda. Bu ishlar bilan muharrirdan tashqari badiiy muharrir (dizayner), texnik muharrir (nashriyotda), shuningdek, bosmaxonadagi boshqa mutaxassislar shug‘ullanmoqda. Shunga ko‘ra bir sidra o‘qib chiqish barcha qilingan ishlarni yaqqol tasavvur etish uchun zarur. Izohlar, tasvir osti yozuvlari, sarlavhalar, chizmalar, tenglama

(formula) ning matn bilan uyg‘unligi va o‘z o‘rnidaligiga hamisha ham birdek erishib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra asl nusxani tayyorlash uchun aniq talablar mavjud. Asl nusxa to‘la-to‘kis mujassam holda bo‘lishi lozim. Unda asosiy matn; sarlavha (rukni); bosh (titul) varaq unsurlari (titul, old titul, shmus titul); jadvallar; formulalar; izohlar; qo‘sishmcha matnlar (bular kitobda, boshqa o‘lchamdagি harflarda beriladi); kolontitul; tasvir osti yozuvlari; mundarija; ma’lumotnama-eslatmalar (boshqa o‘lchamdagи harflarda beriladi); nihoyat suratlar jamuljam holatda bo‘ladi.

Nashr jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanmish bir sidra o‘qishdan maqsad tahrirdan so‘ng, ko‘chirib bosish, solishtirib o‘qishlardan keyin ham uchrab qoladigan xato, kamchiliklarni bartaraf etish, qo‘lyozmani rasmana holga keltirish uchun tartibga solishdir. Bu degani qo‘lyozmadagi barcha harf va belgilar aniq, ravshan bo‘lishiga erishish, ko‘z xatolar, imlo xatolar, gramatik xatolarni tuzatish, shartli belgilar, qisqartmalarni bir xillikka keltirish, sarlavhalarning matn bilan, ruknlarni boblar, havolalarning havola qilingan manba bilan mazmunan mosligini, uyg‘unligini, jadvallar va tasvirlarning tartib raqamlarining to‘g‘riligini tekshirish, matn ichidagi izohlar, bibliografik sharhlar, alifboli ko‘rsatmalar va boshqalarni tekshirib chiqish demakdir.

Qo‘lyozma ustida ishlar ekan bir sidra o‘quvchi nihoyatda tajribali bo‘lishi kerak, odatda, bu ish bilan tajribali nazoratchi musahhihlar shug‘ullangan. Ular muallif tomonidan yo‘l qo‘yilgan, muharrir tomonidan o‘tkazib yuborilgan ancha jiddiy xato va nuqsonlarni ham payqab qolganlar. Bunday kamchiliklar ko‘pincha distant xatoliklar bo‘lib, bir o‘rinda bildirilgan fikr boshqa bir

o'rindagi fikrga zid kelib qolishi, aniqlikning yetishmasligi, til va uslubga oid kamchiliklardir. Bular barchasi sahifa chetida qayd etiladi, so'ng muallif va muharrirga xabar qilinadi. Qo'lyozmani diqqat bilan bir sidra o'qish keyinchalik asl nusxa bilan solishtirib o'qishdag'i ortiqcha tuzatishlar qilishning oldini oladi. Albatta, nashr jarayonining har bir bosqichida amalga oshiriladigan barcha ishlarning o'z qoidasi bo'lgani kabi, bir sidra o'qishning ham o'z yo'rig'i bor. Shulardan ba'zilariga to'xtalib o'tamiz. Avvalo, bir sidra o'qishning umumiy usuli xususida so'z yuritamiz. Asl nusxani bir sidra o'qishni musahhih (yoki boshqa vakolatli mutaxassis) uning jamuljam va shakliy jihatdan me'yorida ekanligini tekshirishdan boshlaydi: barcha sahifalar mavjudligi, tasvir materiallar to'liqligi – shularni aniqlaydi. So'ng asl nusxa bilan tanishish boshlanadi: bosh varaq, mundarija diqqat bilan ko'zdan kechiriladi, annotasiya, so'z boshi, ba'zan ayrim qismlar o'qib chiqiladi. Bular ish haqida, uning mazmun mundarijasi, auditoriyasi haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

Bir sidra o'qib chiqish muvaffaqiyatini tahririyat ishlab chiqqan maxsus yo'riqnomalar, asardan foydalanish tartibi haqidagi eslatmalar, qabul qilingan qisqartmalar, shartli belgilar na'munasi ta'minlaydi. Bular shunday hujjatlarki, ularga asoslanib muharrir yoki musahhih, bir sidra o'qishni umumiy yo'nalishini belgilaydi, adabiy til va uslub me'yoridan chetga chiqishlikning oldini oladi. Ensiklopedik nashrda nashr tabiatidan kelib chiqib bir emas, bir nechta bir sidra o'quvchi tayinlanishi mumkin: masalan, ularidan biri faqat qisqartmalarni, ikkinchisi havolalarni, uchinchisi biografik materiallarni o'qish va o'z sohasi uchun mas'ul bo'lishi mumkin.

Shunda har xillikka yo‘l qo‘yilmaydi, bir sidra o‘quvchining e’tibori bir turdan boshqa tur o‘qishga o‘tish tufayli chalg‘ishining oldini oladi, hato o‘tkazib yuborishlik ehtimoli deyarli barham topadi. Asl nusxani (nashriyot nusxasini) dastlabki bir sidra o‘qishning, umuman, to‘rt asosiy jihatini ko‘rsatish mumkin. Belgilanganidan boshqacha shakldagi harflar, raqamlar va belgilarga e’tibor berish; qo‘lyozma imlosi, tinish belgilari o‘ziga xosligini to‘g‘ri idrok etish; matnning takrorlanuvchi va bir xillikni talab etuvchi unsurlari – ismlar, nomlar, sanalar, iqtiboslar, jadvallar, bibliografik havolalar, ko‘rsatkichlar va boshqalarning farqli bo‘lmasisligi; nihoyat, muallif bayon usuli, jumla tuzish tarzidagi o‘ziga xoslikni ilg‘ab olish.

Asl nusxani bir sidra o‘qishning o‘ziga xosligi, uni belgilangan tartibda o‘qishlikda ko‘rinadi. Shuningdek, uning murakkabligi – o‘qish jarayonida ko‘p e’tibor berish kerak bo‘lishida. Masalan, harflar, tinish belgilari, yozilish uchun qabul qilingan shaklga inuvofiqligi, izohlar aniqligi, izoh belgisi kerakli o‘rindamii va boshqa yana ko‘p jihatlarga e’tibor berish zarurdir. Shu narsa ayonki, bunday vazifani bajarishlik oson emas.

Noshirlik ishidagi tajribadan shu narsa ma’lumki, bir sidra o‘qib chiqish takroriy bo‘lishi mumkin. Birinchi galda bir turdag, takrorlanuvchi unsurlarni matn mazmunidan kelib chiqib tekshiriladi. Ikkinci galda jumlalar kamida ikki marta o‘qiladi: dastlab yozilganning umumiylar mazmunini ilg‘ab olish va o‘qishni uzib qo‘ymasdan ayrim xato va kamchiliklarni tuzatib ketish uchun; so‘ng – ushubiy, ma’noviy va yana boshqa qandaydir xatolarni uniqlab olish uchun o‘qiladi. O‘qishning uchinchi usulida bir sidra o‘quvchi bir turdag matndagi barcha takrorlanuvchi unsurlarni

belgilab oladi. Bu ishni u ular bir xillikka keltirilganini yoki yo‘qligini aniqlash uchun amalga oshiradi. Qo‘lyozmani o‘qir ekan bir sidra o‘quvchi ko‘pgina murakkabliklarga duch kelishi mumkin. Misol uchun imlo va tinish belgilarni olaylik. Bir qarashda hech qanday qiyin joyi yo‘qdek, imlo lug‘atlar, qo‘llanmalar etarli. Diqqat bilan o‘qib chiq va hammasini yagona shaklga keltir. Lekin, aslida bular hammasi ancha murakkab. Til me’yorlariga va hatto to‘g‘ri yozish qoidalariga rioya qilish – ancha nozik, ehtiyyotlik bilan munosabatda bo‘lishni talab etadi.

Mana qiziqarli bir misol: matbuot sahifalarida, adabiy asar mantlarida ham bu misol ora-sira ko‘zga tashlanib qoladi:

“Xususiy korxonalarda mahalliy xom ashyolardan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga erishildi”.

“*Xom ashyo*” qanday yozilishiga ko‘ra ma’no ifodasi mutlaqo o‘zgarib ketadi. Agar “*xom*” sifat, “*ashyo*” otga qo‘shib yozilsa, mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniladigan material tushuniladi. Alovida kelganda esa “*ashyolar xomligi*” ma’no ifodasini beradi, yana bir misol keltiramiz: “*biroz*” so‘zi ikki so‘z – son va sifat qo‘shilishidan hosil bo‘lgan, agar ajratib yozilsa, ya’ni “*bir oz*”, bunda “*birning ozligi*” ma’no ifodasini beradi. Qo‘shilib yozilsa, ya’ni “*biroz*”da “*ma’lum fursat*” ma’nosи anglashiladi. Bundan shunday narsa ma’lum bo‘ladiki, bir sidra o‘quvchi ma’no tomoniga e’tibor bermay o‘qisa, o‘rinsiz tuzatishga yo‘l qo‘yishi, tabiiy. Qo‘lyozmadagi bir turdagи unsurlar bir xilligiga erishish ancha murakkablikka egadir. Bunda nashrning turi, maqsadi va kimga mo‘ljallanganligi hisobga olinishi lozim. Qabul qilingan

talqin o‘quvchi uchun eng qulay bo‘lmog‘i lozim. Nashriyot asl nusxasidagi barcha qaydlar, belgilar, tuzatishlar amalga oshiruvchi va korrekturaga nusxa tayyorlovchi uchun tushunarli, aniq-ravshan bo‘lishi talab etiladi. Buning uchun texnik muharrir ishlari tugal oxiriga yetgan bo‘lishi, ya’ni nashr bichimi, sahifa o‘lchamlari, asosiy va qo‘srimcha matnlar qanday harflar bilan yozilishi (harf o‘lchami), satrlar oralig‘i, so‘zlar oralig‘idagi bo‘shliqlar, xatboshi, bo‘g‘in ko‘chirish, sarlavhalar joylashishi, bet tartib raqamlarining qo‘yilish o‘rinlari va boshqalar aniq ko‘rsatilishi lozim.

Nashriyot asl nusxasi muharrir, bo‘lim mudiri, bosh muharrir yoki boshqa vakolatli rahbar tomonidan imzolanadi va shundan keyin bosmaxona ishlari boshlanadi, asarning korrektura nusxasi tayyorlanadi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Ishlab chiqarish bosqichi deganda nimani tushunasiz?
2. Nashriyot asl nusxasini ta’riflang.
3. Qo‘lyozma nega bir sidra o‘qib chiqiladi va nimalarga e’tibor beriladi?
4. Nashriyot asl nusxasini tayyorlashga qanday talablar qo‘yladi?
5. Sidirg‘a o‘qishni kim bajaradi va qanday ishlar bajariladi?
6. Ensiklopedik nashrlarni bir sidra o‘qishlik qanday amalga oshiriladi?
7. Bir turdagи unsurlar bir xildaligiga qanday erishiladi ?

2-§. Korrektura nusxani o'qishda muharrir ishtiroki.

- *Qo'lyozma korrektura nusxasini tayyorlash.*
- *Sahifa(vyorska), granka va boshqalar.*
- *Nishona nusxasiga solishtirish.*
- *Tuzatish belgilari.*
- *Tuzatish turlari.*
- *Qistirma varaqcha.*

Korrektura so'zi lotincha bo'lib, sochma (razryad) tuzatish degan ma'noni anglatadi. Noshirlik amaliyotiда bosmaxona usulida ko'paytirish uchun tayyorlangan materialning imloviy, uslubiy xatolari va texnik nuqsonlarini tuzatish uchun tayyorlangan nusxa korrektura deyiladi. Korrekturadan maqsad – bosilgan matnni asl nusxaga to'la mosligini hamda tahrirning badiiy-texnik talab darajasida bo'lishini ta'minlashdir. Bosma shakl suratini nazorat qilish korrektura matnlar yordamida amalga oshiriladi va ularga tegishli tuzatishlar kiritiladi. Korrektura matnlari bir-biridan farq qiladi. Ulardan biri **grankadir**. Granka bir-biriga bog'liq, uzviy satrlar yig'indisi, hajm jihatidan belgilanmagan va cheklanmagan bo'ladi. Ikkinchisi – **vyorska** – barcha jihatdan kompozitsiyaviy tugallangan bosma matn tizmasi. Vyorska, tabiiyki, nashr o'lchamiga mos, qat'iy belgilangan hajmda bo'ladi. Qog'oz varag'iga texnikaviy vositalar yordamida bosilgan va muayyan tartib berilgan qism-qism **matnlar majmui**. **Toza varoq** – nashr adadini bosish jarayonida olingan, texnika vositalarida matnga tuzatishlar kiritib bosilgan qog'oz varog'i. **Nishona nusha** – tayyor bo'lgan bosma asar, hujjatning ilk na'muna nushasi. Ushbu nusxaga ko'ra

chiqarilayotgan nashr rasmiylashtiriladi va e'lon qilishga qaror qilinadi. Mazkur jarayonning turli bosqichlarida bosmaxona xodimlari tomonidan nashriyotning barcha ko'rsatmalari to'lato'kis bajarilganmi, yo'qmi ekanligi tekshirib chiqiladi va bu nazorat jarayoni *razryad solishtiruv* deb ataladi. Mazkur nazoratni amalga oshirish uchun alohida ko'chirma olinadi. Hozirgi davrda tayyorlanayotgan bosma shaklning sifati nashriyot-matbaa ijobiy uylarida – bosmaxona va nashriyot xodimlari tomonidan birgalikda amalga oshiriladi. Bu jarayonni amalga oshiruvchilar bo'lib, musahhih (korrektorlar), muharirlar, dizaynerlar, tahririyat mudirlari, texnik muharirlar hisoblanadi. Korrektura nusxani albatta muallif ham o'qydi. Yuqorida nomlari qayd etilganlar barchasining tuzatishlari aynan bir nusxa – musahhih o'qigan nusxaga kiritiladi va bu nusha ishchi (asosiy) nusxa ataladi.

Agar yuqorida bayon etilgan nusxalarning ko'plab tuzatishlarga uchragan varaqlari qayta – toza varaqlar sifatida bosmadan chiqariladi va takror nazorat uchun taqdim etiladi. Faqat juda oz tuzatishli toza varaqlargagina bosishga ruxsat berilib, imzo qo'yiladi. Adad bosilishi oldidan korrektorlar yana bir marta bosilgan matnni diqqat bilan o'qib chiqadilar.

To'g'ri, bu yuqorida aytilgan ishlarning bajarilish shakli, bajaruvchilar tarkibi o'zgarib turishi mumkin, bir tomonidan bozor iqtisodiyoti taqozosi, ikkinchi tomonidan malakali mutaxassislar tarkibi bilan bog'liq. Ba'zan, shunday holatlar uchrab qoladiki, asarni o'qisangiz na musahhihlik, na muharirlilik va na texnik muharirlilik ishlari amalga oshirilmagani, adadni bosish oldidan nishona, nazorat nusxalar olinmagani (shunga ko'ra o'qib chi-

qilmagani) ayon bo'ladi. Xullas, nashr jarayonining ishlab chi-qarish bosqichidan o'tmagan asarlar uchrab turadi. Bunga sabab, bizningcha, ortiqcha chiqimlardan qochib, muallif barcha mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi va asar qat'iy buyurtma asosida chiqarilishi bo'lsa kerak. Biz oldingi qismda asl nusxa maketdan kitob chop etish haqida so'z yuritgan edik va barcha korrektura ishlarini bosish jarayonida amalga oshirilishini ta'kidlagandik. Korrektura nusxalarga tuzatishlar ma'lum shartli belgilar yordamida kiritiladi. Tuzatish belgilarini besh turga ajratish mumkin. Birinchisi, almashtirish, olib tashlash, kiritish belgilari; ikkinchisi, bosma unsurlar o'rmini almashtirish belgilari; uchinchisi, bo'sh oraliqni o'zgartirish belgilari; to'rtinchisi, xat boshi, ajratib ko'rsatish belgilari; beshinchisi, bosish va terishdagi texnikaviy xatolarni ko'rsatish belgilari. Bulardan tashqari qo'yilgan belgini inkor etish, aslini qo'dirish belgisi ham mavjud.

Nashriyot-matbaa ijodiy-uylarida tuzatish belgilaridan foydalanishda, asosan, quyidagi qoidalarga rioya etiladi:

1. Hato ikki, ayni bir xil belgi yordamida tuzatiladi, belgilarning biri matnga, ikkinchisi esa matndan holi, varaq chetiga, iloji boricha xato aniqlangan satr bilan bir chiziqda qo'yiladi. Harf yoki tinish belgilar tuzatish belgisining o'ng tomoniga joylashtiriladi.
2. Agar yonma-yon bir turdag'i o'zgartirishlarni amalga oshirishga to'g'ri kelsa, belgilar bir-biridan farqlantiriladi, ayni bir tik belgida ufqiy chiziqchalar orttiriladi va ular tuzatish kiritiladigan tomon yo'naltiriladi.
3. Qo'shimcha ko'rsatma, bu – qayta terish shart bo'lmagan qismni belgilash uchun qo'llanadi, bunday joy doiraga olib qo'yiladi.

4. Agar bir-biriga yaqin satrlarda ayni bir xil bo‘lgan xatolar uchrasa, ular nechta bo‘lsa, matnga shuncha bir xil tuzatish belgisi qo‘yiladi, lekin matn chetiga bitta belgi chiqarilib, necha marta tuzatish takrorlanishi yozib qo‘yiladi.

5. Barcha tuzatishlar aniq, ta’bir joiz bo‘lsa, shaklan chiroyli bo‘lsin.

6. Matndagi tuzatiluvchi bilan matn chetidagi turzatuvchi unsurni tutashtiruvchi chiziq tortish (gazetalarda shunday qilinadi) mutlaqo mumkin emas.

Korrektura nusxalarini tekshirishda muharrir asarni yana bir boshdan sinchiklab, tekshirib chiqishi shart, shu bilan birga musahhihlik tuzatishlarini ham ko‘zdan kechiradi. Bundan tashqari u tasvirlar, jadvallarni umuman, nashr shaklini, matbaa ijrosini baholaydi. Xullas, barcha muammolarni – musahhihlar, texnik muharrirlar, rassomlar, dizaynerlar va boshqalar qo‘ygan savollarni hal etadi.

Korrektura nusxaga kiritilgan tuzatishlarni ikki turga ajratish mumkin: nashriyot tuzatishlari va muallif tuzatishlari.

Bugungi kun amaliyotida bunday tuzatishlarni amalga oshirish bo‘yicha ikki fikrni uchratish mumkin. Birinchisi, tuzatishlarni kiritishni cheklamaslik, ikkinchisi esa cheklash-chegaralash. Har ikki fikr tarafdorlari o‘zları haq ekanliklarini “kuchli” dalillar bilan tasdiqlaydilar ham. Lekin ko‘p yillik tajriba, shuningdek, bugungi kun iqtisodiyoti shuni ko‘rsatadiki, yuqoridaq har ikki fikr maqbul emas. Agar korrektura nusxada ko‘plab tuzatishlar qilishga to‘g‘ri kelsa, bu muallif, musahhih va muharrirning kamchiligi, malakasizligi oqibati hisoblanadi. Shu o‘rinda, tuzatishlar qilishda

biron bir me'yor bormi, degan haqli savol tug'iladi. Bugungi kunda bunday me'yor yo'q. Me'yor – iloji boricha xato o'tkazmaslik, chunki har bir o'tgan xato nashriyot foydasining qisqarishiga olib keladi. Bunday hollarda ko'rilgan zarar faqat aybdor (muallif, musahih, muharrir va b.)lar hisobidan qoplanadi. Agar muallif yoki nashriyot tuzatishlari zarurat bo'lsa, iloji boricha matnni qayta termaslik yo'lini izlash lozim. Mabodo, albatta qo'shimcha qilmaslik yoki qisqartirmaslikning iloji bo'lmasa, unda o'sha bir bet yoki ikki-uch betdan, juda bo'limgan taqdirda bosma taboqdan chetga chiqmasligi kerak. Agar bir bosma taboq ya'ni 16 bet chegarasidan chiqilsa, bu kengayish va qisqarish bilan bog'liq surilishlar tufayli turli muammolar kelib chiqadi.

Noshirlik tuzatishlarini kiritish o'ta zarur bo'lsa, muharrir bunday paytda satrlar surilib boshqa bet, boshqa taboqqa o'tib ketmasligini ta'minlovchi imkoniyatlardan unumli foydalanishi lozim. Bunday paytda u satrlar qismlariaro bo'shliqlarni toraytirish yoki kengaytirish, xatboshidan oldingi satrdan qolgan bo'sh o'rinni, sarlavhaga ajratilgan joydan foydalanish shunday imkoniyat hisoblanadi. Ba'zan qo'shish lozim bo'lgan belgilarni miqdoriga teng belgilarni umumiylashtirish putur etkazmagan holatda qisqartirish ham mumkin bo'ladi. Lekin bular barchasi muharrirdan yuqori malaka talab qiladi.

Muharrir korrekturani o'qish jarayonida alohida e'tiborni asarning muqovasiga, bosh varag'i, sarlavhalari (mundarijasi), annotasiyasi, izoh va ilovalariga qaratadi. Xullas, korrektura o'qish – muharrirning muhim vazifasi sanaladi. Mazkur bosqichda muharrir yetakchi maqomini saqlagan holda muayyan kitobni

yaratishda qatnashuvchi nashriyot barcha xodimlarining faoliyatini uyg‘unlashtiradi va faollashtiradi.

Muharrirning *nishona nusxa* ustida ishlash haqida ham to‘xtalib o‘tamiz.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Korrektura nima va uni kimlar o‘qiydi?
2. Korrekturada qanday tuzatish belgilariidan foydalaniladi?
3. Nashriyot tuzatishlari va muallif tuzatishlari o‘rtasida qanday farq bor?
4. Tuzatishlar me’yori bormi, agar bor bo‘lsa qanday?
5. Nima uchun korrektura o‘qish muharrirning muhim vazifasi hisoblanadi?
6. Muharrir korrektura o‘qish jarayonida asosiy e’tiborni asarning qaysi unsurlariga qaratishi lozim?

3-§. Muharrirning nishona nusxa ustida ishlashi.

- *Nishona nusxa va toza varaq.*
- *Nashr jarayonining yakuniy bosqichi.*
- *Asarga tuzatish varaqchasini ilova qilish.*

Nishona nusxani olish va tasdiqlash nashr jarayoni ishlab chiqarish bosqichining yakuniy qismi hisoblanadi. Nishona nusxa muharrirga, umuman nashriyotga bir butun jamoa ancha vaqt va kuch, aql sarflab yuzaga chiqargan asarni to‘la-to‘kis, yaxlit holda ko‘rish imkonini beradi. Ular kitob yaratish borasidagi mehnatlari samarasini, sifatini yana bir karra tekshiruvdan o‘tkazadilar, barcha

qilingan ishlarni baholaydilar. Bundan tashqari, agar zarurat bo‘lsa, ba’zi narsalarni tuzatish, o‘zgartirish mumkin bo‘ladi. Mazkur nusxa badiiy va texnik muharrirlar tomonidan ham ko‘zdan o‘tkaziladi va o‘z fikr-mulohazalarini bildiradilar. “Toza varaq” va nishona nusxalarda biron bir tuzatish qilish mumkinmi? Yo‘q, al-batta. Faqat tuzatilgan kamchiliklar va ular to‘g‘rilangani aks etgan varaqchani kitob ichiga joylashtirish mumkin bo‘ladi, xolos.

Garchi kitobga bunday varaqchani ilova qilish kitob chiqarish ishida nuqson hisoblansa-da, xatoni ko‘z yumib o‘tkazib yuborgandan ko‘ra uning bo‘lgani afzal, har holda kitobxonning ko‘ziga cho‘p tashlanmaydi.

Nishona nusxa nashriyotning barcha mas’ul va vakolatli xodimlari tomonidan imzolanib, tasdiqlanganidan so‘ng, kitob adadi to‘liq bosiladi va hayot yuzini ko‘radi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Xatolarni tuzatishning so‘nggi chorasi qanday?
2. Nashr jarayonining yakuniy bosqichida nimalar amalga oshiriladi?
3. Tuzatishlar varaqchasi kerakmi?

4-§. Muharrir va ishlab chiqarish bo‘limi.

- *Muharrirning ishlab chiqarish bo‘limi xodimlari bilan hamkorligi.*
- *Muharrir va texnik muharrir hamkorligi.*
- *Qismlararo mutanosiblikni ta’minlash.*
- *Kitobni bezash.*
- *Muharrir va boshqa bo‘limlar xodimlarining hamkorligi.*

Muharrirning asar korrektura nusxasi ustida turli ishlarni bajarishidan tashqari uning ishlab chiqarish bo'limi xodimlari bilan hamkorligi ham nashr jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, asarni nashrdan chiqarish ishining muvaffaqiyati yakun topishi, ana shu jarayonda ishtirok etuvchi jamoa barcha a'zolari – muharrir, musahhih, texnik muharrir, rassom, badiiy muharrirlar (bugungi kunda texnik muharrir va badiiy muharrirlarning vazifalarini qaysidir darajada yangi kasb egasi – dizaynerlar o'z zimmasiga olgan) mehnatiga bog'liq. Bular har biri alohida va shu bilan birgalikda kitob yaratadilar. Yaxshi kitob ularning birgalikda kelishib ishlashlari, biri ikkinchisining ishini to'ldirishi, o'z mutaxassisligi bo'yicha umumiy ishga samarali hissa qo'shishi natijasi o'laroq dunyo yuzini ko'radi.

Bir butun jamoa ishini muvofiqlashtirish, uyg'unlashtirish, obrazli qilib aytganda, turli cholg'uchilardan iborat ansamblga dirijyorlik qilish muharrir zimmasiga tushadi. Demak, asarni nashrdan chiqarish ishining muvaffaqiyati ko'p jihatdan jamoa ishini tashkillashtirish bo'yicha muharrirning uquviga bog'liq bo'ladi.

Qo'lyozmaning nashriyot nusxasini sidirg'a o'qish haqida oldingi mavzularda aytib o'tgandik. Muharrir sidirg'a o'qishni, nazoratchi sifatida, sidirg'a o'quvchining ishini to'g'ri baholay olishi lozim. Garchi sidirg'a o'quvchi sahifa chetiga ayrim savollarni o'zining malakasi kamligi yoki savodliligi yetishmasligi tufayli o'rinsiz qo'yan bo'lsa-da, muharrir uchun uning bu qaydlari, shubhasiz ahamiyatga ega hisoblanadi. Sidirg'a o'quvchi uchun tushunarsiz bo'lgan kitobxon uchun ham tushunarsiz bo'lishi mumkin. Shuning uchun muharrir bu holatni e'tiborsiz qoldirmasligi lozim. Shunday qilib, sidirg'a o'quvchi bilan hamkorlikda ishlab, uning

qaydlarini o'rganib, sahifa chetiga qo'yilgan savollarga javob qaytarib muharrir faqat nashr bilan bog'liq muammolarnigina hal etmaydi, balki sidirg'a o'quvchini o'z vazifasini sifatli bajarishga ham tayyorlaydi. Adabiyot turi, shuningdek, muayyan sohaga oid adabiyotlarning o'ziga xos jihatlari bilan tanishtiradi. Shu bilan birga nazorat musxani diqqat bilan o'qish, har bir kamchiliklarga e'tibor berish, o'z fikrini tortinmay bildirishni ta'kidlaydi. Zero, sidirg'a o'quvchi bajaradigan ish juda muhim, mas'uliyatli, u nihoyatda qunt bilan ishlashni talab etadi. **Ubunga** qanchalik amal qilsa, nashr sifati uchun shunchalik foyda bo'ladi.

Ishlab chiqarish bosqichining boshidan to oxirigacha muharrir texnik muharrir bilan ko'pgina masalani hal etishiga to'g'ri keladi. Bunda bir qator vaziyatlarni inobatga olish kerak bo'ladi. Birinchidan, kitob qismlari tadrijiy joylashishini ta'minlovchi rukn (sarlavha)larning to'liq ro'yxatini tuzib chiqish, ya'ni qo'lyozmaning ishchi (qoralama) sarlavhalarini belgilab chiqish kerak. Sarlavhalarning ishchi tarxini muharrir tayyorlaydi. Bunda yordamchi hujjatda barcha ishlar qayd etilishi lozim, hatto eng kichik ichki sarlavhagacha aniq aks etishi shart. Ayniqsa, ruknlarning bir-biriga taalluqliligi, bir-biriga tobelligi aniq ko'rsatilishi shart. Bunday belgilash turli usullar bilan amalga oshiriladi. Masalan, ikki tomonlama abzas belgisi qo'yib, ostiga turli chiziqlar tortib, ba'zan murakkab ruknlarni belgilashda texnik muharrirlikning turlicha usullaridan foydalilaniladi. Tajribali muharrir qo'lyozma ruknlarini belgilash uchun shunchaki texnik muharririga o'tkazib qo'ya qolmaydi. U texnik muharrir bilan qo'lyozma mazmun-mundarijasи, asar turi xususida suhbatlashadi, kitob shaklini aniqlashtiradi.

Ikkinchidan, muharrirning yana bir mas'uliyati, dunyoga keldigan kitobga uning konstruktori ko'zi bilan qarashi, uning turli unsurlari qanday ko'rinishda bo'lishini yaqqol tasavvur qilishi kerak. Albatta kitobni konstruksiyalash katta va murakkab ish va bu masalani badiiy hamda texnik muharrir birgalikda hal qiladi. Lekin muharrir bo'lajak nashrni ayrim qismlarini qanday ko'rinishga ega bo'lishini bir qadar tasavvur eta olishi lozim.

Misol keltiramiz. Har bir kitob so'z boshi yoki kirish bilan boshlanadi. Ana shu bosqichdanoq so'z boshi kitob sahifasiga qanday joylashtirilishini tasavvur etish mumkin. So'z boshi bir, ikki, uch, hatto, yarim sahifani egallashi mumkin. Lekin so'z boshidan so'ng asosiy matn ketadi. U albatta yangi betdan boshlanadi. Mana shularni texnik muharrir bilan kelishib qilish kerak.

Korrektura o'qish jarayonida ham texnik muharrir bilan ko'pgina masalalarni hal etish talab etiladi. Masalan, matnni qisqartirish yoki unga qo'shimcha qilishga to'g'ri keladi. Matn ichiga joylashtirilgan tasviriy materialning joyini o'zgartirish, ortiqcha bir-ikki satrni boshqa sahifaga o'tkazishni texnik muharrir bilan birgalikda hal etish, xullas, muharrir texnik muharrir bilan hamkorlikda ishlashi lozim. Bunda muharrirning texnik muharririga o'z ishini eng yaxshi tarzda bajarishligi uchun yordam berishi nazarda tutiladi.

Nashrni badiiy-texnik jihatdan bezash ancha murakkab hisoblanadi. Bu ishda badiiy muharrir, rassom, fotograf, chizmachi va boshqalar ishtirok etadi. Ayrim nashriyot-matbaa ijodiy uylarida bu ishlar bilan maxsus bo'lim shug'ullanadi. ayrimlari mutaxassis bilan shartnomaga asosida ishlaydi.

Muharrir badiiy muharrir bilan amalda birgalikda ishlaydi, zarur hollarda boshqa mutaxassislar bilan uchrashib, avvalo,

rassom bilan uchrashib, maslahat berib turadi. Asarni badiiy-texnik jihatdan bezashda ko'pgina muhim masalalar hal etiladi. Lekin bu osonlikcha amalga oshmaydi. Bunda gap oddiygina badiiy yechim haqida emas. Gap shundaki, nashrni bezash loyihasini belgilashda nashrning o'ziga xos jihatlari (adabiyot turi, nashr tabiat, kimgarga mo'ljallangan, tarqatish yo'sini) to'liq hisobga olinishi kerak. Bularning barchasida muharrir nashriyot boshqa bo'limlarining mutaxassislariga jiddiy yordam berishi mumkin. Axir qo'lyozmani, uning o'ziga xos tomonlarini hammadan ko'ra muharrirdan boshqa yana kim yaxshiroq bilishi mumkin? Xulosa qilib aytish mumkinki, kitobni bezash ishida badiiy muharrir etakchilik qiladi. Boshqalar unga ko'maklashadi.

Muharrir nashr etish uchun qabul qilingan qo'lyozma ustida ishlashga kirishar ekan, kitobni bezash uchun buyurtma tayyorlaydi. Buyurtmada bajariladigan ishlar qayd etiladi: muallifning ismi va familiyasi, asar nomi, muqovasi, bosh varoqlarida ketadigan barcha matn qayd etilishi, hajmi, bichimi, adadi, tashqi ko'rinishi, tasviriy materiallar soni va tavsifi, qoralama nusxa, ishning bajarilish muddati – barchasi aniq belgilangan bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, nashr jarayonining ishlab chiqarish bosqichida, boshqa jarayonlardan ko'ra ko'proq, nashriyot turli soha mutaxassislari bilan ko'proq aloqada bo'ladi. Ishning muvaffaqiyati bir shaxsga emas, balki jamoaga bog'liq bo'ladi, bunda muharrir, albatta, ularning har biri bilan hisoblashishi, fikrini hurmat qilishi kerak.

Ishlab chiqarish bosqichi g'oyaviy-ijodiy vazifalami iqtisod bilan jips bog'liqligiga ko'ra alohida ajralib turadi. Muharrirdan g'oyaviy va iqtisodiy jihatlarni uyg'unlashtira olish talab etiladi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Muharrir bilan ishlab chiqarish bo'limi xodimlarining hamkorligi nimalarda ko'rindi?
2. Ishlab chiqarish bosqichida muharrir qanday muammolarni kimlar bilan birgalikda hal etadi?
3. Muharrir badiiy muharrir bilan nimalarni hal etadi?
4. Muharrir nashriyutdagi qaysi bo'limlar bilan hamkorlik qiladi?

5-BOB
NOSHIRLIK JARAYONINING
YAKUNLOVCHI BOSQICHI

Nashr jarayonining yakunlovchi bosqichi asar nishona nusxasini tasdiqlash bilan boshlanadi va kitob o'quvchisining qo'liga borib tegishi bilan tugaydi. Mazkur bosqich kitob reklamasi, tarqatilishi, shuningdek e'lon qilingan nashrga jamoatchilikning baholash natijalarini o'rghanishlik kabilarni o'z ichiga oladi.

1-§. Kitob tarqatish ishining umumiy masalalari

- *Kitob tarqatish tizimi*
- *Kutubxonachilik va uning vazifasi*
- *Kitob savdosi va noshirlik*
- *Muharrir va marketing*

Kitob insoniyat tarixida barcha kashfiyotlarning eng buyugi ekanligi bugungi kunda jahon miqyosida tan olingan. U ijtimoiy hodisa bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra o'qish, o'rghanish va uqish uchun xizmat qiladi, undagi g'oya, bilimdan foydalanish kishilik jamiyatining takomillashuvini ta'minlaydi. Agar nashrdan chiqqan kitob hech kimni qiziqtirmasa, hech kimga keragi bo'lmasa, unda u ortiqcha matohga aylanadi va u kitob deb atalishga loyiq emas.

Kitob o'zining asosiy, matniy muloqotlik vazifasini bajarishi nashrnini tarqatishning yaxshi shakllangan tizimi tufayligina amalga oshadi.

Tarixan ma'lumki, kitobdan foydalanishning ikki omili mavjud: birinchisi, kitoblar jamg'armasi – kutubxonalar, ikkinchisi, aholiga kitob sotishlik. Bu har ikki shakl, qaysidir darajada, biri ikkinchisini to'ldiradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng faqat tashkiliy jihatdangina emas, balki ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ham avvalgisidan mutlaqo farq qiladigan noshirlik ishi tizimi yaratildi. Shunga ko'ra kitob tarqatish ishida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Aytilganlar to'lig'iCHA kutubxonalar va kitob savdosiga ham taalluqlidir.

O'zbekistondagi bugungi kutubxonalarning bosh maqsadi, umummilliy ilmiy merosni xalqimizga yanada yaqinlashtirish, milliy mafkura, istiqlol g'oyalari bilan oshno qilish hisoblanadi. Bundan tashqari ular kuchli fuqarolik jamiyatni, kelajagi buyuk O'zbekistonni bunyod etish ishiga sadoqatli komil insonlarni – barkamol avlodni tarbiyalashning faol ishtirokchisiga aylangan.

Kutubxonalar yurtimizda amalga oshirilayotgan chuqur islohotlarni, yangilanishlarni keng miqyosda targ'ibot qilish maskaniga aylanmoqda. Ulardagi ilm, fan, texnikaga oid, shuningdek, ma'rifiy adabiyotlar jamg'armasi tobora boyib bormoqda. Kitob savdosi tizimida ham tub o'zgarishlar amalga oshirildi va oshirilmogda. Bugunga kelib, kitob savdosi kitob nashri tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Ana shunday sharoitda muharrirning zimmasiga alohida mas'uliyat yuklanishi tabiiy. Muharrir nashr jarayonining mazkur yakuniy bosqichida umuman nashriyotning, xususan muharrirning manfaatlari mushtarakdir. Zero, har bir nashrdan chiqqan asar o'zo quvchisini topishligidan ular birdek manfaatdordir. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida yaxshi yo'lga qo'yilgan kitob savdosi

umumijamiyat, umudavlat ishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ana shunday muhim vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun nima qilish kerak, degan savol tug‘ilishi tabiiydir. Buning uchun, avvalo, kitob, talabga ko‘ra, zarur miqdorda chiqarilishi lozim, qolaversa o‘quvchi o‘zi uchun zarur kitob haqida o‘z vaqtida xabar topishi kerak. Birinchi masalani aniq tashkillashtirish, ya’ni bozorni o‘rganib, uning talabini hisobga olib, miqdorni belgilash yo‘li bilan hal etish mumkin. Ikkinci masalani esa chop etilgan adabiyotni samarali targ‘ib-reklama qilish bilan hal etish lozim.

Chiqarilayotgan kitobning mavzuli **annotasiyalangan** rejasi kitob reklamasining boshlanishi hisoblanadi. Kitob reklamasida muharrir etakchi o‘rinni egallaydi. U, avvalo, muallif bilan hamkorlikda kitobga yaxshi nom tanlashi kerak. Bundan tashqari, kitobning hajmi aniq bo‘lishi shart, chunki kitobning narxi uning hajmiga ko‘ra belgilanadi, bu ma’lum darajada kitob o‘quvchisining qiziqishini ham aniqlashtiradi.

Kitob adadini belgilash, uni tarqatish, kitobxonlarga yetkazish, ya’ni kitob nashri bo‘yicha asosiy vazifani bajarish ko‘p jihatdan **annotasiyalangan** mavzuli rejaga bog‘liqdir.

Muharrir nashriyotning marketing bo‘limi, kitob savdosi bilan shug‘ullanuvchi tijorat bo‘limi bilan yaqin aloqada faoliyat olib borib, kitoblarning tarqatilishi (sotilishi) ishidan ham yaxshi xabardor bo‘lishi talab etiladi. Bu bosqich ma’lumotlari keyingi yil, umuman istiqboldagi nashrlar taqdirini belgilashda asqotadi. Nihoyat kitob adadini belgilashda o‘quvchilar orasida o‘tkaziladigan so‘rovlар muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. So‘rovnama natijalari ham kitob adadini belgilashning muhim omili hisoblanadi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Kitob qanday ijtimoiy ahamiyatga ega?
2. Kutubxonalarning vazifasi nimalardan iborat?
3. Kitob targ‘iboti va savdosini qanday tashkillashtirish kerak va buning noshirlik ishidagi ahamiyati qanday?
4. Muharrir marketing bilan shug‘illanishi kerakmi?

2-§. Kitobxonlar talabi va nashriyotda uni o‘rganish.

- *Kitobxonlar talabi va uni nashriyotda o‘rganishning ahamiyati*
- *Kitobxonlarning xatlari bilan ishlash*
- *Adabiy tanqid va bibliografiyaning kitob yaratishdagi ahamiyati*
- *Nashriyotlar ijodiy xodimlarining kitob targ‘ibotidagi ishtiroki*

Kitobxonlar talabini o‘rganish tahririyat-nashriyot amaliyotida jiddiy ahamiyat kasb etadi. Talabni o‘rganish jarayonida taklif ishlab chiqiladi. Chiqariladigan kitobning kimlarga mo‘ljallanganligiga ko‘ra qo‘lyozmani baholash mezonlari aniqlanadi, qanday bezatilishi, shakli va boshqalar belgilanadi. Talabni o‘rganish nashriyot mavzuli rejasini to‘g‘ri shakllantirishda ham muhim omillardan bo‘lib hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kitobxonlar talabini o‘rganish kitob ishida dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Kitobxonlar talabi – shunisi bilan qiziqarlik, unga tez o‘zgaruvchanlik tabiatи xos. Uning shakllanishiga ko‘pgina iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, psixologik va boshqa omillar o‘z ta’sirini

o'tkazadi. Bugungi axborot maydonidagi globallashuv sharoitida uning shakllanishi quyidagi omillarga bog'liq: birinchidan, aholi sonining oshishi; ikkinchidan, aholi bilim saviyasining darajasi; uchinchidan, aholining kasbiy darajasi; to'rtinchidan, ishlab chiqarish, fan, texnika, ta'lif, umuman, madaniyatning ahvoli; beshinchidan, aholining moddiy jihatdan ta'minlanganlik darajasi; oltinchidan, kishilarning bo'sh vaqtga egaligi; ettinchidan, mafkura va davlatning tashqi va ichki siyosati; sakkizinchidan, o'tgan davrlarda aholining boshqa nashrlarga bo'lgan talabining qondirilganlik darajasi; to'qqizinchidan, kitobxonlarning ruhiyati; o'ninchidan, chiqarilayotgan kitoblar targ'iboti va reklama; o'n birinchidan, kitobsevarlar bilan noshirlarning uchrashuvlari, anjumanlar, kitob taqdimoti va boshqa tadbirlar; o'n ikkinchidan, mualliflar jamoasining noshirlar, kitobxonlar bilan muloqoti va boshqalar.

Yuqorida aytilgan omillarning ro'yxatini davom ettirish mumkin. Lekin maqsad omillarni sanab o'tish emas, balki ularning mohiyatini ochib berish.

Omillar ichida eng muhimi kitobxonlarning xatlari hisoblanadi. Ular to'g'ridan to'g'ri nashriyotlarga keladi, ba'zan, gazeta va jurnallar tahririyatiga ham keladi, so'ng ular orqali nashriyotga boradi. Ba'zan xatni to'g'ri muallifga ham yuboradilar. Xatlar miqdori xususida qat'iy bir narsa deyish qiyin, ular ko'plab bo'lishi, siyrak ham bo'lishi mumkin. Masalan, Nashriyot-matbua ijodiy uylariga kitobxonlardan ko'pgina xat keladi. Xatlarda o'quvchilar o'qigan asarlari xususida o'z fikr va mulohazalarini bildiradilar. Tabiiyki, ular kitob juda ma'qul bo'lganligi, minnatdorliklarini

izhor etadilar. Bundan tashqari nashriyot sha'niga tanqid ham ho'ladi. Kitobxonlar asarning mazmuni, bayon usuli, bezatilishi, poligrafik ijrosi va boshqalarga oid kamchilik va nuqsonlarni qayd etadilar. shuningdek, kitobning adadi, kitobdan muayyan dona yuborish, qayta nashr xususidagi istaklarini bildiradilar.

Kitobxonlardan kelgan xat bilan nashriyotda, avvalo, muharrir tanishib chiqadi. Tanishib chiqqach u o'z oldiga aniq maqsadlarni qo'yadi. Maqsadlar, xususan, quyidagi tarzda bo'lishi mumkin: asarni qayta nashrga tayyorlash bilan bog'liq kitobxonning fikrlarini imulohaza qilib ko'rish; yangi asarni chop etishda kitobxonlarning imulohazasini tahlil qilish. Eng muhimi nashriyot chop etgan asar o'quvchisini qanoatlantiradimi, yo'qmi degan savolga javob topishdir.

Kitobxonlar talabini o'rganishning yana bir shakli vaqtli matbuotda e'lon qilingan taqriz va tanqidiy materiallar hisoblanadi.

Kitob xususidagi jamoatchilikning fikrini ifoda etib, adabiy tunqid va bibliografiya kitobxonlar talabini ma'lum darajada shakl-lantirish imkonini beradi. Ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan taqrizlar kitob haqidagi qimmatli ma'lumot hisoblanadi va unifol targ'ib etadi. Bular, shu bilan birga, nashriyotga o'z ishlarini o'tkir ko'z bilan nazardan o'tkazish uchun turki bo'ladi, nashriyotning qimmatini ob'ektiv baholash, mavzuli rejalashtirishni, umuman uchrir-noshirlilik ishini samaradorlashtirishda yuqori natija beradi.

Nashrga bo'lgan talabni o'rganishda kitobsevarlar bilan uchrashuvlar, suhbatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday uchrashuvlarni nashriyot nashr rejasini tuzishdan oldin o'tkazishi maqsadga muvofiq. Ta'labni o'rganishning bu shakli shunisi bilan ahamiyatlici, bunda kitobxonlar, noshirlar bilan

yuzma-yuz uchrashadi, jonli muloqot vaziyatida fikr almashiladi.

Nashriyotlarning xodimlari kutubxonalar, kitob savdosi bilan shug‘ullanuvchilar, kitob do‘konlarida xaridorlar bilan muloqotda bo‘lishlari, kitob ko‘rgazmalarida qatnashishlari bugungi kun talab-lari, shuningdek, istqibolni bashoratlashda, xullas, kitob bozorini o‘rganish, tadqiq etishda juda asqotadi.

Nashriyot xodimlarining, ayniqsa, ijodiy faoliyatdagi xodimlar-ning joylarga xizmat safarlari ijobiy natijalar berishi, shubhasiz. **Safar chog‘ida** ular respublika yoki viloyat miqyosidagi shaharlar va boshqa aholi manzillarida, yirik ishxonalarda bo‘ladilar, jamoat-chilik vakillari, maktab, litsey, kollej, oliy ta’lim muassasalarining xodimlari bilan muloqotda bo‘ladilar. Bunday uchrashuvlar natija-sida ular bosma mahsulotlarga bo‘lgan talabni, qaysidir ma’noda, bozorming ehtiyojini tadqiq etadilar. Tadqiq natijalari nashriyot mavzuli rejasi ustida ishlashda ma’lumot manbai vazifasini o’taydi. Bundan tashqari asar adadini belgilashda ham asqotadi.

Safar chog‘ida to‘plangan ma’lumotlar umumlashtiriladi, tegishli xulosalar chiqariladi, bu o‘z navbatida, dasturulamalga aylanadi, istiqbollarni bashoratlash uchun asos bo‘ladi. Ma’lum reja tasdiqlangandan so‘ng, rejadagi ishlarni bajarishga kirishish-dan oldin nashriyot xodimlarini annotatsiyalangan reja bilan uni muhokama qilish uchun joylarga chiqishlari maqsadga muvo-fiqdir. Buning natijasida reja qat’iy ko‘rinishda o‘z tasdig‘ini topadi, kitob savdosi bilan shug‘ullanuvchilardan buyurtunalar olinadi. Shuningdek, adabiyot turlari bo‘yicha takliflar, ba’zi fikr-mulohazalar, xullas, ma’lumotlar jamg‘armasiga ega bo‘linadi.

O‘quvchilar talabi xususida qimmatli ma’lumotlarni kitob

savdosi bilan shug'ullanuvchi firmalar, shaxslardan, shuningdek, kutubxona xodimlaridan olish mumkin.

Kitob savdosi xodimlaridan olingan ma'lumotlar adabiyotlarga bo'lgan buyurtmalarni, kitob savdo shahobchalarini kitob olish bo'yicha oldindan beradigan talabnomalarini, adabiyot turlarini, xillas, bozorning barcha talablarini aniqlash imkonini beradi. Kutubxonalarda esa qancha kitob berilayotgani, adabiyotlarning o'qilish darajasi (qo'ldan qo'lga o'tish), o'quvchilar orasida o'tkazilgan so'rovlari, ayrim adabiyotlar xususidagi fikrlar va hokazolar haqida ma'lumotlar mavjud bo'ladi.

Nashryotlarning o'zları ham nashrlari haqida ma'lumot to'plash-läri mumkin, mumkingina emas, balki kerak. Chunki shunda ular o'zlarining qaysi nashri alohida ommaviylashgani-yu, qaysi nashrغا talab sustligi, yangi nashrlar mavzui bo'yicha o'quvchilar fikrini bevosita bilish imkoniga ega bo'ladir.

Kitob o'quvchilarning – bozorning talabini o'rganish nashriyotlarning, xususan, muharriming muhim vazifalaridan biridir.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Kitobxonlar talabi va fikrini o'rganish nima uchun zarur?
2. Kitob bozorini o'rganish uchun nimalar qilish kerak?
3. Adabiy tanqid kerakmi?
4. Kitobxonlarning xatlariga kim javob beradi?

3-§. Kitobni reklama (targ‘ib) qilishning ahamiyati va bunda muharrirning o‘rni

- *Kitob reklamasi jamoaviy ish*
- *Ko‘rgazmalar, tanlovlari, taqdimotlar o‘tkazish*
- *Kitob reklamasida muallif ishtiroki*
- *Nashrga tayyorlanayotgan asar reklamasi*

Kitobni reklama qilish bir tarafdan odatiy va tushunarli tuyuladi. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bu termin tez-tez uchrab turadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida nashriyotlarning nashr mahsulotlarini, xususan, kitobni targ‘ib qilish tadbirlari tizimidan iborat bo‘lib, nashrga tayyorlanayotgan yoki nashrdan chiqqan kitoblar xususida iloji boricha keng o‘quvchilar ommasiga mumkin qadar qo‘proq ma’lumot etkazish uchun nashriyotning barcha xodimlari ishtirokini talab etadi. Bugungi kunda faoliyat olib borayotgan nashriyotlar, noshirlik ishi bilan shug‘ullanayotgan firmalar kitob reklamasi bilan shug‘ullanishda mutlaqo mustaqil, lekin shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi qonunchilik xujjalariiga muvofiq shug‘ullanishlari, bunda turli vositalardan (ichki, tashqi reklamalar va h.) foydalanishlari mumkin. Ular kitobni reklama qilishda avvalo uning mundarijasi, g‘oyasi, umumlashtirilgan tajriba xususida ko‘proq ma’lumot berishlari maqsadga muvofiqdir. Ilmiy asarni targ‘ib qilish ilmni targ‘ib qilish, ishlab chiqarish, o‘rta va kichik biznesni targ‘ib qilish demakdir. Badiiy adabiyotni targ‘ib qilish badiiy ijoddagi erishilgan yutuqlarni targ‘ib qilish hisoblanadi. Hozirgi zamon noshirlik ishida mazkur

sohuga e'tibor kattaligi tabiiydir. Ko'pgina nashriyotlar tarkibida reklama, tijorat va marketing bo'limlari faoliyat yuritmoqda. Uslibu xizmatlar nashriyot-tahririyat bo'limlari bilan jips aloqada faoliyat olib borishlari lozimdir. Shundagina kitob reklamasi talab durujasida amalga oshiriladi. Nashriyot o'z faoliyatidan kutgan duromadni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ladi.

Tahririyat xodimlari ko'pincha o'z maqolalari bilan matbuot sahifalarida, radio va televidenieda chiqishlar qilib turishlari, kitob savdosi, kitob ko'rgazmali, tanlovlardan xususida fikrlar bildirib borishlari lozim.

Bunday ishlarda, ya'ni nashrdan chiqqan kitoblarni ommalash-turishda muharrir o'ziga xos alohida o'ringa ega.

Hech ikkilanishsiz aytish mumkinki, bu borada hech kim muharrirning o'rmini bosa olmaydi. Chunki nashriyotning birorta ham xodimi kitobning mazmun-mohiyatini, nazariy, amaliy qimmatini, o'ziga xos jihatlarini uning muharriridan ko'ra yaxshi bila olmaydi. Vaholanki, kitobni reklama qilish degani uning mundarijasini ochib berishdir, buni hammadan yaxshi muharrir bujarishi isbot talab qilmaydigan hol. Shuni alohida ta'kidlash joizki, muharrirning kitobni targ'ib qilishdagi ishtiroki, shunchaki qo'shimcha, yordamchi ish emas, balki uning asosiy majburiyatlardan biri hamdir.

Kitobning reklamasida uning muallifi ishtirok etishi ham g'oyat muhim. Albatta, bunga turlicha qarashlar mavjud. Ba'zan kitob reklamasi, qaysidir ma'noda, unga beriladigan baho, har bir muallif ham bu xususda ob'ektiv bo'lavermaydi, degan xavfsirashlar yo'q emas. Albatta, bunday mulohaza haqiqatdan unchalik yiroq

emas. Lekin, boshqa jihat ham borki, muallif kitobni o'zi emas, balki muharrir bilan birga reklama qiladi. Zarur hollarda unga beriladigan bahoni muharrir aniqlashtiradi. Muallif ishtiroki esa reklama mazmunini ancha chuqurlashtiradi.

Yana bir jihatni ta'kidlash kerak bo'ladi, u ham bo'lsa, nashrdan chiqarish mo'ljallanayotgan kitobni reklama qilish nashriyotning bosh vazifasidir. Mana shuning uchun annotatsiyalangan mavzuli rejani ommalashtirishga asosiy e'tiborni qaratish kerak. Umuman, nashriyotning kelgusida qanday nashriyot sifatida, ya'ni samarali yoki samarasizligi ayni kitob reklamasiga bog'liqdir.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Kitob reklamasi qanday o'tkaziladi va bunda muharrirning ishtiroki zarurmi?
2. Kitob reklamasida ommaviy axborot vositalarining o'mi va ahamiyati haqida nima deya olasiz?
3. Taqdimot ham reklamami va u qanday o'tkazilishi kerak?
4. Kitob haqidagi ma'lumotlarni kim to'playdi?

II QISM IJOD LABORATORIYASI

1-BOB ASAR ARXITEKTONIKASI

1-§. Asar kompozitsiyasini tanlash

- *Asar arxitektonikasi*
- *Asar kompozitsiyasini belgilash*
- *Asar ichida asar*
- *Qism va butun muncosabati*
- *Badiiy ijodda asar kompoztsiyasini tanlash*

Muallif tomonidan bo‘lajak asar uchun mavzu belgilangandan so‘ng uning oldida keyingi muammo ko‘ndalang bo‘ladi. Bu muammo – asarning tuzilishini aniqlashdan iborat. Albatta, asarning qurilishi, ya’ni tarkibini belgilash ham ancha mas’uliyatli sanaladi.

Aslida “kompozitsiya” so‘zi lotincha. O‘zbek tilida tuzilish, qurilish kabi ma’no ifodalarini anglatadi. Hozirgi zamon adabiyot-shunosligida asar kompozitsiyasini asar arxitektonikasi ham deyiladi.

Badiiy asarlarda obrazlar, til va usulibiy vositalar barchasi muallif ilgari surayotgan muayyan g‘oyaga xizmat qiladi. Asar tuzilishi ham yuqoridagilar singari muallif g‘oyasiga bo‘ysundiriladi. Agar obrazlar, tasvir vositalari muayyan tartibda joylashtirilmas ekan ham tasvirdagi, ham qismlararo mezon va uyg‘unlikka putur etadi. Ijodchi har qancha mahoratli so‘z san’atkori bo‘lmasin o‘z g‘oyasi va maqsadiga to‘la erishgan hisoblanmaydi. Mabodo, ijodchining

maqsadi, g'oyasi, nuqtai nazari izchil va aniq bo'lmasa, uning asari tuzilish jihatdan puxta – muvaffaqiyatli chiqmaydi.

Badiiy asardagi har-bir unsur, voqeа, hodisa, vosita hamisha muayyan maqsadga xizmat qiladi, bir-biri bilan ham shaklan ham mazmunan munosabatda bo'lgan holda mantiqiy bog'liqlik – uyg'unlik kasb etadi. Ko'rinaridiki, kompozitsiya asar mazmuni to'laqonli tarzda ayonlashuvni ta'minlovchi shakliy unsur ekan. Bu unsurdan mohirona foydalanish, ya'ni uni aniq, maqsadga muvofiq tanlash, albatta, har bir ijodchining ijod laboratoriyasini tadqiq etishda asqotadi.

Albatta har bir ijodchi o'zi tarlagan mavzu bo'yicha asar yaratishda kompozitsiyani o'zi belgilashiga to'g'ri keladi. Lekin ijodchi bu masalaga har qancha individual yondooshmasin, bunda uning tanloviga ijodiy usul, adabiy yo'naliш, oqim va bularga xos va mos ijod tamoyillari bevosa ta'sir etadi, ijod namunasi shularga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Masalan mumtoz ijodiyotda asar personajlarining tabiiy xususiyatlari – ijobiy yoki salbiy jihatlari qat'iy belgilangan bo'ladi va ularga xos jihatlar aniq va yorqin ifoda topgan bo'lishi shart. Alisher Navoiyning "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin" asarlarida bu hol yaqqol namoyon bo'ladi.

Bularda asar kompozitsiyasi qaysidir ma'noda bir yoqlamalik kasb etadi. Ya'ni yaxshi, yaxshi, yomon, yoman. Lekin badiiy kompozitsiya ham o'z o'rni va ahamiyatiga ega bo'lib, go'yo qahramonlar turg'un holatini aks ettirishga xizmat qiladi. Mumtoz ijodiyotdan farqli o'laroq hayotiy ijod namunalarining tuzilishiga muayyan tarixiy voqealar turmush tarzi, etnografik, e'tiqodiy omillar o'z ta'sirini o'tkazadi, ya'ni ijodchi shularni e'tiborga olgan holda

ular kompozitsiyasini tanlaydi. Qahramon mavjud tarixiy voqealar ichida tasvirlanadi. Lekin shuni alohida e'tirof etish lozimki, imyotliy asarlar kompozitsiyasi bir qolipda qotib qolgan emas, bulki zamon va makonda, ijod taraqqiyotining turli bosqichlarida badiiy asar kompozitsiyasi turli shakllarga ega bo'lgan dastlab, badiiy asarni bir qahramon obrazi birlashtirib turuvchi bir necha hikoyalardan iborat tuzilish yetakchilik qilgan bo'lsa, keyinchalik ugar bosh qahramonining oldida qator to'siqlarni paydo qilish va qahramon ularni birin-ketin yengib o'tishi ustunlik qilgan.

Mazkur tuzilishga ega asarlar XVIII asrdagi badiiy ijod namunalariga taalluqlidir. XX asr badiiy ijodchiligidagi hayotiy asarlar kompozitsiyasida turli-tuman o'zgarishlar kuzatildi. Asar tuzilishi bir qator usul va vositalar tufayli rang-baranglashadi. Bu holndabiyyotda makon va zamon masalasi dolzarblastiganligini anglatdi. Masalan, Oybekning "Qutlig" qon romanidagi voqealar faqat Toshkent shahrida bo'lib o'tadi. Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida Toshkent va Marg'ilonda, G'afur G'ulomning "Shum bola" asaridagi voqealar esa Toshkent shahri va uning shimalidagi qishgloqlarda kechadi.

Zamon masalasiga kelsak "Qutlig" qon asaridagi voqealar 20-asrning ikkinchi o'n yilligi o'rtalarida, "O'tgan kun"lardagi voqealar 19-asrning birinchi yarmi oxiri va ikkinchi yarmi boshlarida "Shum bola"ning boshidan kechirganlari 20-asr boshida yuz beradi. Ayrim asarlar ham borki, ularda makon va zamon cheksizdek tuyuladi. Masalan, Sadriddin Aynining "Qullar" romanida 400 yillik voqea, hodisalarini qamrab olgan, bir emas bir necha avlod hayoti o'z aksini topgan. Bunday asar tuzilishini belgilash, qismlar

orasidagi tadrijiylik va mantiqiy bog'liqlikni, uyg'unlikni belgilash ijodchidan yuksak mahorat va iqtidor talab etadi.

Ma'lumki asar kompozitsiyasiga zamon va makondagi ko'z ilg'amas ufqlarni sig'dirishda muallif tavsifi, dialog, xotirlash, monolog, ichki nutq, ruxiy kechinmalar, hikoya ichida hikoya, lirk chekinish va h. usullardan foydalaniladi.

Aytaylik Oybekning "Bolalik", Abdulla Qahhorning "O'tmish-dan ertaklar" asari, Ayniyning "Esdaliklar" asari xotiralar tarzida tuzilishga ega. Sh. Xolmirzaevning "Hayot abadiy" hikoyasi tush ko'rish shaklidagi kompozitsiyaga ega. Oybekning "Novoiy" romanining tuzilishi oddiy. Matn boblarga ajratilgan va tartib berilgan, jami 37 bobdan iborat.

Har biri tuzilishiga ko'ra o'ziga xos, qisqacha kirish, xulosa va asosiy qismidan iborat. Ayrim boblar rim raqami bilan (I, II) qismlarga ajratilgan. Aslida har bir bob mustaqil asar (kichik xajmdagi) bo'lishi mumkin, ularni asarning bosh qahramoni obrazi birlashtirib turadi, bu asar kompozityasiga yaxlitlik bag'ishlaydi. Quyidagi parchaga e'tibor beraylik. Parcha romanning o'n to'qqizinchi bobining II qismi bo'lib, u kompozitsiyasiga ko'ra mantiqiy mustaqil asar bo'lishi mumkin.

Arslonqul Hirotdan chiqqandan keyin Sultonmurod va Zaynidin yana ko'proq mas'uliyat sezib, tashvishlari ortdi. Tun-kun quloglari tikkaygan, ko'ngillari g'ash bo'ldi. Arslonqulning sheriklari tun-kun zindon tevaragida juvozkashning otiday, aylanib yurdilar Amaldorlarning so'ziga, va 'dasiga qattiq ishonib bo'lmash edi. Uchinchi kundan boshlab hayajon va tahlika kuchaydi. Hirotda

har xil mish-mishlar targaldi: "Qochqin cho'rini og'zidanmi, yo boshqa joydan dam qo'yib shishirar emishlar. Dorga osib, terisini shilar emishlar. Yotqizib, qoq belidan g'o'laday, arralarmishlar!" – bir-biridan vahm qiynoqlar to'g'risida so'zlaydilar. Bularga sovuq-qonlik bilan qaramoq jinoyat bo'lar edi. Chunki, bu "mish-mish"lar orqasida To'g'onbekning qonli, qora ko'lankasi ko'rinar edi.

Zayniddin, To'g'onbek qoshiga horib, uni insofga chaqirishga do'stini qistadi, Sultonmurod bu taklifni eshitgisi ham kelmadi.

- Qo'y, do'stim, betini ko'rmoqqa toqatim yo'q. Uning quloglari, go'yo qo'rg'oshin quylganday, haqiqat so'zlariga tamom kardir.

- Bilaman, o'zim ham undan nafrat qilaman, - dedi Zayniddin, - ne qilaylikki, zaruriyat... unga murojaat etmoqqa, hatto yalimoqqa majburmiz. Sen unga bor, eski tanishlikni o'rtaga sol. Xotirimdadirki, bir vaqtlar seni hurmat qilar edi. Esingdami, nima derdi: "Sultonmurod podsholardan ham afzal. Chunki olamning xazinasi uning boshiga jamlangan..." demasmidi?

- U vaqtarda rasvo, razil bir qochqin edi. Endi qara! – Sultonmurod ko'zlarini ko'kka ma'nodor tikdi.

- Bilasanmi, Navoiyning yaxshi bir bayti bor, ma 'nosi shunday: "Yomonlardan yaxshilik kutmoq, hayvon shoxida gul unmagini orzu qilmoq bilan barobardir!"

Zayniddin ortiq qistamadi. Xirotning yuqori doiralariga yaqin bo'lgan ba'zi tanishlari bilan uchrashmoq uchun ketdi. Har yerda qo'rqinchli mish-mishlar eshitdi. Yana Sultonmurod qoshiga keldi.

Xadichabegim Dildorning harakatidan g'oyat qahrlangan emish, - dedi u xafalanib.

Demakki, ish yomon...-rangi o'chib shivirladi Sultonmurod, u ayolning yuziga toshkan bulut bo'ron va chaqmoqsiz o'tmaydi!

Zayniddin boshi bilan tasdiqladi. Sultonmurod uh tortib, indamasdan bir yoqqa ildam jo 'nadi. Shaharning shimolida, eski, shaxzodalardan qolgan chiroyli qasrning eshigi oldida olimni ikki navkar qarshiladi:

- Xizmat?
- To 'g'onbek janoblariga xabar beringiz, Sultonmurod uchrashmoqni orzu qilur.

Navkarlarning biri, yoqinqiramagandek, imirsilanib, ichkariga ketdi-da, ko 'p o'tmasdan paydo bo 'ldi, boshi bilan imladi. Sultonmurod katta bog' orqali o'tib, qator serhasham uylarning qay biriga kirishni bilmasdan, ancha ovora bo 'ldi: "Ey ulug 'falak! Baxt ko 'r bo 'lmasa edi, shu eshakni boshiga qo 'nurmidi? – o 'yladi ichida u. Keyin qulog 'iga xalqa osgan bir qulning ko 'rsatishi bilan qalin sarzorlar orasidagi yo 'lning boshida, marmar zinali, ayrim katta xonaga kirdi. Bu uy qimmatbaho jihozlarga juda boy edi, qalin ko 'rpachalarda To 'g'onbek bilan mavlono Shahobiddin, yana kekkaygan bir necha mansabdarlar o 'tirardi. Alouddin Mashhadiy yarim yumuq ko 'zlariga qog 'ozni yaqin tutib, To 'g'onbekni kuldirish uchun yozgan hajvlarini o 'qib turardi. Sultonmurodni To 'g'onbek ochiq yuz blan qabul qildi. Yangi mehmonni ko 'rib, hurpaygan shoirning yana bir hajvini eshitib, gavdasini silkib qattiq kuldi. Keyin, u o 'zini go 'yo yurtning homiysi, hayotning har tomoni bilan qiziqqan, bilimdon bir sarkarda kabi tutishga tirishib, madrasalar ahvolidan so 'z ochdi. Sultonmurod ingichka kinoyali tabassum Lilan ba 'zi ma 'lumotlar berdi-da, o 'zining nima maqsad bilan kelganini aytdi. To 'g'onbek iyagidagi qizg 'ish, siyrak dag 'al sogolini qashib sukul etdi.

Keyin yaxday sovuq sun'iy "qih-qih" kuldil.

- *U qochgan cho 'riga homiylik qilib netasiz? - dedi u qoshlarini kinoya bilan kerib. - uylanmoqchimisiz? Qo 'ying men sizga ko 'kragi handalakday dirkillagan sulu qizni topib beraman.*

- *Bek, men sizga uylanish qayg 'usida kelmadim, - g 'azabdan qichqirib gapirdi Sultonmurod. - Men hozir o 'zgalarni baxti va sevgisi uchun g 'amxo 'rlik qilurmen. Kishilarning baxili ko 'rmakning o 'zi ham baxtdir.*

To 'g 'onbek yostiqqa yonboshlab, oltin halli shipka qaradi. Alouddin Mashxadiy, mavlono Shahobiddindan o 'zga mansabdarlar To 'g 'onbekning olimga aytgan so 'zlaridan o 'ng 'aysizlanib, yerga qarashdi. Mavlono Shahobiddin bangilarnikidek sarig', qonsiz yuzini bosgan ochiq kinoya va noxushligi bilan dedi:

- *Yurtning ulug 'lari bor, ishni ularga qo 'yib bermoq kerak. Bizda birovdan jinoyat sodir bo 'ldimi – darrov oqlovchilar, adolat haqida lof uruvchilar paydo bo 'ladi.*

To 'g 'ri, yurtning ulug 'lari bor, - dedi. Sultonmurod asabiylanib, - lekin zulm ham zo 'r, o 'zboshimchalik ham zo 'r. Davlatda oliv poyaga minganlar ichida johillar ham bor. Biz haqiqat yuziga tushgan qora dog 'ni shilmoq niyatida kelgan edik.

- *Birodar, - qaddini rostlab, yumshoq gapirishga tirishdi To 'g 'onbek, jinoyatchiga jazo bermoqni xudo ham payg 'amhar ham buyuradi. Masalani, Shayxulislom hal qilur.*

- *Qizga hech kim jinoyat ag 'dara bilmas. Sof, asl ruhli jasur qizga lutf, marhamat ko 'rsatmoq lozim!*

Barakallo! Bu gaplar qaysi kitobdan? – xitob qildi Shahobiddin.

- *Haqiqiy kitobiarning burchasida bu mazmun bordir! – javob berdi Sultonmurod.*

- Men sizga o'gut o'rgatgundek bilgich emasman, gapirdi qovog'ini solib To'g'onbek. – Biroq shu narsa muhaqqaqki, qorani oqlamoq hech bir podshoning "yosa"⁵siga sig'maydi!

Sultonmurod kelganiga assuslandi. G'azabini bazo'r bosib, o'yladi, qizni Mirzo Yodgor zamonida kim tomonidan olib qochilgani haqida til tegizmakni mo'ljalladi. Lekin, To'g'onbekni qutur-tirishning oqibati qalay bo'lar ekan, deb ikkilanib qoldi. Shu vaqtda bir to'da mast, olista yigitlar va Hirotning mashhur qimorbozlarini kirib keldi. Sultanmurod til uchida sovuqqina xayrlashib eshikka otildi. Hayajondan, bog'chada tekis yo'lni qo'yib, daraxtlar orasida, bilqillama nam yerda, kavushini loyga botirib yugurarkan, orqadan tovush eshitdi: "Mavlono Sultanmurod!" Olim qayrildi. Uy zinasida To'g'onbekni ko'rib, qaytdi.

- Do'stim bizdan ko'nglingiz qoldi-a? – Iljaydi To'g'onbek.

- Men sizni fazilatga da'vat qilgan edim, assus!

- Men xalq oldida sizning iltimosingizga shunday javob bermoqqa majbur bo'ldim. Tushundingizmi? Garchi bu ishga mening dahlim yo'q bo'lsa ham, so'zingizni yerda qoldirmaslikka tirishurmen.

Sultonmurod ko'zlarini katta ochib, endi ochiq yuzli To'g'onbekka tikildi.

- Ko'nglingiz tinch bo'lsin! – ishontirib so'yladi To'g'onbek

Sultonmurod tashakkur bildirib, xayrlashdi-da, suyunib madrasaga keldi. Hujrada Zayniddini avvalgidan ham g'amgin ko'rdi.

- Xotiring jam bo'lsin, do'stim, baloning oldini oldik.

- Haqiqatmi? – Ishonqiramay so'radi Zayniddin.

⁵ Qomun ma'nosida

Sultonmurod bemalol o 'tirib, orada o 'tgan hamma gapni aytib berdi. Dasilab allaqanday gumonlarga borgan Zayniddin, keyin ayniqsa Sultonmurodning ishonch ta'siri bilan – taskin topdi. Bu oqshom ular xatto Arslonqulning qurolli sheriklarini tarqatib yuborib, tinch uplashdi.

Tirtasi qiyom chog 'ida ikki do 'st ko 'chaga chiqishdi. Sahhoflik rutasiga kirib, yangi kitoblar bilan tanishishdi. Bu yerda hamma vaqt uchraydigan ba 'zi olimlar, shoirlar, xattotlar bilan gaplashib, turli mavzularda suhbattashishdi, talashishdi. Keyin, o 'zlarining birnecha kundan buyon o 'rganib qolgan joylariga, "Ixtiyoriddin" qal'asi tomonga beixtiyor borishdi. Atrofga qalin odam to 'plab, qiziq latifalar bilan hammani qah-qah kuldirayotgan mashhur devona "mavlono Darvesh Sham'rez"ni biroz tinglashdi. So 'ng, kabobpazning do 'koniga kelib, ovqatlanib o 'tkan-ketganni tomosha qillib o 'tirishdi. Zayniddin, o 'tkinchilardan – otliq, piyoda yosh-quri bir ko 'p qiziq shaxslarning tarixlarini so 'zlab, har vaqtdagi kabi do 'stini zeriktirmaslikka tirishdi.

Ular kabobpaz do 'konidan chiqqanlarida, uzoqda qalin olomonni ko 'rdilar. Gumonsirab bir-birlariga qaradilar-da, utmon yugurdilar Qorovulxonan eshigida To 'g'onbek qaqqaygan... "Nima gap?" – rangi o 'chib Zayniddinga qaradi Sultonmurod. U jahl bilan labini burib, ko 'zdan yo 'qoldi. Bir necha daqiqadan so 'ng qaytib, Sultonmurodning qo 'lini turtdi-da, chetga imladi.

- Bilasanmi,-dedi u labi-labiga tegmay, – ishtamom... To 'g'onbek Muzaffar Mirzo nomidan farmon yozib, uning yigitlariga topshiribdi. Hozir hukmni ijro qilarmishlar.

Sultonmurod shaq-shaq titrab ketdi: "Ha, it To 'g'on, g 'aflatda

goldirding bizni!" – dedi-da, peshonasiga urdi. So 'ng, birdan g'azabli haya jondan o'zini yo'qotgandek, To'g'onbek tomonga otildi. Zayniddin uni chaqqonlik bilan quchoqlab oldi.

Do'stim esingi yedingmi? Endigi harakat befoyda! – dedi u orqaga surib.

- Tangri haqq, meni qo'yib yubor! – qichqirdi Sultonmurod, - u itning basharasiga butun xaloyiq oldida bir tarsaki uray! Mayli, qo'lidan kelsa, meni ham dorga ossin!

- Behuda gaplarni qo'y! – yalindi Zayniddin. – bir kun undan o'xshatib o'chimizni olurmiz.

Odam borgan sari qalinlashdi. Har kim o'z bilganicha to'qib bichadi: osarmishlar, kesarmishlar! Ko'plar achinadi "Gunohi nima ekan bechora qiz qafasdan qutulmoqchi bo'libdi, xolos!"

To'g'onbek ichkari kirib ketdi. Posbonlar ko'paydi. Muzaffar Mirzoning xos yigitlari paydo bo'ldi. Ular dahshat bilan qichqirib, urib, odamlarni chetga suraboshladilar.

- Nima qilmoq kerak! U bizni ahmoq qilib, ma'sum qizni ko'z oldimizda qurbon etadimi? Bu qanday razolat: - qichqirdi Sultonmurod.

- Vaqt yo'q, shu chog'da kimga borib arz etasen? To'g'onbekdan yordam so'raymizmi? Qasos uchun bukun-erta To'g'onbekning kallasini oldirurmen!

Navkarlar odamlarni surib, qonli ish uchun joy hozirlay boshladilar. Jalloding ham maxsus siymosi ko'rinish qoldi.

- Arslonqul, qattiq qichqirdi Sultonmurod va uzoqda yelib kelayotgan jiyron otga yugurdi.

- Tinchlikmi? – otni to'xtatmasdan so'radi baqirib Arslonqul.

- Tinch... sen ne keltirding, to'xta! Arslonqul otdan sakradi. Qo'llitig'idan qog'ozni chiqarib Sultonmurodga tutqazdi: "Qal'a begiga!" Sultonmurodning yelkasi orqali Zayniddin ham qog'ozga ko'z olaytirdi. So'ng uchchovlari oldin-ketin qal'a boshlig'iga chopishdi.

Sultonmurod keng yelkali, ko'zlar allaqanday harakatsiz, shop mo'ylov yigitga qog'ozni ochiq viqor va g'urur bilan topshirdi. Qal'a begi yo'g'on, dag'al barmoqlari bilan qog'ozni ochib, qimir etmay, tikilib qoldi. Nihoyat qichqirib gapirdi.

- O'lindan ham, zindondan ham qutuldi! – keyin navkarlariga buyurdi. – Olib chiqinglar!

- Ayt, bu bitik nima? Kimdan u? – qal'a begiga yaqinlashib, -g'o'ldiradi To'g'onbek.

- Alisher Navoiydan... Mana hamma beklarning muhri bosilgan. Itoat qilamen! – sovuq javob berdi qal'a begi.

- Haqiqat hamisha ustun, u hamisha g'olib chiqur! – keskin ravishda gapirdi To'g'onbekka Sultonmurod. To'g'onbekning yuzi jahl bilan allaqanday yomon tirtishdi. Bo'rkin qo'liga olib, indamasdan lapanglab chiqib ketdi.

Navkarlar oyoq-qo'llari zanjirband Dildorni olib kirdilar. Uning yuzi xastalarnikidek sarg'aygan, faqat jasur boqqan ko'zlarigina jovdirar, yonar edi. U majolsizlangandek, devorga suyaldi. Arslonqul yugurib borib, uning peshonasini siladi-da, darrov zanjirlarni yecha boshladi.

- Meni qayerga olib boradilar? Siz nima qilib yuribsiz bu yerda? – parishon so'radi Dildor.

- Qutulding, jonim, butunlay qutulding, dadil bo'l! – yig'lam-siragan tovush bilan mayin dedi Arslonqul. Ishonish qiyin, rostmi?

– ko 'zlarini katta ochib, go 'yo savolga hammadan javob olmoqchidek, atrofdagilarga bir-bir qaradi Dildor

To 'rt besh qadam narida turgan Sultonmurod hayajonli edi. Dildorning betiga qarashga botinolmagan kabi boshini quyi solgan edi.

Ular ko 'chaga chiqqanda, olomon suyunch va suron bilan qarshiladi. Kimdir qattiq qichqirdi: "Marvdan Navoiy Hirotdagi baloga changal soldi!

- To 'g'ri!

- Umrlari uzun bo 'lsin! – gurilladi olomðn.

Olamondan uzoqlashgach, Arslonqul to 'xtab, do 'strarini uyga taklif etdi. Sultonmurod charchaganlikni bahona qildi-da, uzr tiladi va ular bilan birga borishni Zayniddindan o 'tindi. Do 'sti rozi bo 'ldi. Dildor Sultonmurodga tikilib-tikilib qaradi, ko 'ziga tanish, qayerdadir, ko 'rgan, lekin xotirlay olmadi...

- Siz ham biz bilan birga bo 'lingiz, quvonchli kun bu... – dedi u uyalgansimon, kulib yerga qaradi.

- Rahmat, singlim, – titrab gapirdi Sultonmurod, – to 'ylaringda borurmen... baxtlaring quyoshdek porloq bo 'lsin, xayr!

Sultonmurod, go 'yo suyunch qanotida uchayotgan do 'strarini xayolchan ko 'zları bilan ancha joygacha kuzatib, so 'ng asta yurib, hujrasiga keldi. Yuragida bo 'ronlar sekin-sekin tindi. Muhabbat bilan to 'la ikki yurakning qovushmog 'i, baxti nash 'asi, bulutdan so 'ng chiqqan quyoshdek, olimning butun ma 'naviyatini, ichini yoritib yubordi.

Parchaning birinchi abzasi kirish qismi vazifasini o'taydi. So'nggi abzas esa xulosa o'mida keladi. Asosiy qism Dildorning zindonband qilinishi va tutqinlikdan ozod bo'lishi haqida. Agar shu parchani roman tarkibidan olib, munosib sarlavha tanlansa, u mantiqan tugallangan kichik bir mustaqil asarga aylanishi mumkin. Matn mazmuniga ko'ra uni quyidagicha sarlavhalash mumkin. "G'oyibdan kelgan najod", "Kutilmagan bir baxt" yoki oddiygina "Dildorning halos etilishi" va h.

Parchada aks etgan voqeа, hodisa "Navoiy" atalmish yaxlit romanning tarkibiy qismi ekanligi parchadagi ikki jumlada ayon bo'ladi.

-Ayt, bu bitik nima? Kimdan u?

Qal'a begiga yaqinlashib, g'uldiradi To 'g'onbek.

-Alisher Navoiydan.. Mana hamma beklarning muhri bosilgan.

Itoat qilamen! –sovuq javob berdi qal'a begi.

Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydilar" asari kompozitsiyasi ham mumtoz, ham zamonaviy badiiy ijodga xos shaklda. Muallif asar tuzilishini belgilashga bir qadar erkin yondoshgan.

Asar nomidan so'ng (4-betda) e'tirof beriladi. 6-betda mumtoz adabiyotlar (diniy-ma'rifiy) adabiyotlardagiga taqlidan "oyatlar tarjimasi sarlavhasi "Bismilohir rahmonir rohiym" kalimasi keltiriladi va Baqara surasidagi 16-18-oyatlar tarjimasi beriladi. So'ng muallifdan sarlavhasi ostida matn bor. Shundan keyin Muqaddima joy olgan. 7-betga kelib asosiy qism boshlanadi.

Asosiy qism uch bo‘limdan iborat. Har bo‘lim ruknlangan: *Birinchi bayon: yashash huquqi; Ikkinci bayon: farjom; Uchinchi bayon: oydinlik*.

Birinchi bayon: yashash huquqi rukni ostidagi matn 9 qismga bo‘lingan, har bir qism sarlavhalangan.

Ikkinci bayon: farjom rukni ostidagi matn 15 qismga ajratib, sarlavhalangan, Uchinchi bayon: oydinlik rukni ostidagi matn 7 qismdan iborat, har biri sarlavhaga ega.

Birinchi bo‘lim yozuvchining asarni yozishdan ko‘zlagan asosiy maqsadga o‘tishi oldidan go‘yo kirish vazifasini o‘taydi. Sarlavhalar ham shunga bo‘ysundirilgan. Ikkinci bo‘lim sarlavhalari esa asosiy qism mazmunining mundarijasи hisoblanadi. Mantiqan uchinchi bo‘lim asar xotimasi vazifasini o‘taydi, buni sarlavhalar ham yaqqol namoyon etadi.

Xullas, asar kompozitsiyasini belgilash yozuvchining individual tanlovi, o‘zi aytmoqchi bo‘lgan fikri auditoriyaga ta’sirchan tarzda etkazish uchun qulay shakl yoki usul tanlashdir. Ijodchi didi nuqtai nazaridan e’tibor berilsa, kompozitsiya – ijodchi g‘oyasini, yetkazmoqchi bo‘lgan informatsiyani maqbul shaklda, mantiqqa asoslangan va mos tanlangan, mukammal yuzaga chiqaruvchi asar qurilishi tarzi hisoblanadi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Kompozitsiya nima?
2. Badiiy asar kompozitsiyasi qanday tanlanadi?
3. XVIII asrdagi badiiy asarlar kompozitsiyasi qanday o‘ziga xoslikka ega?
4. Oybekning “Navoiy” romani kompozitsiyasi qanday tuzilgan?
5. Tohir Malik “Murdalar gapirmaydilar” asariga qanday kompozitsiya tanlagan.

2-§. Asos materiallardan foydalanish.

- *Asos (faktik) materiallar va ularning badiiy ijoddagi o‘rnini, ahamiyati.*
- *“O‘tgan kunlar” va “Qutlug‘ qon”dagi asos materiallar*
- *“Navoiy” romanida asos materiallar*
- *Asos materiallar ko‘lami*
- *Ijod turlari va asos materiallar*

Badiiy asar har qancha badiiy bo‘lmisin, obrazlar ijodchi hayolotidagi, to‘qima bo‘lmisin, muallif o‘z fikri, g‘oyasini amalga oshirishda asos materialarga tayanadi. Ho‘sh, asos materiallar o‘zi nima? Ijodchi ulardan nima uchun foydalanadi?

- Adabiy tahrir darsligida asos materialarga shunday ta’rif beriladi: “Ular faqat hodisalarining ifoda etmaydi, balki, ta’bir joiz bo‘lsa, “haqiqat ushog‘i” hisoblanadi, ashyoviy unsurlar, xossalalar, sifatlar, holatlar, shaxslar nomi, munosabatlar, miqdorlarni ham ifoda etadi”

Agar yuqorida biz ta'kidlagan jumla bo'lmaganda edi, unda asar ijodchining sof uydirmasi bo'lib qolar edi. O'zbekistonda masxati turklarini yurt egasi bo'lgan xalqqa qarshi qayragan razil kuchlar ataylab yuzaga keltirgan nizoni o'sha vaqtida "markaz"ning manqurt vassali bo'lgan rahbar, hech bir uyalmay netmay "bozorda qulupnaydan chiqdi", deb qo'ya qolgan edi. Toxir Malik ana shu nizoning kelib chiqish sababi, ildizini badiiyat vositasida ayonlashtirishga harakat qilgan. Birgina jumlada ifoda topgan hodisa asarda asos material vazifasini o'tagan va asarga hayotiylik, ya'ni makon va zamonda sodir bo'lganlik baxsh etgan.

Demak, asos materiallar har qanday asarga hayotiylik, to'qima obrazlarga jon bag'ishlaydi, sanalar tarixiyashadi, bo'lib o'tganlarning barchasini o'quvchi o'z boshidan o'tkazgandek yoki bayon etilgan voqeя, hodisalarda asar qahramonlari bilan birga ishtirok etgandek, barchasini kuzatgandek xis etadi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Asos materiallar deganda qanday unsurlarni tushunasiz?
2. Badiiy asarda asos materiallardan foydalaniladimi?
3. Badiiy ijodda asos materiallar nima uchun kerak?
4. Badiiy ijoddagi asos materiallarning farqi nimada?

3-§. Asar ibtidosi va intihosi

- *Asarning birinchi jumlesi asar mazmun-mundarijasining boshlanishi*

- *Ikki asar iptidosi*

- *Asarning boshlanishi va tugashi – asar kaliti hamda qulfi*

Har bir ijodkor o‘z asarini boshlanish nuqtasiga, ilk jumlesi va tashiydigan ma’no, mazmuniga katta e’tibor beradi. Zero, har qanday asarning sarlavhasi shu asarning butun mazmun mohiyatini o‘zida mujassam etsa, birinchi jumla, abzas shu mazmun-mohiyatning boshlovi hisoblanadi. Shu ma’noda uning mohiyati sarlavhaga teng kelmasada, undan qolishmasligi ham muhimdir. Masalan, Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romani shunday boshlanadi:

«1264 xijriy, datv oyining o‘n yettinchisi, qishki kunlarninng biri, quyosh botgan, tevarakdan shom azoni eshitiladir...»

Shundan so‘ng karvonsaroy, uning xujralari va alohida bir xujrasi ta’riflanadi. Chunki uning bezatilishi va bu xujrani egallagan kishi boshqalardan farq qiladi: Ya’ni:

«... saroyning to‘rida boshqalarga qaraganda ko‘rkamroq bir hujra, anavi hujralarga kiyiz to‘shalgan holda bu hujrada qip-qizil gilam, ularda bo‘z ko‘rpalar ko‘rilgan bo‘lsa, bunda ipak va adres ko‘rpalar, narigilarda qorachiroq sasiganda, bu hujrada sham yonadir. O‘zga hujralarda yengil tabiatli serchaqchaq kishilar bo‘lganida, bu hujraning egasi ham boshqacha yaratilishda: og‘ir

tabiatli, ulug' gavdali, ko 'rkam va oq yuzli, kelishgan qora ko 'zli, mutanosib qora qoshli va endigina murti sabza urgan bir yigit!... Qandaydir bir hayol ichida o 'tirgan bu yigit Toshkentning mashhur ayonlaridan bo 'lgan Yusufbek hojining o 'g'li – Otabek».

Demak asar voqealari Otabekning Marg'ilonga kelishi bilan boshlanadi. Abdulla Qodiriy asarni quyidagicha nihoyasiga yetkazadi:

1277 yilning kuz kezlarida bo'lsa kerak, Yusufbek hoji Qanoatshodan bir xat oldi. Qanoatsho Avliyo otadan yozar edi:

"O 'g'lingiz Otabek yana bir kishi bilan bizning qo 'shinda edi. Avliyoota ustidagi chor askarlari bilan to 'qnashishimizda birinchi safimizni shu ikki yigit oldi va qahramonona urishib shahd bo 'ldi. Men o 'z qo 'lim bilan ikkisini dafn etdim..."

"Yusufbek hoji xatmi qur 'on qilib yurtga osh beradi. O 'zbek oyim qora kiyib ta 'ziya ochdi".

Oybekning «Navoiy» romani buyuk siymo, she'riyat mulkining sultoni xazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning Hirotga kelishi hushxabari bilan boshlanadi.

«Alisherning Hirotga qaytganini ilk eshitgan chog'da [Sultonmurod] ko 'nglida tug'ilgan kuchli orz – shoirni ko 'rish ishtiyogi, hozir uning butun borlig 'ini qoplab oldi».

Asarning tugalishi quyidagicha:

“...minglarcha qo ‘llardan o ‘igan tobut “Diygoh”da to ‘xtadi. Motam marosimiga muvofiq, dabdaba bilan Husayn Bayqaro hozir bo ‘ldi. Bu yerda janoza o ‘qildi. Tobut yana xalq to ‘lqini ustida suzdi. Shoirni, o ‘zi soldirgan go ‘zal binolardan biri – “Jomi”da, abadiy qarori uchun ilgaridan yasab qo ‘ygan maskaniga yotqizdilar ...”

Endi «Qutlug‘ qon» romanining matniga e’tibor beraylik:

«Vaqt peshindan oqqan edi. Iyul oyning quyoshi hamma yoqni olov seli bilan to ‘ldirgan, havo allaqanday oq alanga bilan jimgina yonganday».

Agar diqqat bilan nazar tashlansa, Yo‘lchining Toshkentga kirib kelishi vaqtি saraton bir kunining og‘ir damlari vaqtি, jonzot issiq azobidan qutilish maqsadida o‘zini soyaga urgan, qimir etgan tirik jon ko‘rinmaydigan, xatto qilt etgan shamol ham yo‘q onlar ekani ayon bo‘ladi. Bunday paytni adib bejiz tanlamagan ko‘rinadi, chun-ki Yo‘lchi ham hayotidagi azob beruvchi mashaqqatli qismatdan qutilarmikanman degan maqsadda Toshkentga kirib keladi. Kunning og‘ir damlari bilan Yo‘lchining hayotidagi qiyinchilik, nochorlik onlari bir-biriga hamohang.

Yo‘lchi kambag‘aliik, nochorlik vajidan boy tog‘asi Mirzakarimnikiga ish-najot qidirib keladi, shu joyda Gulnorni uchratadi va uni sevib qoladi. Ammo bu ikki yosh baxtiga keksa Mirzakarimboy

to‘g‘anoq bo‘ladi. Gulnorning sodda, go‘l otasi – Yormatning yordamida boy Gulnorga uylanadi. Bu kunlardan ko‘ra o‘limni afzal bilgan Gulnor meros taqsimlanishidan vahimaga tushgan boyvachchalar tomonidan zaharlab o‘ldiriladi.

Tiriklikdan bor umidini uzgan Yo‘Ichi 1916-yildagi «mardikorga olish» sababli ko‘tarilgan milliy ozodlik qo‘zg‘olonida birinchilar qatorida turib halok bo‘ladi. Adib tasvirida bu voqeа quyidagicha ko‘rinish oladi.

Adib asarni “O‘tkan kunlar”dagi singari bosh qahramonning bosqinchilarga qarshi kurashib halok bo‘lishi bilan intihosiga yetkazadi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Asar boshlovining adib ijodidagi ahamiyati nimada?
2. Asarning tugashi hamisha ham tugalishimi?
3. Turli adiblar asari boshlanishidagi va tugashidagi o‘xshashlik tasodifiymi, yo..?
4. O‘z asaringizni qanday boshlaysiz va tugatasiz?

2-BOB

IJOD BULOG'INING OCHILISHI

1-§. Mavzu tanlash mahorati

- *Mavzu tanlash – masuliyatli jarayon*
- *Adibning mavzu tanlash mahorati*
- *O'tmish xususidagi mavzuni tanlash ustuvorligi*
- *Zamonaviy mavzuni tanlash bilan bog'liq muammolar*

Oybekning ilk she'rlarini tahlil etgan tadqiqotchilar ularda Cho'lpon ijodiyotining ruhi sezilib turishini ta'kid etganlar. Bu fikrni uning «Musicha», «Gulnor» singari nasriy asarlarida «Tong yulduzi»ning ta'siri sezilib turishi dalillay oladi. Demak, Oybek dahosi tug'ilishida Cho'lponning alohida o'rni bor.

Adib o'z ijodida nazmning ufqidan ko'tarilib nasr osmonida balqiydi. U o'z she'riyatining latif gulzorini tark etmagan holda o'zbek va Yevropa, rus adiblari bo'stonidan bahramand bo'ladi.

Oybek nasriy ijodga kirishishdan oldin Abdulla Qodiriy ijodini puxta o'rganganligi tabiiy, ammo u buyuk ijodkor tajribasini o'rganibgina qolmaydi, balki, qayerdadir bu ilg'or tajribani yanada to'ldirishni ham o'ylaydi, ya'ni Abdulla Qodiriy badiiyatini boyitish yo'lini tutadi. Bu holni biz adibning «Qutlug' qon» romanida yaqqol ko'ramiz.

Ma'lumki, ijodiy jarayon faqat hozirgi **kun**, istiqbol rejalarini bilan hayot emas. U kechmish kunlar ijodiyoti tajribalari, g'oyalari, til va uslublari, ma'naviyati, qisqasi ijodkor laboratoriysi «ne'matlaridan» bahramand bo'ladi. Oybek o'z romani uchun

tanlagan tarixiy mavzu «O’tkan kunlar» mavzui bilan hamohangligi ham balki shundandir. Agar Abdulla Qodiriy yaqin o’tmishni qalamnga olgan bo‘lsa, Oybek kuni kechagi tarixga murojaat etadi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Asarning yaratilishi nimadan boshlanadi?
2. Mavzylar rang-barangligi va o‘xshashligi.
3. “Qutlug‘ qon” qanday mavzuga bag‘ishlangan?
4. “O’tkan kunlar”ga qanday mavzu tanlangan?

2-§. Tarix manzaralari

1. *O’tmishni bilish – o’zlikni anglash.*
2. *O’tmish saboqlari – kelajak tayanchi*
3. *Tarix tasviri – obratzli fikrlash unsuri.*

«Qutlug‘ qon» romanida tabora mustahkamlanib, yovuzlashib borayotgan mustamlakachilar va ularning mahalliy aholini ezuvchi zulmkor davlat tizimi yaqqol gavdalanadi. Bu tizim mahalliy munofiq boylar, ruhoniylar, qozilar (Sattorxonga o‘xshash), savdogarlar (Saydazim boy kabi) tayanib, mamlakatni idora qilgani uchun, barcha og‘irlik, azob-uqubat, haqsizlik yuki kambag‘al mehnatchi, yurtparvar ziyoli yelkasiga tushadi. Tabiiyki, bunday muhit, sharoit mustamlakachilar va ularning mahalliy gumashtalari uchun qo‘l keladi. Ular xalqni zulm changalida, xurofot botqog‘ida saqlashga jon-jahdlari bilan urinadi. Ammo siz romanni o‘qishda davom etar ekansiz mustamlakachilikning sir sinoati ayonlasha

boradi. Asardagi voqealar zanjirining bir-biriga jips bog‘langan xalqalari o‘sha davr haqiqatini sahifama-sahifa ochib beradi. Mustamlakachilikning mumtoz chirkin qonunlari bor. Unga ko‘ra zabit etilgan yurt yovuzlarcha ham moddiy, ham ma’nani qashshoq holga keltiriladi. Turkistonda ham («Qutlug‘ qon»da ham) xalq moddiy boyligi tashib ketiladi va buning evaziga unga ichkilikbozlik, faxsh, (qarang: «Kecha va kunduz». Cho‘lpon) iymonsizlik, oqpadarlik (qarang: «Oqpadar». Behbudiy), insofsizlik, xarom-xarishlik kiritiladi. Mahalliy xalq vakillariga mensimay qarash, ularni kamsitish, madaniyatini, e’tiqodi, tilini pastga urish bosqinchı millat vakillariga xos ekanligi, romanda, alam bilan tasvirlanadi. Masalan,

«...mening mushohadamga qaraganda, ularda, masalan, badiiy sezgi anche o’sgan. Ular gulni sevadilar. Kiyimlari chirkin bo’lsa ham quloglariga gul taqib yuradilar ... Lekin ularning hammasi qo’rqoq hammasi ayyor...»

Mast Salimboyvachchaning sahovati tutib, o‘z «qarindoshi» - Yo‘Ichini restoranga taklif etadi. Yo‘ichi stulga joylashib ulgurmay bir yonida Anna, bir yonida Mariya paydo bo‘ladi. Ular ikkovlashib Yo‘Ichini sharob ichishga qistaydilar.

Oybek tarix manzaralarini berishda mustamlakachilik siyosatining mevasi bo‘lmish islovatxona, restoran kabi Turkiston hayotidagi «yangiliklar» tasviridan ham mahorat bilan foydalangan.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Tarixga oid mavzu ustuvorligi nimada?
2. Muallifning tarixga bo‘lgan munosabatini qanday izohlaysiz?
3. Tarixiy voqealarni bayon etishdan maqsad nima?
4. Tatix manzaralarini tasvirlash muallifga nega kerak?

3-§. Asarda ijtimoiy qatlamlar

1. *Ijtimoiy qatlamlarda – inson qiyofasi.*
2. *Qatlamlarda zamona kishilari qiyofasining aks etishi.*
3. *Asar qatlamlari va bosh qahramon dinamikasi.*
4. *Qatlamlarni tashkil etuvchi personajlar tasviri.*

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida turli ijtimoiy qatlamga oid personajlarni ko‘rish mumkin. Masalan:

- *Endi menga berma, Sodiq, Mutual polvonga beraver! Otabek bu tovushning kimniki bo‘lganligini bilgan edi.*
- *Ha deb menga beraverasanlarmi, oralatib Jannat opamga ham berib qo‘y, ha-ha-ha!*
- *Bizning kampirga bersang, qaytarmasdan icha beradir!*
- *Bersa icha beraman, qix... o‘zim xotin bo‘lsam ham Mutual polvonlarning o‘nini qochiraman, qix...*

Bu so‘zdan so‘ng uy ichini kuchli bir kulgi tovushi qopladi. Kulgi bosilgach, yana so‘z boshlandi:

- *Endi shoni ichasiz, Homid aka!*
- *Yo‘q, Sodiqboy inim, men juda ham bo‘lib qoldim, o‘zi ham juda kuchli chiqqan ekan.*

- Ichmasangiz qo 'ymayman, nekin!..

- Mutal polvonga ber! Siz oling-chi shuni!

- Aniq ichmaysizmi, Kumush opamning salomatligiga ham ichmaysizmi??

Bu so 'zni eshitgan Otobek ixtiyorsiz o 'rnidan turib ketdi. Jannat opaning xi-xi-xi qilib kulgan tovushi eshitildi.

- Oraga nozik bir ismni keltirib solmasang xudo haqqi ichmas edim. Qani bo 'lmasa ber-chi, Kumush opangning salomatligi hammadan ham menga kerakdir!

- Ha-ha-ha, nozik joydan ushladimmi?

Otabek bu so 'zlarni eshitar ekan, zo 'rg'a-zo 'rg'a o 'zini darichaga hujum qilishdan bosib qolgan edi. Orada bir muncha mayda so 'zlar so 'zlangach, kimningdir uff deb yuborgani eshitildi.

- Tag 'in nima bo 'ldi, Homid aka?

- Bu kungi gap juda ham meni cho 'chitib qo 'ydi-da, Sodiqboy!

- Mening gapimga nima uchun ishonmaysiz, axir! Yuz martaba sizga aytib yotibman-ku, xumsoni darvozadan chiqardim, tag 'in qanchagacha orqasidan borib to karvonlarga qo 'shilib ketkuncha kutdim, so 'ngra qaytib keldim, deb. Agar o 'sha ketishi bo 'lsa, bugun xuddi Qo 'qonga borib yetgan.

- Ey sen bilmaysan uka!

- Nekin menga qolsa, bu ishda hech bir qo 'rqadigan gap yo 'q, usta bilan tanishligi bo 'lsa, uning uyiga mehmon bo 'lgandir, savdogarchiligi bo 'lsa, Marg 'ilonga kelgandir, axir ketib turgandagi so 'zini o 'z qulog 'ingiz bilan eshidingiz-ku!

- Bu mulohaza tuzuk-ku, biroq men bilan achchig 'lashgan bir kishinikida mehmon bo 'lishi boshni qotiradir, tag 'in sizlarning hovlilaringiz yonida...

- Agar siringizdan usta Olimning xabari bo'lsa, u vaqtida qo'rqsangiz arziydir Ammo menga qolsa, u xumpar Marg'ilonda xotini borligini unutib yuborgan deb o'layman.

- Mening bu sirimni sizdan boshqa hech kim bilmaydir Umarbek bilan bir oz nari-beri bo'lib qolgan edim, xaytovur tag'in orani ochib yubordik

- Undoq bo'lsa tag'in nimadan qo'rqsiz?

- Men uning Toshkent ketishimi ko'z bo'yash uchun bo'lган hiylami, deb qo'rqaman.

- Xayr, ketmagan ham bo'lsin: u holda o'zingiz aytgandek qilib to'ppa to'g'ri ertaga Salim sharbatdorning oldiga boraman-da, o'g'lingni Mirzakarim akaning ilgarigi toshkentlik kuyovi o'ldirdi, men o'z ko'zim bilan ko'rdim, deyman. Ana undan so'ng xumsoning holiga maymunlar yig'lasin agar u siringizni bilgan bo'lganida ham allaqachon keladigan ishga tushunib qolib, Marg'ilondan dumini xoda qildi, desangiz-chi!

- Qix ... Sodiqning gapi jo'yalik, - deb qo'ydi Jannat ona. Otabek bu so'z dahshatidan titrab ketgan edi:

Sodiq davom etadi:

- Endi ishning bo'ladirganini o'ylash kerak, sizning qo'rkoqligingizni ko'rib, ana Mutal polvon ham uxtay boshlabdir.

- Uxlaganim y-y-yo'q, hez dorongdan quy-chi!

- Mutalboy o'rtoq, - dedi Homid – biz birovning yaxshilagini unitadigan kishi emasmiz. O'rtog'ingiz Sodiqboy men bilan birlashib kamlik kormadi, avvali xudo, qola bersa men uni uylantirib qo'ydim... Men birov bilan oshnachilik qilsam, haito, undan jonimni ham ayamay, ko'nglini olmoqqa tirishaman.

Sodiq:

- *Mutalboy sizni o'zidan yaxshi biladir, Homid aka! Sizning qanday xizmatingiz borligiga ham qondan... Ammo uning sizdan iltimosi bor ekan.*

Homid:

- *Nima iltimosingiz bor, Mutalboy?*

- *Mutal:*

- *Bitta – y-ya-yarimtadan ych-to 'rt t-t-tanga q-qarzlarim bor edi, Homid aka.*

Homid:

- *Oshnachilik degan uch-to 'rt tanga bilan bog 'lana olmaydir, Mutalboy! Men sizga hali aytib qo 'ydim: mening oshnaligim oshnadan jonni ham ayamaslik bilan bo 'ladir. Uch-to 'rt tanga emas, muhtoj bo 'lsangiz ottiz-qirq tanga so 'ray bering!*

Jannat opa:

- *Ilohi Homidboy murod-maqsadiga yetsin, qix... Oshna-og 'aynidan dunyo ayamaydir!*

Mana Mutual polvon, hozircha oz bo 'lsa ham shuni olib turasiz, ammo xizmat haqingiz o 'z yo 'liga bo 'ladir.

Adibning o'z romanida yuqoridagi qatlarni kiritishdan maqsadi asar bosh qahramoni – Otabekning xarakterini yanada yorqinroq ochib berishdir. Qatlamlararo ziddiyatlar romanda dramatizmni kuchaytiradi, unga hayotiylik bag'ishlaydi.

Har bir asarda, u xoh hajman katta bo 'lsin, xoh kichik muallifning orzu-umidlari (bu garchi ramziy ma'noda bo 'lsa ham) o'z ifodasini topishi ayni haqiqat. Ana shu orzu-umidlari asarda qatlam-qatlam

tarzida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda Oybekning «Qutlug’ qon» asarida ham ikki baquvvat qatlam mavjud. Agar birinchi qatlamni bosh qahramonlarning o‘xhashi yo‘q muhabbat tashkil etsa, ikkinchi qatlamni shu qahramonlar qaynagan qozon yanglig‘ ijtimoiy muhit tashkil etadi.

Birinchi qatlamda, tong pallasidagi shudringdek shaffof sevgi – ilohiy bir hissiyoti kamalakdek tovlanadi. Kambag‘al yigit bilan Yormatdek qulning qizi o‘rtasidagi muhabbat qanchalar yuksak ekani hammaga ayon. Bunda adib o‘z qahramonlari, o‘zining estetik didi va badiiy tasviriy-ta’sirchan vositalardan qanchalar foydalana olishlik san’atini namoyon qilib o‘quvchini rom etadi.

Romandagi ijtimoiy qatlam ahyon-ahyon, nihoyasida esa to‘lig‘icha birinchi o‘ringa ko‘tarilishi o‘sha davr bilan – zamona haqiqati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Aslida Yo‘lchi zamona zulmiga qarshi kurashchi bo‘lib tug‘ilmagan. Xalq ko‘ksida oy sayin emas balki kun sayin paydo bo‘layotgan jarohatlar Yo‘lchining aql ko‘zini ochadi, «*sitamli dunyo*»ni tiniq ko‘rishiga imkon yaratadi. Natijada u «...boy, ...vachchalar dunyosiga» qarshi bosh ko‘taradi.

Yo‘lchi bozorga, gazlama tashib, tog‘asining do‘konida uzoq qolib ketadi, oldi-sotdi jarayonini ziyraklik bilan kuzatadi, astasekin savdogarlar va bozor sirlari bilan tanisha boradi. Har xil rastalarda olamonning g‘ovur-g‘uviri, oltin-kumush tangalarning jarangi, qog‘oz pullarning shildirashi, savdo dengizining to‘lqini, unda ko‘tarilib, pasayib turuvchi bo‘ron og‘ushida javlon urayotgan yoki chirpirak bo‘layotgan insonlarning ruhi, kayfiyati, yuragi, turmushi, baxti va baxtsizligi, omadi, falokati ko‘z o‘ngida

ravshanlasha boshlaydi. Oddiy mehnatchi – dehqon, kosib, mardikor va boshqalar misoli bu bozor jahannami olovida bir tutam quruq xasdek yonayotganini idrok etadi-yu, ammo hali ko‘p narsaga uning aqli yetavermas edi. Ammo birinchi o‘ringa chiqayotgan bu ikkinchi qatlam har soat, har daqiqada unga o‘zining qiyofalarini sirlarini oshkor etardi. Adib Yo‘lchi ongida ijtimoiy manzaraning oydinlashishini sabr-toqat bilan kuzata boradi.

Turkiston mustamlakaga aylantirilgach, yevropacha bozor munosabatlari kirib kela boshlaydi – bu bilan kapitalistik salbiy illatlar mustamla-kachilarning «sa'y-harakati» bilan, avvalo, savdogar, boylar, ularning farzandlari tabiatida ko‘payadi. Dinning ta'siri susayib, ichkililikbozlik, o‘g‘rilik, xarom eyishlik va fohishabozlik kabi illatlar avj oladi. Qozi, keyinchalik muftiy bo‘lgan Sattorxon buning yorqin dalili bo‘la oladi.

«Tuzemtsi, sblijavshiesya s russkimi i nauchavshiesya govorit po-russki, usvaivali preimushestvenno vneshnego storonu russkoy jizni, bolshego chastyu otritsatelnue storonu, nauchilis vesti legkomuslennuy obraz jizni, pit vino i pivo; eto otnositsya daje k uchyonum, predstaviteleyam religii, kak muftiy, v posledstviye kaziy Sattor-xan» (V.V.Bartold. soch., t.2, M., 1963, st. 345).

[Ruslar bilan yaqinlashib, rus tilida so‘zlashishni o‘rgangan mahalliy aholi vakillari rus turmush tarzining asosan tashqi jihatlarini o‘zlashtiradi, ko‘proq salbiy tomonlarini oladilar, ular yengiltak turmush kechirishni, vino va pivo ichishni o‘rganadilar; bu ilm ahliga, din vakillariga, xatto muftiy, keyinchalik qozi bo‘lgan Sattorxonga ham taalluqlidir (Tarj. bizniki - muallif)].

Mana shunday ijtimoiy-ma'naviy muhitda mulkdorlar, savdogarlar, amaldorlar xudbinlasha, zolimlasha boradi. Bu, shubhasiz, ommaning sabr kosasini to'ldirib yuboradi va oqibatda ommani qo'zg'alonga boshlovchilar etishib chiqadi. Ammo, u vaqtida bunday harakatlar mag'lubiyat, fojalar bilan tugashi tabiiy edi. Boisi hali bunday harakatni oxiriga etkazuvchi rahbar kuchlar etilmagan, xalqning o'zi ham tayyor emasdi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Asar qatlamlari ziddiyat manbaimi?
2. "O'tkan kunlar" va "Qutlug' qon"dagi ijobiy qatlamlarni qiyoslang.
3. Qatlamlar qiyofasi jamiyat qiyofasimi?
4. Qatlamlar ma'naviy muhit ifodachisimi?
5. Ijobiy obrazlar ijobiyligi nimada?

4-§. Asar bosh qahramonida adib o'zligining namoyon bo'lishi

- *Asar bosh qahramonida muallif o'z menini ko'rishi.*
- *Muallif meni – asar bosh g'oyasini ochib berish omili.*
- *Asar bosh qahramoni va muallif orzu-umidlaridagi mush-taraklik.*
- *Muallifga xos xislatning, etiqotning bosh qahramonga ko'-chishi.*

Fransuz yozuvchisi Gyustav Flober o'z asari – «Bovari xonim» dagi qahramonni (Emmani), bu – menman, degan ekan. «Qutlug'

qon» romanining bosh qahramoni Yo‘lchidagi soddalik, samimiyat, o‘zini do‘sit sanovchi kishiga cheksiz hamiyat, mehnatga o‘chlik unga Oybekdan ko‘chgandir.

«... *Xadraga kelganda u birdan otni to ‘xtatdi: apteka devoriga qisilgan Shoqosim past, ayançli ovoz bilan bir nimalar so ‘zlab, o ‘tkinchilardan sadaqa so ‘raydi!* Uning devorga yopishib turishi, ko ‘zlarini yerdan uzmasligi, qo ‘lini cho ‘zmasdan tavoze bilan ko ‘ksiga olib turishi, uning ... qanday azob sezganini, odamgarchiligining yemirilganidan, iyatdan, nomusdan o ‘limga rozi ekanini ko ‘rsatar edi».

Yo‘lchi o‘ylaydi: «Men chaqirsam battar uyaladi, yerga kiradi. ... Yonimda pulim bo ‘lsaydi, yordamlashardim. Hech nimam yo ‘q! Uh!!! Otni haydadi. Faqat ozgina yurib, yana to ‘xtashga majbur bo ‘ldi: Har nima bo ‘lmasin, unga suyanchiq kerak». Otdan tushib, bir necha qadam orqaga yurdi va chaqirdi. «Shoqosim aka!». Shoqosim boshini ko ‘tarib, atrofga alangladi. Ikkinci chaqirishda Yo‘lchini ko ‘rib, egilgan holda chorig‘ini sudrab keldi»

Sal keyinroqda adib shunday xabar beradi: «Uch kundan so ‘ng Shoqosim tilanchilikdan qutildi. Yo‘lchi uni bir juvozkash mayda boyga xizmatkorlikka – uning juvozini haydaychi sifatida o ‘rnashtirdi».

Albatta, bu parchada bosh qahramonning insoniy xislat-odamgarchiliqi, mazlumlarga yordam qo‘lini cho‘zish, xullas insoniy mohiyati ochib berilgan. O‘zbek adiblari orasida Oybekning o‘zi shunday – sahiylardan edi, balki Yo‘lchiga bu Oybekning

o'zidan o'tgandir. Ikkinchi jahon urushidan keyin og'ir yillarda Oybek tufayli moddiy ahvoli yaxshilanishidan baxramand bo'lgan kishilar oz emas. Shu bilan birga moddiy ahvoli imkon bermagan paytlarda, shubhasiz, Shoqosimga o'xshagan kishilarni ko'rganda adibning yuragi achishgan, balki yanog'ini chuqur istirob yoshlari yuvgandir. «Qutlug' qon»dagi Yo'lchi tushgan holatni adib bir emas, bir necha bora boshdan kechirgan, asarida o'zining ana shu mungli uchrashuv va xotiralarini aks ettirgandir.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Birinch darajali obrazlar qanday ataladi?
2. Muallif "meni" qanday obrazlarda aks etadi?
3. Muallif orzu umidlari nimalarda ko'rindi?

5-§. Ijobiy qahramonlar toblangan o't

- *Turmush ziddiyatlari va bosh qahramonlar qismati.*
- *Qatlamlararo ziddiyat va ijobiy qahramonlar irodasining toplanishi*
 - *Ijobiy va salbiy personajlararo ziddiyat obrazlar qiyofasini ochib berishi.*
 - *Ziddiyatning ikki qutbi.*

Abdulla Qodiriy o'z qahramoni Otabekni turli ziddiyatlari vaziyatlarda toblaydi. Misoli temir ham o'tda toblanib po'latga aylangani kabi asar bosh personaji turmush ziddiyatlari, ijtimoyiy qatlamlar bilan muloqatda, to'qnashuvda o'zligini namoyon etadi. Masalan:

Qo'rboshi titrab-qaqshab oltinlarini joyladi. Homid nihoyatda xursand edi.

- *Xo'sh, mulla Homid, endi bugungi hangomalardan so'zlashaylik,- dedi bek. – Pochchangiz ila jiyaningiz bu ishga uralashib qolganlari yomon bo'ldida!..*

Qo'rboshi davom etdi:

- *Bu ikki begunohning qamalishlariga ham o'sha yaramas sabab bo'ldi. Yo'qsa, ylarni qamoqqa olishga qushbegi buyurmas edi. Ammo kechagi qushbegiga so'zlagan so'zingiz Otabek ila qayin atasini o'limga mahkum qilgandek, pochchangiz ila jiyaningizni bir qadar oqlaydilar...*

Agar biz yuqorida qayd engan Homid va uning atrofidagi quyqalar Otabek to'qnash kelgan birinchi ijtimoiy qatlam bo'lsa, qo'rboshi, qushbegilar ikkinchi ijtimoiy qatlamadir. Lekin bu bilan Otabek duch keladigan qatlamlar tugamaydi.

"Men kim Marg'ilon hokimi O'tabboy qushbegi o'z hukmimni hoqon ibn hoqon janobi oliy Xudoyorxon ismi shariflaridan eshittiraman..."

Hukmron tabaqa vakillari – hokimdan to xonga qadar Otabek to'qnash kelgan uchinchi ijtimoiy tabaqani tashkil etadi.

Ebdi "Qutlig" qon" dagi ijobiy qahramonlar toblangan o'tni ko'rib o'taylik.

Oybek romanidagi bosh qahramonlardan birini Yo'lchi, ikkinchisini Gulnor deb atadi.

tug‘iladi. Bu mashmashaga Nurining ko‘ngli, xatto, ilimagan eri Tantiboyvachcha ham aralashadi, bu endi to‘rtinchi ziddiyat edi. Gulnor uchun ziddiyat ob’ekti bo‘lganlar har birining o‘z “dardi” bor bo‘lib, har birining miyasida o‘z qabih niyati misli ilondek to‘lg‘anadi.

Mazkur asarda ziddiyatning bir qutbini ezgulik ramzi bo‘lgan qahramonlar egallaydi. Gulnor Salimboyvachcha bergen zahardan xalok bo‘lsa, Yo‘lchi yurt ozodligi yo‘lida qurbon bo‘ladi.

Bir yonda jaholat, ikkinchi yonda ezgulik, ozod, erkin bo‘lishga intilish va qullikdan ayro tushishga intilish, sof insoniy muhabbat va hayvoniy xirs, o‘z qadr-qimmatini yuqori tutish va buni paymol qilish xukm surgan hamda qabohat ustun kelgan zamon va makonda Gulnor bilan Yo‘lchi o‘rtasidagi sevgigina emas, xatto, ularning o‘zлari ham tirik qolishlari mavhum edi. Ikki toza qalb mana shu ziddiyat tufayli hayot bilan fojiona vidolashadi.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Muallif ijtimoiy ziddiyatlardan qanday foydalanadi?
2. Ijobiy qahramonlar irodasi qanday tobilanadi?
3. Ziddiyatning ikki qutbi deganda nimani tushinasiz?
4. Nega obrazlar ijobiy va salbiyga ajraladi?

3-BOB
NARSA, VOQEVA VA HODISALAR TASVIRI

**1-§. Udum, urf-odat, etnografik ko‘rinish
va an’analar tasviri**

- 1. Personaj ruhiyati, shaxsi va dunyoqarashini ko‘rsatuvchi unsurlar.*
- 2. Manzara tasviri – o‘tmish qiyofasini ochib beruvchi vosita.*
- 3. Hayot manzaralari va bosh qahramon kechinmalari.*
- 4. To‘ylar va ijtimoiy qatlamlar.*

Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” asarida to‘y marosimiga, xususan qizlar bazmida to‘liq – 10-qismni bag‘ishlaydi.

Adib qizlar bazmini maroq bilan tasvirlaydi:

“*Qizlar majlisi – gullar, lolalar, to‘tilar, qumrilar majlisi! Uyda, Kumishbibining tog‘asining uyida, qizlar mazlisi, gullar majlisi!*

Adib majlisga kelgan qizlarni tariflaydi.

Mana, majlis a’zolari shunaqangi bir-birovidan o’toq malikalar, parilar edilar, majlisning shoirlari, o‘yinchilari childirma va dutorchilari barchasi ham hozir bo‘lib Kumushbibini ... kutadir.

Bu uyga o‘ttiz-qirq chamatlik qizlar yig‘ilganlar, yig‘ilishdan maqsad: qizlar o‘zlarining eng latif, eng go‘zal bir a’zolarini bu kun xotinlik olamiga uzatmoqdirlar. Bu uzatish majlisini jonli, ruhli o‘tkazmoq uchun barcha qizlar o‘zlarining eng asl, eng nafis kiyimlarini kiyib, favqulodda yasanib husn olamini yana bir qat, yana bir qayta bejabdirlar...

Yo‘lchi qovun ortib ketayotgan dehqonning aravasi sinib, uning yoz bo‘yi ne-ne umid bilan etishtirgan qovunini «suv tekin» olganlarini, sholg‘om ekkan yigitning yeriga suv bermaganlarini ko‘rib, alamini ichiga yutgan edi. Ammo, adolatsiz muhit bilan u orasidagi ziddiyat asta-sekin kuchaya, Yo‘lchidagi norozilik osha boradi. Bazm paytida bechora o‘rtachning bachchaning hayotini saqlab qolaman, deb u mast Tantiboyvachchaning to‘pponcha tutgan qo‘lini shartta ushlab qoladi. Salimboyvachcha bilan bo‘lgan to‘qnashuv ijobjiy qahramon bilan salbiy personaj o‘rtasidagi ziddiyatlarning yuqori nuqtasi bo‘ladi:

— *Uyatsiz! Yosh qizga tikkan ko ‘zlarining o ‘yib olaman!*

Salimboyvachcha labini tirjaytirib zaharxanda qildi.

— *Qo ‘limni qo ‘y, baqirish shunchami! Singlingmi, kim? Podshoh qizimi?! Juda oltin bo ‘lsa ham... Yo ‘q tuzim, nonim sani quturtirgan, it! – o ‘dag ‘ayladi Salim.*

Yo ‘lchi tishini qayrab, boyvachchaning ko ‘kragiga zarb bilan bir musht tushirdi. Boyvachcha gandiraklab uch-to ‘rt qadam narida qorga yiqildi. Yo ‘lchi etigi bilan uning dumbasiga bir-ikki tepdi.

Oddiy, g‘oyat kambag‘al, tom ma’nodagi «ojiza» Gulnorni faqat Yo‘lchigina sevib qolishi mumkin emasdi. Oybek tasviridagi ichki go‘zalligi, ruhiy musaffoligi bilan Gulnor uncha-muncha kalandimog‘ mansabdor yoki badavlat kimsalarni ham o‘ziga rom etgudek edi.

Gulnor mehmonxonalardan birini supirib sidirmoqda ... bir xonani bo‘lgach ikkinchisiga o‘tdi, u boyning xos xonasi edi.

Gulnor supurib bo'lgach changi chiqib ketsin deb derazalarni ochdi. Shu payit oyoq tovushi eshitilib, xonaga Mirzakarimboy kirdi. Gulnor chetlanib, devorga siqilib, sekingina «assalom», dedi. Mirzakarimboy Gulnorga go'yo otalarcha munosabatda bo'lib, temir sandig'ini jaranglatib ochdi-da, bir nima olib, cho'ntagiga yashirdi. So'ng sandiqni qulflab, Gulnorga qayta nazar tashladi:

Mirzakarimboy shu vaqtgacha bironta cho'risiga aytmagan so'zlarni Gulnorga aytdi:

- Oppoq qiz, kiyiming yomon-ku, ... uy o'rtaida to'xtab, dedi u, - nimaga Yormat menga arz qilmaydi? Onang qalay, kiyim kechagi bormi? Uyalma, aytaver. Oppoq qiz, nega yuzingni burason? Voyvoy, uyalma, tirikchiliklaring qalay, nima yetishmaydi?

O'z singlisi uning o'g'li Yo'Ichiga ham shafqat muruvvat ko'rsatmagan qahri qattiq boy o'n to'rt kunlik oydek ochilib voyaga etgan Gulnorni ko'rib tilyog'lamalik qilishda, anig'i, qabih niyatini amalga oshirish yo'lida harakat qilishda davom etadi. Natijada ijobiy qahramonning birinchi ziddiyati boshlanadi, ikkinchi ziddiyat esa Gulnor bilan Nuri o'rtaida ulg'ayadi: Yo'ichini o'z uyida xizmat qilishga taklif etganda «yo'q» degan keskin javobni olgan boyvuchcha qiz hamma «gap» Gulnorda ekanini payqaydi. Yo'ichiga egalik qilish maqsadida Nuri bechora qiz – Gulnorga qarshi ishga kirishadi – uni buziqqa chiqaradi. Ammo, unga otasi uylanishi xabaridan telbalanib, bir alami ikki bo'ladi, ukasi Salimboyvachcha ikkisi meros vasvasasiga tushadilar. Salimboyvachcha bilan Gulnor o'rtaida uchinchi ziddiyat

Adib qizlar ta’rifidan so‘ng kelin ta’rifiga o‘tadi

“...u [Kumush] yonida ikki yangasi bilan kelgan edi. Shu choqda bizga Otabek kerak edi! Nega desangiz, u kelsin edi-da, sevganini bir ko‘rsin edi; hammom bilan u... faqat jongina so‘raydir, majruh ko‘kslarga o‘qqina otadir... Boshdagi oq shoyi ro‘mol, ichdagi oq shoyi ko‘ylak, ustidagi oq kumish zarrin sirilgan po‘stin, baqbaqalarni o‘rab o‘pib turgan yoqa qunduzlarining kelishgani, solinib tushgan qora jingalak sochlarning bo‘yin tevaragiga chirmashgani, mugra yuzlarning bo‘riqqani...

Oybek ijodida ham udumlar, urf – odat, etnografik ko‘rinishlar tasviri uchraydi. Adib ularni ta’bir joiz bo‘lsa, erinmay bayon etadi. Masalan, “Qutlug‘ qon” dagi Nuri tutgan joyidan kesadigan, qaysar shaxs, u Gulnorni oradan ko‘tarish uchun Qo‘ng‘iroq folbinniki-ga boradi, o‘z dardini unga tushuntiradi. Adib folbinning makonini ikir-chikirigacha tasvirlaydi:

“...so‘ngra u kampirga suqulib, folbin orqasidan uyga kirdi. Uy zindon kabi qorong‘i va sovuq. Uyda nima borligini g‘ira-shira ko‘rish ham mumkin emas. Folbin uy ichida oqarib ko‘ringan chodir ichida yo‘qoldi. Bir ozdan so‘ng u yerdan uning xasta tovushi chiqdi: “Eshikni yopinglar, makrlarim yorug‘dan qo‘rqadi...”

Eshik yopilgach qorong‘ulik dahshatlari ravishda quyuqlashadi. Nuri turttub-surtinib chodir tomon borib o‘tirishga tirishdi. Qo‘rquvdanmi, qorong‘ilikdanmi uning nafasi tiqildi ... nogoh burchakdan qo‘ng‘iroqli chirmando guldirab ketdi. Nuri bir

seskanib tushdi. Ko'zlarini yumdi. Chirmando bo'g'iq gumburlaydi. Qo'ng'iroqlar jarangidan vahima uchadi. Go'yo chirmandani odam chalmaydi. Qorong'u kechada mudhish jar yoqasida dev chaladi. Oyoqlariga, qo'llariga qo'ng'iroq taqqan qo'rqinchli ajinalar raqs etadi!

Oybek bu tasvir orqali yaqin o'tmishdagi mudhish manzaralardan birini yaqqol gavdalantiradi.

Shubhasiz adib o'z tasvirida bo'yoqlarni quyuqlashtiradi, folbinning makoni, tashqi ko'rinishi, xatti-harakatlaridagi dahshat oshirib yuborilgan bo'lishi tabiiy. Bu manzara tasviri bilan Oybek Nurining folbin tashqi qiyofasi va "ilmu amal"iga mos ichki dunyosini ochib tashlaydi.

Oybek milliy turnush lavhalarini maroq bilan tasvirlaydi. Biz romanda azayimxonlar, arvoh oshilar, kinna solish kabi odatlar bilan birga qizaloqlarning tolbargaklardan soch jamalak qilib o'rilgan sochpopuk taqishlari va boshqa omillarni ko'ramiz. Bozor ham bizning e'tiborimizdan chetda qolmaydi.

Unda biz Yo'Ichiga ergashib boramiz. Xammol bozoriga boraverishning bir tamoni attorlar rastasi, bir tamonda chinnilar rastasi. Boshqa bir tamonda har xil shirinliklar, boshqa narsalar sotiladigan qatorlar. Bir kishining kappondan sotib olgan bug'doyini orqalab olgan Yo'Ichiga hamrox bo'lib, Qoryog'di mahallasiga boramiz, eski Toshkentning har qanday etnograf uchun qiziqarli bo'lgan manzillari bilan tanishamiz. Chilim chekkan, ko'knori, qoradori ichib, hayolotga g'arq bo'lgan kishilarni, tol novdasidan yasalgan xushtak bilan dilini xushlagan bolalarni, zirak, bilakuzuk,

qo'shtumor, tillaqosh, zebigardon taqqan qizlarni uchratamiz, xullas haqiqiy hayot manzarasiga ko'zimiz tushadi.

Asosiy qahramonlar xarakteri va taqdirini ifoda etishda adib ikkinchi, xatto uchinchi darajali unsurlardan foydalanadi, bundan tashqari tarixiy davr haqiqatini yorqin bo'yoqlarda ko'rsatishga erishadi.

Ma'lumki, har bir badiiy asarda, unga milliy ruh bag'ishlovchi, qahramonlarning milliy asli-naslini ko'rsatuvchi marosimlar, odat, an'analar va boshqa belgilar mavjud bo'ladi. To'y ana shunday marosimlarning eng ahamiyatlisi hisoblanadi. Shu bois "Qutlug' qon"da bir emas ikki to'y marosimi tilga olinadi. Birinchi to'y romanda to'liqroq tasvirlanadi, bu – Nuri bilan Tantiboyvachchanning to'yi. Romanda u bat afsil tasvirlanadi. Kitobxon ushbu to'yni Yo'lichining nigohi orqali kuzatadi.

"Qiyom vaqtida bir qancha bolalar "to'y keldi, to'y keldi", deb baqirib-chaqirib yugirishdi. Yuk orqalagan, og'ir qoplar ostida ikki bukilgan aravakashlar va mahalla yigitlari ham ko'rinish qoldi. ... to'y uchun kuyov tamonidan o'n besh arava yuk yuborilgan. Har bir aravada boshqa-boshqa mollar, buyumlar... aravakashlarning boshlariga, yuzlariga un sepildi. Yigirma bir qo'yning ma'rashi, so'kish, askiya ... qiy-chuv bilan yuklar boynikiga tashildi.

Bir ozdan so'ng "to'yni ichkariga tashiganlar to'ydan quvgandek qilib ketkazildi. Uzoq-yaqindan to'yga aytigelganlar kela boshladi. Ke'uvchilar rasta ahli - savdogarlar, so'ng ulamo, eshon, mudarris va boshqalar, savdogarlar gerdaygan, ichki mag'rurlik, sirtdan tavozeli, din arboblarida esa sohta viqor va savlat, bular

ohista qadam tashlab tavoze bilan yurib kelishadi. Zyrak, epchil “to‘y boshchilar” ularni boyning “tashqarisiga” o‘z joy-joylariga oladi. Oradan birmuncha vaqt o‘tgach, mayin soqollarini silab, dabdaba bilan, kekirib-kekirib qaytadilar.

Adibning bunday to‘y marosimidan bir parchani yulib olib tasvirlashidan maqsadi Yo‘Ichi, Gulnorlar bilan Mirzakarimboy, Nurilar o‘rtasidagi ijtimoiy tengsizlikni ko‘rsatishdir.

Takrorlash va muhokama uchun savollar

1. Asarda milliylik nimalarda ko‘rinadi?
2. “O‘tkan kunlar” asarida to‘y marosimi qanday tasvirlangan?
3. Oybek ijodida qandau etnografik ko‘rinishlar mavjud?
4. A.Qodiriy va Oybekning milliy urf-odatlardan foydalanish mahoratini qanday baholaysiz?

2-§. Manzara tasviri

1. *Manzara tasviri va qahramon ruhiyati*
2. *Qodiriy ijodida manzara tasviri*
3. *Oybek tasvir ustasi*
4. *Otabekning izturoblari va tabiat manzarasi*
5. *Yo‘Ichi qalb kechinmalari va tabiiy manzara uyg‘unligi*
6. *Ikki taqdir – ikki tasvir*

Tabiat manzarasi tasviri ijodkor uchun o‘z badiiy niyatini amalga oshirishda juda qo‘l keladigan usul hisoblanadi. Lekin hamma ijodkorlarni ham birdek manzara tasvirchisi, deb bo‘l-

maydi. Masalan, Abdulla Qahhorning qissa va romanlarida tasvir unsurlari, xususan manzara tasviri yo‘q darajada. Abdulla Qodiriy romanlarida tabiat manzarasi, ko‘tarinki, shoirona ruh bilan tasvirlangan deb, ishonch bilan ayta olamiz.

O‘n olti - o‘n yetti kunlik oy oq bulut ichidan qutoslanib ko‘rinar edi. Hamma xufton namoziga kirib ketgan, ko‘chalar suv quygandek tinch edi. Ko‘chaning bu tinch paytidan foydalangan kabi usta Olimning eshigi yoniga kelib to‘xtagan kimsaning kim ekanligini bilish uchun oy yorig‘ligiga qarshi tushgan bo‘g‘ot halal berar edi. Bo‘g‘ot panasida va eshik halqasida qadalib bir muncha vaqt nimanidir kutib turgan bu kishi, nihoyat avaylabgina eshikni ochib o‘zini yo‘lakka oldi. Tag‘in anchagina eshikning ichkarigi qismida turgach, ochishidagi ehtiyyot bilan eshikni yopdi.

Oy yorug‘ligi uch burchak ravishda yo‘lakga tushib turar edi. Bu noma‘lum kimsa oyoq uchi bilan yurib keldi-da, mo‘ralab ayvonga qaradi. Ayvonning tokchasida sham yonib, Sayfi o‘rin yozish bilan ovora edi. Noma‘lum kimsa yo‘lakning qorong‘u qismiga o‘zini olib, ko‘zini Sayfidan uzmay tura boshladi. Sayfi o‘rnini to‘shab bo‘lgandan so‘ng ayvonning peshonasida yozilib yotgan dasturxon va laganni ko‘tarib hujraga kirdi. Yo‘lakdagi majhul kimsa go‘yo shuni kutib turgandek oyoq uchini onda-sonda tashlab o‘zini maydon ichiga oldi...

Bargi to‘kilib, quruq shoxlari bilan qolgan maydon ichi tumanli edi, majhul kishi yuzini oydinga berib, xaroba uy ostida qadalib turganlikdan uning kim ekanligini tanish oson edi. Bu alamzada, zulmdiyya yuz, eng so‘nggi kurashga hozirlangan bir yigit edi...

Adib yuqoridagi parchada tunni tasvirlaydi. Lekin bu tun qahramonni hayotidagi hamma tunlarning shunchaki bittasi emas balki, uning kayfiyati, taqdiri bilan bog'liq, hayot-mamot masalasi ko'ndalang turgan ikki tunning biri. Shu bois ham adib uni tasviriga alohida e'tibor qaratadi. Tun ham havotirlik, shubha yemirayotgan, qasos o'ti kuydirayotgan ko'ngli kabi qorong'u, noxush. Tun va qahramon ruhiy holati uyg'unlik kasb etgan.

Bu kun quyosh ochiq havoda kezish uchun jim-jim tovlanib, yer yuziga kulib qaradi. Ikki kundan beri quyosh betini qoplab, turli yerlarga jon suvi sepish ila charchagan bahor bulutlari burchak-burchakka tarqalib borar edilar. Uyalaridan chiqish bilanoq chumchuqlar chirqillashib, musichalar ku-kulashdilar. Anovi ar-ar terakka uya qo'yishga o'ylagan bir juft karruklar ham vijir-vijir qilishib kengash ochdilar. Podachining tovushini eshitib, dalaga oshiqqan onasiga ergashib qashqa buzoq ham ma'rab yubordi. Modasiga tegishgani uchun tomdagi kaptar ham buqog'ini chiqarib raqibining tevaragida yag'rin bera boshladi... Qisqasi, bukun uyg'onishdanoq butun koinotning yaxshi tush ko'rib turganligi sezilar edi. Bahorning bu kungi sehrli kuni Otabekni ham qitiqladi.

Qiyosh ozorsizgina qizdirar edi. Yengilchagina esgan shamol dimoqqa turli o'lan islарini keltirib urar edi. Bir necha qaldirg'och Solorning oqishi bo'y lab uchar va uchgan ko'yi "balfajri" o'qir edilar. Poyonsiz qirning yuqori – quyi o'rirlari yakrang ko'kat va ko'z ilg'maydigan uzoqlikdari tumanlangansimon ko'rinish berar edilar. Qushlar, qurtlar sayrashi tabiiy bir soz xizmatini o'tab, kishiga ifodasi qiyin bo'lgan bir sezgi solar edilar.

Yuqoridagi tabiatning tasvirlari avvalgi manzara tasviridan farqli o'laroq, qanchali zavqli bo'lmasin, qahramonning – Otabekning sog'inch va quwnsash bilan mayuslangan ko'ngliga sig'maydi. Adib ana shu mutanosibsizlikdan mohirona foydalanib qahramoni ruhiyatini ochib berishga muvaffaq bo'lgan.

Oybek ham "Qutlug' qon" romanida manzara tasviridan mohirona ikki yoqlama foydalangan. U bir tamondan tabiatning go'zalligini nozik did, ziyrak fahm ila ilg'agan, asar jozibasini, o'qimishli bo'lishini ta'minlagan bo'lsa, ikkinchi tamondan o'z qahramoni ko'nglidan o'tayotgan his-tuyg'ular tabiat manzarasi bilan uyg'unlashib ketishligini ham ko'rsata bilgan. Xususan, quyidagi parchaga e'tibor qarataylik.

Bu parchada tabiat manzarasi Gulnorni ilk bor uchratgan, uning bir-ikki boqishidan to'rga ilingan qushchadek pitirchilayotgan yuragi hayajonini bosa olmay, bu toqatsizlikdan allanechuk zavqlanayotgan Yo'Ichining ko'z o'ngida namoyonlanadi.

"Osmon tiniq, qalin qor bilan qoplangan dalalar ustida yulduzlarning oltin g'o'zalari yorqin chaqnaydi. Har vaqt dagidan ko'r kamroq, tiniqroq ko'ringan to'lin oy samoning bir nuqtasida qotgan kabi ... uning murlarida qishning poyonsiz oq ko'rpa si mayda oltin uchqunlatib, hammayoqni chiqur jimjitlik bilan o'rab yotadi. Yalang'och daraxtlar mayda yulduzchalar bilan yongan qora ajib chiroyli ko'lkalar tashlaydi. Oydinli qish kechasi shunday go'zal, shunday ulug'vorki, hatto xizmatkorlarning xarob kulbasi ham devorlariga kimningdir tomonidan yopilib, yig'ishtirilmay qolgan tappilar ham allaqanday bejirim manzara yasaydi.

Yo‘lchi garchi O‘roz bilan qirchillama qish kuni, to‘rt devoru, tomi bo‘lgan xarob bir kichik, tanchali xonada yashayotgan, tanchaga qalangan xo‘l o‘tin yonmay, tutab-biqsib dimog‘i-yu ko‘zini achishtirgan, uyga tutun to‘lib, nafas olish uchun tashqariga chiqadi va yuqoridagi manzaraga ko‘zi tushadi. Manzarani bunday ko‘rish qishning qora kunida, xarob xonada yashaydigan Yo‘lchiga qanday nasib bo‘lgan ekan? Buning boisi uning qalbida ko‘klam chechagi yanglig‘ nish urayotgan Gulnorning muhabbatি emasmi!?

Endi boshqa bir manzaraga e’tibor beraylik. Gulnor g‘oyib bo‘lgani xabarini eshitgan Yo‘lchi uni qish chillasida yarim tunda izlamoqda. Yo‘lchining holatini bir tasavvur qiling. Adib bu kecha manzarasini shunday tasvirlaydi:

“Kechaning sovug‘i, izg‘irin kuchaydi. Badan sovuqdan muz kesildi. Charmi toshday eski etik ichida oyoqlari jonsizlandi. Lekin u bir zum qo‘nmasdan tentirayverdi. Bir burda, sariq sovuq oy xira nur tumani sepadи. Yo‘lchi sanqib anhor yoqasida to‘xtadi. Suv shivillab qandaydir sirli, vahimali ko‘rinish bilan oqadi. Uning qoramtilr oynasida, qirg‘oqdagi yupqa muz parchalarida oyning oltin nuri yiltiraydi. Suv yoqalab o’sgan yalang‘och daraxtlarning butoq, navdalarida sovuq shamol shivillaydi. Yo‘lchi suvning sovuq to‘lqinlariga uzoq tikildi”.

Mana sizga ikki tunning tasviri. Ikkisi ham qish oylaridagi kecha. Lekin biri xush yoqar, ikkinchisi noxush, xunuk. Birgina oy tasvirini o‘zida qanchalar rangdorlik, ohang, ma’no tanlangan. Birinchi qish tuni tasviri qalbi iliq bir hayajonga to‘la Yo‘lchi

kayfiyatiga uyg'un bo'lsa, ikkinchi tun sevgilisidan tashvishda, aniqsizlik, imkonsizlikdan yurak-bag'ri ezilayotgan, kalovlanib na qilarini, qayon borarini bilmay qolgan maxzun Yo'lchi kayfiyatiga hamohang.

Oybek romanidagi yana bir manzarani kuzataylik:

"Quyosh botgan, lekin uning olov daryosi turli ranglar bilan tovlanib, cheksiz bir parda kabi ufqlarda mavjlanar edi. Bog'chalarni bir-biridan ayirgan devorlar ko'rinnmas, ishkomlar, mevazorlar, ekin dalalari tutash yashil manzara yasaydi. Har yoqdan ko'tarilgan tutunlar, yupqa ko'k bulut kabi havoda sekin-asta eriydi..."

Yo'lchi qamalgan, Gulnor Mirzakarimboy uyida tutqunda. Har ikkisi uchun najot sohili ko'rinnmaydi, kelajak ham ayon emas, qorong'i. Bamisoli, ikkisining ham umr quyoshi botish pallasida.

Bunday o'xshatish faqat Oybekka xos.

Kecha oydin, qabriston tip-tinch, uzoqroqdan qur'on tovushi eshitilar edi. Ikki tup chinor butoqlarida qo'nib o'tirgan uchto'rtta boyqushlar, qabr yoniga tizlangan Otabek va yuqori, quyido 'mbaygan qabrlar bu tilovotga some kabi edilar.

Qahramon ruhiyatini va uni qurshagan atrof yahlit bir uyg'nlikda motam manzarasini beradi. Qahramon ruhiyatiga mos o'nlab, hatto yuzlab holat, manzaralar ichidan ayni yuqoridagisini tanlash faqat Qodiriyona, ungagina xos uslub hosilasidir.

Takrorlash va mulohaza uchun savollar

1. Manzara tasviri nima uchun kerak?
2. Badiiy ijodda bosh qahramon kayfiyatini ko'rsatishda manzara tasviri qanday ahamiyatga ega?
3. Qodiriy va Oybeklarning manzara tasvirdagi mahoratini qanday izohlaysiz?
4. Bosh qahramon kechinmalari va tabiat tasvirining qanday bog'liqligi bor?

3-§. Asosiy bo'lmagan personajlar tasviri

- *Personajlar tasviri.*
- *Ikkinci va uchinchi darajali personajlarning bosh qahramon taqdiridagi o'rni va ahamiyati.*
- *Asosiy bo'lmagan personajlar va ijtimoiy muhit.*
- *Asosiy bo'lmagan personajlar – ijtimoiy qatlamni tashkil etuvchilar.*

Qaysi bir asar bo'lmasin undagi bosh qahramonlar voqealar to'poni orasida goh-goh ko'rinxay ketadi, go'yo voqea, hodisalar bag'riga singib ketgandek. Mana shunday paytda ijodkor ikkinchi yoki uchinchi darajali personaj – qahramonlar tasvirini birinchi o'ringa qo'yadi. Bunday usul orqali ijodkor bosh qahramon(lari) ni e'tibordan chetga qoldirishni emas, balki kitobxon e'tiborini ikkinchi, uchinchi darajali personajlarga jalb etish yo'li bilan asosiy qahramonlari qanday muhit, sharoit va jamiyatda yashayotganini ko'rsatishga intiladi. Boshqa tamondan ijodkorning maqsadi

kitobxonni jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlar va bu qatlamni hosil qiluvchilar bilan tanishtirishdir. Ma'lumki, hech bir asarda bu qahramonlar asarning boshidan to oxirigacha bo'y ko'rsatmaydilar. Go'yo bosh qahramonlarning uzoq yo'lidagi bir manzildek tezda ortda qoladilar. Ular o'z zimmalariga muallif tamonidan yuklangan vazifani o'tagach, ko'zdan g'oyib bo'ladilar. Lekin, ulug' ijodkorlar bunday personajlarni shunday mahorat bilan yaratadilarki, ular tarixi bilan mukammal tanishtiradilar, katta asar ichidagi, kichik, ammo mustaqil bir asar kabi o'quvchi xotirasida mustahkamlanib qoladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "Obid ketmon"idagi "Bir kulki va bir tulki" kabi.

"O'tkan kunlar" romanida ham adib ikkinchi va uchinchi darajali personajlar tasviriga alohida e'tibor qaratadi.

"Xushro'y uzun bo'yli, qotmaroq va zarcha tanli edi. Zaynab qisqa bo'y, go'shtdor va oq tanli edi. Xushro'ning harakati yengil va laffi tez edi. Zaynab loppos va o'nta so'zga arang bitta javob qaytaradigan edi. Xushro'ning ko'zi o'ynab, har soniyada o'n yoqqa alanglar edi. Singlisi bo'lsa, birov bilan betma-bet kelib so'zlashganida ham ko'zini hamisha bir nuqtadan uzmas edi. Xushro'yga bolalik chog'idayoq uy ichi va qo'ni – qo'shni "shaddod" deb ism berganlar, chunki u kimdan bo'lsa – bo'lsin aytganini qildirmay qo'ymas, agar birorta ish uning tilagiga teskari ketsa shovqin - suronni xuddi boshiga kiyib olar edi. Shuning uchun Xushro'ning ra'yini bilmasdan qozon osilmas, unga yoqmagan gapga og'iz ochilmas, u bor joyda qadam ham sanalib bosilar edi.

Zaynab egachisining aksicha o'z yaqinlaridan "pismiq" deb ism olgan, onasi esa jahli chiqqanda "ming'aymas o'lgor" deb uni qarg'ar edi... "

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi boshda ikkinchi, uchinchi,xatto, to'rtinchi, beshinchi o'rindagi personajlar ham, misoli bosh qahramonlar taqdiri azaliga bitilgandek, agar birontasi (m-n, Hasanali, qovoq devona, jodugar hindi va b.) romandan tushib qolsa bosh qahramonlar obrazida kemtiklik yuzaga keladigandek.

Oybekning "Qutlug' qon" romanidagi ikkinchi yoki uchinchi darajali personajlar ham shunday. Shulardan biri Tantiboyvachcha Uning ma'naviyati va axloqi XX asr boshlaridagi o'zbek boyları ham ma'naviy, ham ijtimoiy jihatdan tanazzulga yuz tutganidan dalolat beradi. U qimorda naqt pulini boy bergach, do'konlaridan birini sotib, bir alamdan chiqmoqchi bo'ladi. Do'konni mo'maygina pullab, islovatxonaga yo'l oladi. U joyda Gulandom ismli o'n to'qqiz – yigirma yoshlar chamasi ko'xlikkina juvon bilan uchrashib qoladi. Gulandom garchi fahsh yo'liga tushib qolgan bo'lsa-da, xali o'z qadri, g'ururini juda ham yo'qotgan emas. Boyvachcha munosabatini yaqinlashtirish uchun mijozni gapga so'ladı;

"- Jonim Poshshaxon, qaerliksiz, qanday shamol sizni bu yerga uchirdi?..

- Daftaramni ochib nima qilasiz? – dedi.

Mo'ylovini burib-burib unga tikildi Tantiboyvachcha".

Adib shu o'rinda kitobxonni Gulandomning alam va xasrati turixi bilan tanishtiradi. U Namanganda tug'ilgan, ellikdan oshgan

boyga kundosh ustiga tekkani, boy o'lgach, uning gumashtalaridan biri tomonidan chuv tushirilgani, natijada uysiz-joysiz, sariq chaqasiz qolgani, ustiga ustak, olmoqchi bo'lgan mirza yigitlardan biri uni Toshkentga olib kelib "to'ppa-to'g'ri nomer degan joy" ga tiqqanini keyin tushinib yetgani ayon bo'ladi.

"— Xudo... bu iflos yerga tushirganidan ko'ra, jonimni olgani yaxshi edi. Buzildim, odamgarchiligidan qolmadim, suratim odam, boyvachcha aka, mendan xayvon yaxshi ..."

Bu shum taqdirming asar bosh qahramonlari Yo'lchi va Gulnorga hech bir aloqasi yo'q. Ammo aravasi sinib, qovunni "suv tekin" berishga majbur dehqon, otasini qarzini uzaman deb yerini sotgan yigit ham islovatxonaga tushib qolgan bechora ayol ham asr boshidagi muhit, jamiyatni qanday bo'lganini ochib tashlanishida muhim ahamiyatga ega. Adib ikkinchi, uchinchi darajali personajlar taqdirini tahlil qilish orqali qashshoqlashgan qatlarning boshiga tushgan turli-tuman savdolarni aniq gavdalantiradi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, Oybek bu va boshqa qatlamlar yordamida markaziy personajlar – bosh qahramonlar siyosini ochiq-oydin ko'rsatadi, asar g'oyasini chuqr ifodalaydi. shuningdek, qalamga olgan tarixiy davr chin qiyofasini bor bo'yicha ochib beradi. Abdulla Qodiriy va Oybeklar asosiy bo'limgan personajlar obrazini yaratishda ham tengsiz so'z san'atkoridirlar.

Takrorlash va mulohaza uchun savollar

1. Personajlar tasnifi deganda nimani tushinasiz?
2. Qanday personajlar ikkinchi, uchinchi darajali personajlar deyiladi?

3. Ikkinchisi, uchinchi darajali personajlarning ahamiyati nimada?

4. Bosh qahramonlar bilan ikkinchi, uchinchi darajali personajlarning farqi nimalarda ko'rinadi?

4-§. Badiiy tasvir usuli

- *Badiiy nutq.*
- *Badiiy asar tili va uslubi.*
- *Badiiy nutqni shakllantiruvchi vositalar.*
- *Badiiy nutqda tasvir.*

Abdulla Qodiriy ikki sofi, samimi tuyg' u egasi – chin ma'noda bir ko'rishda hayotida keskin burilishga tutki bo'lgan orziqishni his etgan, ikki yoshning o'y – mulohazalari, his – tuyg'ulari, quvonch – qayg'usi, baxtini, foje qismatini shu qadar mahorat bilan yuksak badiiy darajada tasvirlaydiki, asar o'quvchisining saviyasi, dunyoqarashi ma'lumoti, jamiyatdagi tutgan o'midan qat'iy nazar his – tuyg'larini junbushga keltiradi, ruhiyatini ko'taradi.

Agar adib o'ziga to'q xonadonning hech bir kamchiliklar ko'rmay yegani oldida, yemagani ketida, ikki yoshning pinhona (Toshkent – Marg'ilon orasida tanda qo'yib) uchrashib yurishlari, yurak sirlari, ishqiy sarguzashtlarini yohud Toshkent qayda-yu, Marg'ilon qayda, Yusufbek hoji qayda-yu, Muzakarim qutidor qayda, O'zbek oyim kim-u, Ostob oyim kim – sen emas men deguchi kalondimog', zolim ota-onalar zulmi bilan zor qaqshagan ikki qalbning sho'ri, qismatini bayon etganida edi unda Qodiriyning asari ham o'nlab, yuzlab maishiy mavzudagi qissalardan biri bo'lub

qolur edi. Romandagi voqealar asosan ikki ijtimoiy qatlam: birisi ijjobiy – Otabek, Yusufbek hoji, Kumush, Hasanali va boshqalar, ikkinchisi salbiy – Homid, Qushbegi, Qo‘rboshi, Musulmonqul, Xudoyorxon o‘rtasidagi ziddiyatlar zamirida rivojlanib boradi. Adib bosh qahramonini tabiat bilan ijtimoiy muhitning o‘zaro munosabati yuksak badiiy saviyada tasvirlaydi.

O‘zbek romanchiligi shunday bir osmonni, iste’dodi bor ijodchi unda o‘z badiiyati, tasvirdagi kashfiyoti bilan yorqin yulduz bo‘lib porlashi mumkin. Shu ma’noda Oybek han¹ mana shu osmondagi porloq yulduzlar – Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon qatorida porlay boshladi. Bunga u badiiy tasvirdagi o‘ziga xos san’atkorona usuli hamda qo‘llagan vositalari orqali erishdi.

“Qutlug‘ qon ” romanining bosh qahramoni Yo‘lchining boy tog‘asi – Mirzakarimboy xonadoniga muhtojligi tufayli kelishi bilan boshlanadi, so‘ngida u bu xonadonni tark etib, isyonchi olamonga qo‘shilib ketishi bilan tugaydi. Yo‘lchi tog‘asi xonadonida Gulnorni uchratadi va shu xonadonda uning baxt chechagi zavol topib, xazon bo‘ladi.

Oybekning “Qutlug‘ qon ” romanidagi voqealar kechgan makon va zamon ancha toraytirib olingan. Asardagi barcha – birinchi, ikkinchi, uchinchi darajali qahramonlar Toshkentdan chetga chiqmaydi. Aniqrog‘i voqealar asosan Toshkentning eski shahar qismida sodir bo‘ladi. Yo‘lchi mehnat muhitida, Mirzakarimboy xonadoni-yu, bog‘idan tashqariga deyarli chiqmay yashaydi. Qahramon harakat doirasining bunday cheklanganligi ijodkor yagona tasvir usulini tanlanganidan dalolat beradi. Ishonch bilan aytish mumkinki, Oybek bu usulni ongli suratda tanlagan. To‘g‘ri

Yo'lchi bilan Gulnor o'rtasidagi munosabatlar asarda katta o'rinni egallaydi, lekin bular tasvirining o'zi roman uchun kamlik qiladi, xatto ma'lum ma'noda uning badiiy qimmatini pasaytirar ham edi. Adib bunday bo'lmasligi uchun asarga Nuri obrazini kiritadi va u Yo'lchi hayotiga kira boshlaydi, natijada tasvirda romantik alomatlar paydo bo'ladi. Keyinroq tasvir sahnasiga Gulnor chiqadi, u Yo'lchi e'tiborini o'ziga qaratadi, qarabsizki, asarda ziddiyat nish uradi. Voqealarning shu tahlit davomida Yo'lchi hamda Mirzakarimboy xonadoni – oilasi orasidagi farq – ziddiyat kuchayadi. Xullas, romanda mehnatkash xalq, birinchi galda, Shokir ota, O'roz, Qoraboy, Yormatlar qiyofasida namoyon bo'ladi. Xalqning tirik vakillari bo'l mish bu qahramonlar tarixni yaratuvchilar sifatida maydonga chiqadi. Zero ijtimoiy harakatda xalq ishtirokini tasvirlashni realizm deydigan bo'lsak, demak roman realistik tasvir uslubida yozilgan. Ikki yuksak ijodiy qudrat egasi Abdulla Qodiriy va Oybek tengsiz badiiy tasvir san'atkori ekanligi yuqorida misollarda yaqqol ko'rindi.

Takrorlash va mulohaza uchun savollar

1. Badiiy nutq nima?
2. Badiiy asarda qanday tasvir vositalaridan foydalaniładi?
3. Badiiy asar tili va uslubi haqida nimalarni bilasiz?
4. Tasvirni qanday turlari bor?

5-§. Qiyofa tasviri

- *Bosh qahramon tasviri.*
- *Bosh qahramonni tasvirlash usuli.*
- *Salbiy obrzlar tasviri.*
- *Personajlarni tasvirlash ularga nisbatan adib munosabati ning namoyon bo‘lishi.*

Ma’lumki, muayyan asardagi personajlar ob’ektiga ijodkor sub’ektning munosabati ikki qutbli bo‘ladi. Birinchisi – ijobiy, ikkinchisi – salbiy. Shunga ko‘ra asar qahramoni ham ijobiy yoki salbiy bo‘ladi. Ijodkor o‘z “yaxshi ko‘rganlari”ning ham, “yomon ko‘rganlari”ning ham qiyofasini yaratadi. Bosh qahramonning xarakteri, ma’naviy dunyosi, shubhasiz, boshqa qahramonlarniki kabi voqealar rivoji bilan ochila boradi.

Abdulla Qodiriy “O’tkan kunlar” romanining bosh qahramoni Otabek tashqi ko‘rinishini asarning “Otabek Yusufbek hoji o‘g‘li” sarlavhali birinchi qismi uchinchi abzasidayoq tasvirlaydi.

“...bu hujraning egasi ham boshqacha yaratilishda: og‘ir tabiatli, ulug‘ gavdali, ko‘rkam va oq yuzli, kelishgan qora ko‘zli, mutanosib qora qoshli va endigina murti sabz urgan bir yigit!..”

Kumush tasviri bir oz keyinroqda, 5-qismda uchraydi:

“... uyg‘oq yotgan bir qizni ko‘ramiz. Uning qora zulfi par yostiqning turli tomoniga tartibsiz suratda to‘zg‘ib, quyuq jingalak kiprik ostidagi tim qora ko‘zları bir nuqtaga tikilganda, nimadir

bir narsani ko'rgan kabi... qop-qora kamon, o'tib ketgan nafis, qiyiq qoshlar chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi... to'lgan oydek g'uborsiz yuzi bir oz qizillikka aylangan -da, kimdandir uyalgan kabi... Shu payt ko'rpani qayirib ushlagan oq qo'llari bilan latif burnining o'ng tomonida, tabiatning nihoyatda usta qo'li bilan qo'ndirilgan qora holini qashidi va boshini yostiq-dan olib o'tiradi... Bu qiz suratida ko'ringan malak quidorning qizi - Kumushhibi edi!"

Agar adib Otabekni karvonsaroy hujrasida, o'ziga munosib tarzda boshqa hujralarga nisbatan xasham dor bo'lgan xonada o'lirgan holatida tasvirlagan bo'lsa, Kumushni endigina uyg'ongan, hali to'shadidan turmagan holda allanarsani ko'z oldiga keltirayotgan, qandaydir yoqimli ammo ohu xurkoviga o'xshash his-hayajon og'ushida tasvirlaydi va bu usul Kumush latofatini chandon oshirishga xizmat qiladi.

Oybekda ham qiyofa tasvirining o'ziga xos usulini ko'ramiz. Oybek "Qutlug' qon" romani bosh qahramonini Mirzakarimboy nuzari bilan tasvirlaydi. Dastlab Mirzakarimboy Yo'lchi "arslonday qishloqi" ekanligiga e'tibor beradi. Mana shu "arslonday qishloqi" o'xshatishi Yo'lchi qiyofasiga ilk "chizgi" bo'ladi. Ammo oradan ko'p o'tmay odam ishlataverib korasta bo'lib ketgan, shunga ko'ra «odamni tez anglab oluvchi» boy jiyani bilan uzoq suhbatlashib, ungu chuqur razm soladi: «yigirma uch yoshli yigitning aqlida sira muqson ko'rmadi. Uning arslonday ko'rkam gavdasi, keng peshomusi, chuqur samimiyat ifodasi bilan to'la yirik xushyor ko'zları, kir yuxtagi ichidan qavarib turgan keng ko'kragi, baquvvat qo'llari,

so‘zlaridagi qishloqcha soddalik va to‘g‘rilik (bu xususiyatni kambag‘al odamlarda katta fazilat deb topar edi boy) unga juda yoqadi».

“Obdan chiniqqan yigit va unga berilgan ovqat behuda ketmaydi”, - deb o‘ylaydi, u. Lekin shu bilan baravar, Mirzakarimboy Yo‘lchining butun siyemosida katta jasorat va jur’at sezdi. Bu sifat unga jilla ma’qul tushmadi”.

Adib Yo‘lchi qiyofasini yana boshqa bir nazar – Nuri nazari bilan kuzatadi:

“Akalarining mehmonlariga, bog‘ va shahar hovlisiga qatnab yuruvchi do‘silari va umuman yigitlarga, sharoitga ko‘ra goh eshik tirqishidan, goh devor nahrasidan ... mo‘ralashni sevgan” Nuriniso (bu o‘rinda Nuri portretiga chizgilarni ham uchratamiz) Yo‘lchini ham ..., ko‘rishga muvaffaq bo‘lgan.

“Qomati kelishgan yosh yigit”ga bo‘lgan intilish zo‘ri bilan u har qanday andisha va qo‘rquvni bir chetga surib, yarim tunda Yo‘lchi tomon boradi. *“Ertaklarda uchraydigan, botir kabi g‘urur, salobat bilan uxlab yotgan Yo‘lchining boshi ustida cho‘qqaydi”*.

Shu bir jumlada ifodalangan Yo‘lchi portretining qirralari Nuri nigohida muhrlanib qoładi.

Oybek ijodiyot laboratoriyasining bir siri ham ana shunda. U Yo‘lchini o‘z tilidan tasvirlamaydi yoki bir personajning tilidan to‘la to‘kis portretini bermaydi, balki undan kim qanday manfaat

kutayotgan bo'lsa, o'shalar nazari orqali tasvirlaydi. Bular asarda bir vosita vazifasini o'taydi.

Yuqoridagi ijobiy qahramon portreti chizgilari edi. Endi salbiy personajlar portretiga e'tibor beraylik:

Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" asarida salbiy personajlarni bir o'rinda tugal tasvirlamaydi, balki ular qiyofasini turli vaziyat va holatlarda, asarning turli o'rinalarda bo'lib-bo'lib tasvirlaydi. Masalan:

"taxt ustiga qo'ndirilgan jonlik Xudoyor haykal ham sukulda..."

bu o'rinda adib xonni "*jonli haykal*" ga o'xshatadi.

"Otabek bu cho'ltoq supurgini tanidi va uning istehzolarini payqadi"

"Cho'ltoq supurgi", bu - Musulmonql edi.

Otabekning boshiga ko'p savdolarni solgan Homid adib tomonidan shunday tasvirlanadi:

"... ikkinchisi: uzun bo'yli, qora cho'tir yuzli, chog'ir ko'zli, chuvoq soqol, o'ttiz besh yoshlarda bo'lgan ko'rimsiz bir kishi edi..."

Adib Mutualning qiyofasini tasvirlash o'rniga uning qilgan ishlarini o'z tilidan so'zlatib kim ekanligi bilan kitobxonni tanishtirib qo'ya qoladi, faqat bir o'rinda uning jismoniy jihatdan baquvvat ekanligini takidlaydi:

"Mutal kuchli edi, ammo Otabek undan ham kuchli edi."

Endi Oybekning salbiy personajlarni qay yo'sinda tasvirlashiga e'tibor beraylik.

"Tantiboyvachcha kira pulini to'lab, ko'rimsiz bir darvozadan ichkariga kirarkan, yo'lakda, eski kursida o'tirgan, tanish cholga uchradi. Cholning patak soqoli kirligidan oqini yo'qotgan, egnida kirlanib, moylanib yiltillagan dog'-dug'li, lekin diqqat bilan boqilganda, tagi asl paxta buyum ekanligi hozir ham bilingan uzun qora kamzul, oyoqlarida eskirib ola peslangan amirkon maxsi, yirtiq kalish".

Oybek yuqoridagi uch-to'rt badiiy tafsil bilan o'z qahramonini yaqqol gavdalantirib beradi.

Ikkinchi bir personaj qiyofasini ham birgina jumlada chiza oladi:

"Yoshlikda satang o'tib, bu doirada sochi ogargan, lekin hali ham butun gavdasida noz xazonini shildiratuvchi bir kampir kirdi".

Agar Oybek ijobiq qahramonning qiyofasini chizsa, tiliga asal surtib tasvirlaydi, salbiy qahramonni tasvirlashda esa tikor bog'laydi.

"- Ha, boyvachcham, enangga nima tortiq qilasan?.. - o'ynoglandi kampir.

- Tortig'im shu: sizga bitta kuyov topib qo'ydim, hazillashdi Tantiboyvachcha.

- Kampir unda-bunda qolgan, tishqoli surilgan tishlarini ochib qah-qah kuldi”.

Adiblar personaj qiyofasini, agar u ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lsa, goh to'la-to'kis, goh ayrim chizgilar tarzida beradi va ularning ijtimoiy mohiyatinigina ochib tashlamay, balki tarixiy o'tmishni yaqqol namoyon etishda qiyofa tasviridan haqiqiy so'z san'atkori kabi mahorat bilan foydalanadi.

Takrorlash va mulohaza uchun savollar

1. Ijogchi bosh qahramon tasviriga qanday yondoshadi?
2. Salbiy obrazlarni tasvirlashda ularga muallif munosabati qanday?
3. Personajlar tasviri nima uchun kerar?
4. Qiyofalarda muallif munosabatini qanday baholaysiz?

4-BOB BAYONDA INDIVIDUALLIK.

1-§. Hikoya ichida hikoya

- *Hikoya ichida hikoya asar ruhiyatini ko'rsatuvchi vosita.*
- *Adibning hikoya ichida hikoya usulidan foydalanish mahorati.*
- *Hikoya ichida hikoyaning asar kompozitsiyasidagi o'rni.*
- *Mumtoz adabiyotda va umuman Sharq badiiy ijodida hikoya ichida hikoya.*

Abdulla Qodiriy hamda Oybek romanlarida hikoya ichida hikoya ham shakl, ham mazmun jihatdan ancha salmoqqa ega. Har ikki adib bir qarashda o'z asari mazmun – mundarijasiga yotdek tuyulgan, o'z oldiga mustaqil asar bo'lgan parchani zo'r badiiy mahorat bilan asar umumiy ruhiga singdirib yuboradilar. Masalan, Abdulla Qodiriyning Normuhammad Qushbegi haqidagi hikoya maqomida aytganlari Otobek va Kumush “dostoniga” hech bir aloqasizdek tarixiy bir voqea. Undan istagan adib tarixiy ma'lumot sifatida ilmiy, siyosiy, o'quv va b. adabiyotlarda foydalanishi mumkin. Abdulla Qodiriy ana shu tarixga oid voqelikni badiiy ijodda, to'qima obrazlar taqdiri bilan bog'lay olgan.

“*Yosh xonimizga va padari orzusi shahanshoh Musulmonquli bahodir huzurlariga. Yosh shohimizning baxt va tolelari ruhsiz tanlarimizga qayta boshdan ruh, ma'yus ko'ngillarimizga qaytib chiqmaslik umid bag'ishladi. Faqir qullari, bundan to'rt kunlar*

ilgari Toshkentdan sipohlar bilan umidsiz qaytishga majbur bo'lib, ul to'g'rida huzurlariga xabar ham yuborgan edim. Shu holda biz sipohlar bilan Kirovchi yaqiniga yetgan ham edik, orqamizdan bir chopar yetib, Toshkentda Azizbekka qarshi isyon boshlanganini, bizni ko'mak uchun Yusufbek hojining Toshkentga chaqirganligini so'zlab, uning ismidan bir maktub berdi. Men darhol sipohlarni Toshkent qaytishga buyurdim-da, xabar olganning ikkinchi kuni Toshkentga yetdim. Biz Toshkentga kirganda Yusufbek hoji boshliq olomon Azizbekni o'rda ichiga qamab yotar ekanlar. Olomon, ayniqsa Yusufbek hoji bizni juda yaxshi qarshiladilar. Biz borgandan keyin o'rdaga bosib kirdik-da, Azizbekni ushlab oldik. Boshda men Yusufbek hojini balkim Toshkent bekligi uchun tamalanur, deb o'yagan edim. Ammo uning butun o'rda va xazina ashyo-yaroqlarini menim qo'limga topshirishi bu fikrimni bo'shga chiqardi. Yusufbek hoji nihoyatda ta'masiz, xalq manfaatini kuzatuvchi bir odam ekan. Binoan alayhi uning to'g'risidagi bizning suiy zanolarimiz xato bo'lib chiqadir. Azizbekka qarshi xalqni oyoqlantirishi ham, bizning Toshkentdan jo'nashimizning ikkinchi kuni Azizbekning nechog'li siqilgan xalq ustiga o'ttiz ikki tangadan sochgan solig'i bo'libdir. Toshkent xalqi Azizbekning xiylasiga aldanib, bizga qarshilik qilgani uchun pushaymon va uning zulmidan qutilgani vajidan xursanddir.

Men Yusufbek hojining bunchalik katta xizmati evaziga xon xazratlaridan ulug' bir martaba olib berishga va'da bergen edim. U bunga qarshi uzr aytib, Toshkentga insofli bir bek belgilansa, menim uchun kifoya, dedi. Uning xon janobidan kutgan bir marhamati bor ekan: shu yaqinda savdo bilan Marg'ilonda yurgan

yolq'iz o'g'lini noma'lum bir sabab bilan O'tabboy qushbegining qamaganligini eshitibdir. Uning bu xizmatini biror mukofotga arzigulik ko'rsalar, o'sha qamoqda bo'lgan o'g'lini ozod etmak uchun xon hazratlarining qilaturgan inoyatlari har bir narsadan ham unga azizroq bir mukofot bo'lur. Faqir qulgingizcha ham, Yusufbek hojining davlatimiz ustiga qo'ygan bu minnati kichkina gap emasdir. Binoan alayhi uning o'g'li garchi o'lim jazosiga sazovor bo'lsa ham, marhamati shohonaning jo'shga keltirilishi, biz navkarlaricha ham muvofiq ko'rildir.

Vaqtincha Toshkent bekligiga Qo'shdodxoni belgilab, yoniga birmuncha sipohlar berdim. O'zim Azizbekni olib tezda xizmatlariga yursam kerak. Normuhammad qushbegi, muhr".

Endi uchinchi darajali personaj hikoyasiga e'tibor beraylik.

"Men o'zim asli qo'qonlikman. Ota-onamdan yoshlikda yetim bo'lib, tog'amning qo'lida o'sdim. Yoshim 17-18 larga borgandan so'ng o'z kunim o'zimga qolib, bir o'rtog'imning kengashi bilan bundan yigirma yillar burun Marg'ilonga kelib, bu kungi ustakorimning otasiga to'quvchillik hunariga shogird tushdiim. To'rt yil chamasi qilgan hizmatimdan so'ng haligi ustakorga xalfa bo'-lib ishlay boshladim. Boshqa yigitlardek ortiqcha o'rinsiz sarflarim bo'lmagani uchun, oz zamon ichida uch-to'rt tilla pullik ham bo'ldim. Ishimga ixlos bilan qaraganim uchun, mening to'qigan ishlarim o'zgalarnikidan qadrli yurar va xalq orasida ham "usta Olim kichkina" bo'lib shuhratlangan edi. Ma'lumki, bofandalar «to'quvchilar» oldiga ko'pincha xotin-qizlar kelib, yangi nusxa

qidirib yuriydarlar. Mening to 'qigan ishlarim va chiqargan yangi nusxalarim xammaga maqbul, ayniqsa, xotin-qizlar uchun mash-hur bo 'lib, har doim to 'quv do 'konim yonidan xotin-qizlar arimas edilar ...

Kunlardan bir kun hali kishidan qochar darajaga yetmagan o 'n uch – o 'n to 'rt yoshlar chamali do 'ndiqqina bir qiz kelib, men chiqargan yangi nusxa shohidan so 'radi. Qizning so 'ragan nusxasi to 'qilib va sotilib ketgan edi. Shuning uchun "yo 'q" deb javob berdim. Qiz ko 'zini joydiratib turib, "mening uchun to 'qib berolmaysizmi?" deb so 'radi. Men qizning yuziga qarab, "mumkin emas, opa, bir kiyimlik shohi deb nusxa bo 'yash og 'ir" dedim. Qiz so 'zni aylantirib mendan va 'da olishga tirishar edi. Men so 'z orasida yana unga qarab oldim. Yonimdagи xalsalardan bittasi qizga o 'la, "to 'qib bering, usta, opani xafa qilmang!" deb qo 'ydi. Uchinchi qarashda o 'zimda qizga qarshi bir yaqinlik his etgan, unga uzoqqina qarab qolishga majbur bo 'lgan edim. Garchi qiz aytgan nusxani tayyorlash og 'ir bo 'lsa ham, qandaydir bir kuch ta 'sirida haligi qizga va 'da berib yuboribman. U chiqib ketgach, qanday va 'da bergenimni o 'ylab ko 'rib, va 'da kuni kelsa to 'qiy olmadim deyarman, degan so 'zni ko 'nglimdan o 'tkazdim, lekin qizning gunohnsiz o 'ynab turgan qora ko 'zlari, qizil olmadek taram-taram yuzlari hamon ko 'z o 'ngimda ko 'rinib turar edilar va "mening uchun to 'qib berolmaysizmi?" so 'zi quloq ostimda takror aytilgandek bo 'lar edi.

Bir necha kun shu yo 'sin ikkilanib yurgach, nihoyat o 'zimga tushunilmagan bir savq ostida va 'damni ifoga ham boshlabman, bir kiyim shohi deb, o 'ttiz kiyim bo 'ladigan ipakni bo 'yash, tanda, arqoq, g 'ula mashaqqatlari ko 'zimga hech ko 'rinmabdir. Va 'damdan ikki

kun ilgariyoq shohini to 'qib uning kelar yo 'lini poylar edim, ul kelmas edi. Nihoyat, va 'da kuni ham kelib o 'tdi, yana kelmadi. Sizga shuni ham aytib qo'yayki, bir ko'rghan kishingizning tusini, albatta, uzoq fursat xotiringizda tutolmaysiz, lekin bu qiz to 'g'risida men tamom boshqacha holatda bo 'ldim: shundoqki, uning qoshini, ko'zini, tusini, qo 'g'irchoqdek qaddini ko 'z o 'ngimda tuta-tuta tamom bir yillik bilishlardek bo 'lib qolibman.

Uning tovush ohanglari qulog 'im xotirasida u darajada yaxshi saqlanmagan bo 'lsa-da, ammo "mening uchun to 'qib berolmay sizmi?" so 'zini hozirgina eshitgandek bo 'lar edim.

Va 'da kunidan uch-to 'rt kun o 'tib ketgan bo 'lsa ham, hanuz ul kelmas edi. Men uning ko 'chasini so 'rab qolmaganidan xafa bo 'lar edim, chunki shohini o 'zim eltib berishga ham endi hozirlanib qolgan edim. Bu kutish kunlarimda na uchundir yonimdag'i xalfa shogirdlar bilan bo 'ladigan muomalalarim ham o 'zgara boshlagan, ya 'ni so 'zlarim dag'al va tundlikka aylangan, go 'yo buning ila Alining kekini Validan olar edim.

Nihoyat, va 'daning beshinchi kuni qiz keldi. Qizni ko 'rish bilan men borliq-yo 'qliq holatda qolgan, bir necha zamon mening uchun so 'z topish qiyinlashgan edi. Qiz shohini so 'ramay menga termulib turar edi. Uning minnatdorchiligini faqat shohi bilan olmoqchi bo 'lganim uchun, bu hol menga og 'ir keldi.

- *Nega va 'daga kelmadingiz? – dedim, qiz o 'ng'aysizlanib, gunohkorlarcha ko 'zini yerga tikkani holda so 'radi:*

- *Shohini sotib yubordingizmi?*

Yonimga qo 'yib o 'tirgan shohini qizga uzatdim. Ul shohining orqa-o 'ngini ag 'darib ko 'rdi va: "yaxshi to 'qibsiz" deb menga

umidsizcha qarab qo'ydi. Shohini menga berib qo'lidagi mayda chaqalarni oldimga to'kdi.

- *Shohingiz qancha pullik?*

Men javob o'rniga, chaqalarni sanab chiqdim, bitta oltmish pullik tangasidan boshqasi, bir pullik, besh pullik zang bosgan chaqalar bo'lib, ko'p vaqtlardan beri yig'ilib kelganligi ma'lum edi. Bergan puli shohining yarim bahosini qoplar-qoplamas bo'lganligini aytdim.

- *Tag'in qancha kerak? - deb so'radi.*

- *Uch tanga, - dedim. Qizning o'ychan yuzini yana qayg'u bosdi, men uning yuzidan katta husndor qizlarda ko'rildigan bir ulug'-likni tamosha qilar edim va uning o'z va'dasiga kela olmaganligi sirini anglar edim. Bu yosh farishtani bu holda qoldirishga ko'nglim bo'lmadi va dedim:*

- *Qolganini qachon olib kelasiz? – bunga ham tez javob bermadi va javobsizlik bilan yana o'z holini menga arz qilgandek bo'ldi.*

- *Pul topganda keltirasizmi? - dedim-da, uning javobini kutmay qo'liga shohini tutqazdim. Qiz menga ishonmay boshlagan edi:*

- *Menga ishonasizmi? Men ishonch bildirib o'tirmadim:*

- *Uyingiz qayerda?*

- *Ch... mahallasida*

- *Kimning qizisiz?*

- *Sharif miltiqchining qiziman*

- *Otagiz qarib qolganmi?*

- *O'lgan, onam bor.*

- *Akangiz yo'qmi?*

- *Yo'q. Bitta kichkina o'g'il ukam bor.*

- *Ismingiz nima?*

- *Saodat.*

Shiundan so 'ng Saodatni shohi bilan jo 'natib yubordim. Saodat mening bu ishimga ishonmaygina chiqib ketdi. Xalfa shogirdlar, tuziksiz-ku usta, deb menga piching otishdilar. Ammo men Saodat uchun har bir og 'irlikni ko 'targundek ko 'rinar edim... ".

Ot boshqaruvsiz holda boshi oqgan tomon yurib, kelib to'xtagan eshik egasining do'stona taklifiga ko'nmasdan boshqa iloji qolmagan Otabek chaqirilmagan mehmon bo'ladi. Mehmon bilan mezbon orasidagi suhbat chog'ida gap aylanib uylanish mavzusiga taqaladi. Mezbon anchadan beri yurak dardini ochguchi dil tortar suhbatdoshga mahtalmi yoki musallas tasirida ko'ngil torlari bo'shashgani vajidanmi o'z ishqiy sarguzashtlarini Otabekka hikoya qilib beradi. Oqibati fojea bilan tugagan, boshida baxtli boshlangan bu hikoya oxiriga yetganda usta Olim hikoyasidan ortiq ta'sirlangan Otabekning "*Ko 'z chuquri bir – ikki qayta yosh suvi bilan to 'lib chiqgan edi*".

Hikoya ta'sirida Otabek karaxt bir ahvolga tushgan edi, u o'z qayg'usini deyarli unutgandi. Abdulla Qodiriy garchi bu hikoyani uchinchi darajali personaj tilidan bayon etsa-da, lekin uni asosiy personaj shum taqdiriga bog'lay olgan, xatto uni Otabek "xavas" qilgudek darajaga ko'tara bilgan. Otabek ham o'z "kuni" dan ko'ra usta Olimning "kuni"ni ma'qul ko'radi va o'zini o'zi koyiydi: "quvlanishga, tahqir etilishga loyiq ko'rilgan Otabek, usta Olim bo'lishga ham sazovor emas!"

Ijodkor ayrim hollarda, garchi ikkinchi yoki uchinchi darajali personajlar tilidan bo'lsa-da, hikoya ichida hikoya usulidan

foydanadi. Biz bu o'rinda mumtoz jahon adabiyotidagi hikoya ichida hikoyani nazarda tutmayapmiz. Balki asar ruhiga mos, ijtimoiy mazmun kasb etuvchi holatni ko'zda tutmoqdamiz.

Oybekning "Qutlug' qon" romanida ham bu usuldan foydalanish ko'p uchraydi. Buni Gulandom bilan bog'liq epizodda ko'rish mumkin. Mazkur hikoya ichidagi hikoya Gulandomning o'sha vaqtdagi holatinigina emas, balki undan ahamiyatliroq bo'lgan vaziyatni aks ettirishga xizmat qilgan.

Maishiy buzuq Tantiboyvachcha kayfu safosini yanada tugal qilish uchun Gulandomdan xirgoyi qilishni so'raydi. Gulandom tarang qilmay, darhol dutorini qo'lga olib chertadi va yengil, o'ynoqi bir ashulani boshlaydi. Ashula tugagach, "qornim to'yganligi uchun yaxshi aytolmadim", - deydi. Tantiboyvachchaning "nega", degan savoliga shunday javob qiladi:

"Bilmadim, bir vaqtlar qarindoshlarim orasida ashula aytgandim. ... Dadam keldi: Bolam qorning to'q ekan, ovozing xira chiqdi". Biz tushunmadik, keyin o'sha narsani hikoya qilib berdi. Hali ham yodimda. "Bir zamonda, - dedi dadam, - Aflatun degan bir hakim o'tgan ekan. U hech tinmasdan fikr qilar ekan. Lekin fikr qilganda, saqolini bitta-bitta yulib olaverarkan. qo'lini band qilish uchun bir nima o'ylab chiqarishga urinipti. Axir bir tanbur yasabdi. Tanburi jaranglamabdi. Hayron bo'lib o'tirgan ekan, ko'chadan baland ovoz bilan ashula aytib o'tgan yigitlar yana ashula bilan qaytishibdi. Lekin yigitlarning ovozi endi juda sust, bo'g'iq bo'lib eshitilibdi. Aflatun yugurib eshikka chiqibdi, yigitlarni to'xtatib so'rabdi:

- Bolalarim, - debdi, - boyo ovozlaring juda baland, yangroq edi, endi nimaga sust bo 'lib qoldi?

Yigitlar kulib, shunday javob berishibdi:

- Hali qornimiz och edi. Ziyofatga borib, ko 'p edik, ko 'p ichdik. qornimiz to 'yib, ovozimiz pasaydi.

Aflatun darrov uyg'a kiribdi, tanburga qarab, "qorning to 'q ekan?" – debdi-da, tanburning ichini kavlabdi.

Agar Qodiriyyda usta Olimning hikoyasi hikoya ichidagi hikoya bo'lsa, Oybekda Gulandomning o'zi hikoya ichidagi hikoya, Aflatun haqidagi hikoya esa hikoya ichiga joylangan hikoyadir.

Takrorlash va mulohaza uchun savollar

1. Adiblar nima uchun hikiya ichida hikoya keltiradi?
2. Abdulla Qodiriyning hikoya ichidagi hikoyadan qanday maqsadda foydalanadi?
3. Oybek ijodidagi hikoya ichidagi hikoyalarning asar g'oyasini ochirshdagi ahamiyati nimada?
4. Qanday tur asarlarda hikoya ichida hikoya usulidan keng foydalaniladi?

2-§. Ichki nutq

- O'z – o'ziga so'zlash ruhiy hodisa.
- Ichki nutqning oshkora nutqdan farqi.
- Obrazlar orqali fikrlashda ichki monologdan foydalanish.
- Ichki nutq ichki olam ko'zgusi.

Prozaik asarlarda badiiy ta'sirchan vositalardan foydalanish imkonи cheksizdir. Ana shunday badiiy ta'sirchan vositalardan biri personajlarning ichki nutqi – monologи hisoblanadi.

“Kishining xotinini taloqsiz chiqarib ol-da, bugun yerga ber!” – dedi va telbalarcha kulib qo‘ydi, o‘z – o‘ziga so‘zlanib Marg‘ilon ko‘chalarida tentaklarcha yugura boshladi. Uning bu kungi holiga qarash yuraklarni yorgudek, tasvirga ham qalam kuchi ojizdir.

Yuqoridagi parchadagi Otabek ichki monologи qanday ruhiy holat hosilasi ekanini muallif nutqi yaqqol ko‘rsatadi.

“Anchagacha o‘ylab o‘tirgandan keyin, ko‘ngliga “u meni sevsab o‘ldi-da” degan gap keldi... ”.

Mazkur parchadagi ichki nutq ham qahramon ruhiyati bilan bog‘liq.

“Hasanali uyg‘onib ketar va qaytadan shu to‘g‘rida o‘ylay boshlar edi”.

Muallif nutqidan so‘ng personaj ichki nutqi boshlanadi.

“Bechora! Sevganing to‘g‘risida o‘ylay – o‘ylay boshlaring og‘rib ohlar tortib yotadigandirsan... Yordamching yo‘qligidan umiding kesilib, xasratingni kimga aytishni bilmaydigandirsan! Qayg‘urma, begin! Xasanali otang bu to‘g‘rida ham seni yodidan

chiqarmadi... Bu kecha sening qayg'uli kechalarining eng keyin-gisi va oydinli ham she'riyatli tunlaringning arafasidir, begin!"

Hasanalining bu ichki monologidan unung Otabekka qanchalik – otadek mehribonligi anglashiladi. Hasanali oshkor aytolmaydigan, aytishni istamaydigan so'zlarini muallif ichki monolog tarzida beradi.

- Yoshim yetmish to'rtga yetdi, o'g'ilim – qizim bo'lmasa... Dunyodan chiroqsiz boraman... Darvoqe Otabek menga o'g'illik qilmasmi, xotini menga qiz bo'lmasmi, ularning bolalari meni "bo-bo" deb ketimdan yugurmasmikanlar? Tuproq ostlarida umutilib yotgan kezlarimda – "bir vaqt Hasanali otamiz ham bor edi", – deb yodlasalar, yaxshilik bilan eslasalar yetar menga shu.

"Qutlug' qon" romanida kitobxon faqat asosiy qahramonlarning emas, balki ayrim ikkinchi, xatto, uchinchi daraja personajlarining ham o'z boshlariga tushgan ko'rgiliklari, qalb kechinmalarini ichki monolog yordamida yuzaga chiqarilganini payqaydi.

Yo'lchi yuragida yig'ilgan dard-alamlarini to Salimboyvachcha bilan to'qnashgunga qadar hech bir kimsaga oshkor qilmagan, to'kib-solmagan edi. Adib o'z qahramonining achchiq kechinmalar, qo'rqinch hayollari, hayajoni, shirin orzulari, qalb iztiroblarini ifodalashda, ular obrazini mukammallashtirishida ichki monologlari qanchalik muhim ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, ikkinchi darajali qahramonlarning ichki monologi ham ular qiyofasininggina emas, balki ichki dunyosining ham shunchali mukammal tarzda tasvirlashga imkon bergen.

Masalan, Yormat hamda uning xotini Gulsumbibining monologiga e'tibor beraylik:

Yormatning xotini Gulsumbibi o'sha davrning odatlariga ko'ra jamoatorasi u yoqda tursin, xatto, o'z uyida ham mustaqil fikr bildira olmas edi. Yormat garchi o'zi haqsiz, huquqsiz, boy xonadonida bir qarol bo'lsa-da, lekin xotiniga nisbatan to'liq "xukmdor" edi, shunga ko'ra, uning unini o'chirib turardi. Tom ma'noda zaifa bo'lgan Gulsumbibi o'zining o'ksikligi, dardu alamini, qalbida junbushga kelgan fikrlarini ichki monolog tarzida bayon etishi ayni haqiqatdir.

O'z qizi og'rib qolganidan xavotir ona bu qismatga qizi duch bo'lganiga erini aybli, deb biladi:

"Ota bo'lmay o'l. Ikki gapni birida xotin ustiga bo'lsa ham boyga, erli-suvliga beraman, deydi. Niyating qursin. qizimni o'tda yoqmoqchi bo'lasanmi? Qizim, aqli, xushli qiz, dadasingning bunday bad niyatini biladi, shundan xavflanadi, kuyadi. Ota o'lqur birovning malayi bo'lsa ham, o'lquday kekkaygan, takabbur. qancha sovchini quvib yubordi, axir. Birini past odam deydi. Birini kosib, dedi, birini aravakash – ovarakash deydi. Duradgor yigitning onasi qatnay-qatnay tinka-madori quridi yigitning qo'lida gulday hunari bor ekan, bo'ydoq ekan, uy-joyi tayin ekan. Yana senga nima kerak?! O'l ota bo'lmay ...".

Bu ichki monologda Gulsumbibining yurak-yuragidan qaynab chiqayotgan fikrni o'qir ekan, kitobxon uni chindan ham xokisor, mazluma, erksiz, xatto, o'z jigarbandi taqdiri haqida ovoz chiqarib so'z aytolmaydigan mushtiparligini ochiq-oydin xis etadi.

Bu monolog Gulsumbibining qator dardi-xasratini ifodalaydi. Bunday gaplarni boshqa bir kimsa aytolmaydi, ikkinchidan qizi aqli-xushli ekani tufayli sovchilar eshigining turimini buzayapti, uchinchidan, unga duradgor yigit ma'qul, qo'lida gulday hunari bor, uy-joyi tayin, to'rtinchidan, erining niyati shum, qizini boylik uchun sotmoqchi (boyga bermoqchi, bu bilan Gulsumbibining eri boylikka uchayotganidan, go'yo uningcha qizi rohat-farog 'atda kun kechiradi, deb xom o'ylayotganidan fig'oni falakka chiqadi), beshinchidan, qizining ixtiyori na o'zida, na Yormatda emasligidan dod demoqda. Shu o'rinda bir narsani alohida ta'kidlash lozim ko'rindi.

Gulsumbibi, shubhasiz o'z qizining kelajagini o'ylaydi, garchi u ahyon-ahyonda ko'rib yurgan bo'lsa-da, u ko'rib yurgani kim ekanligidan, qizining ko'nglidan ham xabardor. Ammo Yo'Ichini tilga olmaydi, boisi, ming qilsa-da, u ona. Onaizorming niyati esa o'z qizini qo'lida hunari bor, uy-joyi tayin (Yo'Ichida hali bular yo'q), bo'ydoq yigitga uzatish. Mana shu nuqtada onaning qizi bilan o'rtasida ziddiyat yuzaga keladi. Bu ziddiyat aslida mavjud sharoit bilan muayyan voqelik o'rtasidagi ziddiyatdir.

Endi Yormatning ichki monologiga, uning o'z mudhish xatosini anglab etgandan keyingi istirobiga kelsak.

Boyga sidqidildan xalol xizmat qilgan, ammo, kosasi oqarmagan qarol o'z qizi tufayli yuzaga chiqmoqchi, kimsan boyning qaynotasi bo'lmoqchi, qizining "baxti"ni ko'rmoqchi bo'ladi. Lekin, oqibat, mudhish bo'lib chiqadi. Shundoq ham o'limini bo'yniga olgan Gulnor, meros tashvishida yovuzlashgan boyvachcha-yu, boyvuchcha tomonidan zaharlanadi. Butun umidi puchga chiqib, hali o'n gulidan bir guli ochilmagan qizidan judo bo'lgan Yormat qasos

o‘tida ayovsiz o‘rtanadi. Jonga jon olish ishtiyogi uning qo‘liga o‘tkir pichoq tutqazadi, u xech ikkilanmay, zarra ham seskanmay Salimboyvachchaning ko‘ksiga pichoq qadaydi. qon va murda hidini sezgan xatto ot pitirchilaydi, ammo Yormat pichoqni qanday sovuqqonlik bilan sanchgan bo‘lsa, shunday sovuqqonlik bilan uni Salimning ko‘ksidan sug‘irib oladi. Jasadni esa bor kuchi va nafrati ila jarga uloqtiradi. “Itga it o‘limi”, deb shunga aytsalar kerak. Yormatning yurak qa‘ridan otilib chiqqan nido, aytish mumkinki, faqat Oybek ijodidagina emas, balki butun o‘zbek adabiyotida ham eng kuchli ichki monolog hisoblanadi:

“Nima ish qildim? Gunohmi, savobmi? Soqolim oqarganda qo‘limni qonga botirdim. Mana hali ham barmoqlarim chilp-chilp yopishadi! Yo‘q, men qizimdan so‘rayman. Ayt, jonim, Gulnorim, ayt! Men yolg‘iz saning qarshingda gunohkorman. San ayt, ma‘quil bo‘ldimi? Bu qon oz, desang yana to‘kaman. Hammasini qiraman.

Albatta, bu qon bir tomchi. Bundaylardan mingtasining qoni bir tola sochingga arzimaydi. Bilaman, qizim. Hammasini qiraman, dadang endi qo‘rqmaydi. Ular endi xo‘jayin emas menga, qizim yel-kamga xo‘p minishdi. Endi bas! Ko‘zim ochildi, Gulnor. Lekin, bu ko‘z qurg‘ur juda kech ochildi. Yuragimga zahar yugirganda ochildi. Yuragim sen eding, Gulnor, ko‘zim ilgari ochilgan bo‘lsa edi, man o‘z yuragimni bo‘rilarga edirarmidim? Tongla mahsharda qay yuz bilan sanga boqaman? qizim kechir, bu adashgan, ko‘r dadangi kechir! Gunohimni zarracha kechirishing uchun qo‘limni qonga tiqdim. Oppog‘im, Gulnor, kechir ... evoh, essiz umr, essiz qizim ...”

Bu monologni o'qir ekan eng diydasi qattiq kitobxon ham Yormatning zor qaqlayotgan yuragidan qon yanglig' sirqirab chiqayotgan so'zlardan, so'zga aylangan achchiq alam, musibat, taqdirming shafqatsiz zarbasidan larzaga tushadi, o'zining ko'zida ham yosh xalqalanayotganini sezmay qoladi.

Abdulla Qodiriy va Oybek ijod laboratoriyasida monolog muhim o'rinni tutadi va bu ularni doho san'atkor darajasiga ko'targan.

Takrorlash va mulobaza uchun savollar

1. Personajlar ichki nutqi ular qalbining ko'zgusimi?
2. Personaj qalb nidosini qanday izhor etadi?
3. Personajlar asl niyatini yashirishda nutqning qanday ko'rinishidan foydalanadilar?
4. Obraz yaratishda ichki nutq qanday ahamiyatga ega?

3-§. Til ostida til

- *Kosa tagida nimkosa.*
- *Ichki ovozlar bir – birini to'ldiradi.*
- *Ichki nutq va tashqi nutq – ikki yuzlamalik.*
- *Personaj nutqiga muallifning aralashuvi.*

Ijodkor ayrim hollarda izchil tasvirmi shartta uzib, boshqa mavzuga o'tadi, bu usuldan o'mni bilan foydalanadi. Albatta bunda personajning "sir saqlash"ini ta'minlaydi. Chunki, bu vaqtida qahramon murakkab holatga tushib qoladi, asar niyatini yuzaga chiqarishi maqbul kelmaydi.

Homidning Mirzakarim qutidorming qizi Kumushni qo‘lga kiritishdan iborat bo‘lgan asl niyati Mirzakarim qutidornikidagi yig‘ilishda ilk bor seziladi. Uning ruhiyatidagi g‘ijinish alomatlari ko‘rinar, lekin majlis ahli uni payqamas, adib bu “sahna”ni nihoyatda mahorat bilan tasvirlaydi.

“Shu orada qutidorning “uylanganmi?” deb Hasanidan so‘rashi Homidga yana boshqacha holat berdi... Hasanalining so‘rovchiga... hikoya qilib berishidan so‘ng u toqatsizlangandek bo‘ladi.

- Balki beginingizning ta‘malari xon qizidadir, - dedi istehzo bilan Homid. – Bundoq yigitlar uylanganlarida ham kishi qizini umr bo‘yi azob ichida o‘tkazadilar!..

Sababiga tushinish qiyin bo‘lgan bu istehzoga qarshi Hasanali sukul qilmadi:

- Men uning xon qizini olish maqsadi borligini bilmayman. - dedi kulimsirab, - biroq u xon qizini olsa arzimaydirgan yigit emas... Hatto menga ham qattiq so‘z aytishdan saqlangan bir yigit o‘z nikohida bo‘lgan ozod bir qizga, albatta, zahmat bermas deb o‘ylayman. Xotin uradigan va xotin ustiga xotin olib, xotinlariga zulm qiladigan ba‘zi hayvon sisat kishilardan bo‘lib ketishi, menimcha, ehtimoldan uzoqdir. inim mulla Homid...

Hasanali nutqidan so‘ng muallif nutqi boshlanadi, u Hasanali nimaga shama qilayotganini tushuntiradi: Hasanali o‘tgan faslda Homidning o‘z og‘zidan xotinlariga qarshi qamchi ishlatganini eshitgan edi... O‘quvchi Hasanalininig tili ostidagi tilini tushunadi.

“Qutlug‘ qon” romanida Gulnorni yo‘qotish payiga tushgan

Salimboyvachcha Tantiboyvachchadan yordam so'raydi va Gulnorni o'g'irlanishiga erishadi. Lekin bu hali muammo tugal hal bo'ldi, degani emas. Salimboyvachcha endi Tantiboyvachchadan Gulnorni jismoniy yo'qotishni so'raydi. Bu ishidan ularning har ikkisining o'z maqsadi, ko'zlagan niyati bor. Ana shuni ular har ikkisi oshkor aytmaydi, adib ularni bu niyatini bayon etishda ichki nutqdan foydalanadi.

Salimboyvachchaning iltimosini bajarishlikni Tantiboyvachcha faqat bir shart bilan qilishini bildiradi va shartni aytadi. Shunda undagi ichki birinchi ovoz bordi-yu, siri ochilsa, otasi unga shafqat qilmasligini ukdiradi. Aqcha talabi qancha og'ir bo'lmasin u bunga ko'nishga majbur. Lekin o'z iltimosi bilan Tantiboyvachchaning changaliga tushib qolganini Salimboyvachcha sezadi, ikkinchi ichki ovoz – o'z qilmishidan afsus-nadomat chekish ovozi chiqadi. Ammo kech bo'lgandi. Salimboyvachchaning ichki ovozidan uning dahshatga tushgani ayon bo'la boshlaydi.

Endi Tantiboyvachchaning ovoziga qulqoq tutaylik:

"U ko'chada g'oyat mamnun, ham har vaqttagidan kekkayib-roq yuradi, chunki u o'zini nihoyalda zafarga erishgan hisoblaydi. Salimboyvachcha endi uning quli..."

Bu ichki, ko'nglidan chiqqan birinchi ovoz. "... Tantiboyvachcha Gulnorni olib qochish kerakligini mastlik dadilligi va mantiqi bilan tushuntirdi" bu ikkinchi ovoz edi. "Salimboyvachcha bir minut o'yamasdan taklifni qabul etdi..." bu uchinchi ovozdan so'ng adib voqealarga aralashadi. So'ng navbat yana Tantiboyvachchaga keladi:

“Erta-indin boyvachchadan o’n ming so’m olaman – vekselga qo’l qo’ysa, bas. Uning imzosi naqd pul”.

Bu uning yana bir ichki quvonch ovozi edi. Shu payt uning ko’zi Yormatga tushadi.

Endi navbat adib ovoziga.

“Uning betini ko’rmasa ham, dardini, xasratini uning yurishidan, elkasidan sezdi. Yuragining allaqaeri chimchilanganday tuyuldi. Ixtiyorsiz ravishda ko’zlarini boshqa yoqqa burdi”.

Gal Tantiboyvachchaga keldi; uning ichki ovozi

“Hammadan shu kambag’alga qiyin, sho’rlikka qiyin”. O’zi chakki odam emas. Bir musofir, g’arib. “Bolang ko’z oldingda o’lsa yig’laysan, dodlaysan, yer bag’ri qattiq, axir ko’nikasan. U boyaqishning nuridiydası, yetilgan qizi birdan g’oyib bo’lsin ... O’likni, tirikni, bir umr bilmaysan ... Yormatni qo’lidan yetaklab, qizi oldiga to’g’ri boshlab borsam, “ol qizingni, lekin, buni bir san bil, bir ollo bilsin, boshqa hech kim: jo’na, desam...”

Muallif ovozi

“... Ammo uning yuragida bu yorug’ fikrni bir zumda boshqa orzu-ta’ma qorasi bosdi, haligi uchqun yurakning qora o’pqonida so’ndi. Chunki Yormatning qizi unga behisob tekin pul manbai ochgan edi....”

Tantiboyvachcha ichki ovozi:

"Salimboyvachchaning yelkasiga minish uchun Gulnor qurbon bo 'lishi kerak..."

Muallif ovozi:

"... Bundan tashqari, Gulnor kabi, odamlarning ta'rifiga qaraganda, chiroyli qiz bilan ko'ngil qonguncha "suhbat" qilish orzusi ham uning ko'ksini yoqdi..."

Navbat yana Tantiboyvachcha ovoziga:

"... Savobning eshigi ko 'p, deydilar Bu bo 'Imasa, boshqa bir eshikdan kirib chiqarmiz. Masalan, machitga gilam olib berish. Bunda kishining nomi ham chiqadi..."

Muallif ovozi:

"... deb o'yladi-da, qadamini ildam bosib Yormatni ortda qoldirdi"

Adib bu ichki ovozlar yordamida, ular rang-barang, personajlar ruhiyatida yuz bergen ichki ko'nikishni butun murakkabligi bilan ko'rsatib bera olgan. Mana shu kichik parchadayoq kitobxon hayotning achchiq haqiqatining butun ta'mini to'la xis etadi.

Takrorlash va mulohaza uchun savollar

1. Adibning obraz yaratishida ichki ovozlarning ahamiyati nimada?
2. Ikki nutq, ikki qiyofa deganda nimani tushinasiz?

3. Ichki nutqga muallifning aralishuvi nega kerak?
4. Adib ichki ovozlar yordamida nimalarga erishadi?

4-§. Personaj nutqi

- *Nutq egasiniki bo‘lishi kerak.*
- *Nudqda xarakterning namoyon bo‘lishi.*
- *Nutq ijtimoiy qatlamga mansublik belgisi.*
- *Kimning kimligini so‘zi aytadi.*

Har bir ijodkor, avvalo, xalq tilini yaxshi bilishi lozim. Narsa, voqealarni aniq, ravon, yorqin, tushunarli anglatishi uchun xalq tili o‘z bag‘rida noyob javohirlarni saqlovchi ummondir. Ijodkor esa mana shu ummonga chuqur sho‘ng‘iy oluvchi, g‘ovvos bo‘lishi kerak. Shunda u ushbu tildan, uning boy xazinasidan xohlagancha foydalana oladi. Ijod mahsulida o‘nlab maqollar, qochirimlar, maxsus ifodalar, o‘xshatishlar, so‘z o‘yinlari, takror qo‘llanmalar bor rangi bilan tovlanadi. Agar ijodkor shularga muvaffaq bo‘lsa, uning asari ham jonli, obrazli tilga ega bo‘ladi.

Asardagi barcha personajlar – ular asosiy qahramonlar bo‘ladimi yoki ikkinchi, uchinchi darajalimi, bari bir hammasi o‘z tilida so‘zlaydi. Adib ularning o‘z nutqidan foydalanimuayyan shaxs-personaj tavсifini yaratadi. Har bir personaj o‘ziga yarashiq tilda so‘zlaydi (aslida, ijodkor tomonidan so‘zlatiladi) va o‘zlarining kim ekanligini ko‘rsatadi. Iste’dod egasi bo‘lmish ijodkor, turli tabaqa vakillarining nutqini, so‘zlash tarzini yaxshi bilishi talab qilinadi.

Abdulla Qodiriy “O’tkan kunlar” romanida XIX asr o‘ratalarida Toshkent va Marg‘ilonda yuz bergan voqealarni qalamga oladi.

O'sha davr kishilari obrazini yaratadi. Albatta adib obrazlar to'laqonli va ishonarli bo'lishlari uchun o'sha davr barcha ijtimoiy qatlamlarining vakillarini alohida – alohida tasvirlaydi. Ular obrazi mukammal bo'lishi uchun nutq omiliga ham alohida e'tibor beradi. Masalan, O'zbek oyim. Bu o'ziga to'q, Toshkentning tagli-taxtli xonadoninig aytgani aytgan, o'z so'zini o'tkazmasdan qo'ymaydigan erka qizi bo'lганligidan eri Yusufbek hojidek Toshkentning hokimdan keyingi ikkinchi darajadagi maqomga ega inson ham uning rayiga qaraydi.

"Siz qarib esingizni yeb qo'yibsiz, o'g'lingizni marg'ilonlikka topshtirib qo'yib, yana el ichida boshingizni ko'tarib yurmoqchi bo'lasizmi?..."

"Siz otamisiz, nimasiz ahir, o'g'lingizni tiyib olish sira esingizga keladimi? O'g'lingizni bu ishi bejiz emas: marg'ilonlik sehr qildimi, jodu qildimi, haytovur siz shu yo'sinda yura bersangiz erta-indin o'g'ildan ajralasiz. Bu kalvak o'g'lingiz marg'ilonlikning eshigida qul bo'lib yotib oladir..."

- Men seni bu umid bilan boqib katta qilmagan edim... Sen bizning naslimizni ko'tarish o'rniغا, yerga urib bulg'ading. Biz seni Marg'ilon andisiga bunchalik mukkadan ketishingni o'ylamagan edik, adabsiz... o'zinga qolsa, shu marg'ilonlikni xotinga hisoblab keta berar ekansan-da, uyatsiz!..

O'ktam va shaddod, cho'rtkesar bu ayol Toshkent aslzoda ayolining yorqin vakilasidir.

Yusufbek hojining nutqi uning tabiatiga monand: O'zbek oyim bilangina emas, umuman uy ichidagilar barchasi bilan ham

har qanday masalada uzoq suhbatlashib o'tirmaydi. Otabekmi, Hasanalimi, Oybadoqmi – birortasining so'zлari yoki maslahatlari bo'lsa,... hojiga so'zlayberadilar. Hoji bir necha daqiqa so'zlovchini o'z og'ziga tikiltirib qo'ygandan so'ng, ma'qul bo'lsa "durust emas" deydi. Agar juda nomaqul bo'lsa, bir iljayib qo'yish bilan kifoyalanadi, boshqa bir so'z demaydi.

O'zbek oyimning uzundan uzoq ta'na-dashnomalarini chidam bilan eshitib:

"Qo'ya ber, xotin, o'zi sog' bo'lsa, bir kun esini topar".

"Tura turchi".

"Yahshi. Va'da ham berayin, ammo san unashmay tur!"

O'zbek oyim shoshib – pishib Otabekni Zaynabga unashib qo'yadi va sovchiligini hikoya qilganda Yusufbek hoji labini tishlab qoladi va:

"Senga sira aql bitmay ketar ekan-da" – deydi, xolos.

Yuqoridagi ikki personajning nutqi nutq egasi tabiatini yaqqol ifodalaganidek quyidagilar nutqi ham o'z egasini shunday ko'rsatadi.

Sodiqning istehzoli:

- *Ha-ha-ha, balli, Mutal to'ram! – deb kulishiga jovrab beradi;*
- *Kulishingni bejo qilma, ... Abdikarim! Sen hali dunyoga kelib nimani ko'rding-ku, senga kulish tushib qoldi! Bu bosh dunyoga kelib nimalarni ko'rmadi-a? Bunaqangi qochiriq ishlarni endi*

qilib turibdi, deb o 'ylaysanmi? Ey – ha – ha – ha... Mutal akang nimalarni qilmadi?! Ha – ha – ha... Ey-y Sodiqcha, sen hali nimani ko 'rding-ku, nimanga ishonding, buzoq bo 'g'izlagandek qilib bir – ikkitani so 'ygan bilan odam bo 'lding – qo 'ydingmi? Gap bilan bo 'lib zang 'ar kayf ham tarqab ketdi, qani, quy-chi, bir – ikkini!

Yuqoridagi Mutual nutqini o 'qir ekansiz, menimcha ixtiyorsiz Toshpo 'lat tajang yodga tushadi.

Ha Abdulla Qodiriy personaj nutqi ustasi. U Otabekning tabiatি – mulohazasi, andisha va orzu umidlari, qat'iyati, ikkilanishlari, qadr – qimmati, g'ururi hamda barcha boshqa jihatlarini to 'liq ochib berish maqsadida ichki ovozlar majmuasidan foydalanadi.

Muallif ovozi:

-Otabekning kunlari quyosh botib chiqgan sayin bir anglashil-movchilikka, qorong 'ulikka kira borib, har soat achchiq va yo chuchukligi noma 'lum bir hol kechira boshladi. Ba 'zi kezlarda u umid quchog 'ida shoshib qolar edi va ikkinchi vaqtida yaramas, qora xayollar bilan entikar edi.

Umidlangan kezlarda:

- Oy tuynukdan tubanroqda, bugun bo 'lmasa erta – chimmati qo 'lida, paranjisi ustida sarig 'imi, qorami atlas ko 'ylagi egnida darbozadan kirib kelgandek va o 'pkalagandek...

Muallif ovozi:

Ikkinchi bir vaqtida kimmingdir quyidagi gapini eshitar edi:

Kimningdir ovozi:

- *U o'zining dushmanlarini o'ldirish uchungina Marg'ilonga qatnab yurgan ekan, hisobini tugatdi-da, bedarak ketdi – qoldi. Tuzukroq joy chiqsa, berib qo'yaqolaylik Kumushni... umri ham o'tib boradir!*

Muallif ovozi:

Ana shu gard hayol uni chindan yonib turgan bir o't ichiga tashlar va shu choq o'zini muvohazaga (koyish) boshlar edi:

Qahramon (Otabek) ovozi:

"Men nega ikki yil sarson bo'lib yurdim – da, bu sarsonlikning natijasiga borib chiqqanda, shunday ahmoqlikka tushdim?!"

Muallif ovozi:

...der va Marg'ilon yo'lini ko'zlar edi. Ammo endi unga Marg'ilon boorish o'nqayi sira kelmas:

Yana qahramon ichki ovozi:

“Men yana nega keldim – da, endi nega boraman va nima deb boraman? Qizingizni Toshkent olib tusharsiz deb kutgan edim... Siz olib tusha bermaganingizdan keyin o’zim qaytib keldim, deymanmi?”

Abdulla Qodiriy bu romanida tasvirda jontantirish usulidan ham o’rinli foydalangan.

“...quyosh... jim – jim tovlanib, yer yuziga kulib qaradi”.

Bu o’rinda ochiq havoda quyoshning charaqlab nur sochishi insonlarga xos harakat belgisi bilan ifoda etilgan.

“...turli yerlarga jon suvi sepish ila charchagan bahor bulutlari burchak – burchakka tarqalib borar edilar”.

Bu misolda ham bulutlarning asta – sekin tarqalishi insonga xos harakat belgisi bilan jontantirib ifoda etilmoqda.

“Navo”ning sehrli “tafti” Otabekning ko‘z yoshlarini quritdi – da, bir yengillik bag‘ishlaydi. “Navo” bilan yuvilib ketgan uning *umid gulzorida yangi chechaklar unib chiqdi...*

Adib “*umid gulzori*” deganda inson qalbini, chechaklar deganda yangi orzularini nazarda tutmoqda va tasvir yordamida nutqiy sinonimlar hosil qilmoqda.

Oybek ham “Qutlug‘ qon” romanini bosh g‘oyasini personajlar nutqi orqali ravshan ifoda qila bilgan adibdir. Asr boshida (birinchi jahon urushi arafasida) mehnatkashlarning ahvoli og‘irlashgan, shunga ko‘ra ular bir qismi ijtimoiy faollashgan edi.

“Qutlug‘ qon” romanida qahramonlar o‘z tabaqasi, dunyoqarashi, bilim saviyasi, mashg‘uloti, kasb-koriga yarasha ijtimoiy hayot, mol-dunyo, maishiy turmush kabi turli-tuman mavzularda o‘z fikrlarini goh oshkora, goh pinxona (ichki nutq, bilan) ifoda etadilar.

To‘g‘ri har qanday asarda ijodkorning nutqi kaitta salmoq va ahamiyat kasb etadi. Ammo voqealar jarayoniga personajlar kirib kelishi bilan, ularning rang-barang nutqi tufayli asarda mavjud hayot nafasi ufrgandek bo‘ladi.

“Qutlug‘ qon” romanida adib o‘z qahramonlari nutqini, ular saviyasiga, ijtimoiy guruhiiga mos holda xalq so‘zlashuv uslubida, bo‘yoqdor tarzda ifodalaydi, iboralar, maqol va matallar, hikmatli so‘zlardan (til lug‘at tarkibidagi tayyor leksik, frazeologik birliklardan), piching, uchiriq, qochirim so‘zlardan o‘rnini bilan foydalanadi, shuningdek, asarda ayrim konstruksiyalar borki, bularni ijodkor xalq tilidagiga o‘xhatib o‘z ijod laboratoriyasida kashf etadi.

“... Haligi gapimni sir deb bil! – davom etdi chol: - Paxta bozori misoli qaynab toshgan daryo Birdan o‘zini otish yaramaydi. Oldin daryoning chuqur, sayoz joylarini bilish kerak. Ko‘rib turibman: ko‘p odamlar bu daryoning ostida yer tishladi, ko‘plar girdohga yo‘liqib, cho‘p-xasday gir-gir aylanadi: qo‘lini cho‘zib, qutqar, deydi. qaysi mard ularni qutqaradi! Eh-he...”.

Mazkur parchada ijodkor paxta bozorini Mirzakarimboy tilidan qaynab toshib turgan daryoga o'xshatadi, *tashlash* so'zi o'mida ma'no ifodasi kuchli bo'lgan *otmoq* so'zidan foydalanadi (*otmoq* so'zi *tashlamoq* so'zining sinonimi bo'lib keladi), boy nutqida tayyor olinma – *yer tishlamoq* iborasi uchraydi.

"Dadangiz shu to 'g'rida shunday bir mulohaza yurgizdilar: o 'z qo 'limizda o 'sgan mo 'min-ma 'qul, sinashta qiz sirimizga oshna ... ammo, menimcha, ko 'z oldilarida olovday yonib turgan chiroyli qiz bo 'lsa kerak, ko 'ngil u qizga andak moyildek ko 'rinadi. Man shunday sezdim. Chiroyli qiz ko 'zning nuriga nur qo 'shadi ... Yormatning qizini dadangizga qo 'shsak, naq uzukka qo 'yilgan asl toshday o 'z joyiga tushadi".

Bu parchadagi “*qo 'lda o 'smoq*”, “*sinashta ...*” kabi birikma, so'zdan iborat ibora qo'llangan, shu bilan birga adibning “*olvday yonib turmoq*” frazeologizmi, “*chiroyli qiz ko 'zning nuriga nur qo 'shadi*” hikmatli iborasi ham mavjud. Xalq iborasini ijodiy o'zgartirish – “*uzukka qo 'yilgan asl toshday o 'z joyiga tushmoq*” (aslida *uzokka ko 'z qo 'ygandek*) ham uchraydi. Bular barchasi personaj nutqining jozibadorligi hamda “xususiy”ligini ta'minlaydi.

Endi Yormatning nutqiga e'tibor beraylik:

"Xotin kishida tovuqcha aql bo 'lmaydi, zarda qilmasdan iloji yo 'q, - qovoq 'ini solib, so 'zini davom ettirdi. Yormat, - ellikboshi mani chaqirib oldi ... U kishining so 'zlarini kitobda ham yo 'q, ... sizdek baxtli ota jahonda yo 'q, dedi. Xayron bo 'lamani. Og 'zim

qiyshayadi, ko 'zim jovidiraydi, dono odamga sadag'a bo 'lsang arziydi ... xo'jayin u kishini yoniga chaqiribdi, mani maqtapti, xullas, Yormat bir qizini mandan ayamasin, depti boy otam... ”.

Yormat nutqida ijodkor tomonidan xalq tili xazinasidagi maqol, iboralar ijodiy o'zlashtirilgan, bu shunchaki, oddiy o'zlashtirish emas, balki personaj – Yormat individual nutqini yaratishdir. qiyoslang:

"Xotin kishining aqli tovuqnikicha", Yormat nutqida – xotin kishida tovuqcha aql bo 'lmaydi, "tushingan odamning sadag'asi bo 'lsang arziydi – dono odamga sadag'a bo 'lsang arziydi".

Yormatning bu “xush xabari”ni eshitgan xotini – Gulsumning nutqi:

“- Boy qursin, uyat-andishani bilmaydimi? Qarib, miyasi aynagandir. Voy, uch kun ilgari evara ko 'rdiya! Imonsiz ketkur.. ”.

Mazkur parchadagi “boy qursin”, “imonsiz ketgur” – xalq so'zlashuv uslubiga xos qarg'ishlar bo'lsa, “qarib miyasi aynigandir”, “qarib quyulmagan” xalq iborasini ijodiy o'zlashmasi.

Quyidagi parcha Gulnor nutqidan olindi.

“- Oyijon, xudodan o 'limimni tilang, tezroq tilang!... ”.

Bu nutqdagi “oyijon” shevaga – Toshkent shevasiga xos.

Sevgan qizi vafot etganini eshitgan Yormat qiyonalishining guvohi bo‘lgan Yo‘lchi kampir onaning “*Nimaga tirjayasan bolam? Ayta qolsangchi. Ikki ko‘zim eshikda, ana kelar deyman – yo‘q, mana kelar, deyman – yo‘q...*” deb bezovtalanishiga javoban Yo‘lchi shunday deydi:

“- *Ona, - boshini ko‘tarmay, dedi Yo‘lchi, - man qamalishdan qo‘rqmayman, dordan ham, o‘qdan ham qo‘rqmayman. Turma! Bu dunyo turmadan yaxshimi? Olam zindondan qorong‘uroq, iflosroq emasmi?*”

Agar Mirzakarimboy va Yo‘lchining so‘zлari iqtisodiy, ijtimoiy muhit haqida bo‘lsa, qolgan to‘rt personaj – ellikboshi, Yormat, Gulsim, Gulnorlarning so‘zi bir masala bilan bog‘liqdir. Bu masala boyning Gulnorga o‘ylanishi xususida. Ular nutqidan har birining hayotdan olgan nasibasidan rozi yoki rizosiz ekanligi ayon ko‘rinadi. Kim nima qayg‘uda, deganlaridek, ellikboshi “dallolligi” uchun boydan oladiganini olgan, ko‘ngli to‘lgan bo‘lsa, Yormat bu xabardan xushini yo‘qotgan, boyga qaynata bo‘lishdek “baxt”dan mast aljiraydi, og‘zining tanabi qochgan, ko‘zлari esa bo‘lajak qaynotalik maqomini ko‘rayotgandek jovidiraydi. Maqsadini sezgan xotiniga jerkishdan nari o‘tmaydi. Mushtipar Gulsimning qo‘lidan boyni qarg‘ash keladi, xolos. Gulnor esa yolg‘iz o‘ziga o‘lim so‘raydi. Ko‘rinadiki, barcha nutqlar individuallashgan, uni o‘z egasidan boshqaning tilidan eshitish, mahol, chunki, nutq egalarining, tabiatи, saviyasi nutqi bilan omixtalashib ketgan, unda har birining taqdiri muhrlangan.

Adib personajlar nutqini tanlay bilgan, ularning har biriga xos va mos so‘z, iboralardan san’atkorona foydalangan, mustaqil inson taqdirini olib bergan, natijada asarning badiiy nafosati-yu, latofatini ta’minlaydi.

Takrorlash va mulohaza uchun savollar

1. Personaj nutqi ijodkorga nima uchun kerak?
2. Personaj nutqining xoslanganligi nimalarda ko‘rinadi?
3. Personaj nutqini shakllantirishda ijodkor qanday til unsurlaridan foydalanadi?
4. Nutq individualligi nima?

5-BOB

ADIBNING TILI, USLUBI VA TASVIR VOSITALARIDAN FOYDALANISH MAHORATI

1-§. Tasvir vositalarini qo'llash

- *Badiiy ijodda tasvir.*
- *Abdulla Qodiriy ijodida tasvir.*
- *Oybek badiiy tasvir ustasi.*
- *O'xshatish sermahsul tasvir vositasi.*

Ba'zi ijodkorlar o'z tasvirlarida o'xshatish, sifatlash kabi vositalardan unumli foydalansalar, ba'zilar qahramon obrazi yoki manzarani istiora (metafora) vositasida tasvirlaydilar. Ayni mana shunda ijodkorning tili va uslubi yarq etib ko'rindi.

Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" asarida o'xshatish usulidan mahorat bilan foydalanganadi.

- *Otabek endi tamom o'zini bosib, endigi yurak urishi faqat haligi farishta tomonga oshiqibgina edi.*

Bunda Kumush farishtaga o'xhatilmoqda.

- *Endi ko'rsam miltiqning o'qidek, pushti gulning to'qidek kelnim bor ekan*

Bunda Kumush o'qga, gulga o'xhatilgan.

- *O'g'lim bechora bo'zchining mokisidek qatnab tursa... Otabekning Marg'ilonga bot-bot qatnashi – harakati bo'zchi dastgohidagi moki harakatiga o'xhatilgan.*

- *Mening balo-qozodek yetib kelishim uchun xafa bo'lqandirsiz.*

Kumush o'zining Toshkentga kelishi Zaynab uchun ko'ngilsiz bo'lishiga shama qilib o'z kelishini balo-qazoning shiddatli harakatiga o'xhatmoqda.

- *To'g'ri aytasiz, - dedi Kumush, - bu kishi emas, men urishgan edim... Bu kishida sira gunoh yo'q va arazimizga bir to'ng'iz sababchi bo'lgan edi!*

Bu jumladagi *to'ng'iz so'zi* odam ma'no ifodasini beradi.

Abdulla Qodiriy istioraning bir ko'rinishi *disfemizmdan* foy-dalanib o'xhatish qilgan.

Oybek tasvirda ko'proq istiorani ma'qul ko'radi, shunga ko'ra uning uslubi o'ziga xoslik kasb etadi. Asli Oybek shoirona tabiat egasi, uning qalami avval she'riyatda charxlangan, balki shuning uchundir, uning istioralari qandaydir shoirona mohiyatga ega bo'ladi. Mana Oybek tasviridagi bog':

"Bog' go'zal. Unda quyosh va engil shamolning, gullar va maysalarning quvnoq o'yini kun bo'yi davom etadi, bog'ning har burchagida o'zga bir latofat; ariqlarda suv kumushlanadi, maysalardan tuzoq tutgan hovuz suv bilan emas, balki nur bilan to'lgan kabi jimir-jimir mavjulanadi. Bir yoqda mevali daraxtlar

tutash havo gulzori yasaydi. Bog'ning quyi tomonida bir chiziqda saf-saf tortgan baland, adl teraklar bo'lib, ular har vaqt mayin titraydi. qushlar kuylaydi, ariqlarda suvlar, daraxtlarda barglar kuylaydi”.

Garchi bu Oybekning nasrda yozgan asari bo'lsa-da, ammo u shoirona tabiat egasi bo'lgan ijodkorligi bois manzara tasvirini shoirona chizadi. Mabodo qahramonining kayfiyati yaxshi bo'lsa, u shunday zavq-shavq bilan manzara tasviriga kirishadiki, uning qalami uchidan xali hech bir ijodkorming hayoliga kelmagan o'xshatish, jonlantirishlar paydo bo'ladi. Yuqoridagi tasvirda quyosh, yengil shamol, gullar, maysalar o'ynaydi (jonlantirish), suv kumushlanadi (o'xshatish), havo gulzori (yangicha qo'llash), suvlar, barglar kuylaydi (personifikatsiya - jonlantirish), teraklar ... mayin titraydi (jonlantirish, o'xshatish). Yuqoridagi tasvirlar, faqat Oybekona ijodiyot – san'at namunasidir. Endi boshqa tasvirga e'tibor beraylik:

“...Bu yigitga so'z uqtirishdan foyda yo'qligini bildi-da, uning yoqasiga chang solib, keskin bir siltash bilan paxsa devorga urdi. Shu vaqtda Yo'lchining ko'kragiga qattiq va salmoqli musht tushdi. Yo'lchi ham Qora Ahmadning basharasiga, ko'ksiga, qorniga to'qmoqday mushti bilan to'xtovsiz tushira boshladi”

Bu parchada butunlay boshqa manzara tasvirlangan, o'ziga xos o'xshatishlar qilingan. Masalan, “yoqasiga chang solib”, “to'qmoqday mushti” o'xshatishlarida Yo'lchining Qora Ahmad-

ning yoqasidan ushlashi, burgutning o'ljasiga chang solishiga o'xshatilsa, "to'qmoqday mushti"da uning mushti to'qmoqqa o'xshatilmoxda. Bunda o'xshatishning ham leksik (to'qmoq), ham morfologik (-day) vositasidan foydalanilgan. Birinchi manzara tasvirida lirizm kuchli bo'lsa, ikkinchisida dramatizm kuchli. Bunda adibning sharoitni hisobga ola bilishi, sharoit bilan bog'liq holda o'z qahramonining ham ichki, ham tashqi qiyofasini yoritib berishi, tasvir va talqinda tilning yengilligi, aniq ravonligi yaqqol seziladi.

Takrorlash va mulohaza uchun savollar

1. Tasviriy – tasirchan vositalar haqida nima bilasiz?
2. A.Qodiriyning tasvir vositalaridan foydalanishini qanday baholaysiz?
3. Oybek badiiy tasvir ustasimi?
4. O'hshatish ham tasvir vositasimi?

2-§. Til va uslubning tasvirdagi ahamiyati

- *Badiiy asar tili.*
- *Adibning so'z qo'llash mahorati.*
- *Personajni so'zlatishda adib mahorati.*
- *Muallif uslubi va tahrir.*
- *G'ayri odatiy so'z qo'llash – adib ijod laboratoriyasini mahsuli.*

Hur bir ijodkorning asarlarida rang-barang obrazlar, o'xshatish, ushbchilar ma'lum darajada bo'ladi. Asar nasrdami, nazmdami, bundan qat'iy nazar, lirik chekinmalar, manzara, qiyofa tasviri jumug'ini, shodon holatlari, shunga mos tabiat ko'rinishlaridan xoli

bo‘lmaydi, bo‘lishi ham mumkin emas. Bularning barchasiga ijodkor til lug‘at boyligidagi so‘zlardan foydalanish, ularni uslubiy qo‘llash orqali erishadi.

Ma’lumki, ijodkorlar ayrim so‘zлarni takror-takror qo‘llaydilar. Masalan, Boburning bir ruboisida “ilm” so‘zi o‘ndan ortiq takrorlanadi. xuddi shundoq “yaxshilik” radifli g‘azalida ham “yaxshi” so‘zi ko‘p takrorlanadi. Bu bilan asarning badiiy qimmati zarracha pasaymaydi, balki bir so‘z tobora kuchli ma’no ifodasiga ega bo‘la boradi.

Oybekning “Qutlug‘ qon” romanida ham shunday holni ko‘rishimiz mumkin. *Olov* so‘zi ishtirok etgan quyidagi jumlalarga e’tibor qilaylik:

“Yo‘ichi quyoshning olov selida cho‘milib to‘nka kovlar...”, “Daraxtlarda engil olov pardasi titraydi”, “U ham yaqinda kichkina olovday bola edi”, “Bir xotin “Jon er, jon olov” degan ekan”, “Bu (gap veksel haqida bormoqda) zaharli nayzaday, balki undan ham o‘tkir narsa ... Bu olov, yondiradi, kuydiradi....”

Birinchi jumladagi *olov* seli “*quyosh nuri*” ma’no ifodasini, ikkinchi jumladagi *olov pardasi* “*ostob hovuri*” ma’no ifodasini, uchinchi jumladagi *olovday bola* birikmasi “*sho‘x bola*” ma’no ifodasini, to‘rtinchi jumlada *olov* o‘z denotativ ma’nosini ifodasini bergen, beshinchi jumlada *olov* veksel so‘ziga sinonim tarzda qo‘langan, aslida bu ikkisi leksik sinonim emas, bunda kontekstual sinonim hodisasi yuz bergen.

“Qutlug‘ qon” romanida adib Yo‘ichi tog‘asnikida kutib olgan birinchi oqshomini shunday tasvirlaydi:

"Quyosh yashiringan bo'lsa ham, kunduzning yorug'i hali tamom so'nmagan edi. Allaqanday mayin, muloyim jimjilikni atrofda sigir, buzoqlarning ma'rashi, daraxtlar orasidan qushlarning ora-sira yangrab, yana bir zumda tingan sayrashi seskantiradi. Hamma narsa horg'in, mudrashga boshlagan kabi ... Allaqanday payonsiz g'arib oqshom...".

Mazkur parchada "yashiringan", "so'nmagan", "muloyim, mayin jimjilik", "seskantiradi" "xorg'in, mudrash" kabi so'z va so'z birikmaları ijodkor tomonidan o'ziga xos uslubda foydalanilib, shunday manzara xosil qiladiki, u bosh qahramon Yo'lchining misoli umr oqshomiga o'xshaydi. Adib yuqorida biz qayd etgan so'zlarga olam-olam ma'no yuklaydi. Yo'lchi umrining tongi beg'ubor bolaligi, kunduzi, erkin, tashvishsiz yorug' qismi tugab, go'yo mavhumliklar to'la oqshomi boshlangandek. U bir parcha yeridan ajraladi, onasi, singlisi va o'zini boqish uchun hech vaqosiz qoladi, najod izlab tog'asinikiga keladi. Ammo ... uning quyoshi inana shu tog'asinikida (umrining oqshomida) so'nadigandek (uning quyoshi Gulnor edi). Agar bu bir tomonidan ayriliqdan darak bo'lsa, hali kunduzning yorug'ligi tamom so'nmagani qandaydir umiddan nishona edi. Hali tamom so'nmagan kunning yorug'ligi bulki uning Gulnorni uchratishi, zulm ila haqsizlikka to'la, har tomonidan zahar yog'ilib turganda baxt degan narsadan umidvor bo'lishlik tuyg'usimikan!? Hatto qushlarning yangroq sayrashi ham kishini havotirga soladi, ularning tuyqusdan jum bo'lib qolishi qandaydir mash'um intiho arafasidek tuyuladi. Yo'lchining baxt qushi – Gulnor ham avji sayroqlik pallasida to'satdan jum bo'lib

qoladigandek. Hamma narsaning horg‘inligi, mudrab ketayotgan, kechgacha to‘nka kavlagan (hayot zARBalaridan tinkasi qurigan) Yo‘lchining tiriklik, tiyrakligi tugab, hayot bilan vidolashish onlari, abadiy uyquga ketish oldidan mudroqligiga ishora emasmikan. Va, nihoyat, so‘nggi jumla “allaqanday poyonsiz g‘arib oqshom”. Yo‘lchi garchi o‘z tog‘asining xonadonida bo‘lsa ham negadir o‘zini begona yurtda, begona kishilar orasiga tushib qolgan musofir-g‘aribdek xis etadi. Chunki, u bu yerda o‘ziga bir jonkuyarni uchratmaydi (tog‘asi, tog‘avachchalari, Nurining unga qay ko‘z va qay maqsadda nazar solganlarini ko‘z oldingizga keltiring). O‘zini g‘aribdek sezgan Yo‘lchining tog‘asinikidagi g‘arib oqshomi qancha davom etar ekan? Ijodkor mavhumlik, oldidagi qorong‘ulik qachon, qanday tugashidan xabarsiz Yo‘lchining bu oqshomini “poyonsiz” ekaniga ishora qiladi, xatto, bu ikki so‘z orasiga tinish belgi ham qo‘ymaydi, bu bilan oqshomni ham poyonsiz, ham g‘arib emas, balki g‘aribligining poyoni yo‘qligini ta’kidlamoqchi bo‘ladi.

Tabiiyki, bor umidlari qirqilgan inson uchun o‘zlarining bu damlari hech tugamaydigandek tuyuladi. Ammo shunday paytlarda ham inson uchun qandaydir umid uchqunlari paydo bo‘ladi.

Yo‘lchi Mirzakarimboy tog‘asinikida qancha vaqt turgan bo‘lsa, umrining g‘arib oqshomi shuncha muddat davom etadi. Tog‘asinikiga kelishi, uning quyoshi botishi bo‘lsa, quyoshning hali so‘nmagan yog‘dusi, - umid uchqunlari Gulnorga bo‘lgan pokiza sevgisi edi. Ammo ufqqa bosh qo‘yan quyoshning botishi, kunduz o‘rnini zulmat egallashi qanchalar haqiqat bo‘lsa, Yo‘lchining ham bu g‘arib oqshomida Gulnorning zavol topishi ham shunchalar

haqiqat, chunki qora kuchlar, vaxshiy insonlar unga yashashlikka imkon bermaslari aniq. Biz bu parchada ijodkorning – Oybekning uslubi nafaqat individual hamda mantiqan teran, badiiyati yuksak ekanining guvohi bo‘lamiz. Birgina jumla “*Poyonsiz g‘arib oqshom*” zamirida qanchalar zargarona qiyos, qanchalar qalb kechinmasi, qanchalar mung, qanchalar ma’no!”

Takrorlash va mulohaza uchun savollar

1. Adib nutq tasirchanligiga qanday erisadi?
2. So‘zlarni takror qo‘llashda qanday ma’no bor?
3. Oybek uslubining o‘ziga xosligi nimada?

3-§. Adib uslubi

- *Individual uslub nima.*
- *So‘z qo‘llash mahorati.*
- *Nutq badiyati.*
- *Ijodkorning tili va uslubi*

Adib uslubining naqadar serjilo, serma’no hamda o‘xhashi yo‘q ekanligi quyidagi jumlalar – personajlar nutqidagi tasvir vositası – o‘xhatishlarda yaqqol ko‘rinadi:

1. “*Ro‘zg‘orni qo‘lingga olib bordonday semirib o‘tirmaysan-mi?* (*Kundoshlar suhbatidan*. Q.q., 107-bet).
2. “*O‘likni ko‘mib kelish qiyin emas, lekin yo‘g‘on chiqimlari keyin keladi, bilsanglar*” (*Shoqosimning xotini vafot etganini eshit-qandan keyin bildirilgan fikr*. Q.q., 49-bet).

3. “Enang besh-o ‘n tanga pul so ‘rab yubordi. Bo ‘lsa chiqarib ber, boyoqishlar chaynab tursin” (Yo‘lchining hamqishlog‘i o‘z yumushi bilan Toshkentga tushganda Yo‘lchiga aytgan so‘zidan. Q.q., 23-bet).
4. “Sichqon teshgan supradan un to ‘kilaveradi” (Mirzakrim-boyning gumashtasi tilidan. Q.q., 176-bet).
5. “Yo‘lchi otxonaga kirdi. Xashagi tugagan otlar oldingi oyoqlarini yerga urib, ta ‘ma bilan kishnadi” (Q.q., 23-bet.).
6. “... ichkarida, xotinlar orasida, ko‘pdan buyon gap-so‘z qaynaydi” (Q.q., 48-bet).
7. “Hamma xonalar va ayvonlardan hovli sahniga to ‘kildi”. (Q.q., 112-bet)
8. “Shokir otaning yuz burishiqlarida g‘am mavjlangan kabi tuyuladi” (Q.q., 139-bet.).
9. “Xasratini dutor va qo‘shiq bilan eritishga tirishar edi” (Q.q., 154-bet).
10. “Nuri eridan ko‘ngilsiz edi... erining qusurini o‘z hayolida g‘oyat qavartirib yubordi”. (Q.q., 146-bet.).

Birinchi jumladagi *bordon* so‘zi denotativ ma’nosи qamishdan qalin qilib to‘qilgan to‘shama ma’no ifodasini beradi. Bu o‘rinda betashvish, beg‘am va og‘ir mehnat qilmay semirib ketishlik nazarda tutilgan.

Ikkinci jumladagi *yo‘g‘on chiqim* birikmasidagi *yo‘g‘on* so‘zining denotativ ma’osi biror narsaning eni nisbatan xajmdor ekanligini anglatadi. Masalan, *yo‘g‘on daraxt*, *yo‘g‘on qalam*, va h. Bu o‘rinda esa *chiqim* – ot turkumidagi so‘z bilan birikmagan kirishib, ko‘chma ma’no ifodasini - *ko‘p ekanlikni* ifoda etgan.

Uchinchi jumladagi *chaynab turmoq* birikmasidagi *chaynamoq* so‘zi, odatda, jonivorlarga xos harakatni ifoda etadi, *kavshamoq* so‘ziga sinonim hisoblanadi. Mazkur holda esa insonlarga xos harakat – *yemoq* ma’no ifodasi implitsid ifodalangan. Har ikkala jumlada so‘zlarning ko‘chma ma’nosidan ijodkor ongli o‘xhatish yasagan.

To‘rtinchi jumlada *un* so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llangan bo‘lib, *ilojsizlik* ma’nosini implisit ifoda etilgan.

Beshinchi jumlada esa *ta ‘ma* so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llangan, uning denotativ ma’nosini – ochko‘zlik bilan me’yoridan ortiq so‘rash, tilash. Bu so‘zning denotativ ma’no ifodasi insonlarga xos xususiyat ma’no ifodasini bildiradi. Bu holda u jonivorga nisbatan qo‘llangan, insonga xos xususiyat, hislat jonivorga taqilgan, natijada otning egasidan emish kutayotgani implisit ifoda etilgan.

Oltinchi jumladagi *gap-so ‘z qaynaydi* birikmasidagi *qaynamoq* so‘zi suyuqliklarning issiqlik manbai ta’sirida muayyan holatga o‘tishi – *qizg‘inlikni* ifoda etadi. Bu misolda esa suyuqliklarga xos holat belgisi bilan insonlarga xos holat belgisi anglatilmoqda. Tabiiyki bunday o‘xhatishda suyuqliklarning, masalan, suvning qaynagandagi holati uning harakatga kelish, ovoz chiqarish, ya’ni *qaynamoq* so‘zining sememasini tashkil etuvchi semalari nazarda tutiladi. Shunga ko‘ra insonlarga xos holatlar, to‘xtovsiz harakatlanish, vag‘ir-vug‘ir ovoz chiqarish, ba’zi so‘zlar anglanib, bu’zilarini anglab bo‘lmas holatlar implisit ifoda etilgan.

Yettinchi jumladagi *to ‘kilmoq* so‘zining denotativ ma’nosini narsalar (qattiq, suyuq jismilar) ning yuqorida pastga tomon tabiiy yoki majburiy harakatlanib yer yuzasiga tushishi ma’no ifodasini

beradi. Bu misolda ana shu jismlargacha xos xususiyat insongacha xos xususiyatga qiyos etilgan – o‘xshatilgan, natijada insonlarning ayvondan hovliga tushishi *to‘kilmoq* fe’lida implisit ifodasini topgan. Bunda ijodkorona yana bir o‘xshatish mavjud, u ham bo‘lsa harakatlanuvchilar miqdori. Pastga – hovliga tushayotgan xotinlar miqdori ko‘pligi. Bu holatda ular mevali daraxtning mevasi xususan, pishib etilgan tutning duvillab *to‘kilishi* nazarda tutiladi.

Sakkizinchidagi misolda adib *mavjlanmoq* fe’lidan uslubiy foydalangan, uning denotativ ma’nosi biror manbadagi suvning engil shamol turganda yoki manba ohista qimirlayotganda sirt qismining chayqalishi ma’no ifodasini beradi. Shuningdek mazkur fe’ldan ijodkorlar quyosh nurining jilvalanishini ham ifoda etishda foydalanganlar. Oybek uni yuqoridagi misolda yangicha qo’llaydi. Avvalo Shokir otaning yuz tuzilishi tasviriga e’tibor beraylik. U ajin bosgan. Ammo buni adib o‘ziga xos tarzda tasvirlaydi. Ya’ni ajin emas, yuz burushiqlari. Bunda *ajin* so‘zi ma’nosi yuz burushishlari birikmasida eksplisit ifoda etilgan, ob’ekt salbiylici yanada kuchaytirilgan. *G’am mavjlanmoq* birikmasidagi *g’am* so‘zining denotator ma’nosi inson yuzida aks etayotgan ichki kechinma u uchun noxush, salbiy ekanligi ma’no ifodasini anglatadi, *mavjlanmoq* so‘zining denotativ ma’nosi esa aksincha ijobjiy holat, belgi ifodasini beradi, masalan, quvonch, sevinch mavjlanadi. Ammo bu o‘rinda adib *g’amni* mavjlanishga majbur etadi, ta’bir joiz bo‘lsa, “tesha tegmagan” o‘xshatish yasaydi. Boisi insonning ajin bosgan yuzi misoli jo‘yaklar olingan dala parchasiga o‘xshaydi, jo‘yaklar ham chiziq tortilgan ariqchalar-u, marzalardan tashkil topgani singari yuzdagagi ajin ham botiq-qabariq

chiziqlar kabitidir. Mana shu notekis yuzada g‘am ko‘lankasi botiq-qabariq o‘rinlarda turlicha ko‘rinadi, ana shu holatni Oybek mavjga qiyoslaydi va o‘ziga xos yangi usulda tasvir yaratadi.

To‘qqizinchi jumladagi *eritmoq* fe’lining denotativ ma’nosи qattiq jismlarni yoki qotib qolgan moddani yumshatmoq, suyultirmoq ma’nosи ifodasini beradi. Mazkur jumlada adib bu so‘zni hasrat so‘zi bilan birikmaga kirishtirib unga yangicha ma’no ifodasi bag‘ishlaydi. Aslida kishi ko‘nglidagi hasratini yozadi, tarqatadi. Oybekgacha ham bunday tasvirlar bo‘lgan, masalan xasratni quvmoq, to‘kib solmoq, xullas yurakni undan holi qilmoqlar uchraydi. Lekin xasratni eritish faqat Oybek ijod laboratoriyasining mahsuli. Chunki xasratni egasi undan butunlay qutila olmaydi, agar adib yuqoridagidek xasratni quvmoq, to‘kib solmoq, yozmoq, tarqatmoq, aritmoq kabi shaklda qo‘llaganda mantiqan noto‘g‘ri bo‘ladi. Chunki bunday holatda xasrat egasi undan butunlay qutilishi mumkin. Oybek ijodida xasrat egasi o‘zining yuragida qotib qolgan xasratini bir oz yumshatishi, unutishi mumkin, xolos, undan o‘la-o‘lguncha to‘la qutila olmaydi.

O‘ninchи jumladagi *qavarmoq*, fe’lining denotativ ma’nosи inson badani yoki kaftining yuzasi biror zarb ta’sirida bo‘rtib qolishi ifodasini beradi. Bu real ob‘ektga xos belgi, xususiyat. Adib o‘z ijodida mana shu real ob‘ektga xos belgi, xususiyatni mavhum oh‘ektga taqaydi, ya’ni inson tasavvuridagi fikrning me’yordan ortiq tarzda, sun’iy kuchayishini implisit ifodalaydi. Nuri o‘ziga ma’lum qusurlar – salbiy xususiyatlarga ega erini ana shunday xususiyatlardan holi inson – Yo‘Ichiga qiyoslar ekan, tabiiyki, unda eriga nisbatan nafrat oshib ketadi, natijada eriga xos qusurlar ham

kattalashgandek tuyuladi. Mana shu holatni Oybek zo'r badiiy did va o'ziga xos uslubda bayon etadi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, ijodkorning tili va uslubi oddiy xabar, kitobxon bilan personajlar o'rtasidagi kommunikatsiya tilidan butkul farqlanadi. U hamma bilgan, hamma eshitgan, hamma qo'llay oladigan tildan o'zining badiiy go'zalligi bilan tubdan farq qiladi.

Takrorlash va mulohaza uchun savollar

1. Matn tahlili nima?
2. Badiiy nutqda ko'chma ma'noli so'zlarning o'mi va ahamiyati qanday?
3. So'zning denotative va konatativ ma'nosini qanday tushunasiz?

Xulosa

Noshirlik ishi ijodiy-ishlab chiqarish faoliyati sifatida hamisha rivojlanish, takomillashishni boshdan kechiradi. Chunki fan va texnologiya muntazam rivojlanib borar ekan, albatta, nashr jaryoniga ta'sir etmay qolmaydi. Bunga kitobat ishi, nashr ishining uzoq tarixi yaqqol dalildir.

Biz darslikning birinchi qismida nashriyotlarning yaqin o'tmishdagi va bugungi kundagi holatiga to'htalib o'tdik.

Qo'lyozmaning vujudga kelishidan tortib, to kitob shaklini olib dunyo yuzini ko'rgunicha qanday jarayonlardan o'tishi, shuningdek, asosiy jarayonlarni yoritishga harakat qildik.

Tabiiyki, axborot ayrboshlash nihoyatda jadallahsgan bizning davrimizda noshirlik ishi bo'yicha ham ko'p islohotlar oldinda, nashrning har bir jarayoni shubhasiz, yangi texnika va texnologiyalar bilan yanada takomillashib, murakkablashib boradi. Shunga ko'ra ayrim jarayonlar qo'shilib ketsa, yangi alohida o'ziga hos jarayonlar yuzaga keladi. Bular barchasi faqat ta'limdagina emas, balki amaliy faoliyatda ham tinmay izlanish, tadqiq etishni taqozo etadi. Shu ma'noda mazkur darslik nashr jarayonining asosiy bosqichlarini o'rghanish borasidagi ilk urinish bo'ldi. Bundan buyon nashr jarayonining asosiy bosqichlarini tadqiq etuvchi, yuz berayotgan yangiliklarni o'zida aks ettiruvchi qator malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyalari va boshqa qator ishlar amalga oshadi degan umiddamiz.

Ijod laboratoriyasi deganda, tabiiyki, umumiy fikrlar aytildi. Lekin har qanday umumiylitka xususiylikdan borgan ma'qul ka'rinadi. Shu ma'noda biz ushbu qo'llanmada umuman ijod laboratoriyasi haqida fikr yuritgan holda uni ochib berish uchun xususiy ijod laboratoriyalari murojaat etdik, ya'ni fikr isboti uchun Oybek, Abdulla Qodiriy, ijodi laboratoriyasiga nazar tashladik. Aslida har bir ijodkor u xoh dongdor bo'lsin, xoh o'rtacha bo'lsin individual ijod olamiga ega bo'ladi va mana shu olamining kengligi, yuksakligi darajasiga ko'ra ijod sohasida o'z maqomiga ega bo'ladi, ya'ni uning ijodkorlik salohiyati belgilanadi. Oybek ham boshqa o'zbek ijodkorlari, xususan, Abdulla Qodiriy izidan borib, o'zbek romanchiligining rivojlanishiga ulkan xissa qo'sha olgan, o'zbek badiiy adabiyotini badiiy tasvir imkoniyatlaridan ijodiy foydalanib, uni yuqori kengliklarga olib chiqqan adibdir. G'afur G'ulom asosan poetik ijodkor esada prozada ham zabardast. Shular tufayli o'zbek adabiy tilining olmasdek yangi qirralari ochilib, jilolar rang-barangligi ortadi.

Hozirgi kunga kelib ijod laboratoriyasi janr jihatidan boy va uslublari ham rang-barang. Adabiyotimizning bugungi yuksak badiiy darjasini ijodning barcha sohasida, u badiiy ijod bo'ladimi yoki publisistik ijod bo'ladimi, yuksak saviyada bo'lishini ta'min etadi. Boisi Abdulla Qodiriyning romanlari, Cho'lponning "Kecha va kunduz", Oybekning "Qutlug' qon", "Navoiy" asarlari, G'afur G'ulomning "Shum bola" sining har biri alohida ijod laboratoriyasi sifatida tadqiq etishga loyiq. Mana shularni chuqur o'rghanib, so'ng ijod laboratoriyasi xususida so'z yuritish joizdir. Yuqoridagi adiblar har birining ijod laboratoriyasi misoli daryolardek bir dengizda

tutashadi. Bu dengiz esa o'zbek ijodchiligi dengizidir. Bu dengiz hamisha unga sho'ng'imoqchi bo'lgan g'avvoslarni o'z ajoyibotlari bilan lol qoldiradi. Ijodkor bo'laman degan inson borki, bu dengizdan – ijod laboratoriyasidan o'rganishi kerak. Ammo faqat o'rganibgina qolmay, uni o'z individual ijodiyotidagi yangi-yangi topilmalar bilan boyitishi ham farz, ham qarz hisoblanadi. Shunda ijodning manguga daxldor namunałari dunyoga keladi, kelgusi ijodkor avlod uchun ibrat bo'lib qoladi.

FANNI O'ZLASHTIRISHGA OID QO'SHIMCHA TOPSHIRIQLAR

1. Adabiy tahrir-mafkuraviy, ma'naviy-ma'rifiy, ijodiy-adabiy faoliyat shakli sifatida.
2. Adabiy tahrirning adabiy-ijodiy faoliyat jarayoniga daxldorligi.
3. Matn yaratish va uni mukammallashtirishda muharrir mas'uliyati.
4. Xattotlik va kitobat san'atining tarixiy takomillashuvi jarayonlari hamda adabiy tahrir an'analari.
5. Muharrir va muallif hamkorligi.
6. Qo'lyozmani baholash turlari va mezonlari.
7. «Taqriz yozish» tushunchasi va taqriz yozish tamoyillari.
8. Matn tushunchasi va uning tavsifi.
9. Matn turlari va ularning o'ziga xosligi.
10. Qo'lyozma matnnini tushunish, tahlil etish va takomillashtirish tamoyillari.
11. Muallif tahriri va muharrir tahriri. Ularning umumiy va farqli jihatlari.
12. Tahrir turlari, maqsadi va vazifalari.
13. Qo'lyozma matnnini o'qish va tuzatish bosqichlari.
14. Bayon turlari: tavsifi, tihlili, tahriri.
15. Rivoya (hikoya) va uning tahriri.
16. Tasvir va uning tahriri.
17. Mulohaza va uning tahriri.
18. Ta'rif va uning tahriri.
19. Matbuot matni tahriri va bayon turlari.
20. Matnni tuzatishning asosiy qoida va tamoyillari.

21. Tuzatish turlari: tavsifi, vazifalari.
22. Tuzatish belgilari va ulardan foydalanish yo'llari.
23. Tahriring mantiqiy mezonlari.
24. Matn tahriri usullari.
25. Matn tahririda dalillash, isbotlash jarayoni.
26. Qo'lyozma matnida uchraydigan mantiqiy-mazmuniy nuqsonlar va ularning tahlili hamda tahriri.
27. Matbuotda uchraydigan mantiqiy xatolar tahlili va tahriri.
28. Matn kompozitsiyasi va unga qo'yiladigan asosiy talablar.
29. Asar rejasи va kompozitsiyasi.
30. Matn janri va uning kompozitsion o'ziga xosligi.
31. Matn kompozitsiyasining janriy-uslubiy ko'rinishlari.
32. Matbuot va kitob matnlarini ruknlash.
33. Asos tushunchasi va ularning turlari.
34. Dalil-matn mazmunining asosi.
35. Matn asoslari va ma'lumotlarini tekshirish usullari va manbalari.
36. Sarlavha va uning tarkibiy qismi: turlari va vazifalari.
37. Gazeta matni sarlavhalari.
38. Sarlavha va matn munosabati.
39. Gazeta sarlavhalari majmuini tarkiblash va tartiblash tamo'yillari.
40. Sarlavhaning til, uslubiy xususiyatlari.
41. Sarlavha tanlashda asosiy nuqsonlar va ularning tahrir qilish qoidalari.
42. Matnni til va uslub jihatdan tahrir qilishning asosiy talablari.
43. Matndagi an'anaviy bo'lmagan qo'llash, konstruksiya,

majoziy, timsoliy ifodalarni baholash hamda tahrir qilish mezonlari.

44. So'z tanlash va qo'llash, jumla tuzish, matn yaratishda uchraydigan xato va nuqson turlari hamda ularning tahriri.

45. Matniy-mantiqiy izchillik, uni ta'minlash va takomillashtirish usullari.

46. Kitobat san'atida unyon va bildirgich apparati turlari, ularning tavsifi hamda tahriri.

47. Turli nashrlarning turlari va ularning tahriri.

48. Nashriyot va matbuot tahririning o'ziga xosliklari.

49. Ilmiy ommabop nashrlar tahriri tamoyillari.

50. Tahrirda muallif uslubini saqlash masalasi.

IZOHLI LUG'AT

Adabiy asarning muharrirlik tahlili – qiyoslash, tasniflash, qismlarga ajratish, umumlashtirish, hususiy lashtirish kabi ko‘plab amallarni o‘z ichiga olgan aqliy faoliyat. Muharrirlik tahlili bir-biri bilan bog‘liq uch vazifani – asarni tadqiq etish, baholash va muallifning amaliy tavsiyalarini yuzaga chiqarishni o‘z ichiga oladi.

Annotatsiya – kitobning mazmuni, maqsadi va kimlarga mo‘ljallanganligi haqida qisqacha ma'lumot. Annotatsiya odatda bosh varoqning orqa betiga joylashtiriladi. Qo‘lyozmalarda u alohida betda bo‘ladi.

Bosh varaq - titul varaq – kitobning ilk varagi. Unda muallifning ismi, familiyasi, otasining ismi(tahallusi) beriladi, kitobning to‘liq atalishi, nashriyot nomi, nashr yili va joyi ko‘rsatiladi.

Grafik materiallarni tayyorlash va joylashtirish – grafikaga oid barcha materiallar nihoyatda diqqat bilan tanlanadi. Har biri aniq va tushunarli bo‘lishi talab etiladi. Barcha tasvirlar matn bilan mantiqan uzviy bog‘liq bo‘lishi kerak. Grafikaviy materiallarning ikki asosiy turi bor: 1) chizilgan – chizma, shakl, grafika va hokazo; 2) oq-qora, rangli asl nusxa fotosurati, tasvirlar, grafika va boshqalar.

Ilovalar – asosiy matnning muayyan qismini qisqacha tushuntiruvchi yoki unga qilingan qisqacha qo‘sishimcha. Matnning mazmuni va shaklini sharh singari mufassal tushuntirish uchun xizmat qilmaydi.

Kitob rejasи - 1) muallif ijodiy ishining muvaffaqiyatini ta‘minlovchi asosiy omillardan biri. Unda kitobdagi barcha qismalarning batafsil ro‘yxati tadrijiy tartibda to‘g‘ri, sodda va tushunarli tarzda

berilgan bo‘ladi; 2) bo‘lajak kitobning o‘ziga hos to‘liq mundarijasi; 3) muallif ishini tashkillashtiruvchi, dasturulamal vazifasini o‘taydi; 4) kitob rejasи nashriyot uchun muallif salohiyatini belgilashga asos bo‘ladi.

Kitob nashri – noshirlik ishining bir qismi. Davriy bo‘limgan nashrlar chiqarish bilan bog‘liq barcha ishlarni o‘z ichiga oladi.

Ko‘chirib bosilgan qo‘lyozma ustida ishlash – tuzatishlar kiritib qayta bosilgan qo‘lyozma nusxasini asl nusxaga solishtirib o‘qish. Ko‘chirib bosilgan matnga kiritiladigan barcha tuzatishlar korrektura nusxadagidan farqli ravishda matn ichiga joylashtiriladi.

Matn unsurlari – ruknlar, ruknlarga havolalar, qisqartmalar, ta’kidlar, raqamlar, sanalar, fizik kattaqliklar va ularning birliklari, iqtiboslar, epigraf, bag‘ishlov, matnning murakkab va maxsus turлari, tasviriyl materiallar, nashr apparati va boshqalar. Bularni tayyorlash jarayoni nashrning muhim bosqichi hisoblanadi.

Muharrirlik kasbi – qadimiy kasblardan biri. Kishilar o‘z fikrini boshqalarga aniq etkazish, makon va zamonda saqlanishini ta’minlash maqsadida matn yaratish boshlanishi bilan bir vaqtda yuzaga kelgan. Kitobat davrida(faqat qo‘l mexnati bilan kitob yaratilgan) ayniqla bu kasbga alohida ehtiyoj tug‘iladi. Dastgohda kitob bosish boshlangach u eng muhim va mas’uliyatli kasbga aylandi. Biron-bir asarni nashrdan chiqarishlikni mazkur kasbsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Nashr jarayoni – nashriy asarni tayyorlash va e’lon qilish bo‘yicha bir-biri bilan uzviy bog‘liq ishlar amalga oshiriladigan bosqichlar majmui. Ular shartli ravishda tayyorgarlik, tahrir, ishlab chiqarish va yakunlovchi bosqichlar deb ataladi.

Nashrning bibliografik ko'rsatkichlari – asarning adabiy ma'lumotlari va olingan, ko'rib chiqilgan iqtiboslar, shuningdek, asar mavzuini chuqurroq o'rghanish uchun nashrga berilgan, uning asosiy matni bilan bog'liq adabiyotlar haqidagi ma'lumotlardan iborat unsurlar.

Noshirlik ishl – bosma asarlar: kitob, jurnal, gazeta, notalar, tasvir mahsulotlari, kalendarlar chiqarish bo'yicha nashriyotlar olib boradigan mujassama faoliyat.

Noshirlik madaniyati – ko'rsatkichlar tarkumi. Bular quyida-qilardan iborat: kitobxonning kitobdan eng samarali foydalanishini ta'minlash; muqbul xajm; izohli ma'lumotlar apparati; nashrning axboriyligini oshiruvchi omillar; oqilona, zamonaviy bezaklar; asarning mazmun, mundarijasiga mos shakl.

Qo'lyozmaning butligi – qo'lyozma asosiy matni, bosh(titul) vuruq, annotasiya, so'z boshi, shartli belgilar, indekslar, ilovalar, adabiyotlar ro'yxati(bibliografiya), mundarija, tasvirlar osti yozuvlari, nusxalar, ko'rsatkichlar bilan ta'minlangan bo'lsa, unda qo'lyozma to'la-to'kis hisoblanadi.

Qo'lyozma bilan nashriyot ishlarini bajarishda muallif ishtiroki – nashr jarayonining barcha bosqichida bajariladigan noshirlik ishlarida muallif faol ishtirok etadi. Uning ishtiroki qo'lyozmani tahrir uchun qabul qiluvchi, tahrir qiluvchi va bosishga tayyorlovchi muharrir vositasida va u bilan bevosita hamkorlik asosida amalgalashiriladi.

Qo'lyozmani bosishga tayyorlash – taqdim etilgan qo'lyozma bilan tanishib chiqiladi. Talab darajasida bo'lsa, muharrirga o'z xulosasini berish uchun topshiriladi. Taqrizlar, muharrir xulosasi ijobjiy bo'lsa, tahrirdan chiqariladi. Bosishga tayyorlangan qo'lyozma texnik muharrir ko'riganidan o'tadi. Nashr jarayonida barcha bosishga tayyorlash bosqichidan o'tgan qo'lyozma chop etish uchun topshiriladi.

Qo'lyozmani nashriyotga topshirish – muallif qo'lyozmani nashriyot bilan tuzgan shartnoma bo'yicha barcha shartlarga amal qilgan holda va kelishilgan muddatda topshiradi. Qo'lyozma muallif tomonidan imzolanadi. Agar asar jamoa tomonidan yaratilgan bo'lsa, hammualliflar imzolashi shart.

Qo'lyozmaning tili va uslubi ustida ishlash - muallifning so'zidan foydalanishi va matn bayoni uslubini asarning maqsad, vazifasi va u mo'ljallangan auditoriyaga mosligini ta'minlash. Bu bilan har bir so'z, termin, aytilmoqchi bo'lgan fikrlarni o'quvchi uchun ochiq-oydin va tushunarli bo'lishiga erishiladi.

Sahifalangan nusxani o'qish – nashriyot asl nusxasi sahifalangandan so'ng musahhih(imlochi), muharrir, texnik muharrir va muallif tomonidan o'qib chiqiladi. Ular barcha ishlarni bajargach bosishga ruxsat beriladi.

Tahrir ishi – mafkuraviy,adabiy-nashriy faoliyatning muhim sohasi. Noshirlik ishida e'lon qilinajak asarning faqat til va uslub jihatdangina emas, balki g'oyaviy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan qiyomiga etkazish jarayoni hisoblanadi.

Tahrir nazariyasi va amaliyoti – kitob yaratishning nazariy va amaliy jarayonlarini o'r ganuvchi fan. Tahrir uning ob'ekti hisoblanadi. Tahrir ishi faoliyat turi, muharrirning ijodiy mehnati

hisoblanadi. Muhammar bu faoliyat bilan bo'lajak bosma asarning qo'lyozmasini kitob shakliga keltirib, nashrdan chiqarishlikni muallif bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Shakl va mazmun uyg'unligi- adabiy asarni baholashning muhim mezoni. Bunga erishish har bir muallif va muhammaring eng mas'uliyatli ijodiy vazifasi sanaladi. Alisher Navoiy mazmun tan bo'lsa, shakl libosdir anga,-deb bejiz ta'kidlamagan. O'zining va o'zganing ijodiga yuksak iqtidor va talabchanlik bilan yondashuv shakl va mazmun uyg'unligini ta'minlovchi omildir.

Asar ibtidosi – asarning boshlanish nuqtasi, asar mazmun mohiyatini ifoda etuvchi to'liq matnning boshlanish qismi.

Asar intihosi – asarning xotimasi, asarning mazmun mohiyatini ifoda etuvchi matnning mantiqiy xulosasi.

Asar qatlamlari – muallif orzu-umidlarining asarda namoyon bo'lishi. Mas.: Oybekning "Qutlug' qon" romanida ikki qatlam mavjud. Birinchi qatlamni bosh qahramonlarning hayoti, o'yfikrlari, turmush tarzi tashkil etsa, ikkinchi qatlamni ijtimoiy muhit tashkil etadi.

Matn (mazmun, ar. - mundarija), 1) muallifning o'z so'zi; 2) yozilgan yoki bosilgan maqola, undagi chizmalar, tasvirlar, ilovalar va boshqalar bundan mustasno; 3) musiqa asari (opera, romans va hokazolar)ga tegishli so'z.

Monolog (yun. mono – bir, log - nutq) - 1) shaxsning o'ziga yoki tinglovchiga qaratilgan nutqi; 2) sahnadagi o'z-o'ziga qaratilgan nutq.

Motiv (lot.- harakatlantiraman)- rivoya va hikoya bayonining ma'noviy birligi. Hozirgi zamon abbiyotida syujet rivojining oddiy birliklari (tadrijiylik, voqeа, hodisani harakatlantiriuvchisi).

Ijodkor “men”i – asar ijobiy yoki salbiy qahramonlarida ijodkorga xos xususiyatlarning namoyon bo‘lishi.

Ijod erkinligi – insonning asosiy madaniy huquqlaridan biri, erkin bayon etishning bir turi; konstitutsiyalarda mustahkamlab qo‘yilganiga uncha ko‘p bo‘lgani yo‘q. Adabiy, badiiy, ilmiy, texnikaviy va boshqa tur ijod erkinligini, shuningdek, o‘qitish erkinligi (akademik erkinlik deb ataluvchi erkinlik)ni o‘z ichiga oladi.

Ijod, ijodiy faoliyat – qandaydir yangilikni yuzaga keltiruvchi, takrorlanmas, o‘ziga xos hamda ijtimoiy – tarixiy jihatdan noyob faoliyat. Ba’zi olimlarning nuqtai nazaricha ijod, fan, texnika, ishlab chiqarish, san’at yoki umuman kishilar hayot faoliyatining u yoki bu sohasidagi yangi axborotni jamlash.

Izohlash – hodisaning mohiyatini avval ma’lum bo‘Imagan tahlil yo‘li bilan nimanidir tushuntirish yoki talqin etish. Izoh gumanitar fanlarning usullaridan biri hisoblanadi, undan narsalarning mazmuni va mohiyatini bilish jaroyoniga, individual yondashishda foydalaniladi.

Ijod laboratoriysi – muayyan ijodchining ijodiy mahorati, biror asari yoki asarlarining tili va uslubi, ijodchining ijodchilik sohasidagi o‘rni.

Ichki nutq – monolog. Qahramonlarning ichki monologi, ular qiyofasininggina emas, balki ichki dunyosini ham tasvirlash imkonini beradi.

Muallif (ar. allafa- tuzmoq,) badiiy, ilmiy, tehnikaviy va boshqa asarlar (ixtiro, loyixa, kitob, hikoya va h.) yaratuvchi shaxs.

Muharrir (ar.tahrir so‘zidan – qutqaruvchi, ozod qiluvchi), 1) muayyan matn, qo‘lyozmaga ishlov beuvchi shaxs; 2) nashr (kitob, jurnal, gazeta, ensiklopediya va b.) ga rahbarlik qiluvchi; 3) nashrlar mazmunini tasdiqlovchi (bosh muharrir).

Nashr – nashr qilingan asar u mustaqil poligrafik bezakka ega, tahririy – nashr ishlovidan o‘tgan bo‘ladi, chiqarilishi va tarqatilish uchun mo‘ljallangan axborotdan iborat ma’lumot ham beriladi.

Personaj nutqi – asardagi personajlarning o‘ziga xos tarzda so‘zlashi. Har bir personajning o‘ziga xos, bilim, saviyasi, dunyoqarashi va ijtimoiy maqomiga mos tarzda so‘zlashi. Ijodkor bunday usuldan personajning tabiatini va kim ekanligini ko‘rsatish maqsadida foydalanadi.

Plagiat (lot. plagium – o‘g‘rilik, o‘g‘irlash) – begona ilmiy, adabiy yoki san’at asarining muallifligini ongli ravishda to‘lig‘icha yoki qisman o‘ziniki qilib olish.. O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi bo‘yicha fuqaroviylari – huquqiy va jinoiy javobgarlikka olib keladi. O‘ziga hammuallif qilib olishga majburlash ham plagiarism sifatida baholanadi.

Syujet (fr. aynan – asos, mohiyat) – hodisalarning bayoni, mavzuni ochib berish usuli.

Tasvir vositalari – biror narsa, voqealarning tasvirlashda qo‘llaniladigan leksik va grammatik unsurlar

Ta’rif (ar. kamyob) – notanish termin, so‘zning ma’nosini aniqlash. Bunga tanish va idrok etilgan termin (so‘zlar) yordamida, shuningdek, kontekstga boshqa so‘zlar kiritilib erishiladi. Bundan fashqari boshqa termin so‘zga tenglashtiriladi, chap tomonga aniqlashtiruvchi termin (so‘z), o‘ng tomonga aniqlashtiruvchi termin (so‘z) joylashtiriladi.

Fahlit (ar. hallala- ajratmoq, farqlamoq, aniqlamoq), 1) jurnalistikda – matnni unsurlarga ajratish; 2) sintez – unsurlarni bir butun qilib birlashtirish, yaxlit holatga keltirish; 3) umuman ilmiy tadqiqot birlashtiruvi sinonim; 4) rasmiy mantiqda – mulohazaning mantiqiy shakllari (tuzilishi)ni aniqlash.

Tahrir (ar. harrara- qutqarmoq, ozod qilmoq). 1) Qo'lyozmani tartibga keltirish, ishlab nashrga tayyorlash; 2) muayyan ishlov berilgan matnning o'zi; 3) bayon etilgan fikrning muayyan ifodasi, shakli.

Uslub – 1) muayyan qonuniyatlarga asoslangan usul, hayot va harakat tarzi. Shu ma'noda ijodiy uslublar haqida (Alisher Navoiy davri uslubi), madaniyat uslubi haqida, ayrim buyuk shaxslarning yashash uslubi haqida so'z boradi; 2) ijodchining individual ifodasi.

Xronika (yun. -vaqt), 1) tarix hodisalarini vaqtga ko'ra tadrijiy yozilishi; 2) adabiy janr – hikoya yoki dramatik asarda tarixiy muxim hodisalarning ular vaqtiga ko'ra ketma – ketlikda bayoni, shuningdek, xronik hikoya usulidan foydalanib, shaxsiy hayotni bayon etish.

Xulosa – mantiqda, mulohaza; uning davomida muayyan boshlang'ich mulohaza, aytilganlar, hukmlardan iborat oddiy mantiqiy yo'sin; oddiy hollarda xulosa ikki fikr va yakundan iborat bo'ladi.

Shark – 1) matnning talqini, uni tushuntiruvchi ilova; 2) biror narsa haqidagi mulohaza, tushuntiruvchi va tanqidiy fikrlar (ko'pligi- sharhlar).

Qiyofa tasviri – muayyan asardagi personajlar ob'ektiga ijodkorning sub'ektiv munosabatining aks etishi. Mazkur munosabatga ko'ra qahramonlar ijobiylari va salbiy tasvirga ega bo'ladi.

Qo'lyozma 1) keng ma'noda – qo'lda yoki texnika vositasida yozilgan matn; 2) yozma asar; 3) noshirlik ishida – nashriyotga topshirilgan muallif matni.

Adabiyot

1. Tohirov Z.T. Adabiy tahrir. Darslik. -T.:Tafakkur Bo'stoni 2012.-320 b.
2. Tohirov Z.T. Ijod laboratoriysi. O'quv qo'llanma. 2012. – 68 b.
3. Abduvaliyev A. Nurli manzil. -T.:O'zbekiston. 1995. –245 b.
4. Redaktirovanie otdeľnyx vidov literatury. Pod. red. N.M. Sikorskogo. Uchebnik dlya studentov vuzov, obuchayusheysya po spetsialnosti "Jurnalistika". – Moskva: Vyššaya shkola. 1973.–336 bet.
5. N.M.Sikorskiy. Teoriya i praktika redaktirovaniya. Uchebnik dlya vuzov po spetsialnosti "Jurnalistika". 2-e-izd.ispr.i dop.–Moskva: Vyššaya shkola. 1980. –328 b.
6. A.E. Milchin. Metodika redaktirovaniya teksta. – Moskva: Kniga, 1980. –320 b.
7. Spravochnaya kniga redaktora i korrektora. Redaksionno-tehnicheskoe oformleniya izdaniya/Sost.obsh.red A.E. Milchina, 2-e izd. Pererab.-Moskva: Kniga, 1985. -576 b
8. I.Ya.Danilov.Spravochnik avtora knigi. –Moskva: Kniga, 1985. –320 b.
9. A.N. Bezzubov. Vvedenie literaturnoe redaktirovanie. – Sankt- Peterburg: 1997. –540 b.
10. Tohirov Z.T. Спеціалізації нет, результат есть // Biznes – Vestnik Vostoka, 2009, 15 dekabr.
11. Nauka o knige.Tradiçii i innovacii. Materialy mejdunar. nauch. konf (Moskva, aprel 2009).
12. Slavyanskoe knigopечатание i kultura knigi. Materialy mejdunar. nauch. konf (Minsk, 16-18 sentyabrya 2009).

13. Tohirova Z.T. Kitob muharirini // O'zbekiston matbuoti, 2010. 4-son.- 50-51-b.
14. Tohirova Z.T., Mirzaeva N. Tilga e'tibor – elga e'tibor // O'zbekiston matbuoti, 2010. 1-son. – 28-29-b.
15. Knijnaya kultura: orylt proshlogo i problemi sovremennosti. Materialy V mejdunar. nauch. konf (Moskva, oktabr, 2011).
16. Nauchnaya kniga i problemi knijnoy kultury na prostanstve SNG. Materialy mejdunar. nauch. konf (Moskva, 25-26 oktabrya, 2012).
17. Oybek. Asarlari (19 jildli), 16-jild. (A.Qodiriyning ijodiy yo'li), - T.: G'afur G'ulom, 1979. -84 b.
18. Qodiri H. Otam haqida. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. -224 b.
19. Qo'shjonov M. O'zbekning o'zligi. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. -196 b.
20. Normatov U.“O'tgan kunlar” hayrati, -T.: O'qituvchi, 1996. -80 b.
21. Qahhorova K. “Chorak asr hamnafas”. – T.: G'afur G'ulom, 1988. -120 b.
22. Qo'shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. – T.: G'afur G'ulom, 1998. -231 b.
23. Sharafiddinov O. Sardaftar sahifalari. – T.: Yozuvchi, 1999. -224 b.
24. Tohirova Z.T. OAV reklamalari uslubiyati nazariyasi va amaliyoti. –T.: Universitet, 2006. -48 b.

Noshirlik sohasidagi asosiy lavozimlar

- Badiiy muharrir
Bosh muharrir
Bosh muharrir o'rribosari
Bosh rassom
Dizayner rassom
Direktor
Direktoring noshirlik faoliyati bo'yicha o'rribosari
Yetakchi musahhih
Yetakchi muharrir
Kichik muharrir
Marketing va savdo bo'limi boshlig'i
Marketing va sotuv bo'yicha yetakchi mutaxassis
Marketing va sotuv bo'yicha menejer
Muharrir
Nashriyot ishlari bo'yicha yetakchi buxgalter
Nashriyot musahhihi
Noshirlik faoliyati bo'yicha iqtisodchi
Rassom
Tahririyat mudiri
Texnik muharrir
Potomuxbir

Matbaa sohasidagi asosiy lavozimlar

Direktor

Direktoring ishlab chiqarish bo'yicha o'rinnbosari

Dispatcher-texnolog

Yelim qaynatuvchi

Yelimlash mashinasi mashinisti

Integral muqova tayyorlash uskunasi mashinisti

Ishlab chiqarish-texnologiya bo'limi boshlig'i

Qabul qiluvchi-jo'natuvchi

Qabul qiluvchi-tarqatuvchi

Karton kesish mashinasi mashinisti

Kesish mashinalari mashinisti

Kimyogar-texnolog

Kimyo-texnologiya laboratoriysi boshlig'i

Kitob tayyorlash liniyalari mashinisti

Qog'oz bo'yicha texnolog

Qog'oz tayyorlash uchaskasi brigadiri

Qog'oz chiqindilari (makalatura) presslovchi, qolip butlovchi,

Kompressor qurilma mashinisti

Qolip tayyorlash mashinasi mashinisti

Quyish-tikish-kesish agregat mashinisti

Qo'lda harf teruvchi

Laminatsiya dastgohi operatori

Matbaa mashinalari va agregatlarida qaabul qiluvchi

Matbaa uskunalari sozlovchisi

Montajchi

Muqovalovchi

Muhandis-texnolog

Nazorat-ma'lumotnomma xizmati operatori

Nazoratchi

Nazoratchi-hisobchi

Narx-navoni shakllantirish bo'limi boshlig'i

Narx-navoni shakllantirish bo'limi boshlig'i o'rinnbosari

Nuryadchi

Plyonkani presslash uskunasi mashinisti

Raqamlash mashinasi operatori

Raqamli chop etish uskunalari operatori-rizografda tekis bosma
umulida chop etuvchi

Risola muqolovchisi

Sutr quyuvchi harf terish mashinalarida harf teruvchi

Sovitish qurilmalari mashinisti

Tahlovchi-qadoqlovchi

Ta'mirlash-mexanika uchaskasi brigadiri

Termik (qizdirish yo'li bilan) muqovalash operatori

Texnolog

Tikish mashinasi va avtomatlari mashinisti

Tikmasdan mustahkamlash agregati mashinisti

Charxlovchi

Chop etish qoliplari vulkanizatori

Chop etuvchi-bosma naqshlovchi

**Chuqur bosma qoliplar tayyorlash bo'yicha elektron o'ymakorlik
avtomatlari operatori**

Chuqur bosma usulida chop etuvchi

**Shamollatish va kondensioner tizimini ta'mirlovchi va ularga
xizmat ko'rsatuvchi chilangar**

Elektron montaj operatori

Elektron rang ajratish va fotoqoliplar tayyorlash operatori

**Elektron rang ajratish va yassi (ofset) bosma usuli uchun bosma
qolip tayyorlash uskunaları operatori**

Elektron sahifalash operatori

Elektron uskunalar sozlovchisi

Yupqa bosma usulda chop etuvchi

Yarimtayyor va tayyor mahsulotlar nazoratchisi

Yassi (offset) bosma usulida chop etuvchi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I QISM. NOSHIRLIK ISHI.....,	7
1-BOB. NASHRIYOTLAR VA NOSHIRLIK MUASSASALARI, NASHR TURLARI.....	7
2-BOB. NASHR JARAYONIGA TAYYORGARLIK BOSQICHI.....	15
<i>1-§ Mavzular bo 'yicha reja.....</i>	<i>15</i>
<i>2-§ Mavzuli reja tuzishda muharrirning ishtiroki.....</i>	<i>17</i>
<i>3-§ Nashriyot va muallif munosabati.....</i>	<i>24</i>
<i>4-§ Muharrirning asar tarxi (rejası) ustida ishlashi.....</i>	<i>27</i>
<i>5-§ Muallifning qo 'lyozma ustida ishlashi.....</i>	<i>33</i>
3-BOB. NASHR JARAYONINING TAHRIR BOSQICHI.....	40
<i>1-§. Muallifdan qo 'lyozmani qabul qilish.....</i>	<i>40</i>
<i>2-§. Qo 'lyozmani baholash.....</i>	<i>61</i>
<i>3-§. Nashr etish uchun qabul qilingan qo 'lyozma tahriri.....</i>	<i>103</i>
4-BOB. NASHR JARAYONINING ISHLAB CHIQARISH BOSQICHI.....	115
<i>1-§ Nashriyotning asl nusxasini tayyorlash.....</i>	<i>115</i>
<i>2-§. Korrektura nusxani o 'qishda muharrir ishtiroki.....</i>	<i>122</i>
<i>3-§. Muharrirning nishona nusxa ustida ishlashi.....</i>	<i>127</i>
<i>4-§. Muharrir va ishlab chiqarish bo 'limi.....</i>	<i>128</i>
5-BOB. NOSHIRLIK JARAYONINING YAKUNLOVCHI BOSQICHI.....	134
<i>1-§. Kitob tarqatish ishining umumiyl masalalari.....</i>	<i>134</i>
<i>2-§. Kitobxonlar talabi va nashriyotda uni o 'rganish.....</i>	<i>137</i>

<i>3-§. Kitobni reklama (targ 'ib) qilishning ahamiyati va bunda muharrirning o'rni.....</i>	142
II QISM. IJOD LABORATORIYASI.....	145
1-BOB. ASAR ARXITEKTONIKASI.....	145
<i>1-§. Asar kompozitsiyasini tanlash.....</i>	145
<i>2-§. Asos materiallardan foydalanish.....</i>	159
<i>3-§. Asar ibtidosi va intihosi.....</i>	161
2-BOB. IJOD BULOG'INING OCHILISHI.....	165
<i>1-§. Mayzu tanlash mahorati.....</i>	165
<i>2-§. Turtu manzuralari.....</i>	166
<i>3-§. Asarda tiftmoiy qatlamlar.....</i>	168
<i>4-§. Asar bosh qahramonida adib o'zligining namoyon bo'ltxht.....</i>	174
<i>5-§. Ifobty qahramonlar toblangan o't.....</i>	176
3-BOB. NARSA, VOQEVA VA HODISALAR TASVIRI....	181
<i>1-§. Udam, urf odat, etnografik ko'rinish va an'analar tasviri.....</i>	181
<i>2-§. Manzara tasviri.....</i>	185
<i>3-§. Asosiy bo'lмаган personajlar tasviri.....</i>	191
<i>4-§. Badiiy tasvir usuli.....</i>	195
<i>5-§. Qiyosa tasviri.....</i>	198
4-BOB. BAYONDA INDIVIDUALLIK.....	204
<i>1-§. Hikoya ichida hikoya.....</i>	204
<i>2-§. Ichki nutq.....</i>	212
<i>3-§. Til ostida til.....</i>	218
<i>4-§. Personaj nutqi.....</i>	223

5-BOB. ADIBNING TILI, USLUBI VA TASVIR	
VOSITALARIDAN FOYDALANISH MAHORATI.....	234
1-§. <i>Tasvir vositalarini qo'lllash.....</i>	234
2-§. <i>Til va uslubning tasvirdagi ahamiyati.....</i>	237
3-§. <i>Adib uslubi.....</i>	241
<i>Xulosa.....</i>	247
<i>Fanni o'zlashtirishga oid qo'shimcha topshiriqlar.....</i>	250
<i>Izohli lug'at.....</i>	253
<i>Adabiyot.....</i>	261
ILOVA.....	263

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Z.T. TAXIROV

NASHR JARAYONI ASOSIY BOSQICHLARI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan SA 220104 – "Noshirlik ishi va muharrirlik" ixtisosligi
magistrantlari uchun darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan*

Z.T. TAXIROV

**NASHR JARAYONI
ASOSIY BOSQICHLARI**

**«Tafakkur Bo'stoni»
Toshkent – 2015**

Muharrir	<i>S. Niyozova</i>
Musahbih	<i>M. Tohirova</i>
Sahifalovchi	<i>U. Vaxidov</i>
Dizayner	<i>D. O'rinoval</i>

*Ushbu darslik "Ilim Ziyo nashriyot uyi" MChJ buyurtmasiga
asosan nashr etildi*

Litsenziya AI № 190, 10.05.2011y

Bosishga 2015 yil 5 oktabrda ruxsat etildi. Bichimi 60x84¹/₁₆. Offset qog'ozsi.
Times New Roman garniturasi. Shartli bosma tabog'i. 17,0. Nashr tabog'i 17,4.
Shartnoma № 31/17. Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 35/17.

«Tafakkur Bo'stoni» nashriyoti. Toshkent sh., Yunusobod, 9-mavze, 13-uy
Telefon: (+99893) 589-05-78. E-mail: tafakkur0880@mail.ru

«Tafakkur Bo'stoni» nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh., Chilonzor ko'chasi, 1 uy.